

004  
Q 19



B. I. GANIYEVA

# JAHON AXBOROT RESURSLARI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**B.I. GANIYEVA**

# **JAHON AXBOROT RESURSLARI**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan.

5A350602-Elektron kutubxona va arxivlar magistratura mutaxassisligi  
talabalari uchun mo‘ljallangan

**Toshkent – 2021**

**UO‘K: 004.738.5:070(100)(075)**

**KBK: 32.973+37.89**

**B. I.Ganieva. Jahon axborot resurslari. (Darslik). – T.: «Nihol print» OK, 2021. – 200 b.**

**ISBN 978–9943–7342-3-4**

Mazkur darslik Jahon axborot resurslari fanidan ma’ruza, amaliy mashg’ulotlari uchun materiallarni, shuningdek, mustaqil mashg’ulotlarni tashkil etish borasidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Darslik jahonning yetakchi nashriyotlari va ular tomonidan chop etilayotgan ilmiy-ta’limiy resurslarning axborot kutubxona muassasalarida qo‘llanilishi, jumladan, elektron ilmiy-ta’limiy resurslar xaqidagi ma’lumotlar, ulardan foydalanishning texnologik va tashkiliy jihatlaridan tortib, to‘plash, tarqatishning huquqiy masalalari, ularning qidiruv tizimlari borasidagi qimmatli ma’lumotlarni mujassamlashtirib, 5A350602-Elektron kutubxona va arxivlar magistratura mutaxassisligi talabalari uchun mo‘ljallangan. Shu bilan bir qatorda darslikdan, axborot kutubxona sohasi mutaxassislari, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi barcha soha xodimlari, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar ham o‘z faoliyatlarida qo‘llashlari mumkin.

**UO‘K: 004.738.5:070(100)(075)**

**KBK: 32.973+37.89**

#### **Taqrizchilar:**

**M.A.Raxmatullayev** – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, Axborot kutubxona tizimlari kafedrasida professori, texnika fanlari doktori;

**A.M.Xundibaev** – Kompyuter-Osiyo ilmiy-texnika parki direktori, texnika fanlari nomzodi.

**ISBN 978–9943–7342-3-4**

**© «Nihol print» OK nashriyoti, 2021.**

## KIRISH

Ilmiy ta'limiy axborotlarni yangi manbaalarini mavjudligi, jahonning etakchi nashriyotlari taqdim etadigan axborot resurslaridan foydalanishga imkon yaratilganligi ta'limning va bu orqali jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Dunyoning etakchi mamlakatlarining jahon axborot manbaalaridan foydalanishga bo'lgan imkoniyatning yaratilishi, o'quv materiallarini sifatini bir necha bor ortishiga, shuningdek, olingan bilimlarni ilmiy va kasbiy faoliyatda qo'llashga imkon yaratadi.

Yetakchi mamlakatlarda chop etilgan, o'zida ilg'or, yangi manbalarni mujassamlashtirgan elektron ta'limiy resurslardan foydalanish o'quv faoliyatda, talabalar, professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va mustaqil tadqiqotchilarning ilmiy faoliyatlarida muhim o'rin tutadi. Ilmiy maqolalar yozish, bitiruv ishlarini tayyorlash, dissertatsiya ishlarini bajarishda ilmiy sohadagi yutuqlar va jahon resurslari bo'yicha analitik tahlillarni amalga oshirish ilmiy faoliyat jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Bu jarayonda jahon ilmiy-ta'limiy resurslarini o'rganish va foydalanish samaradorligining bir qator muhim jihatlarni ko'rsatish mumkin:

- ✓ jahon ilmiy-ta'limiy resurslarning tezkor navigatsiyasi;
- ✓ ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar uchun ilmiy risolalarni yozishda hamda yuqori reytingga ega bo'lgan jurnallarda nashr ettirish faoliyatlarida ko'mak berish;
- ✓ o'qituvchilarga ta'lim berish sifatini oshirish hamda talabalarga ta'lim olishlarida zamonaviy bilimlarni ilg'or jahon tajribalari asosida yordam berish;
- ✓ kutubxona xodimlari, kitobxonlar, foydalanuvchilar uchun zarur ilmiy adabiyotlarni qidirishda vaqtlarini maksimal darajada tejash;
- ✓ kutubxona javonlarini obuna resurslari bilan jismoniy to'ldirishni kamaytirish;
- ✓ jahonning yetakchi mutaxassislarining tahriridan o'tgan sifatli elektron ta'limiy resurslardan (kitob, jurnal, va h.k.), foydalanish;
- ✓ respublikada ilmiy jurnallar, tashkilotlar, olimlarning reytingini oshirishda ilmmetrik tadqiqotlarni rivojlantirish.

Mazkur darslik Elektron kutubxona va arxivlar mutaxassisligi talabalari uchun o'quv rejaga kiritilgan Jahon axborot resurslari fani uchun yaratilib, mutaxassislarga elektron kutubxona bazalaridagi dunyoning yetakchi nashriyotlari, konsorsumlari, shuningdek, O'zbekistonning barcha o'quv va ilmiy muassasalarining ta'limga oid

axborot resurslari haqida ma'lumot berib, mazkur resurslarni izlash, ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma beradi.

Darslikni yaratishda jahonning yetakchi nashriyotlari Springer, EBSCO Information Services, Oxford University Press, Emerald ProQuest, Elsevir hamda eIFL xalqaro konsorsiumi materiallaridan, «Axborot-kutubxona tizimlari» kafedrasini tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari, Web of Science, Scopus analitik ma'lumot bazalari litsenziya axborot materiallaridan foydalanilgan.

# 1. AXBOROT RESURSLARINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

## 1.1. Axborot resurslari va axborot kutubxona resurslarining asosiy tushunchalari

Jahon axborot resurslari (JAR) tushunchasi mohiyatini anglash uchun mavjud qonun va standartlar asosida asosiy tushunchalar mazmuniga aniqlik kiritish darkor.

«Axborot resurslari», «axborot-kutubxona resurslari», «axborot ilmiy-ta'limiy resurslar» kabi tushunchalarni farqlash lozim. *Axborot resurslari* - matn ko'rinishidagi materiallar, ovozli yozuvlar va tasvirlardir. Bu umumiy tushuncha bo'lib, resurs axborotdan yaratiladi, lekin uning aniq bir shaklini anglatmaydi. Bu shunchaki tartibsiz ko'rinishdagi, turli xil formatdagi hujjatlarning to'plami, ya'ni ma'lumotlar massivi bo'lishi mumkin. *Axborot-kutubxona resursi*<sup>1</sup> - moddiy ob'ektda matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot. Bu yerda «identifikatsiyalash uchun rekvizitlar» tushunchasi muhim o'rin tutadi, chunki, mazkur ko'rsatkichlar asosida hujjatni topish (identifikatsiyalash) mumkin. Rekvizitlar qat'iy qoidalar va kutubxonachilik standartlari asosida qo'yiladi. Bu an'anaviy hamda elektron, virtual kutubxonalaridagi ma'lumotlar qidiruv jarayonini shakllantirishda muhim jihatdir.

*Ilmiy-ta'limiy axborot resurslari*<sup>2</sup> – litsenziyalangan va taqrizdan o'tgan ilmiy-ta'limiy axborotlar (jurnallar, maqola, kitoblar, multimedia va boshqalar). Ilmiy-ta'limiy axborot resurslari muhim qiymatga ega bo'lgan intellektual manbadir. Odatda har bir hujjat ma'lumotlar bazasi, jurnal, tegishli to'plamlarga kiritilishidan avval yetakchi olimlar, mutaxassislar tomonidan saralashdan o'tadi. Bu hujjatlar tizimlashtiriladi, kataloglashtiriladi va operativ foydalanishni ta'minlash maqsadida ilmiy-ta'limiy axborotlarning ma'lumot bazalariga joylashtiriladi. Asosiy foydalanuvchilarini ilmiy xodimlar, o'qituvchilar, magistrlar va talabalar tashkil etadi.

Jahon axborot resurslari – dunyoning yetakchi nashriyotlarining axborot resurslaridir. Bu axborot qidiruv tizimiga ega jamiyat tomonidan tan olingan tizimlashtirilgan va tuzilmalashgan ilmiy-ta'limiy resurslarning ma'lumot bazalaridir. Jahon axborot resurslari ro'yxatiga

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Axborot-kutubxona faoliyati tug'risida // Xalq so'zi.- 2011.-14 apr.

<sup>2</sup> Raxmatullayev M. Ganiyeva B. Jahon axborot resurslari.-T.: Aloqachi, 2019.- B.5-6

yuqori impakt faktorli jurnallar, eng ko‘p iqtibos keltirilgan ilmiy monografiyalar, darsliklar, maqolalar va boshqa resurslar kiradi.

*Erkin foydalanish (Open Access)* – kitobxonlarga internet orqali bepul foydalanish, o‘qish, yuklab olish, nus’ha ko‘chirish, tarqatish va chop etish, qidirish, indekslash, ma’lumot sifatida uzatish, yoki qonun doirasida boshqa maqsadlarda moliyaviy va texnik to‘siqlarsiz muallifga iqtibos keltirgan xolda foydalanishdir. «Erkin foydalanish»dagi jurnallar doimo bepul bo‘lmasligi mumkin. Ular muallif gonorarlarini to‘lash uchun, jurnalni o‘z vazifalarini bajarish uchun qo‘llash maqsadida narh ham o‘rnatishlari mumkin, lekin erkin foydalanishda bo‘lib, kitobxonlar, foydalanuvchilar uchun ochiqdir. Foydalanish uchun biror bir to‘lov talab etadigan jurnallarni ba’zan «gibrid foydalanishli» jurnallar deb ham ataydilar.

*Ma’lumot bazalari (data base)* – tasvirlash, saqlashning alohida qoidalar asosida tashkil etilgan amaliy dasturlar asosida tuzilgan ma’lumotlar yig‘indisidir. Ma’lum bir qoidalar asosida tashkil qilingan, umumiy tavsif, saqlash va o‘zgartirish tamoyillari nazarda tutilgan ma’lum bir soha bo‘yicha (ilmiy-ta’limiy, iqtisod) ma’lumotlar majmui. Bizning holatda bu ilmiy jurnallar, kitoblar, hisobot va shu kabilarni ma’lumot bazalaridir. Ma’lumotlar bazasiga murojat qilish ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi orqali amalga oshiriladi.

*Plagiat (Plagiarism)*<sup>3</sup> – o‘zga muallif asarini atayin havolalarsiz, muallifga iqtiboslikni ko‘rsatmasdan shaxsiy asar sifatida ko‘rsatishga urinish. Plagiat – bu nusxa ko‘chirishning bir turi bo‘lib, lekin albatta mualliflik xuquqini buzilishi hisoblanadi. O‘z faoliyatida (ilmiy maqola, kitob, hisobot, ma’ruzalarni yozishda) axborot resurslaridan foydalanish jarayonida mualliflik xuquqlariga qat’iy rioya qilish lozim. Hujjatni yaratishda foydalanilgan manbalarga albatta havolalar keltirish lozim. Plagiarizmni tushunish yangi axborot resurslarini, ayniqsa ilmiy-axborot resurslarini yaratishda muhim hisoblanadi. Mualliflik xuquqlari har bir mamlakatda mualliflik va turdosh xuquqlari to‘risidagi tegishli qonunlar bilan muhofaza qilinadi.

Ilmiy-axborot resurslari manbalarini o‘rganishda turli axborot yetkazuvchilarning mavjudligini bilish zarur:

*Nashriyot* - tashkilot (davlat, jamoat, kooperativ yoki xususiy), adabiyot, san’at, musiqa yoki fan sohasida faoliyat yuritib, mahsulotlarni

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida. 2006 yil 20 iyul, O‘RQ-42-son//<https://lex.uz/docs/1022944>

yaratishi, ko'paytirishi, tarqatishi mumkin bo'lgan media-kompaniya. Nashr (mahsulot) bosma hamda elektron (raqamli) ko'rinishda bo'lishi mumkin. Nashriyot mahsulotini tarqatish savdo kanallari, Internet orqali hamda bevosita noshir tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Tarqatish nashriyotning maqsadlari va biznes modeli asosida pullik va bepul bo'lishi mumkin.

*Analitik ma'lumot bazalarini yaratuvchi kompaniyalar* – bunday tashkilotlar resurslarni qo'llanilishi, u yoki bu manbaalarga murojatlar bo'yicha, mualliflarga murojatlar, ularning iqtibosligi va boshqa shu kabi parametrlar bo'yicha tahlillar olib boradi. Bunday analitik vositalar va ma'lumot bazalari bilim manbalari va axborot yaratuvchilarini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Analitik ma'lumot bazalari va ular bilan ishlash borasida instrument yaratuvchilardan eng taniqli kompaniyalar bu Clarivate Analytics, Thomson Reuters va Scopus kabi kompaniyalardir.

Analitik ma'lumot bazalari (yoki analitik axborot tizimi) oddiy ilmiy axborot resurslari ma'lumot bazalaridan farqli o'laroq manbalarning (jurnal, maqola, kitob va boshqalar) o'zidan iqtiboslik borasidagi qimmatli analitik axborotni o'z ichiga oladi, shuningdek, maxsus qidiruv tizimiga ega bo'lib, impakt faktor, indeks Xirsha kriteriyalari bo'yicha muallif va tashkilotlar reytingini shakllantiradi.

Bunday axborot tizimlari muhim analitik funksiyalarni bajaradi, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- U yoki bu ilmiy manbalar (jurnallar, kitoblar, hisobotlar va boshqalar) yuqori qiymatga ega, ko'p murojaat qilinadigan, iqtibosligi yuqori manbaalarni ajratib ko'rsatadi;
- Ilmiy nashrlar o'zlarining ilmiy jurnallari sifatini oshirishga, kuchli mualliflarni jalb qilish orqali, bunday ma'lumot bazalari ro'yxatiga tushishga intiladilar;
- Yosh tadqiqotchilar o'zining sohasida yetakchi bo'lgan, ro'yxatlardagi ilmiy maslahatchilarni (supervayzerlar) topishi ancha mushkul;
- Tadqiqotchilar ilmiy ishlar va jahon miqyosidagi ilmiy yangiliklarning rivojlanish tendensiyalarini kuzatish imkonini berib ilmiy izlanishda to'g'ri yo'nalish tanlashga yordam beradi.

Analitik axborot tizimlari(AAT) qanday? To'plangan va muntazam yangilanib turiladigan ma'lumotlarni tahlil qilish katta hajmdagi ma'lumotlarni yuqori sifatli qayta ishlash va uning monitoringini o'tkazish bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin. Axborot-



tahlil tizimi, o‘z navbatida, apparat, axborot manbalari, dasturiy ta‘minot echimlari va boshqa amaliy qo‘llanmalarning birlashmasidir. Shu nuqtai nazardan, har bir AAT quyidagi holatlar hisobga olingan holda yaratilgan va ishlab chiqilgan<sup>4</sup>:

1. Ko‘p manbalardan bir vaqtning o‘zida turli xil ma‘lumotlarni olish mumkin. Ushbu ma‘lumotlar ko‘plab shakllarda taqdim etiladi va keyinchalik yagona shaklga va muayyan tuzilishni integratsiyalashuviga olib keladi. Eng yorqin misol – “Ta‘limiy axborot analitik tizim”.

2. Ma‘lumotlarni to‘plash va ularning massivlarini yaratish, qidiruv va indekslash texnologiyalaridan foydalanish.

3. Foydalanuvchilarning har biri uchun kerakli ma‘lumotlar doimiy ravishda uyushtiriladi, bu qaror qabul qilish, aniq chora-tadbirlar ko‘rish yoki tanlangan sohada muayyan harakatlar qilish uchun zarurdir. Shunday qilib, tibbiy axborot va tahliliy tizim sog‘liqni saqlash sohasiga tegishli ma‘lumotlar, mavzular va tuzilmalar bilan bo‘linishi kerak.

4. Intellektual va tezkor tahlil qilish vositalari, turli ob'ektlarni nazorat qilish ob'ektlarini muntazam va rejali baholashni tayyorlash. Ular hujjatli ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, ekrandagi raqamli hisobot shakllarida taqdim etilishi mumkin.

5. Barcha axborot va uning natijalarini tahlil qilish natijalari qat‘iy belgilangan tartibda taqdim etiladi. Bu barcha ma‘lumotlarning foydalanuvchilar tomonidan samarali qabul qilinishini ta‘minlashi kerak. Masalan, statistika olish va turli monitoringlarni o‘tkazish uchun yaratilgan "Monitor" yagona axborot-tahlil tizimini keltiramiz.

*IMPAKT-FAKTOR* ilmiy jurnalning sonli ko‘rsatkichi. 1960-yillardan boshlab, Ilmiy axborot instituti tomonidan (ingl. *Institute for Scientific Information*, ISI), 1992 yilda Thomson korporatsiyasi tomonidan sotib olingan) har yili hisoblab chiqilib, «Journal Citation Report» jurnalida e‘lon qilinadi. Impakt Faktor asosida jurnallar darajasi, ularda chop etilgan maqolalar sifatini baholaydi, tadqiqotchilarga iqtisodiy ko‘mak beradi xodimlarni ishga oladi.

2020 yilda jurnalning Impakt-faktori quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$I_{2020} = A/B,$$

✓ bunda: A — 2020 yil davomida mazkur jurnalda 2018—2019 yillarda chop etilgan maqolalarning iqtiboslik soni (ISI tomonidan kuzatilgan);

---

<sup>4</sup> Рахматуллаев М.А. Мировые информационные ресурсы. -Ташкент. 2017.-135 с.

✓ В-mazkur jurnalda 2018-2019 yillarda mazkur jurnalda chop etilgan maqolalar soni.

### **h-Indeksi, yoki Xirsh indeksi**

2005 yilda San-Diegoning Kaliforniya universiteti olimi argentina-amerikalik fizik Xorxe Xirsh tomonidan taqdim etilgan naukometrik ko'rsatkich. Xirsh indeksi olimning, olimlar guruhining, ilmiy tashkilotlarning yoki butun mamlakatda chop etilgan maqolalarning soni va bu maqolalarga bo'lgan iqtiboslik ko'rsatkichlarining sonli xarakteristikasi, ya'ni samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi.



1-rasm. Xirsh indeksi

Olimning ko'rsatkichi  $h$ , agar uning  $N_p$  maqolalaridan kamida  $h$  marta keltirilgan bo'lsa, qolgan  $(N_p - h)$  maqolalarining har biridan  $h$  martadan ko'p bo'lmagan holda iqtibos keltiriladi. Agar olim 10 ta maqola nashr etgan va ularning har biriga 1 marta havola qilingan, Xirsh ko'rsatkichi 1 ga teng bo'ladi. Olim 1 ta maqola nashr etdi va unga 10 marta iqtibos keltirilgan, bunda  $h$  indeksini 1 ga teng bo'ladi.

### Hirsch indeksini hisoblash misollari:

<b>Maqolaning tartib raqami</b>	<b>Maqolaga keltirilgan iqtiboslar soni</b>
1 ta maqola	10 ta iqtibos
2 ta maqola	8 ta iqtibos
3 ta maqola	7 ta iqtibos
4 ta maqola	5 ta iqtibos
5 ta maqola	5 ta iqtibos
6 ta maqola	4 ta iqtibos
7 ta maqola	4 ta iqtibos
8 ta maqola	2 ta iqtibos
9 ta maqola	1 ta iqtibos
10 ta maqola	1 ta iqtibos
<b>h = 5</b>	

Ushbu ideal misollarga asoslanib, taniqli hurmatli jurnalda bitta yuqori sifatli va qiziqarli maqolani nashr etish mumkin, degan xulosaga kelish mumkin, bu rasmiy ravishda olimlarning sifatsiz maqolalarni "shtamplash", zaif jurnallarda nashr etishga sarflagan harakatlariga teng bo'ladi. Aslida, vaziyatlar ko'pincha bitta muallifning 10 ta maqolasiga ega bo'lganda yuzaga keladi, ammo ular turli xil chastotalarda iqtibos keltirilgan bo'ladi.

O'zi noshirlik qilmagan holda elektron resurslarni yig'uvchi kompaniyalar hisoblanib, iste'molchilarni ularning so'rovlari, obunalari asosida resurslarga bo'lgan ehtiyoqlarini aniqlab, kerakli axborotlar bilan ta'minlash maqsadida marketing faoliyatini olib boruvchi kompaniyalar *Aggregatorlardir*. Agregatorlar nashriyotlar, manba yaratuvchilar bilan ularning resurslaridan foydalanish bo'yicha shartnomalar imzolaydilar.

Tashkilotlarni dolzarb ilmiy va ta'limiy axborot bilan ta'minlash jamiyatni rivojlanishini muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari asrida mazkur masalani yechishning asosiy samarali vositasi bu - yagona xalqaro standartlar asosida shakllantirilgan raqamli formatdagi axborot resurslari fondiga ega avtomatlashtirilgan axborot resurslari tarmog'ida rivojlangan axborot infratuzilmasini yaratish hamda o'z resurslarini jamoaviy foydalanishga taqdim etish hisoblanadi. Bunda jahon ilmiy-ta'limiy resurslaridan samarali foydalanish va ularni to'plash muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot infratuzilmasini rivojlantirishdagi jahon tendensiyalari, jumladan, ilmiy, amaliy tadqiqotlar yagona klassifikatsiya tizimlarini,

ma'lumotni kodlashtirish, xalqaro kommunikativ formatlar asosida ularni formatlash, uzatishga moyil bo'ladi. Axborot muhitini shakllantirishdagi 90% dan ortiq xarajatlar mazmun mohiyatiga aloqador hisoblanadi. Axborot manbalari va ma'lumotlar tuzilmalarining turli tumanligi tizimlashtirishda yagona ko'rinishda taqdim etilishini talab qiladi. Axborot kommunikatsiyalari uchun kutubxonalarning MARC formatlari, DUBLIN CORE formatlar va axborot kommunikatsiyalarni xalqaro standartlari bugungi kunda nafaqat an'anaviy kutubxona ma'lumotlari, balki ilmiy texnik va boshqa turdagi axborotlar orasida faol axborot almashuvining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bu birlashuv ma'lumotlarini taqdim etish asosida jahon axborot makonini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bunday muhitning axborot asosi bo'lib elektron kutubxonalar va ularning tarmoqlararo aloqalari hisoblanib, mazmuniy asosi bo'lib esa, nafaqat milliy axborot resurslari, balki, jahon ilmiy ta'limiy ma'lumot bazalari hisoblanadi.

## **1.2. Axborot resurslarining rivojlanish tendensiyalari. Elektron axborot resurslari**

### **Ta'limda jahon axborot resurslari**

Ta'lim tizimi – O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish istiqbollaridan biri-ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish, jahon axborot resurslaridan foydalanish sifatini yanada oshirishdir.

Jahonda ta'lim sohasida ko'plab islohatlar olib borilmoqda. Turli xil masofaviy ta'lim tizimlarining joriy qilinishi, elektron ta'lim resurslari, shu jumladan, ochiq elektron ta'limiy resurslarning taqdim etilishi, shubhasiz, jahon ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

2001 yil jahon miqyosida ochiq ta'limiy resurslar Massachusetc texnologik institutining (MIT) Open Source Ware<sup>5</sup> loyihasi orqali yoyildi. Buning natijasida "ochiq kontent", "ochiq ta'limiy kontent", "ochiq ta'limiy resurslar", "ochiq ta'lim texnologiyalari" kabi bir qator tushunchalar adabiyotlarda, virtual va real bahslarda uchray boshladi. Biroq, bugungi kunda keng tarqalgan "ochiq ta'limiy resurslar" atamasi, 2002-yil YUNESKO tomonidan tashkil etilgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ochiq ta'lim tizimlari Xalqaro Forumida qo'llanildi. Bu Forumning maqsadi foydalanuvchilarga ochiq resurslardan qanday

---

<sup>5</sup> <http://ocw.mit.edu>

foydalanishni targ'ib etishdan iborat edi. 2010-yildan boshlab ochiq resurslar ingliz tilida so'zlashmaydigan boshqa mamlakatlar orasida ham keng targ'ib etila boshlandi.

Ochiq ta'limiy resurslar – bu erkin foydalanish uchun ochiq qo'yilgan yoki litsenziyalangan, lekin erkin foydalanish, qayta ishlash ruxsat etilgan o'quv yoki ilmiy resurslardir<sup>6</sup>. Ochiq resurslar o'zida turli xildagi ma'lumotlarni mujassamlashtirgan bo'ladi. Ochiq elektron resurslar tashkil etilgan tizimda undan qanday foydalanish, qidirish, resurslarni qanday olish mumkinligi batafsil yoritilgan bo'lishi lozim. Quyida axborot resurslarining bozori ko'rsatkichlarini keltirib o'tamiz. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ta'lim resurslarining ahamiyati tobora oshib bormoqda (2-rasm).




2-rasm. Axborot resurslari bozori statistikasi

Bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlarda ochiq elektron resurslar mavjud. Ular ta'lim tizimi va boshqa sohalar rivojida ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Ochiq elektron resurslar taqdim etuvchi quyidagi tizimlarni keltirib o'tamiz:

**OPEN** (Open Access Publishing in European Networks) - bu tizim turli fan sohaları bo'yicha ya'ni, sotsiologiya, gumanitar fanlar, iqtisod,

<sup>6</sup> Энди Лейн. Глобальные тенденции в развитии и использовании открытых образовательных ресурсов и их роль в реформе образования//Аналитическая записка.-Москва: Институт ЮНЕСКО по ИТ в образовании, 2010.-ноябрь.-С.2

moliya, menejment, matematika, til, geografiya va boshqa sohalar bo'yicha 1600dan ortiq elektron kitoblarning PDF formatlarini taqdim etadi. Ma'lumotlarni faqat ingliz tilida olish mumkin.



3-rasm. OPEN sayti interfeysi

**DOAB** (Directory of open access books) - ochiq foydalanishga taqdim etilgan to'liq matnli kitoblar katalogi. Bugungi kunda DOABga 50dan ortiq nashriyotlar o'zlarining 1410dan ziyod kitoblarini joylashtirganlar. Ma'lumotlar ingliz tilida taqdim etilgan.




4-rasm. DOAB sayti interfeysi

**DOAJ** (Directory of Open Access Journals) - bu litsenziyali jurnallarni ochiq taqdim etuvchi va ularni indekslovchi onlayn platforma hisoblanadi. DOAJ orqali jahondagi ko'pgina ilmiy jurnallardan foydalanish imkoniyatiga egamiz. DOAJ tarkibiga bugungi kunda 134 mamlakatdan 10000ga yaqin jurnallar va 2mlnga yaqin maqolalar kiritilgan.



5-rasm. DOAJ sayti interfeysi


**KiberLeninka** - ilmiy elektron kutubxona. Unda asosan ilmiy jurnallar, maqolalar joylashtirilgan. Bu ochiq tizim mualliflar huquqini Creative Commons Attribution (CC-BY) litsenziyasi asosida himoya qiladi. KiberLeninkada 173ta ilmiy jurnal, 97ta OAK tasdig'idan o'tgan jurnallar, 82000dan ortiq maqolalar mavjud.



6-rasm. KiberLeninka sayti interfeysi


**ROAD** – 2013 yil dekabr oyidan ishlay boshlagan ochiq ilmiy resurslar katalogi. ROAD o‘zida jurnallar, konferensiya materiallari, monografiyalarni mujassamlashtirgan. Resurslarning ko‘p qismini ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etgani uchun ROAD dan asosan taqiqotchilar, olimlar foydalanadilar.

**DSpace@MIT** - Massachusetts texnologiya instituti ochiq resurslari. Unda 60000dan ortiq maqolalar, dissertatsiyalar va boshqa sohalar bo‘yicha resurslar ochiq foydalanishga qo‘yilgan. Ma’lumot bazalarini ko‘p qismi matematika, fizika va kompyuter texnologiyalariga oiddir.



7-rasm. DSpace@MIT sayti interfeysi


**Khan Academy** - matematika, fizika, biologiya, astronomiya, tabiiy fanlar va boshqa sohalar bo‘yicha ochiq videomateriallarga ega bo‘lgan jahondagi yirik akademiyalardan biridir. Bu akademiyaning ochiq resurslari tufayli o‘quvchilar ma’ruzalarni uyda tinglab, laboratoriya mashg‘ulotlarini sinf xonalarida bajarish imkoniyati yaratib berilgan.



8-rasm. Khan Academy sayti interfeysi




**Coursera** - bu jahondagi yetakchi universitetlar o‘quv kurslarining onlayn foydalanishga qo‘yilgan resurslar to‘plami. Ta’lim materiallari tarkibiga videokolleksiyalar, elektron kitoblar, uy vazifalari, testlar, imtihon savollari kiritilgan.



9-rasm. Coursera sayti interfeysi

**UniverTV.ru** - ochiq ta’lim videoportali. Unda yetakchi o‘qituvchi, professor, akademiklarning ma’ruzlari video ko‘rinishda taqdim etiladi.




10-rasm. UniverTV.ru sayti interfeysi

Shu bilan birga portalda ilmiy videokonferensiyalar, jahonning yetakchi o‘qituvchi-professorlarining ma’ruzalarini ham tinglash imkoniyati yaratib berilgan.

Ochiq resurslar shu qatorda jahonning yetakchi nashriyotlari, konsorsiumlari, kutubxona saytlarida ham qo'yilgan. Ulardan foydalanish yo'llarini bilish orqali ta'lim oluvchilar katta imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin. Bunga misol sifatida SPRINGER nashriyotini tahlil qilamiz.

**SPRINGER** kompaniyasi 1842 yilda tashkil topgan. SPRINGER fundamental bilimlar, ya'ni matematika, hujjatshunoslik, yangi texnologiyalar, meditsina, ximiya, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlar hamda ilmiy jurnallar nashr qiluvchi jahondagi yetakchi yirik nashriyotdir.

**SpringerOpen** - tizimda 2010 yildan boshlab ko'plab fan sohalari bo'yicha 160 ta jurnaldan ochiq foydalanish imkoniyati yaratilgan. SpringerOpendagi ochiq jurnallarga bo'lgan talab tez suratlarda oshib ketishi natijasida, 2012 yildan kitoblardan ham ochiq foydalanish imkoniyati yo'lga qo'yildi. Jurnallar va kitoblar nashr qilinishi bilanoq, ularning elektron ko'rinishi SpringerOpen'ga joylashtiriladi. Jurnal maqolalari va kitob muallilarining mualliflik huquqlari SPRINGER kompaniyasi tomonidan Creative Commons litsenziyasi asosida muhofaza qilinadi. 2015 yil SpringerOpen o'z foydalanuvchilariga 500 ming elektron resursdan foydalanish imkoniyatini yaratib berdi.



11-rasm. SpringerOpen interfeysi.

Shu o'rinda **EIFL** konsorsiumining **Open Access** dasturida ish olib borayotgan ijrochilarining ham ochiq elektron resurslarni yaratish va foydalanish uchun taqdim etishdagi olib borayotgan ishlari e'tiborga molik. Bu global tadbir SPARC tomonidan 2008 yilda tashkil etilgan. EIFL ochiq imkoniyat dasturi kutubxonalarni EIFL tizimidagi ochiq imkoniyat haftaligi tadbirida qatnashishga chorlaydi. Bu global

miqyosidagi tadbirga tayyorgarlik ko‘rishda yordam beradi. Har yili butun dunyo bo‘ylab kutubxonalar ushbu haftalikda ishtirok etadilar. Ochiq imkoniyat bu tezkor onlayn rejimdagi bepul va cheklanmagan dastur bo‘lib, u tadqiqotchilarning rivojlanishidagi to‘siqlarning aniq yechimidir, bu rivojlanayotgan mamlakatlardagi kishilar hayotini yaxshilash imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida ochiq ta‘limiy resurslar imkon qadar tahlil etilib, ularning ma‘lum bir fan yoki tarmoq bo‘yicha mustaqil bilim olish, o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati, imkoniyatlari yoritildi. Ochiq ta‘limiy resurslardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘lish, xalqaro darajada ta‘lim olish imkoniyatlarini o‘shishiga, ta‘lim sifatini oshishiga, bu orqali sohalar rivoji, mamlakat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda mutaxassislar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – mazkur jahon ta‘limiy resurslarni imkon qadar keng yoritish, ulardan samarali foydalanish yo‘llarini targ‘ib etishdan iboratdir. Shuningdek, axborot kutubxona katalogi va fondi moduli doirasida qo‘llashni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

### ***O‘zbekistonda ochiq resruslardan foydalanish***

O‘zbekistonda ochiq foydalanish harakati 2000 yillarning boshlarida boshlangan. Ilmiy, ta‘lim muassasalari va kutubxonalarning veb-saytlari va portallarini yaratish Internetda turli sohalardagi yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni berib borish uchun muhim turtki bo‘ldi. Davlat ochiq depozitoriyalar, ilmiy-ma‘rifiy portallarni rivojlantirishga har tomonlama yordam bermoqda. Bu borada [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) portali diqqatga sazovor. Uning maqsadi – aholini ham Internet, ham Intranet tarmog‘i orqali ochiq foydalanish uchun ilmiy va ma‘rifiy resurslar bilan ta‘minlashdan iborat. Bugungi kunga kelib ularning ma‘lumotlar bazasi ma‘ruzalar matni, avtoreferatlar, metodik va o‘quv qo‘llanmalar, laboratoriya ishlari, dissertatsiyalar, referatlar va darsliklar ko‘rinishidagi 20 mingdan ortiq hujjatlarni o‘z ichiga olgan. Portaldagi adabiyotlar nafaqat talaba, abituriyent va o‘qituvchilar, balki axborot resurslariga ehtiyoji bo‘lgan boshqa fuqarolar uchun ham foydali qo‘llanmalar sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlari, vazirliklar, jumladan Xalq Ta‘limi vazirligining o‘quv va o‘quv-metodik muassasalari, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining universitetlari, kollejlari portalning asosiy axboot manbalari hisoblanadi.

Resursni kiritish yoki yuklab olish uchun [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) portalida avtorizatsiyadan o'tish talab etiladi.

Respublikaning o'quv muassasalari muntazam ravishda portalga o'z materiallarini kiritadilar. O'z ma'lumotlarini kiritishdan avval hujjatlar maxsus ekspertizadan o'tkaziladi va muassasaning Ilmiy kengashida tasdiqlanadi va shu qatorda material mazmuni uchun ma'sul hisoblanadilar.

ZiyoNetdan tashqari respublikada erkin foydalanish uchun o'z publikatsiyalarini berib borish imkoniyatiga ega yana boshqa ko'pgina tashkilotlar, kutubxonalar va ilmiy-tadqiqot hamda ta'lim muassasalari mavjud. O'zbekiston milliy kutubxonasining [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) sayti axborot va kutubxona mavzulari bo'yicha eng qiziqarli maqolalarni yig'adi va chop etib boradi. Hozirgi paytda Hukumat tomonidan qabul qilingan dasturlar va direktivalar respublika axborot-kutubxona tarmog'ining rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Axborot-kutubxona muassasalarining integratsiyasi bevosita yangi repozitoriylar va ma'lumotlar bazasini yaratishga olib keladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. «Axborot resurslari» nima?
2. Axborot resurslarni axborot-kutubxona resurslaridan farqini tushuntiring.
3. «Jahon axborot resurslari» tushunchasi nimalarni o'z ichiga oladi?
4. «Ma'lumot bazalari» nima?
5. Ilmiy ishlarni retsenziyalash nima?
6. Elektron ilmiy-ta'limiy resurslar noshirlarining asosiy funksiyalari nima?
7. Ma'lumotlar bazasini oddiy yig'ma yoki ma'lumotlar massividan farqi?
8. Plagiat mohiyati nimada va uning salbiy jihatlari?
9. Ochiq ta'limiy resurlar nima?
10. Ilmiy-ta'limiy resurslardan erkin foydalanish imkonini beradigan qanday jahon manbalarini bilasiz?
11. Ochiq nashrlarning kamchiligi va afzalligi nimada?
12. O'zbekistonning qanday ochiq va ilmiy-ta'limiy resurslarini bilasiz?
13. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) ta'limiy portalining mazmuni va maqsadi nima?

## **2. JAHON AXBOROT RESURSLARI. YARATISH VA QIDIRISHNING TEXNOLOGIK JIHATI**

### **2.1. Elektron ilmiy ta'limiy-resurslarni shakllantirish texnologiyasi**


Ilmiy va ta'limiy muassasalarini ularni faoliyatida muhim bo'lgan axborotlar bilan ta'minlash o'ta dolzarb masaladir. Oliy ta'lim muassasalarida noshirlik faolligining pasayishi jahon miqyosidagi ilmiy jurnallardan foydalanishga bo'lgan imkoniyatning chegaralanganligi asosida yuzaga keladi.

Dunyoning yetakchi ma'lumot bazalariga ega nashriyot kompaniyalarga obuna bo'lish narhlari juda qimmat bo'lib, Oliy ta'lim tizimida, Fanlar Akademiyasi tizimidagi ilmiy muassasalarda ularni to'plash, tizimlashtirish, kataloglashtirish muhim o'rin tutadi. Qimmatbaho ilmiy ta'limiy resurslar-foydalanuvchilar uchun nafaqat operativ ravishda foydalanish uchun, balki doimiy foydalanish, mualliflik huquqi va mulkka egalik huquqini buzmaganda tarqatish imkonini beradi.

Tashkilotlarda ulardan foydalanishning samarali texnologiyalarini yaratish, ularni to'plash tadqiqot va ishlanmalarning predmeti bo'lib hisoblanadi. Elektron axborot resurslarini shakllantirish va akkumulyatsiyalash texnologiyalari juda ko'p. Shulardan, korporativ axborot kutubxona tarmoqlarida jamoaviy foydalanish uchun ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha bir qator axborot kutubxona tizimlarini keltirib o'tish mumkin. Bunda O'zbekistonning 60dan ortiq oliy ta'lim muassasalarining korporativ tarmog'ini keltirib o'tamiz.

#### ***Korporativ axborot tarmoqlarida jahon axborot resurslarini yig'ish texnologiyalari***

Respublikaning axborot kutubxona tizimlari asosida tashkil etilgan axborot kutubxona tarmog'i elektron ilmiy ta'limiy resurslarni shakllantirish va tarqatish mexanizmini yaratishga imkon beradi. Korporativ tarmoqda jahon elektron resurslarini to'plash bosqichlari keltirilgan (12-Rasm).



12-rasm. Korporativ tarmoqlarda jahon elektron resurslarini to'plash algoritmi


Barcha tashkilotlarda soha yoki qiziqishlaridan qat'iy nazar lokal tarmoqlar rejimida kerakli bo'lgan resurslarni izlash, nus'ha ko'chirish kabi amallar bajariladi. Olingan materiallar tizimlashtiriladi, hujjat turlari asosida metama'lumotlarga ajratiladi: ilmiy maqola, kitob, darslik, ko'p tomli nashrlar, jurnallar, dissertatsiyalar, multimedia resurslari va h.k.

Resurslarni kataloglashtirishning keyingi bosqichi MARC formatlari asosida yuqori malakali mutaxassislar tomonidan tegishli metama'lumotlar maydonlari asosida amalga oshiriladi. Korporativ tarmoqda ishlash bir qator vazifalarni bajarishni taqazo etadi. Bular: konsorsium ishtirokchilari o'rtasida axborotlarni operativ almashish; yozuvlar va materiallarni qayta takrorlanishini oldini olish; yig'ma elektron katalogni (YEK) shakllantirish. YEK tarmoqqa yagona portaldan kirish va JARlardan samarali qidiruvni tashkil etishga imkon yaratadi.

13-rasmda Axborot kutubxona markazlarining (AKM) korporativ tarmoqlarida integratsiyalangan tizim tuzilmasi keltirilgan. Bu tizim turli xil tashkilotlar, nafaqat, oliy ta'lim muassasalari doirasida, balki kollej, litsey, maktablar, arxivlar va h.k.larning korporativ tarmoqlarida yagona texnologiyalar asosida tezkorlik bilan ilmiy ta'limiy axborotlarning ma'lumotlar almashuvini ta'minlashga imkon yaratadi.

Integratsiya masalalarini hal etish uchun bulutli texnologiyalardan foydalaniladi. Bunday tizimlarda bulutli texnologiyalarni roli barchaga ochiq resurslar va yig'ma elektron katalogni shakllantirish hamda foydalanishni ta'minlashdan iborat. YEK axborot resurslari oqimida respublikaning turli xil turdagi foydalanuvchilari uchun virtual muhitda tezkor axborotga ega bo'lishda yo'lko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Aholini axborot kutubxona resurslaridan foydalanishini, tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan to'liq matnli axborotga ega bo'lishini ta'minlash respublikamizda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Fan va ta'limga oid ilg'or manbalardan foydalanishga imkoniyat yaratish orqali ilmiy markazlar, o'quv muassasalarining ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta'lim berish potensialini oshirish mumkin. Lekin, qimmatbaho axborot resurslarini shakllantirish va saqlash uchun elektron kutubxonalarda zarur ilmiy ta'limiy materiallarni olish va to'plashga imkon yaratuvchi maxsus texnologiyalarni rivojlantirish zarur.



13-rasm. АКМ корпоратив тармоғининг интеграллашган

Bunda, respublikaning axborot industriyasini rivojlantirishda, ilmiy ma'lumot bazalarining axborot fondlariga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va yetakchi axborot kutubxona muassasalari faoliyatini birlashtirish zarur. Bugungi kunda JARlaridan faqatgina foydalanish emas, balki JAR asosida elektron kutubxonalarni shakllantirish lozimdir. Bunday rivojlangan axborot infrastrukturasi amalga oshirish shartlari quyidagilar:

1. Yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya tarmoqlarining mavjudligi;
2. bibliografik yozuvlarni taqdim etishning xalqaro talablari asosida elektron kutubxonalarni shakllantirish;
3. elektron kataloglar tashkil eta oladigan, ilmiy ta'limiy, biznesga va h.k. oid resurslarni raqamlashtirish, to'liq ma'lumot bazalari, multimedia ma'lumot bazalarini shakllantira oladigan yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi;
4. tarmoq va ma'lumot bazalarini vakolatli boshqaruvini tashkil etish.

Rivojlangan telekommunikatsion tarmoqlar va elektron ma'lumotlar bazasini shakllantiruvchi dasturiy mahsulotlar konsorsium ishtirokchilari o'rtasida yuqori tezlikdagi kanallar orqali ilmiy ta'limiy axborotlarni almashishga imkon yaratadi. Yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi, ma'lumot bazalarini, axborotlarni qayta ishlashni



avtomatlashtirilgan tizimlarini ishlab chiqilishi, axborotni tashuvchi, tarqatuvchi tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikning mavjudligi, kutubxonalar, ta'lim muassasalari, ilmiy markazlarining zarur ilmiy ta'limiy axborotlar bilan ta'minlanishi korporativ tarmoqni rivojlantirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa kerakli bo'lgan axborotlarni qidirishga ketadigan vaqtni o'nlab va yuzlab marotaba qisqartirish imkonini berib, raqobatbardosh axborot mahsulotlarini yaratishga, OTM va kutubxonalar o'rtasida samarali axborot almashinuviga imkon yaratib, o'quv materiallarini o'zlashtirishning samaradoligini oshirishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi yig'ma elektron katalog yaratish, elektron darsliklarning to'liq matnli ma'lumot bazalarini yaratish, talaba, o'qituvchi, ilmiy xodimlarga masofadan xizmat ko'rsatish, elektron kutubxonalarga respublikada yaratilgan qimmatli ma'lumot bazalariga, jumladan JARlarga kirish, ulardan foydalanish imkonini yaratadi. Korporativ tizim virtual kutubxonalarga bo'lgan birinchi qadam hisoblanib, axborot mahsulotlari orqali o'quv materialni samarali o'zlashtirishga imkon yaratadi. Tarmoq – ma'lumotlarni uzatishni yuqori tezligini ta'minlashga, o'rnatilgan qoidalar asosida yangi abonentlarni qo'shish, mavjud axborotlarni xavfsizligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Korporativ axborot tizimlari texnologiyalarini qo'llash, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ✓ elektron ilmiy-ta'limiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash samaradorligini oshiradi (ayniqsa, viloyatlarda), ta'lim olishning interaktiv usullarini, jumladan, telekonferensiya va telema'ruzalar, masofadan ta'lim berish, bilimlarni sinovdan o'tkazish tizimini joriy etish;

- ✓ xalqaro standart talablariga javob beruvchi ilmiy-ta'limiy to'liq ma'lumot bazalarini shakllantirish (elektron darsliklar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, multimediya (o'quv, kino, multiplikatsion filmlar, musiqa asarlari va boshq.);

- ✓ virtual kutubxona rejimida ilmiy ta'limiy resurslarning ma'lumot bazalari va elektron katalogiga onlayn foydalanish imkonini yaratish;

- ✓ axborot-kutubxona muassasalari, OTMni elektron kataloglarni yaratilishini qo'llab-quvvatlash va moliyaviy, mehnat va moddiy resurslarni yaratish bo'yicha sarf xarajatlarni qisqartirish;

- ✓ ilmiy va ta'lim muassasalarini, hamda davlat va biznes tashkilotlarini zarur axborot bilan ta'minlash;
- ✓ tarmoq ishtirokchilariga ilmiy-ta'limiy axborotlarni lokal elektron kataloglarini yaratishning samarali imkoniyatlarini yaratish;
- ✓ bu tizim AKMlarini o'zaro hamkorligini yaratish, turli xil tashkilotlarning kutubxona va axborot tarmoqlarini birlashtirish orqali respublikada mustahkam axborot kutubxona infratuzilmasini yaratishga imkon yaratadi.

## **2.2. Korporativ tarmoqlarda axborot resurslarga murojaat**

Elektron kutubxonaning milliy resurslari, axborot-kutubxona resurslari, shuningdek, jahon axborot resurslari asosida shakllantirishning eng samarali yo'llaridan biri bu AKMlarning korporativ hamkorligi hisoblanadi. Kompyuterlashgan kutubxonadan virtual kutubxonagacha bo'lgan turli xil turdagi, turli darajadagi kutubxonalar o'rtasida operativ ravishda ma'lumotlar almashishni yo'lga qo'yish murakkab jarayonlardan biridir. Bu axborot va dasturiy moslashgan avtomatlashtirilgan kutubxona tizimlarini intensiv joriy qilish, elektron kutubxonalarini shakllantirish, AKMlarining korporativ tarmog'ini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Axborot kutubxona muassasalarining korporativ tarmog'i – bu boshqaruv-iqtisodiy nuqtai nazardan mustaqil bo'lgan AKMlarining, foydalanuvchilarga axborot kutubxona xizmati ko'rsatishda sifat va son jihatdan yangi xizmat turlarini joriy etishdagi birlashuvidir.

Korporativ tarmoq - ilmiy-ta'limiy va ilmiy-texnik axborotlarni tarmoqlarda, jumladan, axborot kutubxona muassasalari tarmog'ida shakllantirishda moddiy va insoniy resurslarni iqtisod qilishda muhim hisoblanadi. AKMlarni korporativ tarmog'ini birlashuvida korporativ kataloglashtirish tizimini yaratish muhim hisoblanadi.

Korporativ kataloglashtirish-bu bir qancha tashkilotlarga (kutubxona, ARM, AKM) kelayotgan yangi hujjatlarning elektron kataloglarini shakllantirish va ulardan foydalanishini amalga oshirishdagi tashkilotlarning birga olib borayotgan ish faoliyatidir. Korporativ kataloglashtirishning quyidagi prinsiplarini ko'rsatish mumkin:

1. Dasturiy axborot mosligi
2. O'z xohishiga ko'ra
3. Texnik tayyorligi

4. Tashkiliy tayyorligi
5. Kadrlarni tayyorgarligi

**Dasturiy axborot mosligi** shuni angalatadiki, korporativ kataloglashtirish ishtirokchilari bibliografik axborotni taqdim etishning formatlariga (MARC kelisha oladigan) mos holda yagona dasturiy axborot asosga ega bo'lishlari lozimligini anglatadi.

O'z xohishiga ko'ra a'zo bo'lish prinsipi, shuni taqozo etadiki, korporativ kataloglashtirish ishtirokchilari mazkur loyihaga ixtiyoriy kutubxonalar va foydalanuvchilar uchun hamkorlikning afzalliklarini tushungan holda kirishlari nazarda tutiladi.

Texnik tayyorligi bu barcha ishtirokchilar lokal hamda kommunikativ vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan texnikaga ega bo'lishi. Korporativ katalogizatsiya tizimida yagona ikki darajali tarmoq texnologiyalari axborot resurslarini taqdim etish va tashqi resurslardan foydalanishga imkon yaratishi lozim.

Tashkiliy tayyorligi. AKM va ARM larning tashkiliy tuzilishi ma'lumotlar bazasini shakllantirish borasidagi barcha vazifalarni xal etishga qaratilishi lozim. Ayniqsa, mazkur loyihani amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi bo'limlar (masalan, kataloglashtirish, avtomatlashtirish va boshq) tayyor holatga keltirishi lozim.

Kadrlarni tayyorgarligi. Kutubxonalar korporativ vazifalar, funksiyalarni tushunuvchi va ularni mohirona hal etuvchi xodimlarga ega bo'lishi yoki bunday tarkibni shakllantirishi lozim.

Shu tariqa, integratsiyalashgan axborot tuzilishga ega respublika, tarmoq va mintaqaviy axborot resurslarini birlashtiruvchi, axborotni davlat organlari, iqtisodiyot sub'ektlari, fan va ta'lim, butun jamiyat manfaatlari yo'lida va yagona standartlar asosida yig'ish, to'plash, qayta ishlash, qidirish va yagona axborot kutubxona tarmog'ini tashkil etish imkoni yuzaga keladi. Taqsimlangan axborot tarmog'i tashkilotlarning o'zaro elektron axborot resurslarini yoki bu resurslar xaqidagi axborotlarni almashinuvini yagona prinsiplar va ochiq umumiy qabul qilingan standartlar asosida tashkil etilgan yaxlit texnologik va axborot muhitini xosil qilishi lozim.

Tarmoqni yo'lga qo'yishning yakuniy natijasi bo'lib, o'zida quyidagi zamonaviy texnologiyalardan iborat operatsiyalarni amalga oshiruvchi zamonaviy axborot infratuzilmani shakllantirish bo'lib hisoblanadi:

- Kutubxona infratuzilmasini integratsiyalash

- Kutubxona resurslari va ilmiy texnik axborotni to'plash, sistemalashtirish, qayta ishlash, saqlash, qidirish va yetkazib berish
- elektron axborot resurslari bo'yicha navigatsiyalar;
- ilmiy texnik axborotga ega jahon axborot resurslari;
- o'zbek, rus, ingliz tillardagi axborot bozoridagi segmentning maksimal to'liqligini ta'minlash;
- foydalanuvchiga dolzarb, to'liq, maksimal ravishda tizimlashtirilgan, eng qulay shaklda axborotni taqdim etish;
- ilmiy-texnik va ilmiy-ta'limiy axborotni - elektron, an'anaviy kutubxona resurslari, depozitariylar, arxivlar va boshq., mutanosib taqsimlangan va tizimlashtirilgan uyushmasi.

### **2.3. Axborot qidirish texnologiyalari**

Axborot-kutubxona faoliyatidagi texnologiyalarni rivojlanish tendensiyalari tahlili quyidagi rivojlanish yo'nalishlarida xulosa qilish imkonini yaratadi:

- global axborot tizimlari va axborotga ega bo'lishning barcha imkoniyatlari orqali, foydalanuvchilarning joylashgan joyidan va so'rovlarning turidan qat'iy nazar, ular ehtiyojlarini imkon darajasida qondirish;
- elektron kutubxonalar va virtual korporativ tarmoq muhitida jahon ilmiy-ta'limiy resurslarini to'plash vositalari va usullarini rivojlantirish;
- foydalanuvchilarni nafaqat kutubxonadan, balki, masofaviy erkin foydalanish orqali mustaqil axborot olish, hatto resurslarni shakllantirish va axborot xizmatlarini ko'rsatishga faol jalb qilish;
- Olinadigan va shakllantiriladigan axborotning turli xil bo'lishi;
- Axborot-kutubxona infratuzilmasini rivojlantirishni faollashtirish.

Axborot-kutubxona infratuzilmasi (AKI) tushunchasi ostida respublika yoki mintaqa miqyosida axborot-kutubxona muassasalarining (AKM) foydalanuvchilarini ehtiyojlarini maksimal ravishda qondirishga qaratilgan, axborotni saqlash va tavsiflash, yagona uzatish standartlariga asoslangan yagona tarmoqqa birlashuvi tushuniladi.

Axborot-kutubxona muassasalarini (AKM) rivojlantirishda asosan quyidagi ikkita model ishlatiladi:

1. AKMlarining mahalliy taqsimlangan modeli. №1 model.
2. Mijoz-server modeli. №2 model.

**AKMlarining mahalliy taqsimlangan modeli.** 1-model 1970-80-yillar va 90-yillar boshida yetakchi G'arb davlatlarining kutubxona va arxivlarida keng tarqalgan edi. Bunda har bir axborot muassasalari o'zining elektron kataloglarini tashkil etib, elektron pochta va Internetdan axborot va yozuvlarni almashuvida foydalanganlar.

**Mijoz-server modeli.** 2-model internet rivojlanish davriga to'g'ri keladi, bunda Internet orqali uzatiladigan ma'lumotlar tezligi mahalliy tarmoqdagi ma'lumot almashinuviga tenglashgan davrga to'g'ri keladi.

Ushbu ikki modelning asosiy farqi 2-model bir ixtisoslashgan tashkilotda markazlashgan ma'lumotlar bazasi boshqaruvi tashkil etilishini taqozo etadi, 1-modelda ma'lumot bazalarining boshqaruvi har bir axborot muassasasida tashkil etiladi (jadval 1).

### **Axborot-kutubxona infratuzilmalari modellarning qiyosiy funksional tahlili**

1-Jadval. Modellarning qiyosiy funksional tahlili

<b>Ko'rsatkich</b>	<b>Mahalliy taqsimlangan model</b>	<b>Mijoz-server markazlashgan modeli</b>
Avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT)	Har bir axborot-kutubxona va arxiv muassasalari (AKAM) MARC formatlari va DUBLIN CORE kommunikativ formatlariga asoslangan Avtomatlashtirilgan axborot tizimiga (AAT) ega	Har bir axborot-kutubxona va arxiv muassasalariga AAT ga ega bo'lish shart emas. Jamoaviy foydalanish uchun AAT korporativ tarmoq serverida joylashgan bo'ladi
Elektron kataloglashtirish	Har bir axborot-kutubxona va arxiv muassasasi o'zining serverida elektron katalogni mustaqil tashkil etishi va yurgizishi mumkin. Elektron katalog (EK) axborot-kutubxona va arxiv muassasasi xodimlari tomonidan tashkil etiladi yoki korporativ tarmoqdagi boshqa axborot kutubxona va arxiv muassasalari yozuvlari o'zaro almashuvi assida tashkil etiladi	Har bir axborot-kutubxona va arxiv muassasasi o'zining elektron katalogini boshqaruv tashkilot serverining axborot muhitida mustaqil tashkil etishi va shakllantirishi mumkin. EK o'zaro almashiladi

EK va ma'lumot bazalarini boshqaruvi	Har bir AKAM uchun ma'lumot bazasi boshqaruvi (ma'lumotlar kiritish, ma'muriy va texnik xizmat ko'rsatish, nazorat qilish) talab etiladi	Ma'lumotlar bazasi boshqaruvi korporativ tarmoqning boshqaruv muassasasida tashkil etiladi
Internet / Intranet	Tezkor internet talab etilmaydi	Tezkor internet talab etiladi
Axborot xavfsizligi	Har bir AKAM uchun alohida axborot xavfsizligi choralari ko'rish talab etiladi	Korporativ tarmoqning boshqaruv muassasasining axborot xavfsizligini yuqori darajada tashkil etish lozim
Kadrlarni tayyorlash va ta'minlash	Har bir AKAM kutubxonachi, arxivchi va ma'lumot bazalari boshqaruvchilarini o'qitish talab etiladi	Har bir AKAM kutubxonachi, arxivchi va ma'lumot bazalari boshqaruvchilarini o'qitish talab etiladi

Markaziy boshqaruv quyidagi bir qator afzalliklarga ega:

- Har bir AKMda ma'lumot bazalari administratori talab etilmaydi;
- Boshqaruv (administrator) kadrlarini tayyorlash qimmat jarayon

hisoblanadi. Har doim ham tayyorlangan mutaxassis AKM da qolmasligi mumkin. Beshta mutaxassis mingtacha AKMlarini ma'lumot bazalarini boshqarishi mumkin. Xolbuki, bu yuqori darajadagi mutaxassislarning sifatli boshqaruvi hisoblanadi. Albatta, besh-oltita administratorni tayyorlash, malakasini oshirish, barcha viloyat, tumanlardagi administratorlarni tayyorlash va malakasini oshirishdan arzonga tushadi.

***Bulutli texnologiyalar asosida korporativ tarmoqlarda elektron ilmiy ta'limiy resurslarni shakllantirish va qidirish***

Avtomatlashtirilgan va elektron kutubxonalarni tashkil etish – bu juda qimmat va ko'p mehnat talab etiladigan jarayondir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi va hisob kitoblar shuni ko'rsatadiki, axborot kutubxona muassasalari yakka holda o'zlarining elektron resurslarini tashkil etar ekanlar ular ulkan resurslarni yo'qotadilar, aksariyat hollarda ish xodimlarning darajalarini pastligi tufayli, yozuvlarni takrorlanishi kabi xatoliklar asosida tashkil etiladi.

Quyida mijoz-server va Cloud Computing texnologiyalari va Library 2.0 konsepsiyasi asosida tashkil etilgan O'zbekistonning oliy o'quv yurtlarining korporativ tarmog'ini tashkil etish borasidagi tadqiqot

va ishlanmalarning natijalari keltirilgan. Tizimning texnologik asosi bo‘lib ARMAT-1.13 dasturiy kompleksi va «Elektron ta’lim» Davlat dasturining telekommunikatsiya tarmog‘i hisoblanadi. Dasturiy kompleks yuksak texnologik yechimlarni qo‘llagan holda tarmoqni amalga oshirish samaradorligini oshirdi.

Library 2.0 va Cloud Computing konsepsiyalarida keltirilgan tamoyillar o‘xshash bo‘lib, axborot-kutubxona muhitida quyidagi talablarga keltiriladi:

- shaxsga qaratilganligi;
- integratsiyalangan axborot resurslari, shuningdek, shaxsiy resurslarini shakllantirishda foydalanuvchi faolligini oshirish;
- foydalanuvchining virtual shaxsiy kabinetini shakllantirish;
- hamkorlikdagi forumlar tashkil etish va o‘tkazish – «kitobxon-kutubxonachi» yoki, yanada kengroq-«kitobxon - kutubxonachi-axborot resurslarni shakllantiruvchi»;
- elektron katalog imkoniyatlarini kengaytirish, to‘liq matnli elektron resurslardan jamoaviy foydalanish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- axborot xizmatlarini olishda o‘z o‘ziga xizmat ko‘rsatish usul va vositalarini rivojlantirish;
- korporativ tarmoqda texnologik va axborot resurslaridan maksimal darajada iqtisodiy foydalanish.

Cloud Computing texnologiyasidan axborot-kutubxona tarmoqlarida foydalanish tarmoq boshqaruvini amalga oshirish, foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishda sezilarli darajada samaradorlikni oshiradi. OO‘Yu korporativ kutubxona tarmog‘ining axborot muhiti bosh serverda shakllantiriladi. (jadval 1).

2-jadval. Korporativ kutubxona tarmog‘ining axborot muhiti.

<b>General Serverdagi korporativ axborot resurslarning bosh ma’lumot bazasi</b>	<b>General Server muhitidagi konsorsumga a’zo kutubxonalarning shaxsiy kabinetlari</b>
	i- kutubxona statistika (so‘rovlar, so‘rovlar kategoriyasi, bajarilgan xizmatlar, foydalanilgan adabiyotlar)

Korporativ tarmoq va ma'lumot bazalari statistikasi (so'rovlar, so'rovlar kategoriyasi, bajarilgan xizmatlar, foydalanilgan adabiyotlar)	1	i- kutubxona elektron katalogi
Yig'ma elektron katalog		Kutubxonada shakllantirilgan to'liqmatnli ma'lumot bazalari
Korporativ tarmoqning to'liq matnli manbalari (umumiy manbalar)		Kutubxona foydalanuvchilari xaqida ma'lumotlar
Manbalarga xavolalar		Kutubxona ID – password
Foydalanuvchilar haqida ma'lumot		

Ko'rib o'tilayotgan OO'Yu korporativ tarmog'ida, ma'lumot bazalarini boshqaruvi (administrirovanie) markazlashgan holda amalga oshiriladi. Bibliografik yozuvlar sifati yuqori malakali mutaxassislar tomonidan tekshiriladi. Ma'lumot bazalarini yangi resurslar bilan to'ldirilishi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (OO'MTV) tomonidan darslik, o'quv qo'llanmalarni raqamlashtirish va elektron kataloglashtirishga ajratilgan moliyaviy mablag'lar bilan qo'llab quvvatlashi ostida amalga oshiriladi.

Yig'ma elektron katalog MARC21 kommunikativ formati asosida shakllantiriladi. Turli kommunikativ formatlar asosida faoliyat yurituvchi AKMLari ISO 2709 standarti va konvertordan foydalanishlari mumkin. UNIMARC formati asosida tashkil etilgan AKMLariga esa bibliografik yozuvlarni MARC21 formatiga konvertatsiya qilishga yordam beriladi.

OO'Yu Axborot-resurs markazlarining (ARM) korporativ tarmog'i mijoz-server modeliga asoslanadi.

Bu model quyidagi xususiyatlariga asosan xarakterlanadi:



- Kuchaytirilgan xarakteristikaga ega server yig'ma elektron katalogni (YEK), OO'Yu elektron kataloglarini va to'liq matnli ma'lumot bazalarini shakllantirish uchun o'rnatiladi;

- AKT bosh serverda o'rnatiladi. ARMLar ehtiyoj tug'ilganda bosh serverdagi ma'lumotlarni o'zlarining serverlariga yuklab olishlari mumkin;

- Ma'lumot bazalari boshqaruvi markazlashgan holda amalga oshiriladi. Administratorlar axborot xavfsizligini nazorat qiladilar, viruslar hujumi, YEKdagi ma'lumotlarni takroriy aks ettirilishidan himoya qiladilar;

- Har bir ARM o'zi mustaqil ravishda o'zining elektron katalogini shakllantirishi, yoki boshqa ARM xodimlari tomonidan kiritilgan, yig'ma elektron katalog markazidan (YEKM) bibliografik yozuvlarni almashishlari mumkin;

- Yuqori tezlikdagi Internet, Intranet talab etiladi, chunki, ma'lumot bazasiga murojat etuvchilar xajmi ko'pchilikni tashkil etadi;

- Markaziy bosh serverda har bir ARM uchun diskli axborot muhiti tashkil etiladi.

***Axborot tarmoqlarida axborot himoyasining bir nechta darajasi nazarda tutilgan:***

- Axborot resurslarini ruxsatsiz tahrirlash, to'ldirish, o'chirishdan himoya qilish (foydalanuvchining login va parolini tekshirish, ramzlarni tekshirish, ramzlarni generatsiyalash va kombinatsiyalash orqali login va parollarni topishga urinish (xakerlik urinishlari);

- SQL Injectiondan himoyalash;

- Bosh server ma'lumot bazalarini himoyalash.

Bibliografik yozuvlar almashinuvida ISO 2709 standarti qo'llaniladi. Har bir kutubxona bosh serverda foydalanuvchilar haqida foydalanuvchilarni resurslardan foydalanishi borasidagi statistik ma'lumotlarning bazasini tuzishlari, elektron resurslari asosida o'zlarining axborot muhitini tashkil etishlari mumkin. Shuningdek, foydalanuvchilarning va korporativ resurslarning shaxsiy kabinetlarini shakllantirish imkoniyati mavjud (jadval 2). Bu foydalanuvchilarga bosh serverdagi diskli muhit yordamida adabiyotlardan foydalanishning statistik hisobini yuritish, o'zining individual elektron kutubxonasini yaratishga imkon beradi.

3-jadval. Foydalanuvchilarning va korporativ resurslarning shaxsiy kabinetlarini shakllantirish imkoniyati

<b>Foydalanuvchining shaxsiy kabineti</b>		
i- foydalanuvchi statistikasi (so‘rovlar, so‘rovlar kategoriyasi, xizmatlarni bajarilishi, foydalanilgan adabiyotlar)		
shaxsiy elektron kutubxona		
Foydali havolalar va foydalanuvchining elektron katalogi	Shaxsiy foydalanish uchun import qilingan axborot resurslari	Foydalanuvchi tomonidan shakllantirilgan axborot resurslari
Foydalanuvchi ID – password		

O‘zbekiston ARM korporativ tarmog‘ida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu texnologiyalarni qo‘llash quyidagi afzalliklarga ega:

- ✓ Kutubxona ma’lumotlarini qayta ishlashda yuqori darajadagi tezlik;
- ✓ ARMdagi shaxsiy kompyuterlarga bo‘lgan texnik talablar va foydalanuvchilar uchun texnik talablarni pasayishi;
- ✓ moslashuvchanligi;
- ✓ samaradorligi: dasturiy ta’minot uchun qo‘shimcha mablag‘ ajratilmaydi, foydalanuvchilar uchun ma’lumot bazalariga onlayn ega bo‘lish imkoni yaratilib, kompyuter xotirasi tejaladi (ma’lumotlar va dasturlar masofaviy serverlarda saqlanadi).

Texnologik masalalarni yechish tashkiliy masalalarni yechishdan ko‘ra osonroq ekani aniqlandi. Tashkiliy masalalarga quyidagi vazifalar kiradi:

- ✓ Axborot-resurs markazlari xodimlariga avtomatlashtirilgan tizimlar va korporativ tarmoqda ishlash bo‘yicha ta’lim berish;
- ✓ Korporativ tarmoqda ish jarayonini boshqarish;
- ✓ Tarmoqni muvaffaqiyatli ishlashi uchun ijrochilar orasidagi vazifalarni to‘g‘ri taqsimlanishi;
- ✓ Resurslardan foydalanishda mualliflik xuquqi masalalarini hal qilish.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, tashkiliy masalalarni samarali hal etish loyihani amalga oshirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tashkiliy masalalarni yechishda to'liq matnli elektron resurslardan foydalanishni ta'minlash, hamda elektron nashrlarga oid mualliflik xuquqlariga rioya qilish masalalari muhim o'rin tutadi.

ARMAT tizimida uchta ish tartibi nazarda tutilgan:

1. Axborot manbadan erkin foydalanish. Muallif yoki manba egasi tomonidan mazkur manbadan ochiq foydalanishga imkon yaratish.
2. Ro'yxatdan o'tgach foydalanish imkoni. Muallif yoki manba egasi tomonidan dastlabki ro'yxatdan o'tgach, mazkur manbadan foydalanishga imkon yaratish.
3. Pullik foydalanish. Axborot manba resursning to'lovi amalga oshirilgach taqdim etiladi.

Yuqorida keltirilgan masalalarni to'liq hal etilishi ARM korporativ tarmog'ini samarali ishlashiga imkon yaratadi. *Bu model quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:*

✓ Kuchli xarakteristikalariga ega server yig'ma elektron katalogni (YEK), ta'lim muassasalari ARMLari elektron kataloglari va to'liq matnli ma'lumot bazalarini saqlash uchun o'rnatiladi;

✓ Avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi faqat bosh serverda o'rnatiladi. Zaruriyatga ko'ra ARMLar ma'lumotlarni bosh serverdan o'zlarining serverlariga yuklab olishlari mumkin;

✓ Ma'lumot bazalarini boshqarish markazlashgan holda amalga oshiriladi. Tarmoq boshqaruvchilari (administrator) axborot xavfsizligini, viruslar xuruji, YEK da ma'lumotlarni takrorlanishini va boshq. nazorat qiladilar;

✓ Har bir ARM mustaqil ravishda o'zining mutaxassislari tomonidan tuzilgan, shuningdek, boshqa ARM yoki yig'ma elektron katalog markazidan (YEKM) olib, elektron kataloglarini tashkil etishi, yurgizishi mumkin;

✓ Internet, Intranetning yuqori tezligi talab etiladi, chunki, ma'lumot bazalariga bo'lgan murojaatlar soni juda katta bo'ladi.

✓ Bosh serverda har bir ARM uchun axborot uchun xotira muhiti ajratiladi.

*Tarmoq samaradorligi ko'rsatkichlari quyidagilar:*

✓ Foydalanuvchilarni axborot resurslariga erkin ega bo'lishni ta'minlash.

✓ Oliy ta'lim muassasalari ARM va axborot kutubxona muassasalari korporativ tarmog'ining YEK orqali qanday axborot resurslari qaysi kutubxonalarda mavjud, ulardan foydalanish bo'yicha sharoitlarning mavjudligi xaqida axborot olish mumkin.

✓ Kutubxonalarda elektron kataloglashtirishda takrorlanishlarni qisqartiradi. Elektron bibliografik yozuvlarni qayta takrorlamay, yaratilganlarini tarmoq orqali olish mumkin.

✓ Axborot-kutubxona xizmatlarini keng ko‘lamda ta‘minlash. Bu axborot resurslariga masofadan turib to‘liq matnli ma‘lumot bazalaridan foydalanishga imkon yaratish, hujjatlarni yetkazib berish, ma‘lumot bazalarini statistikasini yuritish kabilar.

✓ Barcha bilim sohalariga oid bibliografik axborotni yetkazib berish sifatini va tezkorligini oshirish. Bibliografik axborot sifati jiddiy yaxshilanadi, chunki, yozuvlar bazasiga ma‘lumot kiritish markazlashgan holda yuqori malakali mutaxassislar tomonidan takroriy tekshiruvlar natijasida amalga oshiriladi.

✓ Axborotni qaerda joylashganidan qat‘i nazar foydalanish uchun imkon yaratish tamoyilini amalga oshiradi. YEK ma‘lumot bazalari Konsorsurning barcha a‘zolari uchun ochiq bo‘lib, har bir ishtirokchi qaerda joylashganidan qat‘i nazar ulardan foydalanish xuquqiga ega.

✓ Axborot resurlariga ruhsatsiz kirish borasidagi havfsizlikni ta‘minlash. YEK ma‘lumotlar bazasini boshqarish markazlashgan xolda yuqori malakali ma‘lumot bazalari va tarmoq administratorlari tomonidan boshqariladi. Bu orqali yozuvlarni himoyalash, o‘chib ketishini oldini olish, ruhsatsiz kirishlardan saqlanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. «Axborot resurslarini shakllantirish texnologiyasi» ga izoh bering.
2. Elektron resurslarni shakllantirish texnologiyalari va prinsiplarini tushuntiring.
3. Jahon axborot resurslarini qanday yig‘ish mumkin?
4. Jahon axborot resurslaridan foydalanish samaradorligin tushuntiring.
5. Axborot-kutubxona resurslarini integratsiyasi nima beradi?
6. Lokal axborot-kutubxona infrastrukturasi modeli xarakteristikasi.

### **3. AXBOROT RESURSLARINI ISHLATISHNING HUQUQIY JIHATLARI**

#### **3.1. Elektron ilmiy-ta'limiy resurslarning huquqiy himoyasi**

O'zbekistonda bugungi kunda axborot kutubxonachilik ish jarayonlarini avtomatlashtirish va elektron kutubxonalar yaratish bilan bog'liq bo'lgan axborot muhiti shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi elektron ko'rinishdagi axborotning keng tarqatilishi, undan nus'ha ko'chirishning osonligi, soddaligi va barchaning bu imkoniyatdan foydalana olishi, nafaqat insoniyatning intellektual mehnati mahsuli bo'lgan asarlar yaratishga, balki raqamli ko'rinishdagi intellektual mulk ob'ektlarining foydalanuvchilari va mulk egalari o'rtasidagi ixtiloflarning kelib chiqishiga ham sababchi bo'lmoqdi.

Ko'pgina universitetlar, axborot-kutubxona muassasalari o'zlarining elektron resurslarini elektron katalog, to'liq matn ko'rinishidagi ma'lumotlar bazasi, multimedia ko'rinishida shakllantirmoqda. Jurnal maqolalari, kitoblar, boshqa turdagi asarlarni kiritayotganda ko'p xollarda mualliflik huquqlari bilan bog'liq savollar tug'iladi. O'z asarining elektron formatda Internet yoki lokal tarmoq orqali ochiq foydalanilishiga yoki sotilishiga muallif rozimi? O'qituvchi o'z ma'ruzalarini universitet yoki maktab elektron kutubxonasiga taqdim etishni xohlaydimi? Ma'lumot bazalarimizga xorijiy mualliflarning yoki noshirlarning roziligisiz elektron darsliklar, maqolalar va shu kabilarni kiritilishi to'g'rimi?

Mazkur muammo bugungi kunda, nafaqat, elektron resurslarni shakllantirish ishlarini endi boshlayotgan mamlakatlarda dolzarb. Shuni ta'kidlash joizki, xorijiy matbuot va axborot vositalarida rivojlangan mamlakatlardagi mualliflik himoyasi masalalari bilan bog'liq sud jarayonlari haqidagi maqolalar tez-tez ko'zga chalinmoqda. Ko'plab mualliflar global axborot makonida o'zlarining huquqlari borasida fikrlarini bildirmoqdalar.

Asarlarni elektron taqdim etishning xilma-xilligi, axborotni tarqatishda Internet va telekommunikatsiya vositalarining ulkan imkoniyatlari o'z navbatida asar yaratuvchilari uchun mualliflik huquqini himoya qilish muammosini yuzaga keltirdi. Shu munosabat bilan elektron resurlarni shakllantiruvchi axborot-kutubxona

muassasalari va boshqa muassasalar mazkur resurslarning mualliflik huquqlarining himoyalanganligi, ulardan foydalanish huquqiga qanchalik ega ekanliklari, respublikamizda mazkur masalaga qaratilgan hukumat qarorlari va qonunning mavjudligiga ahamiyat qaratishlari zarur. Bunda katta mas'uliyat qimmatli elektron fondlarga ega bo'lgan va yangilarini yaratayotgan axborot–kutubxona muassasalari zimmasiga tushadi.

«*Mualliflik huquqi (MH)*» tushunchasi 1709 yildan beri rivojlanib kelmoqda. Bu huquqning asosiy maqsadi – insonning intellektual faoliyatini himoyalash va rag'batlantirishdan iborat. Mualliflik huquqi tushunchasining o'zi XVIII asrning boshidayoq paydo bo'lgan. Bu insonning intellektual faoliyatini himoya qilish bilan birga uni taqdirlash ham hisoblanadi. Elektron resurslarni huquqiy himoyalash nafaqat obuna bo'lish va jahon ma'lumot bazalaridan foydalanishga imkon yaratishda, balki lokal va korporativ tarmoqda o'z raqamli kutubxonalarini shakllantirishda ham muhim jihatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

*MH termini ikki xil mazmunga ega:*

- O'zining ishini takrorlash yoki ommaviy taqdim etish mumkinligi to'g'risidagi qarorni qabul qilish muallifning shaxsiy huquqi;
- Muallifning huquqlarini himoya qilish yuridik tizimi, moddiy huquqiy tizimning bir qismi.

*MH (Mualliflik huquqi) asarlarga o'zining umumiy qattiq talablarini qo'yadi:*

- Muallif o'z ishiga ma'naviy huquqqa ega;
- Hech kim muallifning ruxsatisiz uni o'zgartirish yoki muallifning familiyasini ko'rsatmasdan foydalanish huquqiga ega emas;
- Muallif bajargan ishi uchun mukofot olish huquqiga ham ega;
- prodyuser/nashriyotchi ham ko'pchilik hollarda qo'shgan hissasi uchun mukofot olishi kerak.

Barcha holatlarda ham ushbu qattiq talablar qo'yiladimi? Har doim ham mualliflik huquqi qattiq talablariga amal qilish zarurmi? Agar shu masalani chuqurroq tahlil qilib chiqilsa, umumiy qattiq qoidalardan qator chetlanishlarni ko'rsatish mumkin. Bu asosan MH uchun ma'lum chegirmalar nima maqsadda berilishiga taalluqlidir: ta'lim maqsadlaridami? Madaniyatni rivojlantirish maqsadlaridami? Ijtimoiy maqsadlardami?

Kutubxona – bu axborot resurslaridan foydalanish faolligi eng ko‘p kuzatiladigan soha bo‘lganligi uchun aynan kutubxona xodimlari qandaydir alohida shartlarni hisobga olib axborot resurslaridan foydalanish cheklanishlari hamda imkoniyatlari doirasini o‘rganishlari zarur.

Kutubxonalar endi kitob, kasseta, disklar kabi fizik ob‘ektlarga ega bo‘lishlari, balki Internet tarmog‘idan va boshqa raqamli axborot resurslaridan (elektron jurnallar, ma‘lumot bazalari va shu kabilar) erkin foydalanish huquqiga ega bo‘lmoqdalar.

Kutubxonachilarda yangi tashvishlar va vazifalar paydo bo‘lmoqda:

- Elektron resurslardan foydalanish tartibi to‘g‘risida litsenziyali kelishuvlarni tuzish.
- Ular kutubxona fondini bir qismi sifatida tarmoq xujjatlarini tanlab olish, baholash va solishtirishni o‘rganib olishlari kerak.
- Shartnoma va shartnoma huquqini o‘qish uchun qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalar olishlari hamda muzokaralar olib borish ko‘nikmalarini egallashlari kerak.

MH ga amal qilish ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy va boshqa asrlarni rag‘batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O‘z asarlarini kutubxonalarda e‘lon qilish va taqdim etishga ijodiy shaxslarni jalb qilish uchun samarali rag‘batlantirish mexanizmlarini topish zarur. Rivojlangan chet davlatlari tadqiqotlari nima uchun mualliflar kutubxonalarda erkin foydalanish uchun o‘z asarlarini taqdim eta olishlarining muhim sabablaridan biri bu – muallifning maqolalari yoki kitobidan foydalanish ko‘rsatkichlarining ancha o‘sishi ekanligini ko‘rsatadi. Mana shuning hisobiga uning asarlariga o‘quvchilarning qiziqishlari va talab darajasi bir necha bor ortadi.

Ammo, har qanday holatda ham kutubxona muallif bilan litsenziyali kelishuv tuzishi lozim. Kelishuv tuzishning qandaydir qat‘iy standartlari mavjud emas, ammo muallif bilan imzolanishida amal qilinishi kerak bo‘lgan tomonlari bor. Bu tomonlari nimalardan iborat?

Odatda litsenziyali kelishuvlarda quyidagi tushunchalarga kiruvchi moddalar bo‘ladi:

Kelishuv tomoni	Litsenzion to‘lov
Deklarativ qismi	Litsenziya egasining (kutubxonaning) harakatlari
Kelishuv izohlari	Bajarish va baholash
Aniqlik kiritish	kafolotlari, majburiyatlar, zararni o‘rnini to‘ldirish

Qonunni tanlash	Fors-major
Shartnomaning asosiy qismi	Huquqini sotish(berish)
Ushub litsenziya tomonidan beriladigan huquq	Xabardor qilish
Qo'llash cheklanishlari	kelishmovchiliklarni hal qilish
Amal qilish muddati va tugashi sanasi	qo'shimcha hujjatlar
Yetkazib berish usuli va litsenziyalashtirilgan materiallardan foydalanish	Imzolar

### **3.2. Jahon elektron axborot resurslariga kirish sharoitlari va huquqiy shartlari**

Butundunyo intellektual mulk egaligi (WIPO) tashkiloti 1974 yil tashkil etilgan bo'lib, hozirda Birlashgan Millatlar tashkiloti organi sifatida intellektual mulk borasida ishtirokchi mamlakatlarga bo'lgan talablarni o'rnatadi. Bu talablar quyidagi hujjatlarda o'z aksini topadi:

- 1996 yilgi Mualliflik huquqi to'g'risidagi shartnoma (The WIPO Copyright Treaty 1996), Ijro va Fonogrammalar bo'yicha 1996 yilgi shartnoma VOIS (The WIPO Performances and Phonograms Treaty 1996);
- VOIS va VTO o'rtasidagi 1995 yilgi shartnoma (the Agreement between WIPO and WTO 1995);
- Adabiy va badiiy asarlarni himoyasi bo'yicha Bern Konvensiyasi 1971 yilgi Parij akti (the Paris Act 1971),
- Ijrochilar, ovoz yozish prodyuserlari, eshirttirish tashkilotlarini himoyalash xalqaro konvensiyasi (the International Convention for the Protection of Performers, Producers of Phonograms and Broadcasting Organisations) i
- 1961 yilgi Rim konvensiyasi (the Rome Convention 1961).

Xalqaro Savdo tashkilotlarga a'zo bo'lish istagini bildirgan mamlakatlar (WTO) Shartnomani ratifikatsiya qilishga majburlar Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPs) - intellektual mulk xuquqlarini savdo jihatlari bo'yicha o'z milliy qonunchilik doirasida Shartnomani qabul qilishlari lozim. Bu WTO ga



a'zo mamlakatdunyo bozoriga chiqish uchun muqobil bo'lgan mualliflik xuquqining xalqaro normalariga qat'iy amal qilishini anglatadi.

Ko'pgina mamlakatlarda mualliflik huquqini asosiy strukturasi shakllantiruvchi Bern konvensiyasiga 150 dan ortiq mamlakatlar qo'shilgan. Bern konvensiyasining shartnoma shartlari qonunchilikdagi eng so'nggi o'zgarishlarni hisobga oladi. Qonunchilikdagi eng so'nggi o'zgarishlar quyidagi prinsiplar ta'siri ostida shakllantiriladi:

1. Shartnoma imzolagan har bir mamlakat kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha asarlarga bir xil himoyani amalga oshirishi zarur.

2. Yaratilgan asarga hech qanday rasmiyatchiliklarsiz mualliflik xuquqining mavjud bo'lishi.

3. Mualliflik huquqi himoyasining minimal muddatlarining belgilanishi.

4. Barcha mamlakatlar mualliflik huquqi himoyasiga birdaniga bir xil darajada amal qila olmasliklari tan olinadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun Bern konvensiyasi talablariga biroz yengilliklar kiritilgan.

5. Mualliflarning asosiy huquqlari yoritilgan.

6. Mualliflik xuquqi mamlakatning kelib chiqishiga bog'liq bo'lmaydi.

7. Barcha istisnalar kutubxonalar uchun: Bern konvensiyasi doirasida yuqoridagi huquq va majburiyatlarning istisnolari tariqasida milliy miqyosda qabul qilinadi

Universal Copyright Convention - bu mualliflik huquqi bo'yicha Xalqaro konvensiyadir. Uning maqsadi davlatlarni Bern konvensiyasini imzolashga jalb etib, mualliflik huquqi borasidagi Yevropa konsepsiyasi va mualliflik huquqining umumhuquqiy g'oyalari o'rtasidagi qat'iy iqtisodiy huquqlar konsepsiyasiga asoslangan uzilishlarni qisqartiradi.

Hisoblash va orgtexnikalarning zamonaviy vositalari ARMLarda hujjatlarni ko'paytirishni, ulardan nus'ha olishni juda ham soddalashtirib, qulay va arzon bo'lishini ta'minladi. Zamonaviy bosqichda yirik Milliy kutubxonalarni foydalanuvchilarni axborot so'rovlariga javob berishi va mualliflik xuquqini yuridik talablarini bajarilishini kutubxonalarning moliyaviy manfaatlari bilan bog'liqligini mutanosibligini tahlil qilamiz. Axborot-kutubxona faoliyati bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, hujjatlarni nus'halashga bo'lgan chegaralanishlar sababchisilari sifatida shartli ravishda bir necha guruhga bo'lish mumkin: Xuquqiy, miqdoriy, maqsadi bo'yicha va foydalanish shartlari bo'yicha. Quyida dunyoning

yetakchi kutubxonalarining hujjatlarni nus'halash bo'yicha mualliflik xuquqlari tajribasini ko'rib o'tamiz. (Germaniya Milliy kutubxonasi, AQSh Kongress kutubxonasi, Britaniya kutubxonasi, Fransiya Milliy kutubxonasi, Fin Milliy kutubxonasi, Daniya Qirollik kutubxonasi, Avstraliya Milliy kutubxonasi).

### *Huquqiy cheklovlar*

Huquq me'yorlari asosida har bir kutubxona foydalanuvchilarini o'z fondlarida saqlanayotgan hujjatlar mualliflik huquqi, intellektual mulk himoyasi ostidagi ekanligi, yoxud boshqa qonuniy hujjatlar asosida himoyalanihini tushuntirishlari lozim. Bu maqsadlar uchun odatda broshyuralar, mualliflik huquqi to'g'risida nusxalash va foydalanish haqida axborot varaqalari orqali tarqatiladi.

Mualliflik huquqi muallif vafotidan keyin 70 yilgacha amal qiladi. Britaniya kutubxonasida bunday mualliflarning asarlarini nusxalashda asarning huquq egalari ruxsat olinishi yoki nusxa olish uchun haq to'lanishi lozim. (copyright fee). Lekin bu tartib notijorat maqsadda foydalanuvchilar uchun qo'llanilmaydi.

AQShning Kongress kutubxonasi materiallarni nus'halash borasidagi siyosatda mualliflik huquqi to'g'risidagi Qonunga asoslanadi. Huquq egalari nusxalashga, asarni ijro etishga ruxsat berishda bitta chegaralanish, bu «halol foydalanish» («fair use») doktrinasidir.

Kodeks halol foydalanishda har bir konkret holat uchun to'rtta faktorni aniqlab beradi:

- 1) Foydalanishning maqsad va xarakteri –tijorat maqsadlaridami yoki notijorat ta'limiy maqsadlardami
- 2) Asarlarga bo'lgan mualliflik huquqlarining tabiati;
- 3) Mualliflik huquqi qonuni bilan himoyalangan asardan foydalanilgan qismining hajmi va ahamiyati;
- 4) potensial bozorda mualliflik huquqi qonuni bilan himoyalangan asardan foydalanishdan keladigan samaradorlik hamda uning qiymatiga ta'siri.

AQShda asardan «halol foydalanish»da quyidagi holatlarni ko'rib o'tish mumkin:

- tanqidiy tahlilda yoki havola keltirishda, ilustrasiyalarni sharhlashda qo'llanilishi;
- ilmiy yoki texnik ishlarda ilustrasiya, kuzatishlarni yoritib berish maqsadlarida asardan qisqacha parchalarni keltirish mumkin.

### *Miqdoriy chegaralanishlar*

Kutubxonalar fondidagi materiallarni nusxalash va ko‘paytirishda faqat shaxsiy va notijorat maqsadlarda foydalanish uchun ruxsat etiladi, boshqa hech qanday maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Taxminan shunday mazmundagi matn kutubxonalarning nusxalash bo‘limi qoidalariga kiritilgan. Britaniya kutubxonasi o‘z foydalanuvchilarini nusxalashning maqsadi: ilmiy tadqiqot yoki mustaqil ta’lim olish maqsadida ekani va hech qanday tijorat maqsadlariga yo‘naltirilmaganligi haqidagi blank ariza to‘ldirilishi haqida ogohlantiradi. Britaniya kutubxonalari va Fransiya Milliy kutubxonasi saytlarida miqdoriy belgilariga ko‘ra chegaralanishlar ko‘rsatilgan.

Fransuzlar bu borada liberal: kitoblarga nisbatan quyidagi qoidalar qo‘llaniladi. Bunga ko‘ra ishning umumiy xajmidan 10% ni nusxalash mumkin, vaqtlilik nashrlarni esa – nashrning 30% nus‘halash mumkin.

Britaniya kutubxonasi:

- kitob yoki broshyura, hisobotlarni 5% gacha, yoki bitta bo‘limni;
- bitta moqolani butunligicha yoki agar maqola katta bo‘lsa, jurnal, gazetaning 5% gacha;
- konferensiya materiallaridan bitta maqolani butunligicha, agar maqola katta bo‘lsa 5% gacha;
- hikoya va she‘rlarning antologiyasining 5% gachasi, agar 10 varroqdan ortmasa;
- sud materiallari yoki chop etilgan ma‘ruzalarning bir butuni yoki 5% gacha nusxalashga ruxsat beradi.

Dunyoning yetakchi kutubxonalarining mualliflik huquqi va nusxalash bo‘yicha normativ talablarining asosiy manbalari quyidagilar:

<a href="http://www.copyright.gov/fls/fl102.html">http://www.copyright.gov/fls/fl102.html</a> Copyright – Fair use (Biblioteka Kongressa SShA)	
<a href="http://www.bl.uk/services/npo/pdf/microfilmquality.pdf">http://www.bl.uk/services/npo/pdf/microfilmquality.pdf</a>	(Britanskaya biblioteka)
<a href="http://www.bnf.fr/site_bnf_eng/tools/copyright.htm">http://www.bnf.fr/site_bnf_eng/tools/copyright.htm</a>	Bibliothèque nationale de France : Small reminder on french copyrights (NBF)
<a href="http://www.bnf.fr/pages/dernmin/pdf/photocopies.pdf">http://www.bnf.fr/pages/dernmin/pdf/photocopies.pdf</a>	
<a href="http://www.lib.helsinki.fi/english/services/rapidcopies.htm">http://www.lib.helsinki.fi/english/services/rapidcopies.htm</a>	(NB Finlyandii)
<a href="http://www.kb.dk/en/priser/foto/foto_8_generelle_betingelser.html">http://www.kb.dk/en/priser/foto/foto_8_generelle_betingelser.html</a>	(Korolevskaya biblioteka Danii)
<a href="http://www.nla.gov.au/pub/gateways/issues/77/story08.html">http://www.nla.gov.au/pub/gateways/issues/77/story08.html</a>	The Fair

Dealing Review and its importance for Australian libraries by Sarah Waladan

<http://www.lib.helsinki.fi/english/services/rapidcopies.htm>  
(NB Finlyandii)

(NB)

### **3.3. O‘zbekistondagi axborot kutubxona muassasalarida elektron nashrlardan foydalanishning huquqiy jihatlari**

Dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda mualliflik huquqlari «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi» (21.07.2006 yil) Qonun bilan belgilanadi. Afsuski elektron nashrlar bilan bog‘liq punktlarni hisobga olish mumkin bo‘lgan moddalari yoki alohida qonun hali yo‘q, ammo hozirgi paytda asarlardan kutubxonalarda foydalanishda MHni himoya qilish uchun ushbu Qonunning qator moddalaridan foydalanishimiz mumkin. Elektron resurslardan nusxa olish, shakllantirish, yozma hamda elektron shakllarini tarqatishda kutubxonalar amal qilishlari mumkin bo‘lgan Qonunning eng muhim moddalarini ko‘rib chiqamiz.

4-moddaga binoan «MH quyidagilarga taalluqli: O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblangan yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy turar joyiga ega bo‘lgan mualliflar asarlari yoki boshqa MHning dastlabki egalariga; mualliflarning fuqaroligi va doimiy turar joyidan qat’iy nazar birinchi bor O‘zbekiston Respublikasida e‘lon qilingan asarlarga; O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga binoan O‘zbekiston Respublikasida qo‘riqlanadigan asarlarga».

Mualliflik huquqi (MH) adabiyot asarlariga ham taalluqli (5-modda). Elektron resurslarni, elektron ma‘lumotlar bazalarini, elektron kutubxonalarni yaratishda biz kimningdir asaridan foydalanadigan bo‘lsak ushbu moddaga amal qilishimiz kerak bo‘ladi.

MH biror bir obyektiv shaklda bo‘lgan, e‘lon qilingan hamda e‘lon qilinmagan asarlarga ham taalluqli: yozma (qo‘lyozma, mashinada terilgan, nota yozuvi va shu kabilar); ovozli yoki video (mexanik, magnitli, raqamli, optik va shu kabi); tasvir (rasm, eskiz, kartina, plan, chizma, kino-, tele-, video- yoki fotokadr va shu kabilar); boshqa formatlardagi.

6-Moddaga binoan quyidagilar mualliflik huquqi hisoblanadi:

adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o‘quv, publitsistik va boshqalar)	audiovizual asarlar
---	---------------------

drama va ssenariy asarlari	fotosurat asarlari va fotosuratga o'xshash usul bilan olingan asarlar
matnli yoki matnsiz musiqa asarlari	geografik, geologik va boshqa xaritalar, planlar, eskizlar, geografiyaga, topografiyaga hamda boshqa fanlarga taalluqli asarlar
musiqali drama asarlari	audiovizual asarlar

Shundan kelib chiqqan holda, agar darsliklar, ilmiy maqolalar, kitoblar va h.k.larni raqamli turiga aylantirmoqchi bo'lsangiz ushbu asarlardan ixtiyoriy foydalanish, ko'paytirish bo'yicha Qonun qo'yadigan cheklanishlarni hisobga olish lozim.

7-moddaga binoan asarlarning bir qismi, asarning xosilasi va tarkibiy qismlari ham mualliflik huquqi ob'ektlari hisoblanishini esda tutish zarur. Bunga quyidagilar kiradi: mustaqil foydalanilishi mumkin bo'lgan asarning ma'lum bir qismlari (shu jumladan uning nomi); asarning xosilalari (tarjimalar, ishlanma asarlar, annotatsiyalar, referatlar, muxtasar xulosalar, sharhlar, inssenirovkalar, aranjirovkalar, soddalashtirishlar hamda fan, adabiyot va san'at asarlarining boshqa qayta ishlanmalari); to'plamlar (ensiklopediyalar, antologiyalar, ma'lumotlar bazalari) va materiallarning tanlab olinishi yoki joylashtirilganligiga ko'ra ijodiy mehnat natijasi bo'lgan boshqa jamlama asarlar mualliflik huquqi ob'ektlari hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, elektron to'liq matnli ma'lumotlar bazasini, multimediali ma'lumotlar bazasini yaratishda kimning asarlaridan, qay darajada (to'laligicha yoki qisman, matnli yoki multimediali shaklda) foydalanilayotganligi hisobga olinishi kerak.

Rasmiy hujjatlar (qonunlar, qarorlar va shu kabilar) hamda ularning tarjimalari mualliflik huquqi ob'ektlari hisoblanmaydilar; rasmiy belgilar va ramzlar (bayroqlar, gerblar, ordenlar, pul belgilar va shu kabilar); odatiy ommaviy axborot xususiyatiga ega kun yangiliklari to'g'risidagi yoki kundalik hodisalar to'g'risidagi xabarlar. Ushbu xujjatlar, agar ochiq matbuotda e'lon qilingan yoki jamoatchilik xabardor bo'lsa xech bir maxsus ruxsatlarsiz va kelishuvlarsiz elektron ma'lumotlar bazasiga kiritilishi mumkin.

Kim asarning muallifi hisoblanadi? Mualliflik huquqi barcha qoidalariga amal qilish uchun kimga murojaat etish kerak? Asarning asl nus'hasi yoki nus'hasida muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs muallif hisoblanadi (10-modda).

Asar imzosiz yoki taxallus ostida chop etilgan taqdirda (muallifning tahallusi uning kim ekanligiga shubha qoldirmaydigan hollar bundan mustasno), asarni chop etgan, asarda ismi-sharifi yoki nomi ko'rsatilgan noshir, agar boshqa dalillar bo'lmasa, muallifning vakili hisoblanadi hamda muallifning huquqlarini himoya qilish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash huquqiga egadir. Bu qoida bunday asar muallifi o'z shaxsini oshkor etguniga va o'zining muallif ekanligini ma'lum qilguniga qadar amalda bo'ladi.

Ammo asar bir necha mualliflar tomonidan yozilgan bo'lishi mumkin. Xamkorlikdagi asarga MH shunday asar ajralmas yaxlitni tashkil qiladimi yoki har biri mustaqil ahamiyatga ega qismlardan tashkil topadimi, bundan qat'iy nazar xamkorlikda xammualiflarga tegishli bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda mualliflar o'rtasida qandaydir rasmiy kelishuvlar bo'lmasa xammualiflardan har biri mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan o'zi yaratgan asarning bir qismidan foydalanish huquqiga ega (12-modda).

Ko'pincha qandaydir asarlar qayta ishlanadi. Bu holat odatda ilmiy asarlar, kitoblar bilan kuzatiladi. Ular asosida boshqa mualliflar to'ldirishlar va qo'shimchalar bilan o'z asarlarini yaratadilar. Ya'ni, umuman olganda yangi asar paydo bo'ladi. Agarda yaratilayotgan elektron resursda boshqa mualliflarning asarlaridan foydalanilgan bo'lsa, mohiyati bo'yicha asarning hosilasi hisoblanadi.

Xosila asarning muallifi qayta ishlangan asarning muallifi huquqlariga amal qilish sharti bilan o'zi yaratgan asarga bo'lgan MH dan foydalanadi. Bular dastlabki muallifga ilova yoki qandaydir kelishuvlar bo'lishi kerak. Xosila asarning muallifi MH qayta ishlashga asos bo'lgan asarni boshqa shaxslar tomonidan qayta ishlashlariga to'siq bo'lmaydi.

Muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usul bilan foydalanish huquqiga ega (19-modda). Ya'ni o'z asarlarini raqamlashtirishga, ma'lumotlar bazasida saqlashga, Internet orqali tarqatish uchun berish yoki bermasligini o'zi hal qilishi huquqiga ega.

Asardan foydalanishga muallifning favqulotda huquqi quyidagi harakatlarni amalga oshirish yoki ruxsat berish huquqini anglatadi:

1) asarning asl nus'hasini yoki nus'halarini sotish yoki boshqa xususiyliklik huquqini (tarqatish huquqini) berish bilan tarqatish. Misol uchun, muallif asarning raqamlashtirilgan shaklini faqatgina ushbu kutubxonaning lokal ma'lumotlar bazasida saqlanishi mumkinligi sharti bilan o'z asarini kutubxonaga berishi mumkin;

2) asarni o'zgartirish, bezash yoki boshqa usul bilan qayta ishlash (qayta ishlash huquqi);

3) muallif asaridan har bir foydalanish turi uchun mukofot olish huquqiga ega (mukofot olish huquqi).

Asardan daromad olish maqsadida foydalanilganmi yoki undan foydalanishda buni ko'zlanmaganmi, bundan qat'iy nazar, u foydalanilgan hisoblanadi. O'z o'quvchilariga bepul taqdim etish uchun asarni raqamlashtirgan, ammo buni muallif bilan kelishmagan kutubxonalar, ARMLar ham MHni buzgan hisoblanadilar.

«Qaysi asarlardan muallifning ruxsatisiz foydalanishimiz mumkin?», «Muallif olamdan o'tgan bo'lsa nima qilish kerak?», «Qadimiy qo'lyozmalar, nodir asarlarni nima qilish mumkin?», «Ular kimning mulki?», «Ularni ortiqcha qog'ozbozliksiz raqamlashtirish mumkinmi?» degan savollar juda muhim.

Asar muallifining yoki boshqa huquq egasi roziligisiz va mukofot to'lamasdan kutubxonalar erkin foydalaniladigan asarlar nusxalarini faqatgina vaqtinchalik foydalanishga taqdim etishlari mumkin. Bunda mualliflik huquqi ob'ektlari bo'lgan, raqamli shaklda ifodalangan asarlarning nusxalari, shu jumladan kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanish tartibida beriladigan asarlarning nusxalari, bu asarlarning raqamli shakldagi ko'chirma nusxalarini yaratish imkoniyatini istisno etish sharti bilan faqat kutubxonalarning binosi ichida vaqtinchalik foydalanishga berilishi mumkin.(26-modda)

Asardan muallifning ismi-sharifi, olingan manbasini albatta ko'rsatgan holda hamda asardan normal foydalanilishiga zarar yetkazmaslik va muallifning qonuniy manfaatlariga putur yetkazmaslik sharti bilan quyidagi tarzda erkin foydalanishga yo'l qo'yiladi:

Daromad olishni ko'zlamagan holda, muallifning yoki boshqa huquq egasining roziligisiz va haq to'lamagan holda, lekin asaridan foydalanilayotgan muallifning ismi-sharifini va olingan manbaini albatta ko'rsatgan tarzda bir nusxada reprografik takrorlashga yo'l qo'yiladi (27-modda):

1) kutubxonalar va arxivlar tomonidan - asarning yo'qolgan yoki yaroqsiz bo'lib qolgan nus'halarini tiklash, almashtirish uchun, shuningdek o'z fondlaridan bu asarlarni biron sabab bilan yo'qotgan boshqa kutubxonalar va arxivlarga asarlarning nusxalarini berish uchun chop etilgan asarni;

2) kutubxonalar va arxivlar tomonidan fuqarolarning o'quv va tadqiqot maqsadlaridagi so'rovlari bo'yicha, shuningdek ta'lim

muassasalari tomonidan auditoriya mashg'ulotlari uchun to'plamlarda, gazetalar va boshqa davriy nashrlarda chop etilgan ayrim maqolalar va kichik hajmli asarlarni, chop etilgan yozma asarlardan (suratli yoki suratsiz) qisqa parchalarni bir nusxada.

Kutubxona o'z o'quvchilari uchun mana shunday ixtisoslashtirilgan elektron kutubxonalarni yaratishi mumkin.

Qonun dasturli mahsulotlar va ma'lumotlar bazalari egalari va foydalanishga MH ni ham qamrab oladi. EHM uchun dasturning yoki ma'lumotlar bazasining nusxasiga qonuniy ega bo'lgan shaxsning keyinchalik shaxsiy foydalanish maqsadida EHM uchun dasturni yoki ma'lumotlar bazasini erkin takrorlashga va soddalashtirishga bo'lgan huquqi qonun bilan belgilanadi. (32-modda).

Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin ellik yil davomida amal qiladi (35-modda). Hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko'rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin ellik yil davomida amal qiladi. Agar asarning muallifi va xammualliflari ellik yil ilgari vafot etgan bo'lsalar kutubxona xech bir maxsus ruxsatlarsiz elektron resurslar yaratishi va ularni lokal tarmoqda, Internetda hamda sotish uchun taqdim etishi mumkin.

Muallifning vafotidan keyin birinchi marta e'lon qilingan asarga bo'lgan mualliflik huquqi asar e'lon qilinganidan keyin ellik yil davomida amal qiladi. Ya'ni kutubxonada saqlanadigan qadimiy qo'lyozmalar qo'shimcha ruxsatlarsiz raqamlashtirilishi mumkin.

Muallifning mulkiy huquqlari meros bo'yicha o'tadi. (36-modda).

Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari meros bo'yicha o'tmaydi. Muallifning merosxo'rlari ko'rsatilgan huquqlarni himoya qilishga haqlidir. Merosxo'rlarning ushbu huquqlari muddat bilan cheklanmaydi. Asarlarga bo'lgan mualliflik huquqining amal qilish muddatining tugashi ularning ijtimoiy mulkka aylanishini bildiradi.(37- modda).

Mulkiy huquqlar faqat mualliflik shartnomasini tuzish yo'li bilan huquq egasi tomonidan boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin (38-modda).

Muallifning mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi asosida yoki mutlaq bo'lmagan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.



Mualliflik shartnomasi (yoki litsenziya kelishuvi)da quyidagilarni nazarda tutish kerak:

- 1) asardan foydalanish usullari (mazkur shartnoma asosida o'tkaziladigan aniq huquqlar);
- 2) asardan foydalanishning har bir usuli uchun to'lanadigan haq miqdori va (yoki) to'lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, uni to'lash tartibi hamda muddatlari (39-modda).

Misol uchun muallif o'z asarining elektron shaklidan faqatgina ushbu kutubxona doirasida (kompyuterli o'quv zalida) va uning o'quvchilari uchun nusxa olish huquqsiz foydalanishga ruxsat berishi mumkin. U elektron versiyasini sotishda foizlarni talab qilishi yoki xech qanday cheklanishlarsiz kutubxonaga undan foydalanishda to'la erkinlik berishi mumkin. Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish huquqi qancha muddatga o'tkazilishi to'g'risida shart belgilanmagan taqdirda, shartnoma tuzilgan sanadan boshlab besh yil o'tganidan keyin, agar foydalanuvchi shartnomani bekor qilinguniga qadar kamida olti oy oldin bu haqda yozma ravishda ogohlantirilgan bo'lsa, shartnoma muallif tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish huquqi amal qiladigan hudud doirasi to'g'risida shart bo'lmagan taqdirda, shartnomaga binoan boshqa shaxsga o'tkazilayotgan huquqning amal qilishi O'zbekiston Respublikasi hududi bilan cheklanadi. Boshqa shaxsga o'tkazilishi mualliflik shartnomasida bevosita nazarda tutilmagan asardan foydalanish huquqlari boshqa shaxsga o'tkazilmagan deb hisoblanadi.

To'lanadigan haq mualliflik shartnomasida asardan foydalanishning tegishli usuli uchun olinadigan daromaddan foiz tarzida belgilanadi yoki agar buni asarning xususiyati yoki undan foydalanishning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq holda amalga oshirish mumkin bo'lmasa, shartnomada qayd etilgan summa tarzida yoxud boshqacha tarzda belgilanadi.

Shartnomada, masalan, asarni onlayn foydalanish uchun pullik taqdim etilganda foydaning ma'lum qismini to'lash kabi mukofot turi ko'zda tutilishi mumkin. Bunday holatlarda manbaga necha bor murojaat etilganligi, asardan necha bor nusxa olinganligi qat'iy qayd etilishi kerak.

Asar mualliflari, ijrochilari yoki boshqa huquq egalari o'z mulkiy huquqlarini amalga oshirish maqsadida o'z mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar tuzishga haqlidir (56-60-moddalar).

Kutubxona konsorsiumi shunday tashkilot bo'lishi mumkin. Konsorsium, notijorat tashkilot sifatida muallif bilan asarning elektron shaklidan va kutubxona – konsorsium a'zolari doirasida foydalanishga eksklyuziv huquqga shartnoma tuzishi mumkin. Bu holat konsorsiumga birlashgan kutubxonalariga har biri alohida shartnoma tuzgan holatlarga qaraganda mablag'ni ancha tejashga, muallifga esa munosib mukofot olishiga imkon beradi. Konsorsium kutubxonalari kutubxonalardan biriga mualliflar bilan muzokaralar olib borish va konsorsium nomidan shartnomalar imzolash vakolatini berishlari mumkin.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning faoliyatiga nisbatan monopoliyaga qarshi qaratilgan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklashlar qo'llanilmaydi.

Konsorsium o'zi qaysi huquq egalarining nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, shu huquq egalarining nomidan va ulardan olingan vakolatlar asosida quyidagi huquqlarga ega bo'ladi (58-modda):

1) mukofot miqdorini va shartnomalarning tuzilishiga doir boshqa shartlarni foydalanuvchilar bilan kelishib olish;

2) konsorsium boshqarayotgan huquqlardan foydalanish uchun foydalanuvchilar bilan shartnomalar tuzish;

3) tashkilot to'lanadigan haqni yig'ish bilan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda shartnoma tuzmasdan shug'ullangan taqdirda, bunday haq miqdorini foydalanuvchilar bilan kelishib olish;

4) shartnomalarda nazarda tutilgan haqni yig'ish, taqsimlash va to'lash;

5) bunday tashkilot o'zi boshqarayotgan huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo'ladigan har qanday yuridik harakatlarni bajarish;

6) shunday tashkilot tomonidan belgilangan tartibda asarlarni va (yoki) turdosh huquqlar ob'ektlarini, shuningdek asarlarga va (yoki) turdosh huquqlar ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatga olishni va (yoki) saqlashga topshirishni amalga oshirish.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot huquq egalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin (62 Modda).

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ✓ mualliflarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish;

✓ ijrochining ism-sharifga bo‘lgan va ijroni har qanday tarzda buzib ko‘rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz qilinishidan himoya qilish huquqlarini buzish;

✓ huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar yoki turdosh huquqlar ob‘ektini takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish, ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda haq to‘lash to‘g‘risidagi talablarni buzish;

✓ asarlardan yoki turdosh huquqlar ob‘ektlaridan huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha olingan huquqlarni oshirib yuborgan holda foydalanish;

✓ huquq egalarning mulkiy huquqlarini boshqacha tarzda buzish mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzishdir.

Asarlarning va turdosh huquqlar ob‘ektlarining takrorlanishi yoki tarqatilishi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan holda amalga oshiriladigan nusxalari kontrafakt nusxalardir. Ushbu Qonunga muvofiq muhofaza qilinadigan asarlarning va turdosh huquqlar ob‘ektlarining bunday asarlarni va turdosh huquqlar ob‘ektlarini muhofaza qilish to‘xtatilgan yoki hech qachon muhofaza qilinmagan davlatlardan huquq egalarning roziligisiz import qilinadigan nusxalari ham kontrafakt nusxalardir.

Elektron resurslarni yaratish va foydalanishda mualliflik huquqini himoya qilish bo‘yicha muhim tomonlarini ko‘rsatish mumkin.

1. An‘anaviy va elektron ko‘rinishda taqdim etilganda quyidagilar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanadi:

✓ adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o‘quv, publitsistik va boshqa asarlar);

✓ drama va ssenariy asarlari;

✓ matnli yoki matnsiz musiqa asarlari;

✓ musiqali drama asarlari;

✓ xoreografiya asarlari va pantomimalar;

✓ audiovizual asarlar;

✓ rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarlari va tasviriy san‘atning boshqa asarlari;

✓ manzarali-amaliy va sahna bezagi san‘ati asarlari;

✓ fotografiya asarlari va fotografiyaga o‘xshash usullarda yaratilgan asarlar;

✓ geografik, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, jo'g'rofiya, topografiya va boshqa fanlarga taalluqli tarhlar, eskizlar va asarlar.

2. Asarning asl nusxasida yoki nusxasida muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, asar muallifi hisoblanadi. Elektron to'la matnli ma'lumotlar bazasini va multimediali ma'lumotlar bazasini yaratishda kimning asarlaridan, qay darajada (to'laligicha yoki qisman, matnli yoki multimediali shaklda) foydalanayotganligimizni hisobga olish kerak.

3. Muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanish mutlaq huquqiga ega. Muallif kutubxonaga o'z asarlarini raqamlashtirish, ma'lumotlar bazasida saqlash, Internet orqali tarqatish uchun ruxsat berishi yoki ruxsat bermasligi mumkin.

4. Muallif o'z asaridan elektron ko'rinishda foydalanganligi uchun mukofot olish huquqiga ega (mukofot olish huquqi). Ushbu huquq muallif va kutubxona o'rtasida maxsus kelishuv bilan belgilanadi.

5. Muallif rozilgisiz va mukofot to'lashsiz quyidagi hollarda ularning asarlarini elektron kutubxonaga kiritish mumkin:

✓ ellik yil ilgari vafot etgan mualliflarning asarlaridan kutubxona to'siqlarsiz foydalanishi mumkin;

✓ kutubxonada saqlanadigan qadimiy qo'lyozmalardan xech bir qo'shimcha ruxsatlarsiz raqamli ko'rinishga keltirilishi mumkin. (27-modda).

6. Shuningdek, daromad olishni ko'zlamagan holda, muallifning yoki boshqa huquq egasining rozilgisiz va haq to'lamagan holda, lekin asaridan foydalanilayotgan muallifning ismi-sharifini va albatta reprografik asar olingan manbani ko'rsatgan tarzda kutubxonalar va arxivlar tomonidan.

7. Asarning yo'qolgan yoki yaroqsiz bo'lib qolgan nusxalarini tiklash, almashtirish uchun, shuningdek o'z fondlaridan bu asarlarni biron sabab bilan yo'qotgan boshqa kutubxonalar va arxivlarga asarlarning nusxalarini berish uchun chop etilgan asarni;

8. Kutubxonalar va arxivlar tomonidan fuqarolarning o'quv va tadqiqot maqsadlaridagi so'rovlari bo'yicha, shuningdek, ta'lim muassasalari tomonidan auditoriya mashg'ulotlari uchun to'plamlarda, gazetalar va boshqa davriy nashrlarda chop etilgan ayrim maqolalar va kichik hajmli asarlarni, chop etilgan yozma asarlardan (suratli yoki suratsiz) qisqa parchalarni bir nusxada takrorlashga yo'l qo'yiladi.

## *Nashrlarning huquqiy egalari va mualliflar bilan tuziladigan shartnomalar shakli*

Qonunchilik asosida tuziladigan shartnomalar shakli qanday?. Bu borada yagona qoidalarga amal qilish, ma'lum me'rlarga qat'iy rioya etish lozim. Bu kelgusida mualliflik xuquqlarini buzmaganda yuridik hujjatlarni shakllantirish asos qilib olinadi. Shartnomalar universal xarakterga ega bo'lsada, bu bo'limda axborot kutubxona muassasalari bilan mualliflar o'rtasida tuziladigan shartnoma va kelishuvlarga to'xtalib o'tiladi.

Asar mualliflari o'zlarining asarlarini bepul tarzda, foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgach, foydalanish statistikasi mavjud bo'lgan holda yoki pullik asosda taqdim etishlari mumkin. Lekin har qanday xolatda ham kutubxona muassasalari mualliflar bilan litsenzion shartnomalar tuzishlari shart. Shartnomalar bo'yicha qat'iy standartlar yo'q, lekin muallif bilan shartnomalar imzolanganda ma'lum fikrlar mavjuddir. Bu qanday nuqtai nazarlar?

Qoida tarzida litsenzion kelishuvlar quyidagi tushunchalarga tegishli qismlardan tarkib topgan:

Shartnoma tomonlari;	Litsenzion to'lov;
Deklarativ qismi;	Litsenziator harakatlari (axborot kutubxona muassasasi);
Shartnoma talqini;	Bajarilish va baholash ;
Ta'riflar;	Kafolat, majburiyatlar, yo'qotishlarni kompensatsiyasi;
Qonunni tanlash;	Fors-major;
Shartnomaning asosiy qismi;	Foydalanish xuquqini boshqa shaxslarga o'tkazish (Pereustupka);
Mazkur litsenziya tomonidan beriladigan xuquqlar;	Ogohlantirishlar;
Qo'llashdagi cheklovlar;	Nizolarni hal etilishi;
Qo'llanilish va tugash muddati;	Qo'shimcha hujjatlar;
Litsenziyalangan materiallardan foydalanishga imkon yaratish va yetkazish;	Imzolar

Ilovada mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro tajribalar asosida shakllantirilgan

shartnomalarni standart shakllari berilgan. Bu shakllar muallif talablari, aniq vaziyatlar asosida o'zgartirilishi, to'ldirilishi lozim. Ilova (1-1.3.)

### **Nazorat savollari:**

1. Elektron nashrlarga oid mualliflik xuquqini himoyalash nima?
2. Xalqaro intellektual mulk tashkiloti(WIPO) funksiyasiga nimalar kiradi?
3. Adabiy va badiiy asarlarni himoyalash bo'yicha Bern Konvensiyasi nimaga xizmat qiladi, qachon qabul qilingan?
4. Xalqaro savdo tashkilotiga a'zo mamlakat qanday foyda oladi?
5. Hujjatlardan nus'ha olishda axborot kutubxona muassasalariga qanday cheklanishlar mavjud?
6. Hujjatlardan nusxa olishda axborot kutubxona muassasalariga qanday xuquqiy cheklanishlar qo'yiladi?
7. Hujjatlardan nusxa olishda maqsad va foydalanish shartlari bo'yicha axborot kutubxona muassasalariga qanday cheklanish qo'yiladi?
8. Hujjatlardan nusxa olishda axborot kutubxona muassasalariga qanday miqdoriy cheklovlar qo'yiladi?
9. O'zbekistonda mualliflik huquqi qanday himoyalanaadi?
10. O'zbekiston axborot kutubxona muassasalarida elektron nashrlardan foydalanishning qanday huquqiy xususiyatlari mavjud?
11. Litsenzion kelishuv o'z ichiga nimalarni oladi?
12. Asarni elektron nashriga bo'lgan huquqni olishda kim tomonidan litsenzion kelishuv tuziladi?

## **4. AXBOROT RESURSLARI VA KUTUBXONALAR KONSORSIUMLARI**

### **4.1. Kutubxona konsorsiumlari. Elektron axborot resurslarini kutubxona konsorsiumida ishlatish**

Odatda, konsorsiumlar o'xshash maqsad va vazifalarga ega bo'lgan tashkilotlar orasida strategik hamkorlar sifatida shakllanadi va umumiy zahiralardan birgalikda foydalanishga harakat qiladilar. Kutubxonalar imkoniyatini birlashtirish ularning individual imkoniyati va faoliyatlariga nisbatan ancha ko'p narsalarni berishi mumkin. Ko'pgina konsorsiumlar elektron axborot zahiralarni patent olishga (litsenziyalashga) qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, konsorsiumning ko'pgina boshqa dasturlari va xizmatlari mavjudki, ular konsorsium a'zolarining imkoniyatlarini yetarli darajada oshirishi mumkin. Ma'lum bir konsorsium ko'radigan foyda asosan konsorsiumning tashkil qilinishiga, dasturga va xizmat ko'rsatishlariga bog'liq bo'ladi. Konsorsium samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

Hamkorlikni va zahiralardan birgalikda foydalanishni kengaytirish. Konsorsium ma'lum ishlarini birgalikda bajarilishiga, uning natijasidan samarali foydalanishga, birgalikda malakali tekshiruvlarni amalga oshirishga, har xil zahiralardan birgalikda foydalanishga imkon beradi. Bu esa quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- Bir xil amallar takrorlanishini oldini olish uchun umumiy harakat, dastur va xizmatlarni yaxshi tashkil qilish;
- Hamkorlikda tekshiruvlar o'tkazish va uning natijasidan birgalikda foydalanishga imkon berib, lokal kutubxona boshqaruvini yaxshilash. Bu boshqa holatlar bajarilmasligi yoki vaqtning qisqa oralig'i uchun zarur bo'lishligi mumkin;
- Kutubxonalararo kelishuvlar, o'zaro qarz berib turishlarni yo'lga qo'yish va yig'ma elektron katalog orqali kutubxona zahiralardan birgalikda foydalanishini yaxshilash.

Elektron axborotlarni sotib olishni va umumiy axborot zaxiralari bilan kutubxona boshqaruvini yaxshilash. Konsorsium o'z a'zolarini sotib olish imkoniyatlarini yetarli darajada oshirib yuborishi mumkin. Bu quyidagilarda ifodalanadi:

- Xarid qilinadigan axborot birligi narxini pasaytirib, shu narxga yoki kamroq narxga ko'p miqdordagi axborot (misol uchun, ko'p miqdordagi jurnallar) bilan ta'minlanish imkoniyati;

- Kutubxonaning o'z kuchi bilan erishishiga nisbatan taqqoslaganda elektron axborotlarni standart litsenziyalashning qulay sharoitlari;

- Konsorsium a'zolarining milliy axborot zahiralarga xalqaro kirishni kengaytirish;

- Bosma va elektron kutubxona kolleksiya (ma'lumot bazasi) yaratish va ulardan birgalikda foydalanish uchun qulay boshqaruv;

- Ancha nozik narx-navo siyosati imkoniyatining kengayishi;

- Vositachilarsiz, nashriyotlar bilan bevosita ishlash hisobiga xarajatlarni kamaytirish;

- Alohida kutubxonalar olishi mumkin bo'lmagan maslahat va yo'riqnomalar olishning qonuniy shakl va vositalariga kirish imkoniyatini ta'minlashi.

### ***Ta'lim va trening xizmatlari ta'minoti***

Konsorsium a'zolarini ta'lim va maslahat dasturlari bilan ta'minlaydi va bu esa kutubxonachi shtati kvalifikatsiyasi darajasini oshiradi. Bu esa quyidagilarda ifodalanadi:

- Konsorsium a'zolari, ularning shtatlari ta'lim darajasi va tarmoq imkoniyatlarining oshishida;

- Foydalanuvchilarning ayrim xususiyatga ega bo'lgan talablarini qondirish uchun kutubxonalarni qo'llab-quvvatlovchi maslahatlar oshish imkoniyatining kengayishi.

### ***Axborot muhitiga ta'sir***

Tegishli narx-navo modeli va texnologik standartlarni himoya qilgan holda konsorsium axborot muhitiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bu quyidagilarda aks etadi:

- Elektron axborotlar uchun yangi iqtisodiy modellarni va intellektual mulkchilik huquqlarini himoyalashni yaxshilanishi;

- Elektron axborotlarga cheklanmagan miqdordagi kiruvni ta'minlash maqsadida halol ishlatish konsepsiyasi va boshqa tushunchalarning hayotiyiligini ta'minlash;

- Elektron axborotlar samaradorligining umumiy statistikalari va boshqa baholash o'lchovlarini ishlab chiqish;

- Axborot sistemalarini birgalikda ishlatish va tarqatish bo'yicha kuchlarni birlashtirish.



### ***Texnologik yechimlarning yaxshilanishi***

Samarali texnologik strategiyalar ishlab chiqishda birgalikda ishlashlari uchun konsorsium a'zolariga qulay sharoitlar yaratib berishi mumkin.

Bu quyidagilarda aks etadi:

-Kuchli umumiy texnologik infrastruktura ishlab chiqish (misol uchun: Internet bandwidth-"internet halqasi");

-texnologik axborotlardan hamkorlikda foydalanish va loyihalar tekshiruvidagi sarf-xarajatlarga barham berish imkoniyati;

-Otsifrovka bo'yicha lokal dasturlar va boshqa loyihalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;

-elektron axborotlarning hamkorlikdagi markazlashtirilgan arxivini yaratish.

### ***Kutubxonalarni qo'llab-quvvatlashning kuchaytirilishi***

Hamkorlik orqali sarf-xarajatlarni kamaytirish va axborotlarga kirib foydalanishning ko'payishini namoyish qilish bilan Konsorsium kutubxonalarning siyosiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishi mumkin.

Bu quyidagilarda ifodalanadi:

-kutubxonalar va kutubxonachilar xizmat ko'rsatish sohasining yaxshilash va kengayishi;

-grant mablag'lari bilan ta'minlash hisobiga kutubxonalar imkoniyatlarining kengayishi.

Yuqorida ta'kidlaganidek, konsorsiumning moliyaviy yutuqlari muhim, ammo konsorsium boshqa muhim yutuqlarni ham keltiradi. Konsorsiumga xos bo'lgan ixtiyoriy foydali yutuq konsorsium bajaradigan dasturlar va xizmatlarga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Hamkorliklarga va yon berishlarga tayyor konsorsiumlar ancha muvaffaqiyatli hisoblanadilar. Bu konsorsiumlar nafaqat pasaytirilgan narxlar va muqobil shartlarda ancha qimmatbaho elektron zahiralarga yozilishini tashkil qiladi, balki ular a'zolarining ancha yuqori strategik darajada hamkorlik qilishlariga umumiy harakat rejasini ishlab chiqish, a'zolar orasida kuchli aloqa va xizmatning yuqori sifatligiga intilishga manfaatdorlikni oshirish orqali yordamlashadi. Har bir kutubxona imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning har biri bilan birgalikda ishlash uchun a'zolik kuchlarni birlashtirishi va qo'llab-quvvatlashligi ancha muhimdir. Konsorsiumlar orqali kutubxonalar birgalikda ixtiyoriy kutubxona o'z imkoniyati darajasida bajarganiga nisbatan ko'p narsaga erishishi mumkin.

### ***Milliy konsorsiumlarni shakllantirish bosqichlari***

Ochiq jamiyat instituti davlatlarning milliy konsorsiumlarini shakllantirishlari bo'yicha yordam ko'rsatish uchun davomiy kuchlarning qismi sifatida ushbu reja- hujjatni tarqatmoqda. Lokal konsorsiumlarni shakllantirishda bu bosqichlarning har biri muhim hisoblanadi. Ammo har bir bosqich lokal holatlarni hisobga olgan holda o'zgartirishlarni talab qiladi. Har bir qadamda to'la muvaffaqiyatga erishish ehtimoldan holi, ammo undagi kichkina siljish muvaffaqiyatli konsorsium yaratishiga olib kelishi mumkin.

### ***A'zolar orasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish***

Konsorsium kutubxonachilar orasidagi doimiy munosabatlar orqali rivojlanadi. Bu munosabatlar kasbga oid uchrashuvlar, e-mail, telefon qo'ng'iroqlari yoki doimiy pochta aloqalari bo'lishi mumkin. Avvalombor, yaqindan tanishish va a'zolar orasida bir biriga ishonchni shakllantirish uchun kasbiy uchrashuv juda keraklidir.

Guruhlarni shakllantirishda tabiiy "lider" yo'lboshlovchini aniqlash (masalan, milliy kutubxona rahbarini) maqsadga muvofiqdir. Kutubxonachilar uchrashib turadigan qandaydir kasbiy assotsiatsiya yoki kutubxonachilar klubi yoki doimiy faoliyat ko'rsatuvchi seminar ko'rinishidagi anjumanlar mavjud bo'lishligi ham mumkin. Bunda siz imkoniyatlar a'zolarini aniqlashingiz mumkin bo'ladi. Yoki umumiy masalalarni yechish uchun yig'iluvchi tashkilotlarning tabiiy guruhi (yagona vazirlikdagi universitetlar ko'rinishidagi) mavjud bo'lishi mumkinki, ular kutubxonalarga yordam berishi mumkin:

-Mavjud davlat, jamiyat va akademik tashkilotlarda tashkil qilinayotgan birlashmalar tezroq rivojlanishdadir. Ammo ma'lum qiyinchiliklarda

### **Umumiy manfaatlar va tafovutlarni aniqlashtiring?**

-Konsorsium zarur ekanligiga har bir a'zo o'z qiziqishlarini his qilgan holda kelishlari kerak. A'zolarining oldilarida turgan vaziyatni his qilishlari konsorsiumning har biri a'zosi uchun muhim bo'lar edi. Agarda a'zo- kutubxonalar ko'pgina umumiy xususiyatlarga ega bo'lsa, konsorsium ichki ahillikka ancha oson erishishi mumkin. Ammo ayrim konsorsiumlar juda turlicha sherikchiliklarga ega.

-Birinci yig'ilish kutubxona foydalanuvchilari va kutubxonachilar uchun konsorsiumning zarurligi va samaradorligini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi kerak. (Konsorsiumning potensial yutuqlarini umumiy tasvirlash uchun 2-ilovaga qaralsin).

-keyinchalik paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish maqsadida a'zolar imkoniyatlari orasidagi farqlar oldindan aniqlangan va muhokama qilingan bo'lishi kerak. Vazifalari bir xil bo'lgan kutubxonalar ham (masalan, akademik yoki boshqa ilmiy-texnika kutubxonalari) har xil imkoniyatlarga va xarakteristikalarga ega bo'lishi mumkin.

-yon berish g'ururi zarur. Bir tomondan konsorsiumning barcha a'zolari konsorsiumdan foyda-samara olishlarini bilishlari va his etishlari kerak. Boshqa tomonidan esa, bu ma'lum vaqt, sabr-bardosh talab qiladi. Oxir-oqibat, hech qanday kutubxona juda katta yuk olib borilayotganini his qilmasligi, ularning hech birining xohishi e'tiborsiz qolmasligi kerak. Har bir guruhning ichida e'tirozlar bo'lishi ehtimoldan holi emas, ammo bu e'tirozlarni avval boshdan ochiqchasiga muhokama qilish orqali kamaytirish mumkin.

***Umumiy ehtiyojlarni hamkorlik orqali qanday aniqlash va kelishishini muhokama qiling?***

-Guruh har xil a'zolari talablarini aniqlash mexanizmlari, muhokama qilish turlarini ishlab chiqing. Masalan, ayrim a'zo-kutubxonalar ishonchli tarmoqlararo kiruv yoki kompyuter kurilmalari ko'rinishidagi telekommunikatsiya infrastrukturallari yaratishda asosiy talablarga ega bo'lishi mumkin. Boshqalar esa samarali kutubxonalararo kelishuvga yoki axborot zahiralarini litsenziyalash sohalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahatlarga ehtiyoji bo'lishi mumkin. Eng muhimi esa, avvalombor guruh a'zolarinigina qiziqtiruvchi ehtiyojlarini aniqlashning ishonchli va maqsadli vositalarini ishlab chiqish hisoblanadi.

-Asosiy ehtiyojlar aniqlangan zahotiyuq, konsorsium orqali bu ehtiyojlarni qanday bajarish mumkinligi muhokama qilinadi. Masalan, foydalanuvchilarni dolzarb ilmiy va tibbiyot adabiyotlaridan bahramand bo'lishlari uchun guruh quyidagi ko'rinishlardagi bir yoki bir qancha strategiyalarni tanlash mumkin:

a) barcha kutubxonalarni bahramand etish uchun umumiy qiymatini kutubxonalararo bo'lishi bilan ko'p hajmli obunani tashkil qilish;

b) bitta kutubxonani bir qism adabiyotga obuna qilish, qolgan kutubxonalarni mos ravishda qolgan adabiyotlarga obuna qilib, barcha konsorsiumga ishtirokchi kutubxonalar foydalanuvchilar uchun foydalanishga imkon yaratish;

s) Har bir kutubxonani har xil mavzular bo'yicha kollektiv ravishda bir qancha adabiyotlarga jamoaviy foydalanish uchun obuna qilish;

d) axborot zahiralaridan foydalanish imkoniyatlari va litsenziyalashning umumiy shartlarida o'zaro kelishuv bo'yicha konsorsium tomonidan markazni amalga oshirish.

Tonlangan yechim konsorsiumning o'ziga xos talablariga javob berishi shart.

### ***Sotsial va siyosiy (kontekst) tomonlarini ko'rib chiqin?***

-Ichida a'zo - kutubxonalar faoliyat ko'rsatadigan siyosiy tuzilmalardagi o'ziga xosliklardan o'z foydangizga foydalaning. Siyosiy tuzilmalar markazlashgan yoki tarqoq bo'lishi mumkin. Kutubxonalar rahbariyatining kuchli boshqaruviga bo'ysunadigan bo'lishi mumkin yoki budjetda xodimlarni jamlashda yoki boshqaruv tuzilmasida yetarlicha erkinlikka ega bo'lish mumkin.

-Konsorsiumni tuzish va faoliyat ko'rsatishi uchun kuchli va obro'li shaxslarni ishga jalb qilishga harakat qiling. Asosiy figuralar muhim siyosiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashlarni ta'minlashlari mumkin. Konsorsiumdan foydalanuvchilarga bo'ladigan foyda kutubxonachilar uchun eng katta foyda bo'lishligini har doim ta'kidlamoq joizdir.

### ***Yaxshi natijali konsorsiumlarning umumiy tasniflarini aniqlang?***

-Konsorsium yaqqol aniqlangan va o'lchanuvchi natijalar bilan to'g'ri aniqlangan missiya va maqsadlarga egadir;

-bu tashkilot hayoti faol, moslashuvchan va ijodiydir;

-Konsorsium kutubxonalar va foydalanuvchilarga qo'shimcha imkoniyatlar beruvchi programma va xizmatlarni ta'minlaydi;

-Konsorsium a'zolari keng va faol ishtirok etadigan tashkilot hisoblanadi va uning a'zolari konsorsium yutuqlaridan manfaatdor bo'ladi hamda yutuqlarga erishish uchun zarur holatlardan yon berishlarga ham borishga tayyor bo'ladilar;

-Konsorsium ma'lum homiylik qo'llab-quvvatlashlariga va o'zi tomonidan to'ldiruvchi moliyaviy bazaga ega;

-Konsorsium guruhlar orasida kuchli liderlarga, yaxshi rivojlangan va yo'lga qo'yilgan boshqaruv tuzilmasiga ega;

-Konsorsium, a'zolar orasidagi uzluksiz aloqalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgandir;

-Missiyani bajarish uchun o'z xohishiga ko'ra yoki moliyalanuvchi shtat orqali bajarilishiga bog'liq bo'lmagan holda xodimlarni adekvat ravishda butlash imkoniyatining mavjudligi.

### ***Konsorsium tuzilishini rasmiylashtiring?***

Konsorsiumning tuzilishini ko'rsatuvchi strategik, taktik va tezkor yechimlarni aniqlash eng muhim qadamlardan hisoblanmog'i zarur.

Bitta mamlakatga moslashtirilib ishlangan ishlanma va rivojlantirilgan namunalar boshqa mamlakatlarda qo'llashga mos kelmasligi mumkin. Milliy tafovutlar nafaqat konsorsiumning u yoki bu ko'rinishini nima uchun va qanday tanlash nuqtai nazaridan, balki qanday faoliyat ko'rsatishi nuqtai nazaridan ham konsorsiumni ishlab chiqishga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Konsorsium yaratishda asosiy muammolarini yechishdagi ketma-ket tizimli yondashuv muhimdir.

### ***Strategik yechimlar***

-Missiya va yuritish. Masalan, konsorsium elektron zahiralarni sotib olish ("buying club"), ta'lim dasturlari bilan ta'minlash, moliyaviy muammolarini yechish yoki birgalikda ishlatish uchun texnologiyalarini sotib olish kabilarni amalga oshira oladimi?

- Xomiylik, masalan, konsorsium bugungi hukumat agentligi yoki hukumat qo'llab-quvatlaydigan agentlik, erkin o'z-o'zini ta'minlovchi notijorat tashkilot yoki oddiy tashkilot bo'ladimi?

-Mablag' bilan ta'minlash, masalan, mablag' bilan ta'minlash manbai davlat tomonidanmi, a'zolik tushumlari yoki pullik xizmatlardanmi?

Agar a'zolik tushumlari bo'lsa ularning miqdori qanday aniqlanadi? Agarda tashkilot to'laligiga ko'pchiliklar tashkiloti bo'lsa, hech qanday mablag' bilan ta'minlashga ehtiyoj bo'lmaydi. Masalan, markazlashtirilgan hukumat dasturlari nashriyotchilar va sotuvchilar e'tiborini jalb qiluvchi yechimlarga ega bo'ladi, lekin markazlashtirilgan byurokratiya esa ko'pgina tashabbuslarni susaytirishi ham mumkin.

-A'zolik, masalan, konsorsiumga a'zolik kutubxonalarining turi va o'lchamiga ko'ra chegaralangan bo'ladimi? A'zolikka tushadigan yangi arizalar yoki konsorsiumdan chiqish uchun arizalarga nisbatan qanday qarorlar qabul qilinadi? Foydali (bitimlar) kelishuvlar tuzish imkoniyatlariga ta'sir qilishda konsorsium xarakteri va qiymati bo'ladimi?

-Geografik egallab olish, masalan, konsorsium milliy, mintaqaviy (viloyat, tuman va h.k.) yoki lokal bo'la oladimi?

### ***Taktik yechimlar:***

-Dasturlar, masalan, konsorsium elektron zahiralarni va ularning sotilishini litsenziyalashni ta'minlash, zahiralardan hamkorlikda foydalanish dasturlarini amalga oshirish, yig'ma katalog, raqamli kutubxonalar loyihalari yoki fondlarini saqlash dasturlarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash kabilarni bajara oladimi?

-Xizmat ko'rsatishlar, masalan, konsorsium o'qitish, maslahat berish, texnik yordam ko'rsatish, texnologik ko'mak, kutubxonalarga adabiyotlar yetkazib berish (shu jumladan, elektron kitoblar) bo'yicha xizmatlar yoki moliyaviy xizmatlar (markazlashgan sotib olish yoki mablag' bilan ta'minlash, hisobotlar tuzish) ko'rsata oladimi?

-Texnologiya, masalan, konsorsium hamma uchun qulay texnologik muhit, birgalikda ishlatadigan kutubxona sistemalari, portal boshqaruvi yoki boshqa sistemalarni yarata oladimi va ularni ta'minlay oladimi?

### ***Tezkor yechimlar:***

- Boshqarish, masalan, konsorsiumda a'zolar kengashi, boshqarma, ishchi yoki tashabbuskor guruhlar bo'ladimi? "Ijrochi" qo'mita bo'ladimi va agarda bo'lsa, u holda a'zolar qanday saylanadi? Konsorsium mustaqil rasmiy shaxs bo'la oladimi yoki hukumat agentligi sifatida ushlab turiladimi? Umuman olganda, konsorsium rasmiy statusga ega bo'ladimi yoki norasmiy birlashma sifatida ishlayveradimi? Hech qanday rasmiy saylangan boshqaruvga ega bo'lmagan norasmiy konsorsium yechimlar qabul qilishda ancha tezkor bo'lishi mumkin, lekin konsorsiumning tartibli va doimiy bo'lmagan asosi sababli uning ayrim masalalari bajarilmasdan qolishligi bilan chegaralangan ham bo'ladi.

- Xodimlar tarkibini to'ldirish, masalan, konsorsiumda shtat birliklari bo'ladimi va agarda bo'lsa shtatda nechta odam va ularning darajasi va saviyasi qanday bo'ladi? Professional daraja bilan shtat bo'ladimi? Ko'ngillilarning roli qanday bo'ladi? Ko'ngilli tashkilotlar ancha arzon bo'lsalar-da, ular to'laydigan shtat tashkiliy barqarorlikni va ko'ngillilar amalga oshira olmaydigan ishlarni bajarish uchun xodimlarni jalb qila olishi mumkin. Doimiy shtat konsorsiumning ancha samarali bo'lishiga yordam berishi mumkin, lekin muvaffaqiyatni aniqlovchi omil bo'la olmaydi.

- To'lov shakllari, masalan, konsorsium to'liq tashqi mablag' bilan ta'minlash asosida faoliyat ko'rsata olmaydimi (va hisobot tuzish talab qilinmaydi)?

Konsorsiumning hisob raqami orqali moliyaviy operatsiyalar amalga oshiriladimi yoki resurslar bilan ta'minlovchi va xizmat ko'rsatuvchi har bir kutubxona bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma imzolaydimi? Agarda konsorsium hukumat agentligi bo'lmasa, odatda tashkilotning hayotiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash bir qancha moliyaviy badallarni talab qiladi. Konsorsiumning barcha dasturlarini

umumiy qo'llab turish uchun a'zolik badallari miqdorini qanday belgilashni konsorsium hal qilmog'i kerak.

Konsorsium javob berishi kerak bo'lgan yuqorida sanab o'tilgan savollarning murakkablik darajasi konsorsium ta'minlaydigan xizmat turlariga bog'liqdir. Misol uchun, agarda konsorsium faqatgina elektron resurslarni litsenziyalash bo'yicha kelishuvlarni olib borish bilan chegaralansa, u holda bu amalning murakkablik darajasi ancha kam bo'ladi. Agarda u yig'ma katalog yaratish bo'yicha amallar, kutubxonalararo almashish dasturi, ta'lim yoki maslahat xizmati, fondlarni tahlili, yoki raqamli kutubxonalar yoki fondlarni saqlash dasturlari, umumiy elektron ma'lumotlar bazasi yaratish, 3- ilovada har xil modellar misolida keltirilgan.

### ***Erishganlaringizni ko'rgazmaga qo'yishdan tortinmang?***

✓ Yutuq yutuqning omilidir. Konsorsiumning yaratilguniga qadar qandaydir yutuqlar yoki afzalliklarni ko'rsatishga harakat qiling. Bu esa siyosiy yoki moliyaviy ko'mak olishga yordam beradi;

✓ Intiluvchan bo'ling va moliyalashtirish boshlanishini kutmasdan keng qamrovli yangi xizmat ko'rsatish turlarini oldindan boshlash uchun harakat qiling;

✓ Juda ham kam miqdordagi resurslarga ega bo'lganingizda ham foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish uchun uncha katta bo'lmasa ham yangi imkoniyatlar topishga harakat qilingki, bunga konsorsium tomonidan eng past bahoga erishilgan bo'lsa ham, misol uchun, a'zolik badallari hisobiga konsorsium foydalanuvchilarini ma'lumotlar bazasidan foydalanishga o'qitishni ta'minlash mumkin. Bu kabi ixtiyoriy yangi xizmat ko'rsatish konsorsium tomonidan o'qitiladi, uning nomi va emblemasi bo'lib qoladi.

### ***Yangi mablag' ajratishlari uchun murojaat qiling?***

- qo'shimcha mablag'lar olish imkoniyatlarini ko'rib chiqing. Konsorsium uchun mablag'larni muvaffaqiyatli qidirishdagi yondoshuvlar vositalar yig'ishning boshqa ixtiyoriy ko'rinishlaridan farq qilmaydi. Faqatgina kimga murojaat qilish kerak, qanday maqsadlarda va qancha mablag' so'rashni aniqlab oling. Tor doirada qamalib qolmang: Kutubxonalar Konsorsiumining xalqaro koalitsiyasi (ICOLC) bilan birlashing.

- Kutubxonalar Konsorsiumining xalqaro koalitsiyasi barcha qit'alarning 200 dan ortiq konsorsiumlaridan tashkil topgan bo'lib, jahonning o'n minglab kutubxonalarining manfaatlarini ifodalaydi. Bu – rasmiy tashkilot a'zosi bo'lish uchun ko'p mablag' talab etilmaydi, lekin

lokal konsorsiumlarga xalqaro tajriba va axborotlardan foydalanishdan foyda chiqarib olish imkonini beradi.

- (ICOLC) litsenziyalash tartiblarining eskiz loyihasini, statistika yuritish bo'yicha yo'riqnoma va boshqa tavsiyalarni ishlab chiqdi. Bu tavsiyalar kutubxonachilar va nashriyotlar orasida e'tibor bilan foydalanildi.

- Turli mamlakatlarning konsorsiumlari ICOLC da ro'yxatdan o'tishlari mumkin. Buning uchun OhioLink ijrochi direktori Tom Sanvillga tom&ohiolink.edu elektron pochta orqali o'z konsorsiumingiz nomi va URL (agar u bo'lsa)ni elektron pochtingiz manzili va muloqot nomlari bilan jo'nating. Shundan so'ng sizning konsorsiumingiz ICOLC ruyxatiga kiritiladi va WEB sahifada qayd etmasdan elektron pochta orqali ma'lumot olasiz.

### ***Kutubxona konsorsiumlari uchun modellar:***

Butun jahonda qancha konsorsium bo'lsa, qariyb shuncha konsorsiumlar yaratish modellari mavjuddir. Har bir konsorsium o'z viloyati yoki mamlakati muhitida hech qanday o'ziga xos tashqi tuzilmalar ta'sirisiz shakllangan. Kutubxonachilar o'z konsorsiumlari tuzilishini o'zgartirish uchun o'zga konsorsiumlar ega bo'lgan tajribalardan foydalandilar, ammo birorta ham konsorsium boshqa mamlakatlardan aynan ko'chirilmagan. Bundan tashqari, agarda konsorsiumlar o'zlari yaratilgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning o'ziga xoslik tomonlarini hisobga olgan bo'lsa, ular anchagina muvaffaqiyatlarga egadirlar. Bu hujjat lokal konsorsiumlarni shakllantirishda hisobga olinishi mumkin bo'lgan bir qancha omillarni oydinlashtirish uchun Qo'shma Shtatlar va Yevropaning bir nechta konsorsiumlarining tuzilishini ta'riflab beradi. Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda butun jahonda 250 taga yaqin konsorsium mavjud.

Ammo konsorsium o'zi nima degani haqidagi kelishilgan standart yoki yo'riqnoma mavjud emas. Bu yerda asosan, konsorsiumlarni yaratish, harakatlantirish va boshqarish tajribalarini hisobga olish hamda ular muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tushunib yetish muhimdir. Quyida keltiriladigan konsorsiumlar muvaffaqiyatli ishlab turibdi, ammo bir-biriga o'xshaydiganlari yo'q. Ularning ayrimlari tuzilishi bo'yicha yuqori darajada bo'lsa, boshqalari esa tashkiliy jihatdan ancha erkinliklarga ega. Ayrimlari moliyaviy ta'minlangan bo'lsa, boshqalari esa iqtisodiy jihatdan ancha noqulay sharoitdadir. Ayrimlari uzoq yillik tajribaga ega bo'lsa, boshqalari esa endigina tashkil topgan. Unda ularning umumiyliigi nimada? Ular konsorsiumning



muvaffaqiyatiga ishonadigan kuchli professional shaxslar shtatiga (full time bo'lishi shart emas) egadirlar. Bundan tashqari, ular a'zolarining kuchli qo'llab-quvvatlashiga va harakatlarining aniq rejasiga egadirlar. Ularning barchasi kutubxona ishlari bo'yicha xalqaro kooperatsiyada ishtirok etadilar va chet mamlakatlar konsorsiumlarining tajribalarini faol ravishda o'rganadilar.

**1. OhioLink.** Bu konsorsium Ogayo shtati orqali akademik kutubxonalarga xizmat ko'rsatadi. Bu davlat agentligidir. Muvaffaqiyatlar uchta eng muhim omillardan hosil bo'ladi: a) OhioLink Ogayo Shtati kutubxonalari orasida ancha oldingi yaqin hamkorlikdan shakllangan; v) Hokimiyat tomonidan kuchli iqtisodiy va siyosiy yordam oladi; s) Shtat administrativ samaradorlik bilan strategik ko'rinishlarni birlashtiradi. Boshqarma tomonidan akademik tashkilotlar raxbarlaridan saylash yo'li bilan shakllantirilgan OhioLink tuzilishi juda formaldir. Boshqarma yiliga olti marta yig'iladi va ijroiya qo'mitasi hamda turli kichik komissiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Asosiy moliyalashtirishni Ogayo Shtati orqali o'zlarining qo'shimcha mablag'larini maxsus elektron qurilmalarning to'lovi uchun hadya qiluvchi ta'sischi institutlar tomonidan amalga oshiriladi. OhioLink asosiy shtatidagi xodimlariga ham ega. Bu haqdagi to'la ma'lumotni <http://www.OhioLink.edu> WEB sahifasidan olish mumkin.

**2. NELINET.** Bu Qo'shma Shtatlarning shtatlararo konsorsiumidir. Bu-tashkilotlarning oltita shtatga xizmat ko'rsatuvchi «a'zolik kooperativi». Bu konsorsium erkli, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlovchi daromad ko'rmaydigan tashkilot bo'lib, doimiy shtatga ega. A'zolari konsorsium a'zolari orasidan saylanuvchi Direktorlar boshqarmasiga ham ega. NELINET OCLC xizmati, anjumanlar va boshqa ta'lim dasturlarini, maslahat xizmatlari, elektron resurslarni litsenziyalash, raqamli kutubxonalar xizmati va moliyaviy xizmatlar kabilarni ta'minlashi mumkin. NELINET xizmat ko'rsatish va a'zolik badallari orqali to'liq moliyalashtirilgan. Demak, tashkilot faoliyatini davom ettira olmas edi, agarda kutubxonalar o'z foydalanuvchilariga pullik xizmat kursatmaganlarida. Bu haqdagi to'liq ma'lumotni <http://www.nelinet.net> WEB sahifalaridan olish mumkin.

### **3. Kaliforniya raqamli kutubxonasi**

Kaliforniya raqamli kutubxonasi – elektron axborot resurslariga ega bo'lishning maxsus maqsadlari uchun Kaliforniya universitetlari kutubxonalaridan shakllantirilgan konsorsiumdir. Bu “hamkorlikdagi yoki umumiy kutubxona” deb ataluvchi o'ziga xos kutubxona. Bu

Kaliforniyaning o'ntacha universitet shaharchalarining "hamkorlikdagi yoki umumlashgan kutubxona"si deb ataluvchi kutubxonaning maqsadi ko'p miqdordagi foydalanuvchilar uchun katta hajmli elektron axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish hisoblanadi. Boshqaruv tuzilmasi Kaliforniya universitetiga qattiq birlashtirilgan va Universitet kutubxonachisi uning ijrochi direktori hisoblanadi. Bu keltirilgan model kutubxonalarning yetakchi kutubxona misol uchun milliy kutubxona atrofida birlashgan namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu haqdagi to'liq ma'lumotni <http://www.cdlib.org> web sahifasidan olish mumkin.

**4. JISC.** JISC – bu Buyuk Britaniyaning Oliy ta'limni moliyalashtirish bo'yicha Kengashlarning Birlashgan Axborot sistemasi qo'mitasidir. JISC asosan Buyuk Britaniya akademik kutubxonalari uchun NESLI, Milliy Litsenziya elektron tashabbuslari orqali jurnallarni olish bilan birga barcha turdagi elektron ma'lumotlar bazasini sotib olishga qaratilgan. JISC kam sonli shtatga egab bo'lib, Buyuk Britaniya universitetlari xodimlarining ko'ngilli ravishda yordam berishlariga asoslangan. Qo'mita formal tuzilishga ega va JISC Buyuk Britaniyaning ichki milliy akademik tuzilishiga taalluqlidir. Bu nuqtai nazardan u hukumat agentligi, ammo ayrim hollarda akademik birlashmalarning yordamisiz ham nimalarnidir qilish imkoniyatiga ega.

Bu haqdagi to'liq ma'lumotni <http://www.jisc.ac.uk> web sahifasidan olish mumkin.

**5. BIBSAM.** BIBSAM – Milliy Koordinatsiya va Taraqqiyot uchun Shved qirolligi kutubxonasi bo'limi hisoblanadi va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan konsorsiumning eng yaxshi namunasi bo'ladi. Konsorsiumga birlashishga tayyor turgan 71 kutubxona va litsenziyalashning faol elektron programmasini ham o'z ichiga oluvchi bir qator xizmatlarni bajaradigan 10 kishidan iborat BIBSAM shtati mavjuddir. Muvaffaqiyatlarga hukumat jamg'armalaridan moliyaviy qo'llash bilan milliy tuzilma orqali erishilgan.

Bu haqdagi to'liq ma'lumotni <http://www.kb.se/bibsam/english/first.htm> sahifasidan olish mumkin.

**6. HEAL LINK** yoki Gresiyaning 32 ta oliy ta'lim tashkilotlarini (18 ta oliy ta'lim institutlari va 14 ta texnologik ta'lim institutlari), Afina Akademiyasi va Gresiya milliy kutubxonasini o'z ichiga oluvchi Gresiya Akademik kutubxonalari birlashmasi. U keng qamrovli harakat dasturiga ega. Ular jumlasiga elektron jurnallarni patentlashni ham kiritish mumkin va bu misol orqali rasmiy manbalarning minimal ko'magiga

(HEAL LINK – faqat bitta shtat birligiga ega) tayangan holda kutubxonachining faolligi va tashabbuskorligi orqali nimalarga erishish mumkinligini ko'rsatish mumkin. Konsorsium rahbariyati ICOLC va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan uchrashuvlarda qatnashishdan o'zlariga foyda chiqarib oladilar. Bu haqdagi to'liq ma'lumotni <http://leykada.physics.auth.gr> sahifasidan olish mumkin.

**7. ELNET.** ELNET konsorsium – bu 1996 yilda notijorat nodavlat tashkilot sifatida tashkil qilingan Estoniya Kutubxonalari tarmog'i bo'lib, kutubxonalarining avtomatlashtirishga bo'lgan talabini qondirishga yo'naltirilgandir. Konsorsium a'zolari 4 ta akademik kutubxonalar, milliy kutubxona, san'at akademiyasi kutubxonasi, musiqa akademiyasi kutubxonasi va adabiyotlar muzeyi kutubxonalari hisoblanadilar. Bu konsorsium Ochiq Jamiyat Instituti bilan hamkorlikda 1998 yildanoq elektron nashrlarni sotib olish bo'yicha ishlarni amalga oshira boshladi va EBSCO shartnomasiga qo'shildi. Iqtisodiy sharoitlari unchalik ham yaxshi bo'lishlariga qaramasdan eston kutubxonachilari anchagina yutuqlarga erishdilar. Ular OSI tomonidan berilgan yordamdan maksimal foydalanishdi va boshqa mamlakatlarda shu kabi muammolarga duch kelgan kutubxonachilar bilan uzluksiz muloqotda bo'ldilar. Bu haqdagi to'liq ma'lumotlarni <http://www.utlib.ee/elnet> sahifadan olish mumkin.

**8. ANKOS.** Anatoliyadagi kutubxonalar Universitet Konsorsiumi 39 ta Turkiya akademik kutubxonalarini o'z ichiga oladi va to'liq universitetlar xodimlarining o'z ixtiyorlari bilan yordam berishlariga asoslangan. Konsorsium faqatgina ko'ngillilarning jonbozligi va faolligiga asoslangan bo'lishiga qaramasdan kitobxonlar uchun jurnallarning 11 ta ma'lumotlar bazasini taqdim qilib katta yutuqlarga erishdi. Bu ma'lumotlar bazalarini sotib olish konsorsium a'zolari tomonidan moliyalashtiriladi. ANKOS – Ochiq konsorsiumdir, ya'ni agarda kutubxona ANKOS bilan hech bo'lmaganda bitta litsenziyalangan shartnoma tuzsa, u holda u avtomatik ravishda konsorsium a'zosiga aylanadi.

ANKOS Turkiyaning barcha universitet va tadqiqotchi kutubxonalarini yangi elektron mahsulotlar haqidagi axborotlar, konsorsium takliflari va litsenziya kelishuvlari bilan ta'minlaydi va yangi ma'lumotlar bazasi hamda elektron jurnallar kolleksiyasini sinovdan o'tkazishni tashkil qiladi. Konsorsium akademik rahbarligi ostidagi uncha katta bo'lmagan boshqarish qo'mitasiga ega va uning

yordamida konsorsium katta yutuqlarga erishmoqda. Bu haqdagi to'liq ma'lumotni <http://www.lib.metu.edu.tr/ankos> sahifasidan olish mumkin.

[www.library.yale.edu/consortia](http://www.library.yale.edu/consortia)

<http://www.physik.fu-berlin.de/library/ICOLC-00.html>

<http://www.lib.helsinki.fi/finelib/eicolc.html>

<http://www.deflink.dk/e-icolc/>

## **4.2. EIFL.net xalqaro kutubxona konsorsiumi**

Xalqaro EIFL (Electronic Information for Libraries) – kutubxonalar uchun elektron axborotlar ma'nosini anglatib, mazkur konsorsium misolida kutubxona konsorsiumi qurish strategiyasi va mexanizmlari haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Axborot borasida umumiy muammolarni hal qilish uchun o'zlarining kuchini birlashtirishni, o'zlarining moddiy, xodimlar va vaqtga bog'lik zahiralari tejashni xohlovchi tashkilotlar uchun muhim ahamiyatga ega.

EIFL – tarmoq bu yangi mustaqil, notijorat, xalqaro konsorsiumi bo'lib, o'tish davridagi barcha kutubxona foydalanuvchilarining elektron axborot ehtiyojini yuritish, ta'minlash va himoya qilishga ixtisoslashgandir. Hozirgi vaqtda EIFL – tarmog'i 40 dan ortiq a'zo-davlatlarga ega bo'lib, istiqbolda 70 dan ortiq davlat bo'lishi ko'zda tutilgan. EIFL konsorsium a'zolari orasida kutubxonalar nomidan bu davlatlarda manbalardan birgalikda foydalanish va hamkorlik orqasi global axborotga kirish uchun samarali, qulay, o'z vaqtida xizmat ko'rsatish va uning dasturini ishlab chiqish va tarqatishga yo'naltirilgan. Birinchi uch yildagi moliyaviy barqarorlik Ochiq jamiyat institutining jiddiy qo'llab-quvvatlashi orqali bo'lishi mumkin.

### ***Missiyasi***

EIFL kutubxona konsorsiumlarining o'tish davrida konsorsiumga a'zo-davlatlar kutubxonalari foydalanuvchilarning axborotga kirishini ta'minlash, yuritish, qo'llab-quvvatlash, asoslash va himoya qilishga yo'naltirilgan xalqaro konsorsiumidir.

### ***Faoliyati***

EIFL tomonidan:

1. Kuchli milliy konsorsium shakllanishiga yordam beradi;
2. tijoraviy axborot xizmatlariga kirishni ta'minlash uchun muzokaralar olib boruvchi davlatlararo bosh shaxs hisoblanadi;
3. lokal raqamli manbalar ishlanmalarini qattiq turib himoya qilish;
4. yetkazib beruvchilar bilan kuchli markazlashtirilgan aloqalarni ta'minlash;

5. axborotlarga kirishni kengaytirishga imkon beruvchi xalqaro ekspertiza va manbalarni ta'minlash;
6. ta'lim va maslahat xizmatining yuqori sifatini ta'minlash;
7. samarali axborot distributiv moddalarini qabul qilish va ilgari surish bo'yicha himoyachi bo'lishi;
8. xalqaro moliyaviy agentlar, fondlar, agentliklar, konsorsium guruhlari, yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik modellarini ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

### *Ahamiyati*

EIFL–tarmog'i va uning a'zolarining asosiy prinsiplari quyidagilar bo'lish kerak: hamkorlik (barcha a'zolar bilan teng huquqli hamkorlik va demokratik ishtirok etish); aniq yo'nalish; tarmoq a'zolari va jahon hamjamiyati bilan yaqin aloqa; noziklik (nozikligini, ijodiy yondashuv va yechimning samarali tannarxi); manbalar va g'oyalardan birgalikda foydalanish uchun, xarid qilish imkoniyatlarini olgan holda a'zolari qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; standartlarga asoslanish.

### *Maqsad va vazifalari*

*1-maqsadi.* Milliy konsorsium a'zolari boshqaradigan va o'z-o'zini boshqaradigan xususiy tizimli hayotiy, mustaqil va o'z-o'zini moliyalovchi global tashkilot sifatida eiFL-tarmog'ini yaratish. Maqsad quyidagilarni o'z ichiga oladi: bosqichma-bosqich OJI fondi ko'magidan mustaqil tashkilot darajasiga o'tish; boshqarishning samarali tarkibini yaratish; konsorsium a'zolari bilan aloqa infrastrukturasi ishlab chiqish; hamkorlikning strategik asoslarini ishlab chiqish; a'zolari samarali moliyaviy xizmatlar bilan ta'minlash.

*2-maqsadi.* EIFL - tarmoqqa a'zo davlatlar har birining ichidagi ilmiy konsorsiumlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishni olib borishni shakllantirish. Maqsadi quyidagilarni o'z ichiga oladi: har bir davlat ichida alohida konsorsiumlar (agentliklar) yaratishni rag'batlantirish; yangi konsorsiumlar yaratish uchun standart protseduralar ishlab chiqish; alohida davlatlarni, ularning konsorsiumlarini yaratish va rivojlantirish uchun maslahat ko'magi bilan ta'minlash; a'zolik geografiyasini kengaytirib, 75 gacha davlatni qamrab olish.

*3-maqsadi.* Kutubxonalarini ularning milliy konsorsiumlari orqali axborot manbalarini yuqori samarali yig'ish, foydalanish va boshqarish vositasi bilan elektron manbalarga qo'shimcha kiruvini ta'minlash. Maqsadi quyidagilarni o'z ichiga oladi: barcha predmet sohalar tijoraviy maqsadlarda ishlab chiqilgan elektron axborotlariga kirishni

kengaytirish; turli mamlakatlar milliy elektron axborot manbalariga xalqaro kiruvini kengaytirish; elektron axborotlar uchun eiFL-tarmog'ini litsenziyalash modelini ishlab chiqish.

*4-maqsadi.* Konsorsium a'zolarini ularning talablariga javob beradigan ta'lim, maslahat va marketing dasturlari va xizmatlari bilan ta'minlashdan iborat. Maqsadi quyidagilarni o'z ichiga oladi: a'zolarini konsorsiumning muammo va yechimlari haqidagi zaruriy bilimlarni olishlari uchun ta'lim va tarmoq imkoniyatlari bilan ta'minlash; maslahat xizmatlari bilan ta'minlash.

*5-maqsadi.* Rivojlanayotgan axborot muhitida milliy konsorsiumlar va kutubxonalarining ta'siri va o'zgarishi masalalarida elektron axborot manbalarga kirish va foydalanish uchun baholashning muvofiq modelini, texnologik standartlari va amallarini ishlab chiqishga qiziqish uyg'otish. Maqsadi quyidagilarni o'z ichiga oladi: elektron axborotlar, intellektual mulkchilik huquqlari va boshqalar uchun yangi iqtisodiy modellarni himoya qilish; axborotlardan yakka hokim bo'lib foydalanish (monopol), patentlashtirish, boshqarish huquqlari, axborotlarni tarqatish va baholash haqidagi tanqidiy takliflarni tahlil qilish, tekshiruvdan o'tkazish; a'zo-kutubxonalar va ularning foydalanuvchilari axborot talablariga javob beruvchi distributiv harakatlarni rag'batlantirish.

### ***Rahbarlik boshqarish va moliyalash.***

#### ***A'zolik.***

Biror-bir davlat konsorsiumining muxtor vakili bo'lishi uchun bu davlat «o'tish davri davlati» bo'lishi kerak. Har bir a'zo-davlat bitta konsorsium yoki agentlik bilan qatnashadi. Har bir davlat konsorsiumi quyidagilarga javobgardir: eiFL-tarmog'i bilan aloqaga; texnik va statistik axborotlarni yig'ishga; to'lovlarni bajarilishiga; a'zo-kutubxonalar extiyojlarini birlashtirish; eiFL-tarmog'i programmalarini qo'llab-quvvatlash va ilgari surish; a'zolarining o'rganishini ta'minlash.

**Boshqarish.** EiFL-tarmoq-asosiy strategiyani aniqlovchi Bosh Assambleya tomonidan boshqariladi. Bosh Assambleya strategiya va moliyaviy masalalar uchun javobgarlikni tashkiliy maqsad va yo'nalishlarni, siyosatni, kalendar rejalarini o'rnatuvchi va umumiy harakat dasturi bilan ta'minlovchi saylangan boshqarmaga yuklaydi.

**Bajaruvchi direktor.** EiFL-tarmoqning bajaruvchi direktori bu tarmoqni yuritish, uni boshqarish va rivojlantirish dastrurlari uchun mas'ul hisoblanuvchi asosiy administrator. U tashkilot tushumlarini boshqarma strategiyasiga mos holda va moliyaviy boshqarish uchun

keng vakolatga ega. Bajaruvchi tarmoq shtatlari va maslahatchilar guruhini boshqaradi.

Review Strategy dasturi. Dastlab EiFL-tarmoq uch yillik tarqaluvchi programma sifatida o'rnatiladi va ikkinchi yilning yakunida programma yutuqlarining darajasini aniqlash hamda uning uzluksiz, uzoq yillar faoliyat ko'rsatishi baholanadi.

Tushumlar. EiFL-tarmoqni o'z o'zini ta'minlovchi tashkilot sifatida shakllantirish uzoq yillik maqsad hisoblanadi. Boshlang'ich uch yil davomida moliyaviy ko'mak boshqa imkoniyati yetarli manbalardan va a'zolik to'lovlardan qo'shimcha moliyalash bilan birgalikda asosan Soros jamg'armasidan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi va O'zbekiston Kutubxonalar Assotsiatsiyasi dunyoda birinchilardan bo'lib faol harakat qilib, 2001 yil konsorsumga a'zo bo'lindi. «Ustoz» jamg'armasi, YuNESKO, Xalqaro bank, TEMPUS loyihasi, OO'MTV, TATU va boshqa tashkilotlar ko'magida konsorsum dasturlari respublikada mashhur bo'lib, 84 ta Axborot-kutubxona muassasalari uning a'zosiga aylandilar. 2010 yildan davlat O'zbekiston Milliy kutubxonasining talabini qo'llab-quvvatlab, har yillik registratsiya badallarini to'lab kelmoqda. 2009 yildan e'tiboran O'zbekistonda har yili dunyoning mashhur Springer, EBSCO Information Services, OUP, ProQuest kabi noshirlik kompaniyalari bilan hamkorlikda «ELEKTRON KUTUBXONA TARMOQLARIDA ILMIY-TA'LIMIY AXBOROTLAR YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI» nomli ilmiy-metodik seminar o'tkazilib, xalqaro eIFL konsorsiumi bosh assambleyasida muhokama etilgan yangi resurslar, texnologiyalar, usullar borasida taqdimotlar o'tkaziladi.

### **4.3. “Ochiq axborot resurslari” dasturi. Xalqaro kutubxonalar uyushmalari**

Bugungi kunda axborot resursi jamiyat taraqqiyotining shunchalik muhim elementiga aylandiki, insoniyatning butun diqqat-e'tibori oxirgi 20-30 yil ichida siyqasi chiqqan taraqqiyot masalalari va shunchaki moddiy resurslar va noz-ne'matlardan axbortni yig'ish, qayta ishlash va unga yetishish muammolariga asta-sekin o'tib qoldi. Mustahkam kutubxona infrastrukturasi, ayrim mamlakatlar (Norvegiya va Kanada) tomonidan isbotlanganidek, milliy taraqqiyotning ajralmas qismiga aylandi. Shu jihatdan bunday davlatlar BMTning Insoniyat Taraqqiyoti Ko'rsatkichida oxirgi o'n yilda birinchi o'rinni egalladilar.

Aynan axborot sohasining rivojanishi mamlakatlarning taraqqiyotida ulkan disproporsiya-nomutanosiblikka olib kelgani hozirda hech kimda shubha tug'dirmaydi. Elektron ilmiy-ta'lim resurslarining narxi yildan yilga oshib bormoqda, shu bois rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dunyoviy bilimlar manbaiga kirishga ega bo'lish qiyinlashib borayotir. Biroq mamlakatlar taraqqiyotidagi uzilish rivojlangan mamlakatlar bundan yanada ko'p foyda ko'radi, degani emas. Aksincha, qanchalik g'alati eshitilmasin, disproporsiya jahon taraqqiyotida tormozlovchi rolini o'ynay boshlaydi.

Ayrim mamlakatlarning axborotlardan o'zlarini izolyatsiyalashlari idealistik va fundamentalistik dogmalarga, hayotni bir tomnlama tushunish va talqin etishga olib keldi. Bu shubhasiz mamlakatlarning siyosiy mavqeyi va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shu bois ko'pgina jamoat tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar hamda alohida olimlar oxirgi paytlarda o'z tadqiqotlari natijalarini, matbuotdagi o'quv-uslubiy ishlarini ochiq matbuot, Internetning ochiq kirishlari va tarmoqlarida joylashtirish tashabbusi va chaqiriqlari bilan chiqmoqdalar.

Ta'kidlanganidek, Budapesht «Открытый Доступ» (ochiq foydalanish) deb nomlangan tashabbusi va Berlin Deklaratsiyasida rivojlantirilgan mazkur tushuncha ostida «o'quvchilarga ma'lumotlarni o'qish, yuklash, nusxalash, tarqatish va bosib chiqarish, qidirish va havolalar qilish, indeksatsiyalash, uzatish yoki moliyaviy va texnik to'siqlarni chetlab boshqa legal maqsadda ishlatish, ishni yaxlitligini saqlagan holda muallifga havola berish imkonini beruvchi ommabop internet orqali tekin kirish» tushuniladi.

«Открытый Доступ» (Ochiq foydalanish) harakatining o'zi ilmiy jurnallarning narxi keskin ko'tarilab ketganligi bois paydo bo'ldi. Bu o'z navbatida, ko'pgina universitetlar, ITI, kutubxonalarning jurnallarga obuna bo'lishdan voz kechishiga olib keldi. Statistikaning ko'rsatishicha, oxirgi paytlarda ilmiy jurnallarga obuna narxining o'sishi yiliga 10% gacha bo'lgan ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Bir jiddiy ilmiy jurnalga yillik obunaning o'rtacha narxi 1000 AQSh dollaridan oshib ketmoqda. Kutubxonalar uchun ham davriy nashrlar uchun obunaga o'z budjetidan mablag' ushlab qolish qiyinlashib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar turlari va yangi ilmiy tadqiqot yo'nalishlarining paydo bo'lishi, bilimlarning eksponensial o'sishi jurnallarning nomlarining tez ko'payishiga olib kelmoqda. Globalizatsiyaning umumiy chaqiriqlari va



Internet tarqalishi ham jahon bilimlar manbaiga kirishda teng huquqli imkoniyatlarni taqozo etmoqda.

Mazkur harakatning maqsadi resurslar mualliflari va egalaridan hamkasabalar tadqiqotlariga ilm-fan taraqqiyoti va bashariyatning butun jahon taraqqiyoti uchun erkin kirish imkoniyatini rag'batlantirishlariga erishishdan iborat.

Berlin Deklaratsiyasi «Internet ilmiy bilimlar va ijtimoiy fikrlarning global bazasiga funksional birlashtirish vositasi»ga aylantirilishini e'lon qildi, shu munosabat bilan ko'rib chiqish lozim bo'lgan ilmiy siyosat, tadqiqot institutlari, qo'llab-quvvatlovchi agentlik va fondlar, kutubxonalar, arxivlar va muzeylar uchun ma'suliyatli chora-tadbirlarni aniqlash zarurligini ta'kidladi. IFLA federatsiyasining ma'lumotlariga ko'ra, 300ga yaqin universitet, ilmiy tadqiqot markazlari, ilmiy fondlar, akademik va kutubxona assotsiatsiyalari ochiq kirish bo'yicha Berlin deklaratsiyasiga imzo chekdilar, butun dunyo ta'lim va fan organlari hamda siyosiy tashkilotlar davlat tadqiqotlariga ochiq kirish prinsiplarini oshkora qo'llab-quvvatladilar. Ochiq kirishga qo'shilgan hissa original ilmiy natijalar, birlamchi ma'lumotlar va metama'lumotlarni, boshlang'ich materiallar, tasviriy va grafik materiallarni, raqamli taqdimotlarini va ilmiy multimediyaviy qo'llanmalarni o'z ichiga oladi.

*Ochiq foydalanish shartlari* deklaratsiyada ko'rsatilganidek «Ochiq foydalanishga» qo'shilgan hissa ikki shartni qondirishi kerak:

1. Mullif va egalik huquqiga ega bunday hissa barcha foydalanuvchilarga erkin, cheklanmagan global kirish huquqini va nusxa olish, ishlatish, tarqatish, oshkora ko'rsatish hamda har qanday raqamli muhitda har qanday ma'suliyatli maqsad uchun muvofiq mualliflikka ishora bilan (hamjamiyatlar standartlari xuddi hozirgidek keyinchalik ham mualliflikni majburiy ko'rsatish mexanizmini va e'lon qilingan ishni ishlatishga nisbatan ma'suliyatni kafolatlaydi)), yana shaxsiy foydalanish uchun unchalik ko'p bo'lmagan miqdorda bosma nusxalar qilish huquqini beradi.

2. Ishlarning to'liq versiyasi va unga qo'shimcha barcha materiallar, avvalambor belgilangan ruxsatnoma nusxasini kiritgan holda, kelishilgan standart elektron formatda depozitlanadi (va shu ma'noda chop etiladi, e'lon qilinadi), hech bo'maganda, qabul qilingan texnik standartlarni ishlatuvchi bir tarmoq jamg'armasida, ochiq kirishni ta'minlash, to'siqsiz tarqatish, tarmoqdagi hamkor va uzoq muddatli arxivatsiya qilishga vakolatlangan universitet, ilmiy jamiyat, davlat

agentligi va boshqa nufuzli institut tomonidan qo‘riqlanadi va qo‘llab-quvvatlanadi.

Deklaratsiya tashkilotlarni yangi «Fan va jamiyat ravnaqi uchun Ochiq foydalanish» paradigmasining keyingi taraqqiyot harakatlanishlaridan manfaatdor bo‘lishga chaqiradi.

Tashkilotlar muvaffaqiyatga erishishi uchun:

- «tadqiqotchilar, grant oluvchilar o‘z ishlarini Ochiq foydalanish paradigmasi tamoyillariga muvofiq e‘lon qilishga rag‘batlantirish;
- madaniy meros asrovchilarining Internet-resurslarini ta‘minlagan holda Ochiq foydalanishni qo‘llab-quvvatlashga rag‘batlantirish;
- yaxshi sifat va ilmiy amaliyot kafolatlari standartlarini qo‘llab-quvvatlab turish uchun Ochiq foydalanish va tarmoq jurnallariga qo‘shadigan hissalarini baholash vositalari va usullarini ishlab chiqish;
- ilmiy darajalar berilganda va o‘qituvchilik lavozimi bandligi haqidagi qarorda Ochiq kirish tizimidagi e‘lon qilingan ishlarning tan olinishiga erishish;
- kiritiladigan dasturiy vositalarni rivojlantirish, kontent yetkazib berilishi va metama‘lumotlar yoki individual maqolalarni e‘lon qilish yo‘li bilan Ochiq kirish infrastrukturasi yuqori sifatga erishishiga intilishi kerak”.

Ma‘lumot va bilimlarga kirishning ochiqligi – insoniyatning zamonaviy taraqqiyotidagi muhim tezislardan biri hisoblanadi. Lekin barcha axborot manbalari barchaga cheklovlarsiz ochiq bo‘lishi kerakmi, degan savolga ijobiy javob berishdan avval, qator savollarga javob berish lozim. Bu asar mualliflariga foydalimi? Kim bu ma‘lumotlarni yig‘ishi, tizimga solishi va nimaga asosan tarqatishi kerak? Kimga ochiq foydalanishdan foyda bor?

«Ochiq foydalanish» harakatining rivojlanishiga xalqaro eIFL.net konsorsiumi katta hissa qo‘shdi. Yuqorida aytilganidek, konsorsiumning dasturlaridan biri ochiq kirish nashrlarini va milliy (mahalliy) kontentli institutsional repozitoriylarni yaratish tashabbusini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Dasturning asosiy vazifalari:

- ochiq foydalanish repozitariylari va jurnallarini yaratishga yordamlashish;
- ochiq foydalanish siyosati va amaliyotini rivojlantirish;
- kutubxonachilar, ilmiy xodimlar, pedagoglar va talabalar uchun trening va maslahatlar berish hisoblanadi.

eIFL.net konsorsiumi ochiq foydalanish manbalarini qidiribgina qolmay, balki o'z a'zolarini ular haqida xabardor qilib turadi; odamlarni foydali va barcha uchun ochiq axborot bilan ta'minlashning muammolari va foydasi haqida sotsiologik tadqiqotlar olib boradi. eIFL konsorsiumida ishtirok etgan 11 mamlakatdagi so'rovnoma natijalari ko'rsatishicha:

- 86 %ga yaqin olimlar nashrlarga ochiq foydalanish bevosita ilmiy tadqiqotlar va ilmiy kooperatsiyada ijobiy samara berishiga ishonadilar;

- 63 %ga yaqin tadqiqotchilarning maqolalari ochiq jurnallarda chop etilgan. 51 % olimlar 5 tagacha maqola, 7 %ga yaqini – 6-10 tagacha maqolalar ochiq matbuotda va deyarli 5 %i 10 dan ortiq maqola chiqarishgan.

So'ralganlar ochiq jurnallarda o'z maqolalarini e'lon qilganda hisobga olish kerak bo'lgan beshta muhim omillarni ta'kidlab o'tdilar:

1. Nufuz (jurnal obro'i, tan olinganligi). Albatta, publikatsiya qilinganda jurnalning an'analari va mashhurligi katta ahamiyat kasb etadi. Olimlar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar bunday jurnallarda katta xohish bilan va tekinga o'z ishlarini e'lon qiladilar.

2. Jurnalning ta'sir ko'rsatish omili. Masalan, universitetlarning ko'pgina ilmiy jurnallari ta'lim taraqqiyotidagi ilmiy tadqiqotchilarning rivojlantirishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular ommabop fanlar yoki ilmiy yo'nalishlar bo'yicha muhim ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

3. Publikatsiyaning tezkorligi. Olimlarni doimo ortiqcha byurakratik cheklovlarsiz va maxsus talablarsiz o'z ishlarini nashr etuvchi jurnallar jalb qilib kelgan.

4. Martaba yoki karera uchun muhimligi (ilmiy karera bo'yicha ko'tarilishda, lavozim yoki attestatsiyani saqlab qolishda jurnalning muhimligi). Ko'pgina oliygohlar va ITI uchun xodimni attestatsiyadan o'tkazishda ham publikatsiyalar soni talab etiladi, ham ularning aynan qaerda chop etilgani muhim hisoblanadi. Nashrlarning soni va joyi lavozim bo'yicha ko'tarilishda ham katta ahamiyatga ega.

5. Jurnalning ahamiyatliligi (jamiyat uchun ahamiyatliligi). Mualliflar o'z maqolalarini chop etishda jurnal ilmiy jihatdan ma'lumotlar yetkazishda qanchalik nufuzliligiga ham e'tibor qiladilar. Bundan tashqari, jurnalning katta tirajda chiqishi, jamiyatga o'tkaza oladigan ta'siri jihatdan ham ahamiyatga ega bo'lishi va boshqa.

### **Ochiq foydalanishning asosiy afzalliklari**

Ilmiy tadqiqotlar haqida xabardorlik 10 va 100 martagacha oshadi. Ochiq kirishda maqolalar qancha ko'p bo'lsa, demak shunchalik ko'p

olimlar repozitariy yoki ochiq jurnallardan foydalanadi. Demak, publikatsiyalar, ulardan sitatalar keltirish va ularning barchasi orasidagi interval qisqaradi. Bu esa ulardan xabardorlik darajasini oshiradi.

1. Tadqiqotlarning takrorlanishidan qochishga yordam beradi. Tadqiqotchilar yoki ularning ish beruvchilari izlanishlarning foydasizligini payqab qolishsa, tadqiqotlarning yo‘nalishini o‘z vaqtida o‘zgartirishlari mumkin.

2. Ilmiy kooperatsiya oshadi. Fanlararo tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Oxirgi paytlarda ochiq kirishda va kommunikatsiya vositalari tufayli xalqaro ko‘lamli qo‘shma loyihalar soni keskin oshib ketdi. Maqolalar mualliflari faol ilmiy va axborot almashinuvida ishtirok etib, o‘z nashrlaridan foyda oladilar. Tanlangan fan va unga yaqin sohalar bo‘yicha katta hajmdagi bilimlar taqqoslanishi hisobiga tadqiqotlarning sifati oshadi. Yanada kengroq kontekstda ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

3. Ta‘lim yanada sifatliroq bo‘ladi. Ochiq resurslarga kirish bilimlar chegarasini kengaytiradi, yangi bilimlar anchayin qisqa vaqt ichida egallanadi. Shu bois, bundan rivojlanayotgan mamlakatlarning olimlari, tadqiqotchilari, o‘qituvchi va talabalari alohida foyda ko‘radilar. Zero ular g‘arb mamlakatlarining qimmatli ma‘lumotlar bazasiga kirish imkoniyatiga ega emaslar.

Ochiq resurslarga kirishning turli shakllari mavjud. Masalan, ochiq litsenziyalar, jumladan, Creative Commons Attribution Litsenziyasi tekin ochiq kirish va publikatsiyaga imkon beradi. Bu «Gold Open Access» strategiyasi sifatida barchaga ma‘lum. Ayrimlar publikatsiya mualliflaridan o‘z ishlari uchun to‘lov talab qilishadi. Qolganlar faqat ko‘ngillilar faoliyatiga suyanishadi. Ayrim jurnallar OD jurnallari jumlasiga kirmasada, lekin ular maqola mualliflariga chop ettirayotgan maqolalarining nusxalarini institut arxivida saqlashga ruxsat beradilar. Bu strategiya «Green Open Access» deb ataladi. Bunday tipdagi jurnallar mualliflarga o‘z ishlarini Ijtimoiy ilmiy tadqiqot tarmog‘i (<http://www.ssrn.com>), O‘z-o‘zini arxivatsiyalash bo‘yicha mualliflik huquqi siyosati jurnali, Sherpa RoMEO (<http://www.sherpa.ac.uk/romeo/>) kabi ijtimoiy ixtisoslashtirgan arxivlarda saqlash huquqini beradi. Ko‘pgina jurnallar mualliflarga hali chop etilmagan maqolalarini erkin foydalanish arxivlarida saqlash huquqini beradi.

AQShdagi eng katta U.S. **National Institutes of Health** (NIH) fondining bu boradagi yechimlari diqqatga sazovor bo‘lib, uning yillik

budjeti 28.9 milliard amerika dollarini tashkil qiladi. NIH tomonidan moliyalashtiriluvchi tadqiqotlar haqidagi maqolalar chop etilgandan keyin 12 oydan kechiktirilmay ODga hamda taqriz beruvchi jurnallarga joylashtirilishi kerak.

Garvard universitetining Arts and Sciences fakultetida ochiq nashrlarga nisbatan alohida talablar qo'yilgan:

✓ xodimlar jurnalga bergan maqolalaridan nusxasini institutsional repozitariyga depozit qilishlari zarur.

✓ mazur maqolalarga Internet orqali ochiq kirish huquqi avtomatik ravishda universitetga o'tkaziladi va universitet litsenziyasi beriladi.

Xodimlarning o'zlari ham tadqiqot natijalarini zudlik bilan tarqalishini istaydilar.

Xitoyda ochiq jurnallar [www.oaj.cas.cn](http://www.oaj.cas.cn) repozitoriysi Fanlar Akademiyasi va Milliy ilmiy kutubxona tomonidan homiylikka olingan. U 105ta jurnal, 426000dan ortiq maqolaga ega va aholini ilmiy yagiliklar, anjumanlar, islohotlar va boshqa yangilik hamda ma'lumotlar bilan ta'minlab turadi.

Milliy ilmiy kutubxona shuningdek <http://www.open-access.net.cn/> ochiq foydalanish portalini qo'llab-quvvatlab turadi.

Ochiq foydalanish Journallar Direktoriysi (<http://www.doaj.org>) 6000ga yaqin ilmiy va ma'rifiy to'la matnli jurnallarni o'z ichiga oladi.

Boshqa ommabop ilmiy-marifiy resurslarga quyidagi saytlar orqali kirish mumkin:

<http://www.opendoar.org/>

<http://www.base-search.net/>

<http://cnx.org/>

<http://ocw.mit.edu/index.htm>

<https://www.khanacademy.org/>

<https://p2pu.org/en/>

<http://www.jorum.ac.uk/>

<http://www.merlot.org/merlot/index.htm>

<http://www.ndlr.ie/>

<http://www.ocwconsortium.org/>

<http://www.oercommons.org/>

<http://www.open.edu/openlearn/>

<http://videlectures.net/>

Uch dastur - HINARI (Health InterNetwork Access to Research Initiative – sog'liqni saqlash sohasi uchun), AGORA (Access to Global

Online Research in Agriculture – qishloq xo‘jaligi sohasida) va OARE (Online Access to Research in the Environment-atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha) 100dan ortiq rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni himoya qilish sohalarining elektron ilmiy-marifiy resurslarga ochiq kirish imkoniyatini ta‘minlaydi. Har uchala dastur ham 2015 yilgacha o‘z xizmatlarini ko‘rsatish majburiyatni olganlar.

HEALTH INTERNETWORK ACCESS TO RESEARCH INITIATIVE [<http://www.who.int/hinari>] Butunjahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization (WHO) tomonidan [Yale](#) universiteti kutubxonasining texnik ko‘magi yordamida rivojlanayotgan mamlakatlarga biotibbiyot va sog‘liqni saqlash sohasidagi adabiyotlarning ulkan kolleksiyalariga kirish imkoniyatini ta‘minlab berish maqsadida tashkil etildi. U asosan 107ta rivojlanayotgan mamlakat tibbiyot xodimlari uchun nodir materallar sifatida xizmat qiladigan 3750dan ortiq jurnallar nomlaridan iborat.

AGORA (ACCESS TO GLOBAL ONLINE RESEARCH IN AGRICULTURE) [<http://www.aginternet.org>] BMTning Ovqatlanish va Qishloq xo‘jaligi tashkiloti bilan Cornell universiteti va Mann kutubxonasi hamda yirik nashriyotchilar bilan hamkorlikda 2003 yili 107ta rivojlanayotgan mamlakatni ovqatlanish, qishloq xo‘jaligi, atrof-muhit, ijtimoiy fanlar bo‘yicha adabiyotlar (958 jurnal nomlari) bilan ta‘minlash maqsadida tashkil etildi.

OARE (ONLINE ACCESS TO RESEARCH IN THE ENVIRONMENT) [<http://www.oaresciences.org>], 2006 yilda ta‘sis etilgan xalqaro konsorsium BMTning (UNEP) atrof–muhit bo‘yicha dasturi, u [Yale](#) universiteti kutubxonasi va Forestry and Environmental Studies maktabi hamda ilmiy va texnik adabiyotlarning yetakchi nashriyotchilari bilan birgalikda tuzildi. Dastur 2006 yildan buyon 70 mamlakat uchun 1300 ilmiy jurnallardan foydalanish imkonini beradi. 2008 yildan yana 37 mamlakat uning obunasiga qo‘shildi.

<http://Arxiv.Org/> portali fizika, matematika, kompyuter fanlari, miqdoriy biologiya va statistika kabi sohalar bo‘yicha 490000 maqolaga ochiq kirish imkoniyatini ta‘minlaydi. Barchaga ma‘lum Astrophysical Journal oynomasidagi 72% maqola ochiq arxivlarda chop etilgan (asosan Arxivda). Shunisi qiziqki, ana shu 72% maqolalar qolgan 28% iga qaraganda, o‘rta hisobda ikki baravar ko‘proq havolalar keltirilar ekan. Ularning to‘liq matnli versiyalari ochiq kirish imkoniyatiga ega

emas. Arxivda ochiq kirishda turgan yadro fizikasi sohasidagi 32% maqolalardan havola keltirishlar 78% ni tashkil qiladi.

SOAP (Study of Open Access Publishing) loyihasi bo'yicha Yevrokomissiyaning Yettinchi Ramkali Dasturi 2009 yildan 2011 yilning fevraligacha ilmiy-ma'rifiy resurslarga ochiq kirishning foydasi va muammolari haqida tadqiqotlar olib bordi. Bunda 40000 yaqin tadqiqotchilar (ilmiy xodimlar, o'qituvchilar, aspirantlar va h.k.) so'rovdan o'tkazildi.

So'rovnoma 23 masala bo'yicha maxsus Survey Monkey tools dastur orqali onlayn amalga oshirildi. Ochiq foydalanish (Open Access - OA)ning qaysi ko'rsatkichidan ko'proq foyda bo'ladi degan savolga, 36% respondent ilmiy kooperatsiya, xalqaro ma'lumotlar almashinuvidan deb javob berishdi. Shulardan 20%i moliyaviy yechimlar, OAning arzonligidan, qimmatli ilmiy-ma'rifiy axborotni tekin olish imkoniyatidan ko'proq foyda bo'lishini ta'kidlab o'tishdi. 18% respondent OAning muhim belgilaridan biri – bu OAdan «ijtimoiy ne'matlar» (общественные блага), ni ya'ni taqdim etish, ya'ni mamlakatlar va ijtimoiy qatlamlarning resurslarga teng huquqli kirish imkoniyatini bera olishi deb e'tirof etdilar. So'ralganlarning 10%, ya'ni individumlar, tadqiqotchilar OAda o'z materiallarini e'lon qilishdan foyda ko'radiganlar bo'lib, ularning ishlari ommabop bo'lgani bois, ulardan tez-tez sitatalar keltirishadi, turli loyihalarda ishtirok etgandiklari uchun ma'lum bonuslarga ega bo'lishadi. 9% respondent fikricha, OAg har qanday joyda, agar u onlayn bo'lsa, kerakli ochiq axborotga maxsus ruxsatlarsiz yoki ma'lumotlarni olish uchun maxsus muassasalarga bormasdan ega bo'lish mumkin va aynan shunda OAdan ko'proq foyda bo'ladi.

### ***OA publikatsiyalar yo'lidagi to'siqlar***

***OA publikatsiyalar yo'lida qanday to'siqlar mavjud?*** Bu savolga turli ko'rsatkichlar bo'yicha quyidagicha javob berishdi: so'ralganlarning 39%i asosiy sabab publikatsiyalardan olinadigan past darajadagi moliyaviy foydada, oliygohlar, ITI va boshqa tashkilotlarning OAdagi nashrlar uchun yetarli darajada mablag' ajratmasliklarida deb hisoblaydilar. Respondentlarning 30%i OA jurnallari odatda pulga beriladigan nufuzli jurnallar kabi obro'ga ega emas, deya hisoblaydilar. So'ralganlarning 8%i ularning maqolalari OAda chop etilishiga ishonmaydilar, ularda bunday tajriba yo'q yoki ularning sohalari bo'yicha OA jurnallari mavjud emas, deydilar. 7%

respondentning OA oynomalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmaganligi tufayli OAda publikatsiyalar chiqarish qiyin, deya fikrlaydilar. Respondentlarning 4%i maqolalarini bir xil oynomalarda chop ettirishlarini va bu odatga aylanganini hamda bu holning o'zgarishini istamasliklarini ta'kidlab o'tdilar. 2% so'ralganlar kelgusida o'z maqolalarini OAda e'lon qilishlarini bildirishdi, 10% i esa boshqa sabablarni keltirishdi.

Ochiq publikatsiyalar uchun moliyalash manbalari ham muhim ko'rsatkichlardan biri. 28% respondentlarning ta'kidlashicha, ularning tadqiqot harajatlariga (grantlar, maxsus subsidiyalar, xo'jalik shartnomalari va h.k.) bunday maqolalar qo'shib smetaga kiritilgan. 31% respondentlar ajratilgan harajatlarning bir qismini OAda chop etish uchun maxsus mo'ljallanmagan tadqiqotlarga sarf etganliklarini e'tirof etganlar. So'ralganlarning 24%i publikatsiyalari uchun harajatlarni institutlari to'laganligini aytganlar. 12% respondentlarning ta'kidlashicha, ularning OAdagi publikatsiyasi – ularining tashabbusi va shaxsiy harajatlari hisobidandir. 5% respondentlar boshqa sabablarni ko'rsatishgan. Tahlildan yana shu ham ma'lum bo'ldiki, hozircha barcha nashrlardan faqat 8-10 %igina OA jurnallaridagi ilmiy jurnallarda e'lon qilinar ekan xolos.

#### **Nazorat savollari:**

1. Kutubxona konsorsiumlarining vazifalari?
2. AKMning konsorsiumlarga birlashishining afzalliklari nima?
3. Konsorsiumlar qanday qilib resurslarni hamkorlikda ishlatish imkoniyatlarini kengaytiradi?
4. Konsorsiumlar qanday qilib o'z a'zolarining sotib olish imkoniyatlarini kengaytiradi?
5. Konsorsiumlar qanday qilib ta'limiy xizmatlarni samardorligini oshirishga yordam beradi?
6. Qanday qilib konsorsiumlar texnologik yechimlarni samardorligini oshirishga yordam beradi?
7. Qay tarzda konsorsiumlar kutubxonalarni qo'llab quvvatlashni kuchaytirishi mumkin?
8. Qanday mashhur konsorsiumlarni bilasiz?
9. EIFL xalqaro konsorsiumi missiyasi qanday?
10. EIFL konsorsium qanday funksiyalarni bajaradi?
11. EIFL konsorsiumining asosiy dasturlari?
12. Ochiq publikatsiyalarning qanday imtiyozlari mavjud?
13. «Erkin foydalanish» harakatining maqsadi nima?



14. Ochiq jurnallarda maqolalarni chop etishda hisobga olish lozim bo'lgan muhim faktorlarni sanab o'ting
15. Open Access nashrlaridagi to'siqlar qanday?
16. Ochiq jurnallardagi ilmiy maqolalarni taqrizlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
17. Ilmiy-ta'limiy resurslardan erkin foydalanish imkonini beradigan qanday jahon manbalarini bilasiz?
18. Ochiq nashrlarning kamchiligi va afzalligi nimada?
19. Ochiq kirish shartlari qanday?

## **5. ELEKTRON AXBOROT RESURSLARINI YETAKCHI ISHLAB CHIQUARUVCHILARI VA ANALITIK TIZIMLARI**

### **5.1. Muhim ilmiy-ta'limiy axborot manbalarining qisqacha tahlili. EBSCO Information Services**

Mazkur bobda jahon ilmiy-ta'limiy axborotlar manbalari haqida sharhlar berib, muhim ilmiy-ta'limiy axborot manbalarining va ularni yaratuvchi kompaniyalarni qisqacha tahlili keltirib o'tiladi.

Respublikaning ilg'or axborot infratuzilmasini yaratishda jahon axborot jamiyatiga qimmatli ilmiy ta'limiy resurlarni taqdim etish sohasida teng xuquqli sherik sifatida kirishi tashqi axborot aloqalarini o'rnatish muhimdir. Buning uchun elektron resurslarining yetakchi ishlab chiqaruvchilarini tajribalarini, ilg'or texnologiyalarni o'rganish, ma'lumot bazalarini tashkil etish formalarini, ulardan axborot kutubxona muassasalarida onlayn foydalanishga sharoit yaratish muhim.

Ilmiy-ta'limiy muhitda axborotning ingliz tilidagi manbalari boshqalariga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Bu tabiiy, chunki ingliz tili xalqaro muloqot tili hisoblanib, barcha ilmiy va texnik erishuvlar markazida bo'lish, ulardan xabardor bo'lish uchun bu tilni to'liq darajada egallash muhimdir. Ayniqsa, bu axborot texnologiyalari rivojlanishi xalqaro axborot almashinuvi chegaralarini buzgan davrda muhim hisoblanadi.

Quyida elektron ilmiy-ta'limiy resurslar analitik ma'lumot bazalariga ega ba'zi mashhur nashriyotlar, agregatorlar haqida ma'lumot keltiramiz.

Shuningdek, O'zbekistonning vazirliklari, oliy ta'lim muassasalari, yetakchi axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlik qiluvchi jahonning yetakchi nashriyotlari va agregatlariga ta'riflar keltiriladi. Ulardan ba'zilari bilan ochiq yoki imtiyozli foydalanish borasida kelishuvlar mavjud. Shuningdek, respublikamizda mintaqada ular resurslariga ega bo'lishni ta'minlovchi xamkorlar mavjud.

#### **EBSCO Information Services**

Dunyodagi eng yirik kompaniyalaridan biri bo'lib, ta'lim va ilmiy faoliyat uchun axborotni yetkazib beruvchi ilg'or ta'minotchi hisoblanadi. O'z faoliyatini 1944 yildan beri olib boradi. Ko'plab yirik davlat va universitet qoshidagi kutubxonalar, axborot markazlari, Yevropa, AQSh va boshqa mamlakatlarning yirik tashkilotlarining hamkoridir.

Bugungi kunda EBSCO – bu:

- 375dan ortiq, bilimning barcha sohalarini qamrab oluvchi to‘liq matnli ma‘lumot bazalari;
- 300000dan ortiq audiokitoblar va elektron nashrlar;
- dunyo bo‘yicha 50000ga yaqin mijozlar;
- *Library Journal* ma‘lumotlariga ko‘ra AQShning akademik va ommaviy kutubxonalari so‘rovida EBSCO ma‘lumot bazalari eng yaxshi deb tan olingan. Asosiy yirik bazalari quyidagilardir:

**Business Source Complete** – o‘z ichiga to‘liq matn va bibliografik ma‘lumotlarning keng kolleksiyasini o‘z ichiga olgan biznesga oid ilmiy ma‘lumotlar bazasi. Bu ma‘lumotlar bazasi tavsiya etadigan muhim ilmiy jurnallarning ko‘rsatkich va ma‘lumotlari 1886 yildan to bugungi kuni qamrab oladi. Bundan tashqari, 1300 jurnallarning qidiruv imkoniyatiga ega havolalar berilgan.

**Academic Search Premier** – ushbu multidissiplinar ma‘lumotlar bazasi 4600dan ziyod jurnallarni to‘liq matnlarini o‘z ichiga oladi. Bulardan, 3900ga yaqin nomdagilari oldindan retsenziyalangan. 1975 yildan hozirgi vaqtga qadar 100dan ortiq jurnallarni PDF formatidagi nusxalari shakllantirilgan.

**Newspaper Source**-kundalik gazetalarning ma‘lumot bazalari. Amerika mintaqaviy va xalqaro gazetalarning tanlangan maqolalarining to‘liq matnidan, axborot agentliklari obzori (USA today, Christian Science Monitor i Times(London))lardan erkin foydalanishga imkon yaratadi. Ma‘lumotlar banki 240dan ziyod gazeta va boshqa manbalarning to‘liq matnlarini qamrab oladi.

**Health Source - Consumer Edition** - meditsina va sog‘likni saqlash sohasidagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar va ishchilar (xususan xamshiralalar) uchun mo‘ljallangan mazmunli axborot resursi hisoblangan ma‘lumotlar bazasi.

**Masterfile Premier** – universal kontentning ko‘p profilli bazasi, ilmiy va ilmiy-ommaviy jurnal nashrlarining bibliografik havolalari, referat va to‘liq matnlaridan foydalanishga imkon yaratadi. Umumiy yo‘nalishdagi fan sohalar bo‘yicha to‘liq matnga ega ma‘lumotnomalar, biografiyalar, tasvir, kartalar, bayroqlarning kolleksiyalarini qamrab oladi.

**MEDLINE** – meditsina bo‘yicha to‘liq ma‘lumotlar bazasi. MEDLINE meditsina bo‘yicha, jumladan, kasallarni parvarish qilish, stomatologiya, veterinariya, sog‘liqni saqlash tizimi va hk. Bo‘yicha keng qamrovli axborotni o‘z ichiga oladi.

AQShning Milliy Tibbiy Kutubxonasi tomonidan yaratilgan eng yirik tibbiy jurnallarning bibliografik ma'lumotlar bazasi.

**Alt health Watch** – Xollistik tibbiyotga oid ma'lumotlar bazasi. Ta'sir sohalari: Igna bilan davolash, Aromaterapiya, Manual terapiya, Xitoy tibbiyoti, Gomeopatiya.

**Dentistry and Oral Science Source** – Tibbiyot. Stomatologiya sohasidagi tadqiqotchilar, o'qituvchilar, talabalar va shifokorlar uchun mo'ljallangan.

Kosmetik stomatologiya, anesteziologiya, bolalar stomatologiyasi va shu kabi sohalarni uz ichiga oladi.

**Dynamed** – Tibbiyot. Tibbiyot xodimlariga mo'ljallangan minglab mavzularni qamrab olgan klinik ma'lumotlar.

**Global Health** – Sog'likni saqlash sohasidagi mutaxassislariga oid ommabop ma'lumotlar bazasi.

**International Pharmaceutical Abstract** – dori-darmonlar terapiyasi va farmasevtikaga doir ma'lumotlar bazasi.

**Green File** – Atrof-muhit, Qishloq xo'jaligi, ekotizimlar va shu kabi mavzularga oid ilmiy va ilmiy-ommabop resurslar to'plami.

**Green File** – Atrof-muhit, Qishloq xo'jaligi, ekotizimlar va shu kabi mavzularga oid ilmiy va ilmiy-ommabop resurslar to'plami.

**Art and Agritecture Complete** - San'at, Rassomchilik va Arxitektura. Ta'sir sohalari: Qadimiylik, Arxeologiya, Prezervatsiya texnologiyalari, Dekorativ va Grafik san'at, Interer va Lanshaft Dizayn, Fotosurat, Haykaltaroshlik va h.k.

**Energy and Power Source** – Energetika, Gaz va Neft sohasidagi mutaxassislar, ishchilar va ilmiy xodimlar uchun mo'ljallangan to'lik matnli axborot resursi.

**Engeneering Source** – barcha mutaxassislikdagi muhandislarga oid ma'lumotlar bazasi (darsliklar, ma'lumotnomalar, multimedia qullanmalari, ilmiy jurnallar).

**Garden, Landscape and Horticulture Complete** – Botanika, Bog'bonchilik va lanshaft dizayn bo'yicha ma'lumotlar bazasi.

**Health Source: Nurceuing/Academic Eddition** - sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar va ishchilar (xususan xamshiralar) uchun mo'ljallangan mazmunli axborot resursi.

**Hospitality and Tourism Complete** – Turizm va Mehmonxona biznesining ilmiy va uslubiy asoslariga oid ma'lumotlar bazasi.

**Humanities Full Text (H.W.Wilson)** – gumanitar fanlar bo'yicha ma'lumotlar bazasi.

**International Political Science Abstracts** – siyosiy fanlar bo‘yicha tadqiqotchilarga mo‘ljallangan ma’lumotlar bazasi.

**Legal Collection** – Huquqshunoslik fanlariga mansub ulkan ma’lumotlar bazasi.

**Library and Information Science Source** – Axborot va kutubxona faoliyatini rivojlanishining ilmiy va amaliy tomonlariga oid ma’lumotlar bazasi.

**Masterlife Complete** – bir xil yunalishdagi yukori reytingli nashriyotlarning katta miqdordagi to‘lik matnli jurnallarini o‘z ichiga olgan to‘plam.

**Middle Eastern and Central Asian Studies** – Yaqin Sharq va O‘rta Osiyodagi mamlakatlar va odamlar hakidagi siesiy va ijtimoiy ma’lumot.

**Newspapers Source** – ushbu to‘plam AQShning 45 dan ziyod milliy va halkaro gazetalarini, CBS News, CNN, Fox News va boshqa shu kabi kanallarning teleradio- yangiliklarini o‘z ichiga oladi.

**Petroleum Abstracts Tulsa Database** – Neft va gaz sanoatidagi mutaxassislariga mo‘ljallangan turli xil ilmiy resurslar (ilmiy jurnallar, maqolalar, qo‘lyozmalar, ma’lumotnomalar).

**Polymer Library** – Plastik, rezina, polimer kompozitlar va kley kabi kimyoviy materiallarga doir dunyodagi eng ulkan ma’lumotlar bazasi. Bu to‘plamga ilmiy jurnallar, konferensiyalar to‘plamlari, kitoblar, hisobotlar va h.k. kiradi.

**Professional Development Collection** – ushbu to‘plam ta’lim rivojlanishining ilmiy asoslari va amaliy jixatlariga oid 500 dan ortiq ilmiy jurnallarni o‘z ichiga oladi.

**Psychology and Behavioural Science Collection** – Psixologiya bo‘yicha to‘lik matnli resurs.

**Textile Technology Complete, World Textile** – To‘qimachilik sanoatidagi mutaxassislar, olimlar, o‘qituchilar va talabalar uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bazasi.

**Library, Information Science & Technology Abstracts (LISTA)** Baza kutubxonachilik bo‘yicha keng qamrovli to‘liq ma’lumot bazasiga ega. Ko‘rsatkich o‘z ichiga 560ta asosiy jurnallar, taxminan 50 nufuzli jurnallar va 125ga yaqin tanlangan jurnallar, shuningdek, kitoblar, tadqiqotlar bo‘yicha hisobotlar, konferensiya to‘plamlarini o‘z ichiga oladi. Mazmunan kutubxonachilik ishi, klassifikatsiya, kataloglashtirish, bibliometriya, axborotga bo‘lgan onlayn kirish, axborot menejmenti va

boshqa masalalarni qamrab oladi. Baza 1960-yillar o'rtalariga oid axborotlarni o'z ichiga oladi.

**ERIC (Educational Resource Information Center)** – ta'lim masalalari bo'yicha ma'lumotlar bazasi. Ta'lim masalalariga oid to'plamlar, ilmiy jurnallar to'plangan.

**GreenFILE** – mazkur ma'lumotlar bazasi insonning atrof muhitga ta'siri aspektlarini ochib beruvchi keng qamrovli axborot beruvchi manba hisoblanadi. Bu ekologik qurilishlar, atrof muhitni ifloslanishi, qishloq xo'jaligini rivojlanishi, energiya manbalarini yangilanishi, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa bir qator muammolarga oid to'liq keng qamrovli axborot beruvchi ilmiy, ommaviy ishlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar bazasi 384000 yozuvni o'z ichiga olgan predmet ko'rsatkich va referatlarni o'z ichiga olib, ulardan 4700 yozuvlar to'liq matni bilan erkin foydalanishga qo'yilgan

**AHFS Consumer Medication Information - AHFS Consumer Medication Information** – bu ingliz va ispan tillaridagi dori mahsulotlarining axboroti bo'yicha manba hisoblanadi. Sog'liqni saqlash tizimidagi Amerika farmasevtlar jamiyati (AHFS) tomonidan nashr etiladigan resurs iste'molchilar uchun tushunarli bo'lgan tilda yoritilgan axborotni o'z ichiga oluvchi mingdan ortiq monografiyani o'z ichiga oladi.

**Regional Business News** – biznesga oid mintaqaviy nashriyotlarning to'liq ma'lumotlar bazasini o'z ichiga oladi. Regional Business News 80dan ziyod AQShning yirik shahar va qishloqlarida chop etilgan mintaqaviy to'liq ma'lumotlar bazasini o'z ichiga oladi.

**Business Source Premier** - 2300 dan ortiq biznesga oid jurnallarning to'liq matnli va 1100dan ortiq retsenziyalangan nashrlarning ma'lumot bazalari to'plami. 1886 yildan boshlab ma'lumotlarni o'z ichiga olgan manbalarning to'liq matni, shuningdek 1998 yilgi manbalardan qidiruv uchun havolalar taqdim etilgan.

### **Business Source Complete Database**

**[www.ebscohost.com](http://www.ebscohost.com)**

Business Source Complete - 2500ga yaqin to'liq matnli jurnallardan iborat ma'lumotlar bazasi. Arxiv ko'lami 1886 yilgacha. Qo'shimcha to'liq matnli manbalar o'z ichiga moliyaviy ma'lumotlar, kitob seriyalari, monografiyalar, ma'lumotnomalar, konferensiya materiallari, sanoatning turli sohalari bo'yicha hisobotlar, bozor tahlili, mamlakatlar bo'yicha hisobotlar, kompaniya profili, SWOT.

## 5.2. ProQuest kompaniyasi nashrlari

ProQuest kompaniyasi barcha tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, OTMLar, kutubxonalarga axborot kontenti bo'yicha fanni rivojlantirishda faoliyat yuritadi. ProQuest ilmiy dissertatsiya va tezislarni chop etishda yetakchi hisoblanadi. ProQuest ma'lumot bazalarida ilmiy bilimlar zamonaviy multimedia kontentida taqdim etilib, ma'lumotlarni qidirish borasida qulay servis, shuningdek yangi platformaning bir qator imkoniyatlari mavjud.

### ProQuest® Congressional Hearings Digital Collection

**ProQuest® Congressional Hearings Digital Collection** – AQSh Kongressida tinglangan materiallarning chop etilgani va chop etilmaganlariga foydalanishga imkon yaratadi. Amerikaning davlat siyosatini shakllantirish bilan bog'liq noyob hujjatlar, shuningdek, bu masalalarda Kongressning roli haqida ob'ektiv ma'lumotlarni taqdim etadi.

### Qimmatli ilmiy axborot

Kolleksiya turli xil sohalarga oid ob'ektiv ma'lumotlar, siyosiy tahlillar va ilmiy tadqiqotlarning muhim manbasi hisoblanadi:

<i>Afro-amerika tadqiqotlari</i>	<i>Sog'liqni saqlash</i>
<i>Qishloq xo'jaligi</i>	<i>Xalqaro munosabatlar</i>
<i>Biznes</i>	<i>Qonunchilik</i>
<i>Iqtisod</i>	<i>Siyosat</i>
<i>Ta'lim;</i>	<i>Fan va texnologiyalar</i>

### Quyidagi maydonlar bo'yicha kengaytirilgan qidiruv:

<i>Bibliographic numbers (SuDoc or CIS accession number)</i>	<i>Subject terms (controlled vocabulary)</i>
<i>Committee</i>	<i>Title (hearing title or insertion title)</i>
<i>Hearing numbers (where available)</i>	<i>Witness name</i>
<i>Legislative numbers (bills, public laws, and Statutes at Large citations)</i>	<i>Witness affiliation.</i>

## ProQuest Research Library

ProQuest Research Library-ProQuestning keng qamrovli ma'lumot bazalaridan biri, 5000dan ziyod nomdagi, 4000 vaqtli nashrlar, ulardan 3600-to'liq matnli nashrlarni o'z ichiga oladi. 150 fanga oid turli xil avtoritet ilmiy, tarmoq va ommabop jurnallarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ma'lumot bazasiga gazetalar va ma'lumotnoma nashrlar kiritilgan. ProQuest Research Library ikki komponentdan iborat-vaqtli nashrlarning ro'yxati va 15ta qo'shimcha tematik modullar:

- San'at
- Biznes
- Bolalar
- Ta'lim
- Umumta'lim materiallari
- Sog'liqni saqlash
- Gumanitar fanlar
- Dunyo mamlakatlari
- Yurisprudensiya
- Harbiy ish
- Madaniyatlar turli
- Psixologiya
- Fan
- Ijtimoiy fanlar
- Ayollar uchun materiallar

Bu tadqiqot institutlarining, kutubxonalar, o'quv muassasalari uchun ma'lumot bazasi bo'lib, umumta'lim materiallarni, maxsus manbalarni o'z ichiga oladi. Qidiruv uchun qulay interfeys asosiy vaqtli nashrlar, tematik modullar bo'yicha bir vaqtning o'zida maksimal to'liq natija olishga imkon yaratadi.

ProQuest Research Library 150 bazaviy akademik fanlar bo'yicha tashqi web saytlar havolalariga ega.

## ProQuest Technology Collection

ProQuest innovatsion platformasida foydalanish mumkin bo'lgan axborot resursi bo'lib, beshta kuchli mavzuviy ma'lumot bazasini o'z ichiga oladi:

ProQuest Illustrata Technology	ProQuest Engineering Research Database
ProQuest Advanced Technologies Database with Aerospace	ProQuest Computer Science Collection
ProQuest Materials Research Database with METADEX	

ProQuest Technology Collection ma'lumotlar bazasi: 3500dan ziyod to'liq matnli ilmiy jurnallar 1962 yilgacha bo'lgan arxivi bilan; 50% dan ziyod mazmuni-retsenziyalangan jurnallar. 30 mln.dan ortiq mazkur tematikaning turli aspektlari bo'yicha ortiq bibliografik va



referativ hujjatlar. Ilmiy maqolalardan 10 mln.dan ziyod maksimal aniq tematik qidiruv uchun mo'ljallangan ilustrasiyalar (jadval, grafiklar, fotosuratlar, kartalar va b.q.)

**To'liq matnli ilmiy jurnallar** butun dunyo bo'yicha texnika fanlari injenerlik ishi bo'yicha yuqori texnologiyalar, shuningdek, materialshunoslik, kompyuter fanlari, fizika, ximiya, matematika, mashinasozlik, nanotexnologiyalar, elektronika, telekommunikatsiya, aerokosmik tadqiqotlar va boshqa ko'plab fanlar bo'yicha axborotlarni o'z ichiga oladi.

Yuqori impakt-faktorli jurnallardan quyidagilarni keltirish mumkin:

Aircraft Engineering and Aerospace Technology	Computational Optimization and Applications
American Journal of Mathematics	Materials Science and Technology
Mineralogy and Petrology	Mechanical Engineering
Chemical Engineering Progress	Microscopy and Microanalysis
Continuum Mechanics and Thermodynamics	Information Management & Computer Security

Ma'lumotlar bazasida jurnal maqolalari, kitoblar, monografiyalar, tarmoq adabiyotlari, dissertatsiyalar, patentlar, laboratoriya va turli ilmiy tashkilotlarning hisobotlari, konferensiya materiallari (24 axborot manbasi). Bu tadqiqotchilarga, kutubxonachilarga dunyoda texnika fanlariga oid chop etilayotgan materiallarni kuzatib borish, kerakli bo'lgan axborotni o'tkazib yubormaslik imkonini beradi.

10 mln. imidjlar (jadval, grafik, fotosuratlar, karta va boshqalar ProQuest Illustrata texnologiyalari orqali indekslangan bo'lib, ular foydalanuvchiga kerakli hujjatlarni an'anaviy qidirish vositalariga qaraganda samarali topishga imkon yaratadi. Qidiruvni amalga oshirishda quyidagi kriteriyalar qo'llaniladi: tasvir turi (fotosurat, rasm, karta, jadval, grafik va b.q.), kartalar-geografik, geologik, fizik, ekologik va boshqalar. Nashrning chop etilish vaqti diapazoni, shuningdek, to'liq tasvir-opsiyasini berish mumkin.

Ma'lumotlar bazasi joylashgan **ProQuest Platformasi** rus tilidagi interfeysga ega bo'lib, aniq relevant natija olishga qaratilgan axborotning katta oqimi bilan ishlay oladigan xizmat ko'rsatishga ega. Faset navigatsiyasi tizimi yo'lga qo'yilgan. RefWork turidagi dasturiy vositalarni integratsiyasi yo'lga qo'yilgan. Bildirishlar RSS-texnologiyalari asosida faqatgina berilgan mavzu bo'yicha emas, balki aniq nashr bo'yicha ham amalga oshiriladi. Ma'lumotlar bazasiga kirish Proxy-server orqali tashkilotlarning IP orqali amalga oshiriladi.

## «Digital Dissertations and Theses»

### **Digital Dissertations and Theses - raqamli dissertatsiyalar va tezislar**

«Digital Dissertations and Theses»-bu 80 ta universitetlarning doktorlik va magistrlik dissertatsiyalarning elektron shakldagi to'plami.

Ushbu kolleksiya dunyodagi eng to'liq dissertatsiyalar va avtoreferatlar to'plami hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar bazasida jahondagi turli xil universitetlarning 1,7 mingdan ortiq mualliflarning ishlari o'rin olgan. Hammasi bo'lib 2,9 mln. atrofidagi tadqiqotlar 1,2 mlndan ortiq PDF formatida to'liq ma'lumotlar bazasi har hafta to'ldirib boriladi. Har yili 70000dan ortiq hujjatlar bilan boyitiladi. Arxivi 1637 yildan hozirgi kungacha qamrab olinadi. Rus tilida interfeys mavjud.

Online ravishda rus tiliga boshlang'ich 24 betni tarjima qilish imkoniyati mavjud, ProQuest Dissertatsiya va Tezislar ma'lumotlar bazasini to'liq va alohida tomlarda olish mumkin:

Tom A-umumiy va gumanitar fanlar bo'yicha dissertatsiyalar

Tom V-aniq va texnik fanlar bo'yicha dissertatsiyalar

ProQuest Dissertatsiya va tezislar ma'lumotlar bazasidagi barcha bilim sohalari zamonaviy multimedia kontentlarda joylashgan bo'lib, ilmiy materiallarga yuqori sifatli darajada kirishni ta'minlaydi, qidiruv natijalari bilan ishlash xizmatlarini va yangi ProQuest platformasidagi boshqa noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Kirish imkoniyati IP-adres orqali chegaralanmagan holda va bir vaqtning o'zida bir qancha foydalanuvchilar kirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga nusxa olish, saqlash va axborotlarni chop etish imkoniyatlariga egadir.

Dissertatsiyalar ma'lumot bazalari haqidagi axborotlar ProQuest saytining Products & Services: [www.proquest.co.uk](http://www.proquest.co.uk) bo'limida joylashtirilgan.

### **ProQuest Education Journals - ProQuest Jurnallari**

ProQuest Education Journals-boshlang'ich, o'rta, oliy, maxsus va qo'shimcha ta'lim sohasiga doir barcha fanlarga oid axborotlarni o'z ichiga olgan to'liq matnli ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Bundan tashqari, MBda tarix, nazariya, o'qitish metodologiyasi, ta'lim loyihalari va innovatsiyalariga oid ma'lumotlar ham jamlangan. Fanlararo xarakterga ega bo'lgan maqolalar keng taqdim etilgan: ta'lim psixologiyasi, ta'lim sotsiologiyasi, bilimlar sotsiologiyasi, ta'lim siyosati, ta'lim menedjmenti va hokazolar.

Ta'limning ko'rgazmali sistemasiga doir ma'lumotlar ham jamlangan: adabiyot, til, biologiya, geografiya, matematika fizika, san'at, jismoniy tarbiya va h.k.

MB tarkibi:

✓ Jahon bo'ylab nashr etilayotgan 900dan ortiq ilg'or jurnallar; ulardan 600 tasi-to'liq matnli;

✓ Assotsiyatsiyalar, ilmiy uyushma va institutlar tomonidan nashr etilayotgan, 140 sohalararo nashrlar, masalan: American Annals of Death, Child Health Alert, Computers in Education, Learning and Training Innovation, Media and Methods;

✓ Childhood Education, College Teaching, Harvard Educational Review, Journal of Athletic Training, Educational Theory, Quality in Higher Education kabi jurnallarning minglab to'liq matnli maqola va illustratsiyalari bilan yaqindan tanishishni ta'minlaydi.

✓ Ta'lim fanlariga qaratilgan sxemalar, jadvallar, diagrammalar va boshqa grafik elementlar keltirilgan, MB 1991 yildan boshlab shakllantirilgan. Rus tilidagi interfeys, chet tilidagi maqolalarning rus tilidagi kompyuter tarjimasi, sodda va qulay qidiruv tizimi, qidiruv natijalarini saqlash, qog'ozga chiqarish, jo'natish imkoniyati kabi qulayliklar resursdan o'quv jarayoni va ilmiy ishlarda foydalanishda o'qituvchilar hamda ilmiy xodimlar, talabalar va aspirantlar, ta'lim sohasidagi menejerlar uchun juda qo'l keladi.

[http://www.proquest.co.uk/enUK/catalogs/databases/detail/pq\\_ed\\_journals.shtml](http://www.proquest.co.uk/enUK/catalogs/databases/detail/pq_ed_journals.shtml)

ProQuest Education Journals MB haqida batafsil ma'lumot

<http://proquest.com/tls/servlet/ProductSearch?platformID=1&externalID=7262&vdID=1>

ProQuest Education Journals MB jurnallarining to'liq ro'yxati

**ProQuest Psychology Journals - ProQuest Psixologiya Jurnallari**

ProQuest Psychology Journals-psixologiya va u bilan bog'liq fanlar: ijtimoiy psixologiya, kognitiv psixologiya, xulq-atvor fanlari, ta'lim psixologiyasi, aloqa psixologiyasi, nevrologiya, rivojlanish psixologiyasi, yosh davrlar psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, psixometriya, psixobiologiya, tajribaviy, klinik hamda nazariy va amaliy psixologiya kabi fanlarga oid axborotlarni o'z ichiga olgan to'liq matnli ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

ProQuest Psychology Journals tarkibiga jahon bo'ylab nashr etilayotgan 640 nomdagi sohaga oid jurnallar, 540 to'liq matnli jurnallar kiradi.

<i>The American Journal of Psychiatry</i>	<i>The Psychological Record</i>
<i>Psychotherapy and Psychosomatics</i>	<i>Educational Psychology,</i>
<i>The American Journal of Geriatric Psychiatry</i>	<i>Educational and Psychological Measurement</i>
<i>Development and Psychopathology</i>	<i>Early Childhood Education</i>

50% dan ortiq jurnallar taqrizlanadi va yuqori murojaatlar darajasiga ega bo'lib, MB 1971 yildan boshlab shakllantirilgan;

Turli davlatlarning universitet va kolledjlarida himoyadan o'tgan 5200 to'liq matnli dissertatsiyalar. Xronologik qamrovi-2000-2006 yy;

Foydalanuvchilar axborotni analitik aks ettiruvchi chizmalar, jadvallar, diagrammalar, fotosuratlar va boshqa grafik elementlar bilan imkoniga ega bo'lishadi. Rus tilidagi interfeys, chet tilidagi maqolalarning rus tilidagi kompyuter tarjimasi, sodda va qulay qidiruv tizimi, qidiruv natijalarini saqlash, qog'ozga chiqarish, jo'natish imkoniyati kabi qulayliklar resursdan ta'lim jarayoni va ilmiy ishlarda foydalanishda o'qituvchilar hamda ilmiy hodimlar, jumladan, psixologlar, psixologiya, ta'lim yo'nalishi talabalari va mutaxassislari uchun juda qo'l keladi.

### **ProQuest Research Library - ProQuest ilmiy tadqiqot ishlari kutubxonasi**

ProQuest Research Library-ProQuestning umumiy ta'limga oid ulkan ma'lumotlar bazasi hisoblanib, uning tarkibida 5000 nomdagi hujjatlar, jumladan, 4000 (ulardan 3600 tasi to'liq matnli) davriy nashlar (ulardan 3600 tasi to'liq matnli) joylashgan. Ushbu ma'lumotlar bazasida 150ta fanga tegishli turli avtoritet ilmiy, sohaviy va ommabop jurnallar taqdim etilgan. Bundan tashqari, MBda gazeta va ma'lumotnoma nashrlar ham jamlangan. ProQuest Research Library ikki komponentdan tashkil topgan-davriy nashrlarning tayanch ro'yxati va 15 qo'shimcha tematik modullar:

San'at	Gumanitar fanlar
Biznes	Jahon davlatlari
Bolalar	Huquqshunoslik
Ta'lim	Harbiy ish
Umum ta'lim materiallari	Psixologiya
Sog'liqni saqlash	Fan
San'at	Ijtimoiy fanlar

Bu baza ilmiy-tadqiqot institutlari, kutubxonalar, o'quv muassasalari uchun juda qo'l keladi, chunki unga nafaqat umumiy ta'limga oid materiallar, balki tadqiqotchilarga mo'ljallangan maxsus manbalar ham kiritilgan. Foydalanuvchilar uchun asosiy davriy nashrlar va tematik modullar bo'yicha qulay qidirish interfeysi ko'zda tutilgan. U bir vaqtning o'zida tezda to'liq natija olish va qidirishni maksimal aniqlashtirish imkonini beradi. ProQuest Research Libraryda 150 akademik fanlarga oid tashqi havolalar ham keng o'rin olgan.

### **ProQuest Technology Collection**

ProQuest Technology Collection quyidagilardan iborat:

- 3500dan ortiq ilmiy jurnallarning 1962 yilgacha to'plangan to'liq matni. 50% dan ortiq retsenziyalangan jurnallar.

- 30mlndan ortiq barcha turdagi hujjatlarning bibliografik va referat ma'lumotlari.

- 10mlndan ortiq ilmiy maqolalarning (jadvallar, grafikalar, fotosuratlar, kartalar va boshqalar) illustratsiyasi (aniq qidirish imkoniyatini yaratish maqsadida chuqurlashgan indekslashtirilgan ko'rinishda olish uchun )


Jurnallarning to'liq matni

Jadvallar va shakllar

Bibliografik tezislar

Ilmiy jurnallarning to'liq matni - texnika fani va texnika sohasidagi injenerlik ishi, materialshunoslik, kompyuter

texnologiyasi va shu qatorda fizika, kimyo, matematika, mashina qurilish, nanotexnologiya, elektronika, telekommunikatsiya, aerokoinot tadqiqot ishlariga tegishli barcha mavzulardagi minglab maqolalarga kirishni ta'minlaydi. Bibliografik va tezislar apparati-texnika sohasiga tegishli barcha turdagi axborot manbalarini, to'liq matnlarga kirishni ta'minlaydi.



### **5.3. Springer Nature kompaniyasi nashrlari**

Tabiiy-ilmiy va meditsina yo'nalishidagi kitoblar va akademik jurnallarni nashr qilishga ixtisoslashgan xalqaro nashriyotchilik kompaniyasi hisoblanadi. Kompaniyaning geografik qamrovi nashrlarining dunyo ilmiy hamjamiyatida tutgan o'rnini ko'rsatadi: dunyo bo'yicha 40 dan ortiq ofislar va 8500 dan ortiq xodimlariga ega. 1846 yildan e'tiboran, kompaniya tashkil etilgan vaqtdan boshlab

ishonchli tarzda barqaror rivojlanib, universitetlar va ilmiy tashkilotlarning ishonchini qozondi. Har yili quyidagi ixtisoslashgan yo‘nalishlarga oid 2900 jurnal va 200 000 kitoblar nashr qiladi:

**SPRINGERLINK** platformasi-ulkan tarmoqli platforma bo‘lib, qo‘llanmalar va ma‘lumotlar bazasi, elektron kitoblar, jurnallar va ko‘rsatkichlarning to‘liq to‘plamidagi 9000000dan ziyod ma‘lumotlardan erkin va oson foydalanish imkonini taqdim etadi. Ushbu baza 550000 maqolalar, 500000 ma‘lumotnomalar, laboratoriya tadqiqotlari uchun 40000 protokollarni o‘z ichiga oladi. Har yili 7000dan ortiq yangi elektron kitoblar va 2000 metodik qo‘llanmalar, har oyda esa 12000 ziyod jurnal maqolalari qo‘shiladi.

**SPRINGER MATERIALS** ma‘lumotlar bazasi-jahondagi eng yirik fizika va ximiyaga oid materiallar manbasi hisoblanadi. Minglab ekspertlar tomonidan tekshirib kiritilgan, yig‘ilgan ma‘lumotlarning jahondagi yirik manbasidir. 9100 tarmoq hujjatlari, 1000000dan ortiq ilmiy havolalar, 165000dan ortiq modda qorishmalar, 3000dan ortiq xossalar bo‘yicha ma‘lumotlar, doimiy ravishda to‘ldirilib, yangilanib turiladi.

**Springer Open** – kompaniyaning mahsuloti hisoblanib, 500tadan ortiq ilmiy jurnallar va 20dan ortiq ilmiy kitoblardan ochiq foydalanish imkonini yaratadi. Barcha resurslar sohalarning yetakchi ekspert mutaxassisleri tomonidan retsenziyalanadi. Ko‘pgina nashriyotlar bilan hamkorligi bois, SpringerOpen ilmiy xodimlarga fanning barcha sohalarini bo‘yicha maqolalar chop etishga imkon yaratadi.

**BioMed Central** - ilmiy-texnik va meditsina sohasi bo‘yicha 291ta retsenziyalanadigan jurnallarni chop etadi. Portfoliosi biologiya, meditsina va biomeditsinaning barcha sohalarini qamrab oladi. Barcha jurnallar chop etilgach, tezlik bilan erkin foydalanishga taqdim etiladi.

**Chemistry Central** - bu ximiya fanlari bo‘yicha Springer Science and Business Media kompaniyasining erkin foydalanish uchun taqdim etiladigan platformasi.

### **NATURE PUBLISHING GROUP**

Nature Publishing Group (NPG) kompaniyasi-tabiiy fanlar, jumladan, biologiya, ximiya, meditsina, biomeditsina, atrof muhit, fizika va materialshunoslik bo‘yicha ilmiy kashfiyotlar va tadqiqotlarni nashr qiluvchi eng yirik nashriyot uylaridan biri. (Buyuk Britaniya). Kompaniya nomi ikkita yirik kompaniyalarning Nature American va Macmillan Publishers Limitedlarning birlashuvidan hosil bo‘lgan.

Kompaniya qadimiy tarixga ega. 1869 yilda astrofiziklar Tomas Genri Xakslı va Norman Loker Aleksandr Makmillanni «Umumiy ilmiy jurnal» chop etishga ko'ndirishdi. Natijada, House of Macmillan nashriyoti Nature deb nomlangan haftalik illustrasiyalangan ilmiy jurnalni chop etdi. 1897 yilda jurnal birinchilardan bo'lib Djozef Tompson tomonidan elektron kashf etilganligini yozgan. Shu vaqtdan boshlab, eng muhim ilmiy texnik kashfiyotlar haqidagi xabarlar aynan shu jurnalda chop etiladi.

Bugungi kunda mazkur nashriyot 120dan ortiq o'zining va boshqa xamjamiyatlar bilan hamkorlikdagi ilmiy jurnallarini chop etadi. Eng mashhur jurnallaridan biri bu - Nature jurnali.

Yillik yuqori impakt-faktorga ega haftalik xalqaro nashr hisoblanadi. Jurnal barcha davrlarning ilmiy jurnallarining Top-100 taligiga kiradi. Jurnal yuqori retsenziyalangan fan, texnologiyaga asoslangan tadqiqotlarni chop etadi. Jurnal barcha ma'lumot bazalarida indekslanadi. Onlayn arxivi 1869 yildan boshlangan.

Scientific American-165 yillik tarixga ega ilmiy jurnallardan biridir. Bu jurnal ham birinchilardan bo'lib, jahonda fan va texnologiyalarni rivojlanishi, Nobel mukofoti lauriatlari haqidagi ma'lumotlarni chop etadi. Scientific American mind-odam genetikasi haqidagi har oylik jurnal, scientific American jurnalning ilovasi hisoblanadi.

Jurnal: MEDLINE, Scopus, Web of Science, Google Scholar va boshqa tabiiy fanlarga oid ma'lumot bazalarida indeksatsiya qilinadi.

## **OXFORD UNIVERSITY PRES SPRINGER SCIENCE AND BUSINESS MEDIA**

### **Kompaniya haqida qisqacha ma'lumot**

**Oxford University Press** nashriyoti Oksford universitetining bo'linmalaridan biri bo'lib, 1478 yildan beri ish yuritadi. Uning faoliyati ilmiy nashrlar vositasida butun dunyoda ta'lim va ilmiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan.

**Oxford University Press** korporativ, ilmiy, davlat, tibbiy, huquqiy kutubxonalarni o'z ichiga olgan turli tashkilotlarning foydalanuvchilariga elektron resurslardan erkin foydalanish imkoniyatini beradi.

Nashriyot ilmiy-tadqiqot jurnallar, shuningdek ilmiy va ma'lumotnoma nashrlarni elektron shaklda taqdim etadi. Jurnal va onlayn resurslar gumanitar, ijtimoiy, tabiiy fanlar, tibbiyot va huquq kabi mutaxassisliklarning asosiy qismini o'z ichiga oladi.

Elektron resurslar dars berish va tadqiqot o'tkazish uchun mo'ljallangan funksional imkoniyatlarni, shuningdek ulardan kutubxonada foydalanishni amalga oshiradigan qator bepul vazifalarni taqdim etadi.

### *Resurslar sharhi*

Oksford universiteti qoshidagi nashriyot tibbiy, huquqiy, gumanitar, ijtimoiy, tabiiy fanlar bo'yicha qator elektron resurslarni nashr etadi. Mutaxassisliklar bo'yicha asosiy resurslarning ro'yxati:

***Oxford Journals Collection*** – 1996 yildan boshlab chop etilgan 285 nashrlarni o'z ichiga olgan ilmiy jurnallar to'plami bo'lib, sifatli va foydali ma'lumotlarni takdim etadi. 1996 yilgacha chop etilgan jurnallar Oxford Journals Archive bazasida mavjud. Beshta mutaxassisliklarga doir jurnallar keng ko'lamdagi dolzarb tadqiqotlardan erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Mutaxassisliklar:

Gumanitar fanlar– 77 jurnal	Huquq– 49 jurnal
Biologik-tibbiy fanlar– 102 jurnal	Ijtimoiy fanlar – 92 jurnal
Matematika va tabiiy fanlar– 117 jurnal	

***Oxford Handbooks Online (OHO)*** - ijtimoiy va gumanitar fanlar bo'yicha taqriz qilingan makolalar to'plamidir. Mazkur to'plamda 325dan ortiq ma'lumotnomalar, video va rasmlarga ega bulgan 13000dan ziyod makolalar mavjud. Maqolalar taqriz qilinib, bosma shakli chiqmasdan oldin onlayn nashr etilishi bois olimlar ma'lum sohadagi eng so'nggi yutuqlar bilan tez tanishib chiqishlari mumkin.

*Mutaxassisliklar:*

Biznes va boshqaruv	Adabiyot
Moliya va iqtisod	Musiqa
Tarix	Falsafa
Biznes va boshqaruv	Adabiyot
Moliya va iqtisod	Musiqa
Tilshunoslik	Psixologiya

***Oxford Reference*** 24 ta yo'nalish bo'yicha 2 milliondan ortiq raqamlangan maqolalardan iborat bo'lgan Oksford universitetining ma'lumotnoma nashri hisoblanadi. Uning tarkibiga taqriz qilingan maqolalar, mavzuli havolalar (ссылка), iqtiboslar (цитата), inglizcha lug'atlar, ikki tilli lug'atlar kabi bo'limlar kiritilgan.



***Oxford Scholarship Online (OSO)*** – 10000dan ziyod ilmiy ishlar va 170000 rasmlardan erkin foydalanish imkoniyatini beradigan, keng ko‘lamli va doimiy ravishda yangilanadigan kutubxona. Gumanitar, ijtimoiy, tibbiy, huquqiy va tabiiy fanlar buyicha 20ta mavzuli modullardan tarkib topgan. Bu yerda 8900 mualliflarning nashrlari mavjud. Mualliflar ro‘yxati klassiklardan boshlab zamonaviy mualliflargacha farq qilib, Nobel mukofoti sovrindorlarini ham o‘z ichiga olgan.

**Oksford lug‘ati (*Oxford English Dictionary*)** – 600000 zamonaviy va eskirgan so‘zlarning talaffuzi, ma‘nosi va tarixi bo‘yicha ma‘lumot beradi. Bu yerda 3 million iqtiboslar, shuningdek ingliz nutqining 1000 yillik hayot davri mobaynidagi ingliz tili va ayrim ingliz so‘zlarning tarixi aks ettirilgan tezaurusdan erkin foydalanish imkoniyati mavjud. *Oxford English Dictionary*ning vaqt ko‘lamlari muayyan so‘zlarning mavzu, mintaqa yoki kelib chiqishiga qarab ingliz tilida qachon paydo bo‘lganlarini aniqlashga yordam beradi. Yiliga to‘rt marotaba yangi va qaytadan ko‘rib chiqilgan so‘z ma‘nolari bilan to‘ldiriladi.

***Grove Art Online*** – jahon san‘atiga bag‘ishlangan ilmiy ensiklopediya bo‘lib, fovizm, Frida Kalo kabi turli mavzularga doir maqolalardan va tadqiqotni chuqurlashtirishga imkon beruvchi bibliografik ma‘lumotlardan iborat. 500000dan ziyod bibliografik havolalar, 45000 mualliflik maqolalar, 6000 suratlar, 21000 rassomlarni, arxitektorni, homiylarni, kollektorlarni, galeristlarni, nazariyotchilarni, yozuvchilarni, olimlarni va h.k.biografiyalari mavjud. Bu yerda Sibelius dasturi asosida yaratilgan 500dan ziyod musiqiy namunalar vositasida turli musiqiy yo‘nalishlar va bastakorlar haqida tushunchaga ega bo‘lish mumkin.

***Oxford Medicine Online*** – 85 tibbiy sohalarni o‘z ichiga olgan onlayn-resurslar to‘plami. Mazkur resurs muntazam ravishda yangilanib, 700 nashrlar, 40000 rasm, grafik va diagrammalar, 750 videomateriallar, shuningdek test topshiriqlari yordamida tibbiy xodimlarning bilim darajalarini tekshirishga mo‘ljallangan vazifalarni o‘z ichiga olgan.

***Oxford Law Online*** – Oksford universitetining huquq sohasiga doir barcha resurslarni birlashtiruvchi yagona axborot manbai hisoblanadi. Investment Claims-mazkur resurs halqaro investitsion huquq va hakamlilik (huquq va arbitraj) sohasini o‘rganish uchun mo‘ljallangan materiallar va taqrizlar to‘plami hisoblanadi.

***Oxford Reports on International Law***-xalqaro ijtimoiy huquq sohasidagi halqaro, milliy (ichki) va maxsus arbitraj sudlar tomonidan

kiritilgan qarorlar to‘plami. *Max Planck Encyclopedia of Public International Law*-tahliliy resurs bo‘lib, xalqaro ijtimoiy huquqning barcha jihatlarini bo‘yicha taqriz qilingan maqolalardan tashkil topgan.




#### 14-rasm. Qidiruv vositalari

Oxford University Press foydalanuvchilari uchun yo‘naltirilgan qidiruv vositalari va sohalar bo‘yicha saralash yordamida resurslarni ko‘zdan kechirish va batafsil o‘rganish imkoniyatlari mavjud.

Masalan: Oxford Journals - [www.oxfordjournals.org](http://www.oxfordjournals.org)

Oxford Journals butun to‘plami bo‘yicha «tezkor qidiruv»ni boshlash uchun «maqolalar qidiruvi» tugmasidan foydalanishingiz mumkin.




#### 15-rasm. Qidiruv maydoni.

Yoki sohalar bo‘yicha qidiruvni qo‘llashingiz mumkin.

Kengaytirilgan qidiruv

Qidiruv mezonlariga oydinlik kiritish uchun «kengaytirilgan qidiruv» tugmasidan foydalaning.



#### 16-rasm. Kengaytirilgan qidiruv

Qidiruvni nashr nomi, chop etilgan yili, hajmi, birinchi beti bo‘yicha cheklang. Oxford Journals levu qidiruvi bu mantiqdan

foydalanib, ifoda va namuna orqali qidiruvni qo‘llaydi. Qidiruvni bitta yoki ko‘proq jurnal nomlari, yoki tanlangan mutaxassislik bo‘yicha cheklang. Display yoki betdagi natijalar sonini sana bo‘yicha tanlash orqali o‘z natijalaringiz shaklini sozlang. Chiqarilgan natijalar sonini va shaklini o‘zgartiring.

### **CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS**

Cambridge University Press – 1534 yilda tashkil etilgan nufuzli universitet nashriyoti. Lingvistika, iqtisod, moliya, menejment, sotsiologiya, psixologiya, yurisprudensiya va san‘at kabi maxsus fan sohalariga oid o‘quv va ilmiy adabiyotlarni taqdim etadi. Fondi 50000 nomdan iborat bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar, kasbiy rivojlanishni aks ettiruvchi 350dan ortiq ilmiy jurnallar, maktab o‘quvchilari uchun ta’limiy resurslarni o‘z ichiga oladi.

Tematik bazalari:

***Cambridge Journals Online*** – fanning 25 sohasi bo‘yicha elektron jurnallar kolleksiyasi. Har yili nashriyot eng so‘nggi ilmiy tadqiqotlarni aks ettiruvchi 300dan ortiq retsenziyalangan akademik jurnallarni chop etadi.

***Cambridge Books Online*** butun dunyoga taniqli Cambridge universiteti nashriyotining barcha sohalar-tabiiy fanlar, texnika, meditsina, gumanitar va sotsiologiya fanlarga oid kitoblarni online tarzda taqdim etadi. Dinamik va innovatsion internet-resurslar, ya’ni Cambridge Books Online foydalanuvchilarga ilmiy tadqiqotlar va o‘quv jarayonlarini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlashda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Cambridge Books Online o‘z foydalanuvchilariga:

- ✓ barcha fan sohalariga oid 15000 dan ortiq elektron kitoblar;
- ✓ yangi kelib tushayotgan adabiyotlar va arxiv materiallari;
- ✓ eng yangi kitoblar va eng ko‘p nomda so‘raladigan adabiyotlar;
- ✓ aniq bir soha bo‘yicha kolleksiyalar (Predefined Collections)

taqdim etadi. Bunda har oyda yangi nomdagi adabiyotlar qo‘shilib boriladi. Barcha elektron shakldagi kitoblar PDF formatda MARC 21 formatidagi yozuvlari bilan kutubxona kataloglarini yaratish uchun taqdim etiladi. <http://ebooks.cambridge.org/>

***Sambridge Law Reports*** – yurisprudensiyaga oid asosiy ma’ruzalarga, shu jumladan, xuquq bo‘yicha xalqaro ma’ruzalariga kirish imkoniyatini yaratadi.

***Cambridge Companions online (Online Cambridge hamkorligi)*** - bu "Cambridge Xrestomatiyasi"ning taniqli elektron versiyasidir. Kolleksiya adabiyot, falsafaga, shuningdek, din, madaniyat va musiqaga oid mumtoz tadqiqotlar, materiallar yig'ilgan. Mashhur yozuvchi, musavvir, faylasuf va musiqachilar ijodi jonli, qulay ko'rinishda taqdim etilgan. Ushbu kolleksiyalar talaba hamda olimlar uchun nihoyatda qiziqarli resurslardan biridir.

Online Cambridge kolleksiyalari:

✓ 450 tomdan ortiq bo'lib, ma'lumotlar bazasi doimiy ravishda yangilanib turadi;

✓ Qidiruv tizimi muallif, nomi, sarlavha yoki mavzu bo'yicha amalga oshiriladi

✓ Interfeys qidiruv natijalarini saqlash, tanlangan matnlarni belgilash va foydalanuvchining individual ro'yhatini tuzish imkoniyatini beradi

✓ Bibliografik yozuvlar MARC formatida yaratilgan.

Bunda to'liq kolleksiyalar hamkorligi, shuningdek, fan sohalariga oid kolleksiyalar:

✓ Adabiyot va mumtoz kolleksiyalar;

✓ Falsafa, din va madaniyatga oid kolleksiyalar;

✓ Cambridge musiqa kolleksiyalariga ega bo'lish imkoniyati mavjud.

***Cambridge Histories Online (Online Cambridge Tarixi)*** - ensiklopedik xarakterga oid noyob kitoblarning yig'indisi bo'lib, ular mamlakat, o'lka, qit'a, sivilizatsiya, asrlar tarixi, shuningdek jamiyat turmushi, dini, fani, adabiyoti va san'ati tarixini o'z ichiga oladi.

Cambridge Histories Online (Online Cambridge Tarixi) kolleksiyasi 300 tomdan ortiq bo'lib, arxivi 1960-yildan, bugungi kungacha bo'lgan materiallarni qamrab oladi. Mukammal qidiruv tizimiga ega bo'lib, tarmoq orqali (web) kirish imkoniyati mavjud. Barcha nashrlar mavzular bo'yicha guruhlashtirilgan (klassifikatsiyalashtirilgan) bo'lib, kerakli ma'lumotni tez va oson topishga yordam beradi.

Aniq va keng qamrovli bibliografiya va bir qancha boshqa foydali funksiyalar ushbu resurslar bilan ishlashni nihoyatda qulaylashtiradi. Cambridge Histories Online (Online Cambridge Tarixi) har qanday tarixiy tadqiqotlar turiga mos kelib, unda ikki turdagi nashrlar mavjud:

✓ Dunyo mamlakatlarining siyosiy va iqtisodiy tarixiga tegishli nashrlar:

Histories of China, Histories of Japan, Histories of Africa, Histories of Latin America, Histories of Islam, Histories of Iran, Histories of Russia va b.)

✓ Tarixning boshqa tarmoqlari :

(The Cambridge History of Renaissance Political Thought, Cambridge Modern History, the Cambridge History of English Literature, the Cambridge Medieval History, the Cambridge Ancient History, The New Cambridge History of India: The Mughal Empire, The Cambridge History of the Book in Britain, The Cambridge History of Victorian Literature, The Cambridge History of Musical Performance va b.) Ma'lumotlar bazasi doimiy ravishda yangi nashrlar bilan to'ldirib boriladi. Cambridge Histories Online (Online Cambridge Tarixi) - noyob dinamik resurs bo'lib, yangi materiallar bosmadan chiqishi bilanoq ma'lumotlar bazasiga kelib tushadi.

[http://histories.cambridge.org/public\\_home](http://histories.cambridge.org/public_home)

### *Shakespeare Survey Online (Online Shekspir So'rovnomasi)*

Yillik Shakespeare Survey Online (Online Shekspir So'rovnomasi) nashri 1948 yildan nashr etib kelinadi. Har bir nashr aniq bir mavzu, p'esa yoki p'esalar to'plamiga bag'ishlanadi va nashr maqolalari o'zining sharhiga va Shekspirning Buyuk Britaniyadagi zamonaviy sahna ko'rinishlari haqidagi kritik materiallarga ega bo'ladi. Shakespeare Survey Online (Online Shekspir So'rovnomasi) ning elektron kolleksiyasi boy illustratsiyaga - ya'ni ko'pgina noyob sur'at, rasm, portretlarga ega bo'lib, uning ma'lumotlar bazasiga alohida Online Cambridge Kolleksiyalar platformasi yordamida kirish imkoniyati mavjud.

Shakespeare Survey Online (Online Shekspir So'rovnomasi) 64 tomdan iborat bo'lib, arhivi- 1948 yildan boshlangan. Original bosma nashrga to'liq mos tushadi. Qulay interfeys va mukammal qidiruv tizimiga ega bo'lib, IP -adres orqali kirish imkoniyati mavjud.

<http://www.cambridge.org/online/cco.htm>

*University Publishing Online* – Cambridge University Press kompaniyasi dunyoning boshqa nufuzli universitetlarining nashriyotlari bilan hamkorlik qilib butun dunyodan ilmiy asarlarni bir to'plamga yig'adi. Bunga quyidagi nashriyotlar ishlari kiradi: Emirates Center of Strategic Studies and Research, American Mathematical Association, Edinburgh University Press, Liverpool University Press, Royal Economic Society, Acumen Publishing, The University of Adelaide, Boydell&Brower, Anthem Press va boshqa nashriyotlardir.

## WILEY

Wiley (AQSh) – xalqaro tashkilot bo‘lib, akademik adabiyotlar, tibbiyot xodimlari, olimlar, tadqiqotchilar, mutaxassislar, oliy o‘quv yurt talabalari va o‘qituvchilari uchun adabiyotlar, kitob, jurnal, ensiklopediyalarning bosma va elektron shakllarini nashr etishda ixtisoslashadi, shuningdek internet mahsulotlari va xizmatlaridan erkin foydalanishni taqdim etadi. Kompaniya 800 ilmiy jamiyatlar bilan hamkorlik qilish orqali 4000000 maqola, 1500 jurnal, 9000 kitob va yuzlab kitoblar seriyalaridan erkin foydalanish imkonini yaratadi.

Quyidagi sohalarni qamrab oladi:

- *Tibbiyot, hamshiralik va stomatologiya*
- *Qishlok xo‘jaligi*
- *Buxgalteriya va moliya*
- *San‘at va arxitektura*
- *Biznes va menejment*
- *Ximiya*
- *Kompyuter fanlari*
- *Turizm, mehmonxona va kulinariya*
- *Yer va atrof muhit xaqidagi fanlar*
- *Iqtisod*
- *Ta‘lim va pedagogika*
- *Muhandislik fanlari va materialshunoslik*
- *Yuridik fanlar*
- *Tabiiy fanlar*
- *Matematika va statistika*
- *Fizika vai astronomiya*
- *Psixologiya*
- *Veterinariya*
- *Tilshunoslik*

WILEY kompaniyasining mahsulotlari:

**FOR Dummies** – eng ommabop ma‘lumotnoma kitob seriyasi bo‘lib bo‘lib, 1600 nomdagi 200 million kitoblarni o‘z ichiga oladi. Mutaxassisliklarni qamrovi sohalari: raqamli fotosur‘at, fitnes, ovqat va ichimliklar, pazandachilik, sog‘lom oziqlanish, ro‘zg‘orshunoslik.

**Wiley Online Library** –tabiiy fanlar, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy va gumanitar fanlarga oid onlayn resurslarning ulkan ko‘ptarmoqli kolleksiyasi hisoblanadi. 1500 dan ziyod jurnallarning 4 000 000 maqolalari, 9000 kitob va yuzlab ko‘p hajmli ma‘lumotnomalar, laboratoriya tadqiqotlari va ma‘lumotlar bazalaridan erkin foydalanish imkonini yaratadi.

**Wrox** –Wiley kompaniyasining nashriyot bo‘linmasi bo‘lib, dasturlashga oid kitoblarni nashr qiladi. Ushbu sayt turli darajadagi dasturlash mutaxassislariga o‘zaro tajriba almashish, har xil loyihalar bilan almashish, dasturlash kodlarini va hakoazolarni aniqlashga yordam beradi.

**Wiley-VCH** – Nemis Kimyo Hamjamiyati va Wiley kompaniyalarining qo‘shma loyixasi bo‘lib, turli xil ilmiy, texnik va ixtisoslashgan ma‘lumotlarning (kitoblar, jurnallar va kitoblar to‘plami) nemis tilidagi bosma va elektron shakllarini nashr qiladi. Ixtisosliklar: tabiiy fanlar, kimyo va materialshunoslik.

### **IOP Publishing kompaniyasi**

IOP Publishing kompaniyasi – AQShning fizika instituti (Institute of Physics) qoshidagi nashriyot hisoblanadi. Institut fizika sohasini rivojlantirish va dunyoning kuchli fiziklarini ilmiy tadqiqotlarga jalb qiladigan yetakchi ilmiy hamjamiyat hisoblanadi. Butun dunyodan a‘zolariga ega bo‘lib, bu fanning turli sektorlaridan 50 000 ga yaqin yetakchi fiziklardan iboratdir. IOP Publishing fizika fani tadqiqotlarini ilgari surish, ta‘limda qo‘llash masalalari bilan, shuningdek, jamoatchilik, siyosatshunoslar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Kompaniyaning nashirlik faoliyatidan tushadigan barcha foyda, Institut tomonidan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar olimlarini qo‘llab-quvvatlashga sarflanadi.

IOP Publishing dunyo ilmiy xamjamiyati uchun fizika, elektron kitob, konferensiya materiallari bo‘yicha qimmatli ilmiy jurnallarni taqdim etadi. Bu mahsulot va xizmatlar tadqiqotchilar va tadqiqot muassasalariga o‘zining izlanishlarini keng amмага yetkazishga imkon yaratadi.

Nashriyot ofislari Buyukbritaniya, AQSh, Xitoy va Yaponiya, shuningdek, Meksika va Sidneyda, dunyoning turli qismlarida fizika va uning turdosh sohalari bo‘yicha xodimlariga ega. 70 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop jurnallar chop etilib, ularning IOP Publishing ga tegishli qismi, boshqa ilmiy tadqiqot tashkilotlari, nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikda chop etilgan. Bu jurnallarning ko‘pi o‘zining sohasida eng ko‘p havolalarga egadir.

Bir yilda o‘rtacha 30000 dan ziyod maqolalar chop etilib, foydalanuvchilarni murojatlari 22 mln.dan ortiqdir.

### **5.4. Rossiya elektron nashrlari. «IVIS» (IBIC) mahsulotlari**

**IVIS (IBIC)** – Rossiyaning davriy nashrlar, kitoblar, mikrofilmlar, vaqtli nashrlar va axborot resurslarini tarqatuvchi yirik kompaniyalardan biri hisoblanadi. «**East View Information Services, Inc**» Amerika kompaniyasining Rossiya va MDH dagi distribyuteri va eksklyuziv hamkori hisoblanadi.

Kompaniya materiallari yirik kutubxonalar, arxivlar, OTMLar, tijorat va davlat muassasalari, hamda katta miqdordagi tezkor axborot zarur bo'lgan, gazeta va jurnallardan foydalanish ehtiyoji bo'lgan muassasalarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Kompaniya mahsulotlari dunyoning turli qismlaridagi axborotlarni taqdim etadi: MDH, Sharqiy Yevropa, Yaqin va O'rta Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyo kabi davlatlar.

**«IVIS» kompaniyasi tomonidan taqdim etiladigan asosiy resurslar:**

**«Центральная пресса России»** ma'lumotlar bazasi 30dan ortiq markaziy kundalik va haftalik nashrlarning to'liq matnlaridan foydalanishga imkon yaratadi. Resurs ikki milliondan ziyod maqolalarni o'z ichiga oladi. Arxiv ko'lami –1980 yildan boshlangan.

**«Региональные газеты России»** – bu Rossiya Federatsiyasining yetti federal okruglari, jumladan, Chechen respublikasi, Shimoliy Kavkazning boshqa regionlari, G'arbiy Sibir, Povolje, Moskva va Sankt-Peterburg nashrlarining keng panoramasini taqdim etadi.

**«Периодика стран СНГ и Балтии»** sobiq Ittifoq davlatlarida chop etilayotgan nufuzli vaqtli matbuot nashrlari, davriy nashrlar, axborot agentliklarining yangiliklarini taqdim etadi. Taqdim etiladigan nashrlar rus tilida va ingliz tilida. **«Наука Onlayn»** Rossiya Fanlar akademiyasining «Наука» nashriyoti tomonidan ijtimoiy-siyosiy va gumanitar fanlar bo'yicha chop etiladigan 36ta eng nufuzli rossiya nashrlarini o'z ichiga oladi. Bu jurnallarda, gumanitar fanlarning turli sohalaridagi eng diqqatga sazovor tadqiqotlar aks etadi.

**«Медицина и здравоохранение в России»** – bu meditsinaning umumiy masalalari, bolalar kasalliklari, narkologiya, psixiatriya, yuqumli kasalliklar bo'yicha chop etiladigan rasmiy va erkin vaqtli nashrlarni o'z ichiga oladi.

**«Издания по проблемам обороны и безопасности»** ma'lumotlar bazasiga harbiy mavzu va xavfsizlik masalalari, jumladan, Harbiy qo'mondonlik tomonidan chop etiladigan harbiy okrug, armiyaga oid Rossiyaning 50ga yaqin gazeta va jurnal nashrlarini o'z ichiga oladi.

**«Официальная статистика России и СНГ»** – Rossiya Federatsiyasining davlat statistika xizmati va MDHning Davlatlararo statistika Komiteti tomonidan nashr etiladigan elektron resurs hisoblanib, 2002 yilgi Butun Rossiya aholini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha materiallarni ham o'z ichiga oladi.



**«Публикации официальных документов органов государственной власти РФ»** elektron resursi Davlat Dumasi va Federatsiya Ittifoqi yig'ilishlarining stenografik hisobotlari, Prezident topshiriqlari, davlat qarorlari, ovoz berish natijalari, Rossiya Hisob palatasi tomonidan olib borilayotgan rasmiy xabarlar, hisobotlarni taqdim etadi.

**«Новостные ленты информационных агентств»** bu Rossiya va MDH davlatlarida yuz berayotgan voqealar haqida tezkor axborotga ega bo'lish maqsadida, axborot agentliklarini rus va ingliz tilidagi materiallarini taqdim etadi.

**«Международные новости службы «World News Connection»»** turli kontinentlarning ommaviy axborot vositalarining (televidenie, radio, gazeta, axborot agentliklari) ingliz tilidagi ma'lumot bazasini taqdim etadi.

**«Дайджест постсоветской прессы»** Sobiq Ittifoq davlatlari xududida chop etilgan muhim materillarni yig'indisidan iborat. Arxiv ko'lamı – 1949 yildan boshlangan.

**«Библиотечное дело и информационное обслуживание»** bu, kutubxonachi, bibliograflar, arxiv va muzey ishi bo'yicha mutaxassislar, kutubxonachilikka oid OTMlarning talaba va o'qituvchilari uchun tuzilgan maxsus to'liq matnli ma'lumot bazasi. Bu yerda kutubxona, arxiv va muzeylar sohasidagi muammolarni aks ettiruvchi kasbiy vaqtli nashrlardan.

**«Российская национальная библиография»** nomli elektron ma'lumotlar bazasi Rossiya kitob palatasi bilan hamkorlikda tayyorlangan noyob mahsulot hisoblanadi. Qidiruvning samarali tizimi – muallif, nomlanishi, nashriyoti, nashr etish yili, predmet rubrikasi va kalit so'zlar bo'yicha tezkor qidiruvni amalga oshirishga imkon beradi.

**«Вопросы истории» jurnalini raqamlashtirish.** 1926 yildan boshlab barcha sonlari mavjud. Bu loyihani amalga oshirish, 200 ming varoqdan iborat axborot massivi ichidan zarur axborotni tezkor bilan topishga imkon yaratadi.

**«Вестник Европы» (1802-1830 yillar),** Rossiyaning XIX asrdagi adabiyotshunoslik, san'at masalalari, ichki va tashqi siyosatning xususiyatlarini aks ettiradi.

**«Вопросы литературы» (1957y. dan)** – adabiyotshunoslik va adabiy tanqid masalalarini yorituvchi eng ko'p murojat qilinadigan Rossiyaning ilmiy nashri hisoblanadi.

«IVIS» kompaniyasi **Xitoyda chop etiladigan elektron axborot resurslarini keng spektrini** taqdim etadi. Barcha elektron ma'lumotlar bazasi qidiruv tizimiga ega bo'lib, ikkita rejimda faoliyat yuritadi: **oddiy** (kalit so'zlar bo'yicha qidiruv) va **kengaytirilgan qidiruv** (maydonlar bo'yicha qidiruv).

Oddiy qidiruvda aniq ibora orqali qidiruv amalga oshiriladi. Mantiqiy operatorlar (AND, OR, NOT) va yaqinlik operatori (NEAR) qo'llaniladi. Maydonlar bo'yicha qidiruv maqolaning muallifi, sarlavhasi, shu jumladan, «to'liq maqola» opsiyasi (muallif va sarlavha birgalikda) qidiruv imkonini beradi. Shuningdek, qidiruvni chegaralash imkoniyatiga ega bo'lib, bunda nashr etish sanasi, axborot manbasi bo'yicha chegaralash mumkin. Nashrlar katalogi orqali barcha sonlarning mundarijalari bilan tanishish hamda jurnallarning alohida sonlari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Materiallarni chop etish, saqlash, elektron pochta orqali jo'natish imkoniga ega.

Elektron ma'lumot bazalaridan tashqari, kompaniya bosma nashrlarni tarqatish, shuningdek, Rossiyaning ichki siyosatidan tortib to ijtimoiy fanlarni rivojlanish borasidagi ilmiy va ommaviy jurnallarini ingliz tilida chop etadi.

**«Проблемы дальнего Востока»** («Far Eastern Affairs»). Rossiya Fanlar akademiyasining har kvartalda chop etiladigan ijtimoiy-siyosiy jurnali. Rossiya yetakchi olimlarining analitik sharhlari, tanqidiy maqolalarini aks ettiradi.

**«Международная жизнь»** («International Affairs»). Dunyo siyosati, RFR ning diplomatiyasi, xalqaro munosabatlarini aks ettiruvchi jurnal bo'lib, ingliz tilida chop yilig 6 marotaba chop etiladi.

**«Военная мысль»** («Military Thought»). Rossiya Federatsiyasi Harbiy mudofaa vazirligining yetakchi nashri maqomiga ega hisoblanadigan har kvartalda chop etiladigan jurnali. Rossiya harbiy doktrinasi va strategiyasining aks ettirib, 1918 yildan chop etiladi.

**«Общественные науки»** («Social Sciences»). kvartallik jurnal bo'lib, Rossiya fanlar akademiyasi institutlarining 25 jurnalida chop etiladigan ijtimoiy va gumanitar fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, tanqidiy sharhlar, analitik materiallarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda «IVIS» Rossiya, MDH va Baltiya davlatlaridan rus tilidagi kitob, gazeta, jurnallarning mikrofishlar va mikrofilmlardagi materiallarini qamrab oladilar.

### ***Literature Online (LION) - Online adabiyot***

**Literature Online** (Online adabiyot) – jahonning yetakchi ingliz tilidagi ma'lumotlar bazasi bo'lib, ushbu MB ingliz tili va adabiyotini o'rgatish va o'rganish uchun mo'ljallangan.

Shu qatorda Literature Online jahon ingliz tili adabiyoti, ingliz tili va jahon klassik adabiyotidagi tadqiqot ishlari uchun axborot yetkazib beradi.

Ushbu MB o'zida asarlarning, ilmiy maqolalarning, mualliflarning biografiyasi, lug'atlarning to'liq matnlarini, media, video kontent va web-saytlarga berilgan havolalarni va aniq mavzular bo'yicha keys mashg'ulotlarini jamlaydi.

**Literature Online** (Online adabiyot) – bu LION (Literature Online) axborot manbaini o'z ichiga olgan to'liq integrallashgan tizim bo'lib, axborotlarni tez va sifatli qidiruv mexanizmiga ega. Nihoyatda katta to'liq matnga ega bo'lgan kutubxona-357 000 dan ortiq dunyoviy ingliz klassik adabiyoti asarlaridan (VII asrdan boshlab hozirgi kungacha) tashkil topgan bo'lib, proza, poeziya, drama, fantastika, tanqid (kritika) va ma'lumotnoma kolleksiyalarini o'z ichiga oladi.

**Editions and Adaptations of Shakespeare** (Shekspir nashrlari)-17-19 asrlar orasidagi Shekspirning asosiy 11ta ijodiy asarlar to'plami, zamonaviy nashrdagi 24ta p'esasi, 100dan ortiq asarlarini o'z ichiga oladi. 4 500 dan ortiq mualliflarning biografiyasi. 330dan ortiq lingvistika va filologiya fanlariga tegishli yetakchi maktab, universitetlarning filologiya, lingvistika, madaniyatshunoslik kafedralari, assotsiatsiyalar va tashkilotlar jurnallarining to'liq matni mavjud. Jurnallarning 75% pullik hisoblanadi. Avtoritet bibliografik manba - bu ingliz tili va adabiyotining yillik bibliografiyasi, 1920 yildan buyon yig'ib kelinayotgan 70dan ortiq raqamlashtirilgan tomlardan, 950000 ta bibliografik yozuvlardan iborat bo'lib, shu davr oralig'ida yozilgan ingliz adabiyoti va ingliz tili mavzuidagi ilmiy ishlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy til assotsiatsiyasining xalqaro bibliografiyasi (Modern Language Assotiation (MLA) International Bibliography) - doimiy ravishda yozib boriladigan 4400 ta ilmiy jurnal maqolalarining bibliografik MBga kirishni ta'minlaydi. Tematika - bu tarix, til nazariyasi va adabiyoti, tilshunoslik tahlili, sintaksis, morfologiya, semantika, semiotika, sotsiologiya tili, tarjimonlar uchun lingvistika va boshqlarni o'z ichiga oladi.

**The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms** (Oxford badiiy terminlar lug'ati);

The New Princeton Encyclopedia of Poetry and Poetics (she'r va she'riyatning yangi Princeton entiklopediyasi);

**Webster's Third New International Dictionary** (Websterning uchunchi yangi xalqaro lug'ati). Web-havolalar professional foydalanuvchilarga qo'shimcha foydali materiallar olish uchun mo'ljallangan: ilmiy maqolalar, alohida mualliflarning nashrlari, ilmiy diskussiyalar, nashr etilmagan badiiy asarlar, mualliflar haqida axborotlar. Videolavhalar – 900 ta videolavhalarda taniqli Britaniya aktyorlari klassik she'riyat asarlarini o'qishadi: Shekspir sonatasi va zamonaviy mualliflarning asarlarini, Shekspir p'esalar audio to'plami - ushbu to'plam Britaniyaning taniqli aktyorlari tomonidan ovozlashtirilgan.

Online adabiyot (Literature Online) ning qidiruv mexanizmi juda oddiy va shu qatorda bir qancha qidirish optiyalarga ega.

Asarlar matnini muallif, sarlavha, adabiyot yo'nalishi va kalit so'z, sana, nashriyot, mamlakat orqali qidirish mumkin. Bir vaqtning o'zida ilmiy maqolalarning to'liq matnini va bibliografik axborotini olish mumkin.

Har bir foydalanuvchi o'zining shaxsiy kabinetini (My Research)ni yaratishi va u yerda istalgan hujjatlarini saqlashi mumkin.

MBga bir vaqtning o'zida universitet va ommaviy kutubxona resurslaridan foydalanadigan kitobxonlar chegaralanmagan holda kirishi mumkin.

### **AGRICOLA - Agricultural On-Line Access**

**<http://agricola.nal.usda.gov/>**

AGRICOLA - EBSCO platformasidagi AQShning qishloq xo'jaligiga oid axborot tizimi. Qishloq xo'jaligiga oid referativnaya baza bibliografik yozuvlar hamda qishloq xo'jaligi va turdosh sohalar bo'yicha dunyodagi chop etilayotgan nashrlarning referativ hujjatlarini taqdim etadi.

• Tematik rubrikalari: ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, botanika, biologiya, qishloq xo'jaligi iqtisodi, veterinariya, o'rmon xo'jaligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarish, qishloq xo'jaligi mexanizatsiyasi, tuproqshunoslik, agrotexnika, qishloq xo'jaligi melioratsiyasi, o'g'itlar, zararkunandalar, o'simliklarni kasalliklardan himoya qilish, bog'dorchilik, meva yetishtirish, sabzavotchilik, chorvachilik, chorvachilik mahsulotlari, asalarishunoslik, ovchilik, baliq ovlash, baliqchilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash.

• AQSh Milliy qishloq xo‘jaligi kutubxonasi tomonidan 1970 yildan olib boriladi. hajmi 4 mln. yozuvlar ingliz tilida.

**AGRIS - International Information System for the Agricultural Sciences and Technology** <http://www.fao.org/agris>

Qishloq xo‘jaligi sohasi va texnologiyalariga oid xalqaro axborot tizimi. Qishloq xo‘jaligiga oid referativnaya baza bibliografik yozuvlar hamda qishloq xo‘jaligi va turdosh sohalar bo‘yicha FAO ga a‘zo mamlakatlari nashrlarining referativ hujjatlarini taqdim etadi.

Tematik rubrikalari: ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, botanika, biologiya, qishloq xo‘jaligi iqtisodi, veterinariya, o‘rmon xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarish, qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyasi, tuproqshunoslik, agrotexnika, qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi, o‘g‘itlar, zararkunandalar, o‘simliklarni kasalliklardan himoya qilish, bog‘dorchilik, meva yetishtirish, sabzavotchilik, chorvachilik, chorvachilik mahsulotlari, asalarishunoslik, ovchilik, baliq ovlash, baliqchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash.

### **Alexander Street Press**

**<http://www.alexanderstreet.com/>**

Alexander Street – san‘at, gumanitar va ijtimoiy fanlar bo‘yicha 2000 yil may oyida tuzilgan keng masshtabli raqamli kolleksiyalarning ilmiy ma‘lumotlar bazasi. Noshir ma‘lum bir fanlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarga kirgan olimlar havola qiladigan manzillar bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini shakllantiradi. Alexander Street tarix, adabiyot, musiqa, san‘at, drama, kinemotografiya, dinshunoslik, sotsiologiya va psixologiya kabi fanlarni kontenti bo‘yicha foydalanuvchilarni eng kerakli va foydali axborotni tez va oson topishlarini kafolatlaydi.

**American Chemical Society ACS Publications**  
**<http://pubs.acs.org/>**

American Chemical Society jurnallari – yuqori sifatli axborotni taqdim etuvchi nufuzli ilmiy nashrlar jumlasiga kiradi. Faoliyati ximiya fani bilan bog‘liq ilmiy va ta‘limiy tashkilotlarning kutubxonalari, shuningdek, tabiiy fanlar va universal komplektlash yo‘nalishidagi kutubxonalar uchun zarur resurslardir.

Manbalar soni:

ACS foydalanish uchun quyidagilarni taklif etadi:

- o‘zining jurnal kolleksiyalari;

- Chemical Abstracts Service (CAS) referativ-bibliografik ma'lumotlar bazasi

- kitoblar va ma'lumotnoma nashrlar

Foydalanish uchun taqdim etiladigan barcha jurnallar to'liq matnli.

***American Physical Society***

**<http://www.aps.org/>**

American Physical Society (APS) missiyasi – fizika sohasidagi bilimlarni yoyish. Mazkur missiyani qo'llash maqsadida APS dastlabki tadqiqotlar va jurnallarni tahlil qiladi. Fan va texnikaga oid jurnallar elektron shaklda chop etiladi. APS da nashr etiladigan jurnallardan olingan maqolalar bilimning quyidagi sohalariga taalluqlidir, bular: yuqori o'tkazgichlar, fizikaning biologik tadqiqotlari, nanatexnologiyalar xaqida fan, texnika va kvant ma'lumoti kabilardir. Bundan tashqari, APS izdaet «Physical Review and Physical Review Letters» darajasidagi ilmiy tadqiqot ishlaridan tanlab olingan qisqa tushuntirishlar «Physical Review Focus» nashr etib, fizikaning turli tarmoqlaridagi ma'lumotlarni talabalar va tadqiqotchilar uchun taqdim etadi. «Physical Review Focus» mavjud tadqiqotlarga mukammal kirish qismini ta'minlaydi.

***American Psychological Association***

**<http://www.apa.org/>**

**American Psychological Association (APA) psixologiyadan ma'lumotlar taqdim etuvchi ilmiy va kasbiy tashkilot hisoblanadi.**

APA-butun dunyodan 150000 dan ortiq ishtirokchilariga ega psixologlarning xalqaro assotsiatsiyasi bo'lib, psixologiya va bixeviorizm sohasiga oid bir qator jurnallarni nashr etadi. APA-kitob nashr etuvchi yetakchi nashriyot bo'lib, shuningdek, beixiorizmning xalqaro tadqiqotlarini to'liq qamrab oluvchi 5 ta ma'lumotlar bazasi, jurnallar va elektron resurslar nashr etadi.

**Annual Reviews**

**Annual Reviews Science Collection**

**<http://www.arjournals.annualreviews.org/action/showJournals>**

Annual Reviews – to'liq matnli multidissiplinar resurs hisoblanadi. Mavzu qamrovi - biomeditsina, hayot haqidagi fan, jismoniy fanlar va ijtimoiy fanlarga oid. Bazada mavjud jurnallar ro'yxati va to'liq matnga kirish shartlari bilan kompaniya saytida tanishish mumkin.

**Association for Computing Machinery (ACM)**

**<http://portal.acm.org/>**

**<http://portal.acm.org/dl.cfm>**

Association for Computing Machinery (ACM) nashrlari - informatika va kompyuter fanlarini rivojlantirayotgan nufuzli tashkilotlardan biri.

40 dan ortiq ilmiy va amaliy jurnallar, 200 dan ortiq konferensiya materiallari, axborot byulleteni va boshqalarlarni o'z ichiga oladi. Dasturlash, hisoblash texnikasi, telekommunikatsiya, axborot tizimlarini boshqarish bo'yicha nashrlardir.

### ***BioOne***

[www.bioone.org](http://www.bioone.org)

BioOne - BioOne axborot agregatorining to'liq matnli, ma'lumotlar bazasidir. O'zida biologiya, ekologiya, geografiya, atrof muhit haqidagi fanlarga oid 113 turli ilmiy jamiyatlar va tadqiqot institutlarining 155 jurnallarini o'z ichiga oladi.

BioOne – biologik va ekologik fanlar bo'yicharetsenziyaga ega tadqiqotlarfoydalanishga imkon yaratish borasida ilmiy xamjamiyatlar, nashriyotlar, kutubxonalarining global, notijorat hamkorligi.

HINARI, AGORA, OARE, eIFL kabilarning xayriya dasturlarida ishtirok etish orqali, dunyoning 2500 ziyod tashkilotlariga o'zining resurslarini yetkazib beradi.

O'zining foydalanuvchilari, talaba va tadqiqotchilar uchun biologiya fanlari bo'yicha BioOne jurnallarning noyob to'plamini taqdim etadi. Jumladan, global isish, ildiz xujayra tadqiqotlari, ekologiya va biologik xilma xillikni saqlab qolish bo'yicha resurlarni ham o'z ichiga oladi.

### **Cambridge Scientific Abstracts**

[www.csa.com](http://www.csa.com)

CSA kompaniyasining ma'lumot bazalari – foydalanuvchilarga ma'lumot - bibliografik xizmat ko'rsatuvchi qimmatbaho resurs hisoblanadi. Xalqaro kutubxona abonementi va hujjatlarni elektron yetkazib berish tizimida to'liq matnli ma'lumot bazalariga havolalarning mavjudligi, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda nafaqat referativ bibliografik, balki to'liq matnli axborot bilan ham ta'minlaydi.

Ma'lumot bazalari keng qamrovli bo'lib: texnika; qishloq xo'jaligi; Yer xaqidagi fanlar; meditsina; biologiya; ijtimoiy fanlar; gumanitar fanlar, san'at va b.qlarni o'z ichiga oladi.

CSA o'zida 70 ga yaqin ma'lumot bazalari keng qamrovli referativ-bibliografikdir. Shuningdek, Sage Publications kompaniyasining kommunikatsiyalar, kriminalistika, siyosat va xalqaro munosabatlar, sotsiologiyaga oid 4 to'liq matnli maqolalarning ma'lumot bazalari

to'plangan. Web-resurslarning ma'lumot bazalari Internetdagi ilmiy resurslarning 240 000 tavsifini o'z ichiga oladi.

### **Encyclopedia Britannica**

<http://corporate.britannica.com/about/>

Encyclopedia Britannica raqamli ommaviy axborot vositalari va kitoblarning onlayn mahsulotlarini yetkazib beruvchilaridan biri hisoblanadi. Encyclopedia Britannica dunyo bo'yicha har bir mavzu bo'yicha ishonchli axborotga ega ta'lim olishda yetakchi rol o'ynovchi, aholining keng qatlamiga esa o'z amaliy ko'nikmalarini oshirishda yordam beruvchi manbalardan biri hisoblanadi.

### **Engineering Village**

<http://www.engineeringvillage2.org>

Engineering Village 2 - ilmiy-texnik axborot sohasidagi axborotning nufuzli Internet-platformasi hisoblanadi. Injenerlik fanlari va texnika sohasida o'zining noyob resurslarini taqdim qiladi. Engineering Village 2 platformasida quyidagi ma'lumotlar bazasi: Compendex; Engineering Index Backfile; Inspec; Inspec Archive; NTIS; Referex; Patents from USPTO and esp@cenet; Ei Patents; EnCompassLIT; EnCompassPAT; GeoBase; Chimica; CBNB; PaperChem; GeoRef kabilar taqdim etiladi.

### **Euromonitor International Inc.**

**Passport GMID (Global Market Information Database)**

<http://www.euromonitor.com/PassportGmid>

Euromonitor kompaniyasi tomonidan qo'llab quvvatlanadigan 205 ta bozorning strategik tadqiqotlarini olib boruvchi statistika, marketing hisobotlari va bozorning analitik tahlili (GMID)ning ma'lumot bazasi hisoblanadi. Resurslarda: mamlakatlar bo'yicha (demografiya, iqtisod) statistika; bozor bo'yicha analitik hisobotlar (bozor xizmatlari iste'mol va sanoat bozori bo'yicha 17000 dan ziyod hisobotlar); profili 3000 dan ortiq xalq iste'moli bozorida faoliyat yurituvchi yetakchi kompaniyalarning profillari keltirilgan.

### **JSTOR**

<http://www.jstor.org>. Bazada 210 nashriyotlarning jurnallari taqdim etilgan: <http://www.jstor.org/about/part.publishers.html>

Ma'lumotlar bazasi turli sohalarga oid bo'lib, gumanitar, ijtimoiy fanlar va matematikaga oid ilmiy jurnallarni o'z ichiga oladi (26 fan sohasi). Hozirgi vaqtda bazada 7 kolleksiya (ba'zi jurnallar bir nechta kolleksiyalarda) taqdim etiladi: "Arts & Sciences I Collection" (117 jurnallar 15 soha bo'yicha, jumladan, iqtisod, sotsiologiya, biznes,



moliya, siyosatshunoslik, matematika, statistika, antropologiya va boshq.); "Arts & Sciences II Collection" (122 jurnal 19 soha bo'yicha, jumladan, iqtisod, falsafa, matematika, sotsiologiya, antropologiya, arxeologiya va boshq.); "Business Collection" (46 jurnallar iqtisod, moliya, biznes, marketing va menejmentga oid); "General Science Collection" (7 ta jurnallar: biologiya, matematika, falsafaga oid JSTORning boshqa kolleksiyalarida aks etmagan materiallar taqdim etiladi, xronologik qamrovi - 800 yil). "Ecology & Botany Collection" (29 jurnallar, atrof muhitni saqlash fanlari bo'yicha, xronologik qamrovi 130 yil); "Language & Literature Collection" (turli mamlakatlarning kitobat madaniyati, tillar, ayollar adabiyotiga taalluqli bo'lgan 47 ta jurnallar); "Music Collection" kolleksiyalari (31 ta jurnal po teorii musiqa nazariyasi va musiqa sohasida ilmiy tadqiqotlarga oid).: "Education Collection", "Law Collection" i "Arts & Science III Collection" kabi yangi kolleksiyalar ochish rejalashtirilmoqda (bu jurnallar arxitektura, san'at tarixi, folklor, etika, falsafa, din va boshq.ga oid).

### **Lexis-Nexis**

**<http://www.lexisnexis.com>**

Lexis-Nexis ilmiy elektron axborotni to'plovchi dunyodagi yirik agregatorlardan biri hisoblanadi. To'liq kolleksiya turli fan sohalariga oid 35000 dan ziyod axborotni o'z ichiga oladi. Amerika va G'arbiy Yevropa qonunchiligiga oid noyob manbalar, sud qarorlari, moliyaviy va biznes-yangiliklar ni o'z ichiga olib, xalqaro yuristlar, iqtisodiy va biznes tahlilchilari, iqtisodchi talabalar uchun qimmatbaho vosita hisoblanadi. LexisNexis bazasi qonunchilik, sud, soliq va moliyaviy axborotlarni, korporativ hisobotlarni, davriy va ma'lumotlarni o'z ichiga olishi bilan ahamiyatlidir. Xususan, Abeledo-Perrot, Martindale-Hubbell(r), Butterworths, Les Editions du Juris-Classeur, Matthew Bender(r), Shepard's(r) va Orac kabi nashriyotlarning materiallarini o'z ichiga oladi.

### **Methods in Enzymology**

Methods in Enzymology davriy nashrlarning seriyasi  
ScienceDirect:

**<http://www.sciencedirect.com/science/bookseries/00766879>**

platformasida taqdim etiladi.

Bu davriy nashrlarning seriyasi meditsina biologik fanlarning turli sohalarida, bioximiya sohasida faoliyat yurituvchi olimlar, tadqiqotchilar uchun qimmatbaho nashr materiallarini taqdim etadi.

### **Optical Society of America**

**<http://www.opticsinfobase.org/>**

Optical Society of America – optika sohasi bo'yicha mutaxassislarining ilmiy xamjamiyati hisoblanadi. Yorug'lik optikasi va fotonika bo'yicha olingan bilimlarni fanda, sanoatda va ta'limda qo'llash masalalari bilan shug'ullanadi. 2006 yildan boshlab, optika va turdosh sohalar bo'yicha 33000dan ortiq jurnallarda chop etilgan tadqiqot natijalari bilan tanishtiradi.

### **Ovid**

**[www.ovid.com](http://www.ovid.com)**

Bu marka ostida 200 dan ziyod axborot mahsulotlarini o'z ichiga olgan kompleks taqdim etiladi. Shular jumlasidan bibliografik ma'lumot bazalari, kitob va jurnallarning to'liq matnlari, shuningdek, alohida soha va mavzular bo'yicha axborot ta'minotini qo'llab quvvatlaydi. Mazmun jihatidan biznes, moliya, qishloq xo'jaligi, tabiiy va gumanitar fanlarga oid sohalarni qamrab olgan bo'lsada, Ovid asosiy e'tiborni meditsina va farmakologiyaga oid resurslarga e'tibor qaratadi. 2001 yil Ovid ga qo'shilgan SilverPlatter kompaniyasining axborot massivi asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

### **Project MUSE**

**<http://muse.jhu.edu/>**

Project Muse platformasidagi ilmiy elektron jurnallarning «Basic Research Collection» kolleksiyasi 200ga yaqin ijtimoiy va gumanitar fanlarga oid to'liq matnli nashrlarni o'z ichiga oladi. Xususan, «Enterprise & Society», «Social Politics», «The Journal of Higher Education», «American Journal of Mathematics», «Postmodern Culture», «Theory & Event» va boshqa jurnallar taqdim etiladi. Arxiv 2001 yildan boshlangan.

### **Questel Patent**

**<http://www.questel.com/en/Prodsandservices/QPAT.htm>**

QPAT dunyodagi yetakchi patentli ma'lumot bazalari hisoblanadi. USPTO, WIPO, EPO kabi dunyoning 75dan ortiq patent idoralari tomonidan taqdim etilgan patentlarni to'liq matnlari va umumlashtiruvchi annotatsiyalari, FamPat va PlusPat resurslaridan foydalanishga imkon yaratish.

### **REAXYS**

**<http://www.reaxys.com>**

REAXYS – bu ximiklar uchun yangi axborot resursi bo'lib, qulay Web-interfeysda organik, neorganik ximiya sohasidagi resurslar bilan, ximiya bo'yicha patentlar bilan ishlashga imkon yaratadi. Shu jumladan,

Belshtein, Gmelin i Patent Chemistry Databas'lumot bazalari. Turli xil ximik komponentlar, bibliografik ma'lumotlar, ximik reaksiyalar bo'yicha qidiruvni (shu jumladan Belshtein, Gmelin i Patent Chemistry Database ma'lumot bazalari) amalga oshirish imkonini beradi.

### **Sage**

<http://www.sagepub.com/>

Sage nashriyoti fan, texnologiya va meditsina bo'yicha jahon ilmiy xamjamiyatining yuqori bahosini olgan to'liq matnli kolleksiyalarni o'z ichiga olgan. "Materials Science" kolleksiyasiga kirgan 15 ta jurnaldan 12 tasi referatsiyalanadigan jurnallar hisoblanadi. Mazkur kolleksiyalarga obuna bo'lish ilmiy kutubxonaar, fanning turli sohalarida ilmiy ishlanmalar bilan shug'ullanuvchi universitet kutubxonalar uchun foydalidir.

Sage Full-Text Collections da meditsina va sog'liqni saqlashga oid jurnal materiallari taqdim etiladi: "Materials Science Collection" i "Nursing & Health Science Collection". "Materials Science Collection" 15 ta jurnalni o'z ichiga olgan bo'lib, 5800 maqoladan iboratdir. "Nursing & Health Science Collection" 7500 maqoladan iborat 26 ta jurnalni o'z ichiga oladi.

Asosiy mavzuviiy rubrikalar: psixologiya, HRM, biznes etikasi, ekologik menejment, liderlik, tashkiliy ta'lim, mehnat iqtisodi, kichik biznes boshqaruvi, xalqaro menejment, elektron kommersiya, notijorat tashkilotlar menejmenti, xizmatlar sohasi menejmenti, marketing va boshq. Ochiq foydalanish uchun jurnallarning va referatlarning mundarijalari keltirilgan. Jurnallarda Free Sample Issue imkoni mavjud. Ro'yxatdan o'tgach, alohida jurnallarning alohida sonlariga tezkor bepul foydalanish imkoni beriladi.

### **Sage STM (Science, Technology & Medicine)**

<http://www.sagepub.com/home.nav>

STM – bu tabiiy fanlar, texnika va meditsina sohaları bo'yicha 100 dan ortiq jurnallar to'plami. Sage Publications kompaniyasi materialshunoslik, sotsiologiya, kriminalistika, etnologiya, psixologiyaga oid gumanitar jurnallari bilan mashhur. Nashriyotning 120 ta jurnallari AQSh ilmiy axborot instituti ma'lumot bazalarida keltirib o'tiladi.

### **Scitation**

<http://scitation.aip.org/>

Scitation platformasi 20 dan ziyod ilmiy jamiyatlarni nashriyotlarini elektron nashrlarini yig'adi. American Institute of Physics jurnallari –

tabiiy va aniq fanlar bo'yicha tadqiqot tashkilotlarining va ta'lim muassasalarining kutubxonalari uchun zarur bo'lgan nufuzli ilmiy nashrlardir.

### **SPIE Digital Library**

**<http://spiedl.org/>**

SPIE resurslari tavsifi optika va fotonika, unga turdosh bo'lgan sohalar bo'yicha 260 000 dan ziyod maqolalarni (yiliga 17 000 ortiq yangi maqolalar, konferensiya materiallari) o'z ichiga oladi. To'liq matnlardan foydalanish: elektron shaklda foydalanish mumkin bo'lgan birinchi sondan (1990 y.), hozirgi vaqtga qadar.

### **STN International**

**[stnweb.fiz-karlsruhe.de](http://stnweb.fiz-karlsruhe.de)**

Akademik yo'nalishdagi 200 dan ziyod ma'lumot bazalarini to'playdi. Shu jumladan, ustunlik qilayotgan sohalarga alohida e'tibor qaratiladiyu. Bular: ximiya, fizika, geologiya, materialshunoslik, biotexnologiya, energetika, farmakologiya, toksikologiya, matematika va qishloq xo'jaligi. Qidiruv tizimi web-interfeys va telnetga yaqin bo'lgan qidiruv mexanizmiga ega. Ba'zi resurslarga 4 kunlik bepul sinov foydalanish (IP-manzil asosida aniqlanadi) - STN Sneak Preview taqdim etiladi.

### **Taylor & Francis Group**

online-tizim nomi

***Informaworld***

**<http://www.informaworld.com/>**

Taylor & Francis jurnallari – universal komplektlash yo'nalishiga ega kutubxonalar uchun tavsiya etiladigan nufuzli nashrlar hisoblanadi. Meditsina, hayot faoliyati xaqidagi fanlar, ijtimoiy gumanitar sikldagi yo'nalish bo'yicha to'ldiriladi. Manbalarning (jurnallar) umumiy miqdori – 1800 ga yaqin. Barcha taqdim etiladigan jurnallar – to'liq matnli. Asosan to'ldirishda meditsina; hayot faoliyati xaqidagi fanlar, ijtimoiy-gumanitar sikl, shu jumladan iqtisod va biznesga oid resurlarga ahamiyat qaratiladi. Erkin foydalanish uchun – jurnallarning mundariyasi, maqolalarning referatlari va bibliografik tavsifi taqdim etiladi.

### **Routledge Reference Religion Resource**

**<http://www.reference.routledge.com/public/religion.html>**

Routledge Reference Religion Resource – dinshunoslik bo'yicha onlayn foydalanish imkonini beradigan, bir vaqtning o'zida bir qancha

manbalardan topish imkonini beradigan zamonaviy qidiruv tizimiga ega eng yaxshi ma'lumotnoma nashri hisoblanadi.

Bu noyob kolleksiyada quyidagilar taqdim etilgan:

- 14 000 ziyod dinshunoslikka nufuzli ishlar, shu jumladan, mumtoz ensiklopediyalar: Protestantlik ensiklopediyasi, Papstva ensiklopediyasi, Ilk xristianlik ensiklopediyasi, O'lim va o'lish ensiklopediyasi, Diniy Erkinlik ensiklopediyasiga ega
  - Tadqiqotchi va talabalar uchun fanlarni keng diapazoni, shu jumladan, falsafa, tarix, osiyo tadqiqotlari, sotsiologiya fanlari;
  - Muharrir, muallif, muharririyat xizmatchilaridan 3000 dan ziyod maqolalar;
  - Soha yo'nalishlari - tarix, falsafa va din sotsiologiyasidan tortib, to yangi diniy harakatlar, mahalliy din va Islom;
  - Minglab turli sohalarga oid nufuzli mualliflik maqolalari, shu jumladan, magiya va alximiya, Islomning kelib chiqishi va tarqalishi, protestantlik va katolik missionerlik, ekologik va meditsina etikasiga oid maqolalarni o'z ichiga oladi.

**The American Association for the Advancement of Science (AAAS)**

<http://www.sciencemag.org/>

Multidissiplinar yetakchi ilmiy jurnallardan biri hisoblanadi. Dunyoga mashhur ilmiy-ommabop nashr Fanni rivojlantirish bo'yicha Amerika assotsiatsiyasi (AAAS) tomonidan nashr etilib, tabiiy va amaliy fanlar bo'yicha yangi ishlanmalar bo'yicha tahlil, dunyo bo'icha ilmiy yangiliklarni yoritadi. Ko'lami - 1997 y. hozirgi vaqtga qadar.

**East View kompaniyasi** <http://eastview.com/>

East View (Ist Vyu) Minneapolisda (AQSh) joylashgan xalqaro kompaniya bo'lib, Rossiya va Ukrainada ofislari mavjud. Kompaniya 1989 yilda tashkil topgan. Faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri rus tildagi elektron resurslarni taqdim etish hisoblanadi. Asosan G'arbiy Yevropa, AQSh va Yaponiyada joylashgan yirik ommaviy kutubxonalar, universitetlar va ilmiy markazlar kompaniyaning ma'lumotlar bazalariga obuna bo'ladi. Kompaniyaning East View Publications (Ist Vyu Pablikeyshns) firmasi rus tildagi onlayn ma'lumotlar bazalarini taqdim etadi. Rossiya nashrlarining ma'lumotlar bazalaridan Garvard, Yel, Prinston, Nyu-York, Chikago, Michigan, Indiana universitetlari hamda AQSh va Yevropadagi o'nlab ilmiy

muassasalar va ommaviy kutubxonalar foydalanadi. East View Publications umumiy ma'lumotlari va resurslaridan <http://www.eastview.com/>, <http://news.mosinfo.ru> <http://www.ebiblioteka.ru/> saytlarda foydalanish mumkin. «IVIS» MChJ kompaniyasi East View Information Services, Inc. Amerika kompaniyasining Rossiya va MDH mamlakatlaridagi rasmiy hamkori va eksklyuziv distribyutori hisoblanadi. East View Publications ma'lumotlar bazalari ijtimoiy va gumanitar fanlar, xarbiy mavzuga doir manbalar, Rossiya va MDH mamlakatlaridagi axborot agentliklarning yangiliklari, Rossiya, MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlarining markaziy va mintaqaviy davriy nashrlari, shuningdek Rossiya parlament nashrlarini o'z ichiga olgan.

RF Fanlar Akademiyasining ba'zi bir nashrlari, Ukraina, Boltiqbo'yi va MDH boshqa mamlakatlarining davriy nashrlari "Ist Vyu" ma'lumotlar bazalarida eksklyuziv tartibda taqdim etilgan. Manbalarning umumiy soni 5000ni tashkil etadi. Ularning xronologik davri 90-yillarning o'rtalaridan hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Manbalar bosma nashrlarga muvofiq ravishda bazalarga to'liq joylashtirilgan.

Ma'lumotlar bazalarining qisqacha tavsifi:

1. Rossiyaning markaziy gazetlari – Central Russian Newspapers (UDB-COM)

Bu baza Moskva va Sankt-Peterburgda chop etiladigan 46ta gazetalardan tashkil topib, 800000ga yaqin maqolalarni o'z ichiga olgan. Arxiv chuqurligi asosan 1997 yildan boshlanadi.

2. Rossiyaning mintaqaviy gazetalari – Regional Newspapers (UDB - REG)

Mazkur ma'lumolar bazasi Rossiyaning barcha hududlari, shu jumladan Shimoliy Kavkaz va Sibir hududlarida chop etiladigan 82dan ortiq gaz va neft sanoatiga doir nufuzli gazetalarni o'z ichiga oladi. Arxiv chuqurligi asosan 2000 yildan beri hisoblanadi.

3. Yangiliklar – Data base of Russian/NIS Newswires (UDB - NEWS)

Ushbu baza Rossiyaning 4ta axborot agentligining rus va ingliz tildagi (2 manba) yangiliklari, shuningdek Markaziy Osiyo hududining yangiklarini (Asia-Plus) o'z ichiga oladi. Bu bazadagi ma'lumotlar har kuni yangilanadi. Maqolalarning umumiy soni 350000ni tashkil etadi.

4. Ijtimoiy va gumanitar fanlar. Rossiya jurnallari - Social Sciences&Humanities from Russia. (UDB - EDU)

Bu ma'lumotlar bazasi 51ta ilmiy va badiiy-adabiy jurnallar, shu jumladan Rossiya FA nashriyotining 31ta jurnallarini o'z ichiga olgan. Arxiv chuqurligi 2000 yildan boshlanadi. Ma'lumotlar muntazam yangilanadi.

5. RF Parlament nashrlari - Database of Russian Duma Publications (UDB-GOV). Mazkur baza 18ta parlament nashrlaridan iborat. Arxiv chuqurligi 1999 yildan beri hisoblanadi. Bazadagi ma'lumotlar domiy ravishda yangilanadi.

6. Harbiy va mudofaa mavzusiga oid Rossiya jurnallarining ma'lumotlar bazasi – Universal Database of Russian Military and Security Periodicals (UDB-MIL). Ushbu baza Rossiyaning turli hududlaridagi mustaqil va davlat nashrlarning 48ta manbalaridan tashkil topgan. Arxiv chuqurligi 1999 yildan boshlanadi. Ma'lumotlar muntazam yangilanadi.

7. MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlaridagi markaziy nashrlarning ma'lumotlar bazasi The Universal Database of CIS and Baltic Newspapers. Bu baza Belarus, Ukraina, Moldova, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Boltiqbo'yi mamlakatlarida chop etiladigan 28ta davriy nashrlarni o'z ichiga olgan. Arxiv chuqurligi 2000 yildan beri hisoblanadi.

Dastur 2 rejimda: soddalashtirilgan (kalit so'zlar bo'yicha) va satrlar bo'yicha qidiruvni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Kompaniyaning ma'lumotlar bazalari asosan milliy va mintaqaviy kutubxonalar, tadqiqotchilar, olimlar va mutaxassislar uchun mo'ljallangan. Foydalanuvchilarning maqsadli guruhi – bu talabalar, an'anaviy (klassik) va gumanitar fanlarga ixtisoslashgan universitetlar, harbiy OTM o'qituvchilari va xodimlari, axborot kutubxona xodimlari va kitobxonlari, ITI ilmiy xodimlari, qonunchilik va ijro etuvchi tashkilotlarning vakillari hisoblanadi.

### **5.5. Fan va ta'limga oid analitik ma'lumot bazalari.**

#### **Web of Science**

Analitik ma'lumot bazalari (yoki analitik axborot tizimi) oddiy ilmiy axborot resurslari ma'lumot bazalaridan farqli o'laroq manbalarning (jurnal, maqola, kitob va boshqalar) o'zidan iqtiboslik borasidagi qimmatli analitik axborotni o'z ichiga oladi, shuningdek, maxsus qidiruv tizimiga ega bo'lib, impakt faktor, indeks Xirsha kriteriyalari bo'yicha muallif va tashkilotlar reytingini shakllantiradi.

Ayni vaqtda ilmiy analitika, naukometriya, ilmiy va ta'limiy muassasalarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq biznes bilan faol

shugʻullanadigan kompaniya bu - Clarivate Analytics. Bu kompaniyaning bosh maqsadi – butun bunyodagi mijozlarga ishonchli gʻoya va analitikani taqdim etish orqali innovatsiyalar surʻatini oshirish bu esa yangi gʻoyalarni zudlik bilan aniqlash, himoyalash hamda tijoratlashtirishga imkon yaratadi.

Clarivate Analytics (avval Thomson Reuters egalik qilgan) kolleksiyalarga ega va ularni boshqaradi, vedet biznesni olib boradi, ilmiy va akademik tadqiqotlar olib borishga moʻljallangan tashkilotlarni obuna qilishga, patent qidiruvlarini amalga oshirishga, normativ standartlar, farmasevtik va biotexnologik tadqiqotlar, tovar belgilarini himoyalash, intellektual mulkni boshqarishga asoslangan. Clarivate Analytics xozirda 100 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat yurutuvchi 4000 dan ortiq xodimlariga ega mustaqil kompaniya boʻlib, Cortellis, Thomson Innovation Index, Derwent World Patents, CompuMark, MarkMonitor i Techstreet va boshq. singari veb-bilimlarni oʻz ichiga oluvchi mashhur brendlarga egalik qiladi. Bulardan eng mashhur maʼlumot bazalari bu – **WEB OF SCIENCE™ Core Collection**.

Web of Science - ilmiy jurnallardagi nashrlarning referativ maʼlumotlar bazalari va patentlar, shu jumladan, nashrlarning oʻzaro iqtibos keltirishlarni hisobga oladigan bazalarni birlashtiruvchi qidiruv platformasi boʻlib, Clarivate Analytics kompaniyasi tomonidan rivojlantirilib, taqdim etilgan. Web of Science ijtimoiy, tabiiy, gumanitar, texnik fanlar va sanʼatga doir materiallarni oʻz ichiga oladi. Platforma bibliografik axborot qidiruvi, tahlili va boshqaruvi kabi ajralmas imkoniyatlariga ega.

Oʻzbekiston Respublikasida 2017 yilda obuna boʻyicha Web of Science platformasida foydalanishga taqdim etilgan resurslar:

- Web of Science Core Collection
- KCI-Korean Jurnal Database
- Russian Science Citation Index
- SciELO Citation Index
- Medline

Tahliliy vositalar:

Journal Citation Reports-iqtibos keltirish boʻyicha maʼlumotlarga asoslangan, sifatli statistic axborotga ega boʻlgan yetakchi jahon ilmiy jurnallarni tanqidiy baholashning muntazam va obyektiv vositasi hisoblanadi.

Essential Science Indicators- tadqiqotingiz sohasidagi jurnallar, mamlakatlar, nufuzli olimlar, ilmiy ishlar va tashkilotlar, shuningdek



ilmiy ish uchun muhim boʻlgan tadqiqot jihatlarini aniqlash uchun barcha zarur resurslarga ega.

InCites - Iqtibos keltirishning takrorlanish darajasini oʻrganish asosida tadqiqotlarni baholaydigan online-vosita hisoblanib, ilmiy va davlat tashkilotlarning rahbarlariga oʻz ishlarining unumdorligini tahlil qilish va olingan natijalarni butun dunyodagi hamkasblari bilan qiyoslash imkoniyatini beradi.

**Web of Science resurslari va vositalari haqida umumiy maʼlumot** **WEB OF SCIENCE™ Core Collection** – bu ilmiy jurnallar, jurnal maqolalari va monografiyalarni iqtibosligini aks ettiruvchi eng obroʻli referativ bazaga ega analitik axborot tizim. Baza oʻzida turli ilmiy sohalarga oid 12000 ilmiy jurnal va 120000 ilmiy konferensiya toʻplamlarini oʻz ichiga olgan qidiruv va tahlil vositalarini jamalagan. Unda 20 yillik arxiv toʻplangan.

**Web of Science** quyidagi vositalarni oʻz ichiga oladi:

**InCites** – institutlarning samaradorligini tahlil qilish tashkilotlar faoliyati, ulardagi xodimlar faoliyatini respublikadagi, dunyodagi hamkasblari bilan tahlil qilish, solishtirishga moʻljallangan analitik vosita. Bu vosita qanday savollarga javob berishi mumkin:

- Sizing mamlakatingizda qancha miqdorda ilmiy ishlar (maqolalar) chop etiladi?
- Qanday ilmiy ishlar ushbu sohada eng kuchli?
- Qaysi mualliflar bu sohaga katta hissa qoʻshyaptilar?
- Mazkur mavzuda qaysi maqolalar eng «yangi» va «qaynoq»?
- Siz faoliyat yuritayotgan institutning eng istiqbolli ilmiy sohalari qaysi?
- Institutning dunyoning boshqa ilmiy tashkilotlari bilan xalqaro aloqalari darajasi qanday?
- Qaysi jurnallar eng mashhur va samarador hisoblanadi?

InCites yordamida:

- Institut va ilmiy muassasalarning ilmiy faoliyati monitoringini olib borish;
- Institutlarning (shu jumladan dunyodagi) ilmiy faolligini solishtirish;
- Eng nufuzli ilmiy tendensiyalarni kuzatish;
- Tashkilotlar oʻrtasidagi hamkorlik aloqalarni kuzatish hamda xalqaro hamkorlikni tashkil etish imkoniyatlarini monitoringini olib borish (kollaboratsiya).

**EndNote** - bu bibliografik ro'yhatlarni yaratish va havolalarni boshqarish uchun dasturning onlayn-shakli hisoblanadi. Bu dastur yaratilgan ilmiy xujjatlarni tekshirishga, formatlashga, to'g'rilashga va axborot qidiruviga sarflanadigan vaqtni tejashga yordam beradi. Mazkur resursdan Web of Science hizmati bilan birga onlayn rejimda, End Note dasturining shaxsiy kompyuter uchun mo'ljallangan shakli yoki mustaqil mahsulot sifatida ham foydalanish mumkin.

**Journal Citation Reports** - iqtibos keltirish bo'yicha ma'lumotlarga asoslangan, yuqori sifatli statistik axborotlarga ega bo'lgan yetakchi jaxon ilmiy jurnallarni tanqidiy baholashning tizimli va ob'ektiv vositalarini taqdim etadi. **Journal Citation Reports Web** foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatlari bo'yicha ma'lumotlarni to'playdi, tadqiqot toifasi va jurnal darajasida tadqiqot ta'sirini baholashga yordam beradi, shuningdek iqtibos keltirilgan jurnal va iqtibos keltirish o'rtasidagi aloqani ochib beradi. Bu vositadan Science va Social Sciences nashr sonlarida erkin foydalanish mumkin.

**Essential Science Indicators** - tadqiqotingiz sohasi doirasidagi nufuzli olimlar, ilmiy tashkilotlar, ilmiy ishlar, jurnallar va mamlakatlarni, shuningdek ilmiy ish uchun muxim bo'lgan tadqiqot jihatlarni aniqlash uchun hamma kerakli resurslarga ega. Bu Thomson Scientific ma'lumotlar bazalarining iqtibos keltirishdagi ma'lumotlariga va jurnallardagi nashrlar hisob-kitobiga asoslangan ilmiy ko'rsatkichlar va ilmiy yo'nalishlar bo'yicha noyob va mukammal statistik to'plam hisoblanadi. Bu mukammal tahliliy resurs davlat tashkilotlari, universitetlar, korporatsiyalar, xususiy laboratoriyalar, nashriyotlar va fondlarning rahbarlari, tahlilchi va axborot mutahassislari, shuningdek ilmiy OAV a'zolari va ishga qabul qilish bo'yicha mutahassislar uchun mo'ljallangan.

**ResearcherID** nashrlar tarixini namoyish etish uchun interfaol holatda profil yaratishga imkon beradi. Bu resurs foydalanuvchi va uning ilmiy ishini bir-biri bilan bog'lash orqali mualliflik va chiqarilayotgan ma'lumotlarning aniq yozilishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Shuningdek foydalanuvchi chop etgan nashrni tez topish va uni hammuallif sifatida belgilash uchun yaratilgan.

**Web of Science ma'lumotlar bazasining tarkibiga quyidagi bo'limlar kiradi:**

**Web of ScienceTMCore Collection Web of ScienceTMCore Collection (1990-yildan hozirgi vaqtgacha)**

Scopus da iqtiboslik tarixi - 1996 yildan (8 million yozuvlar 1970-1995 yillarga tegishli). Scopus, WOS jurnal, kitob, ilmiy konferensiya to'plamlarida chop etilgan har bir maqolani indekslaydi. Indeksning yuqori texnologiyalari yordamida yuqori darajadagi iqtiboslik keltirilgan ishonchli havolalarni yaratish imkonini beradi. Tizim Scopus, WOS ma'lumotlar bazasidagi har bir nashrlarga hamda Scopus va WOS dan tashqaridagi materiallarni ham indekslaydi. Jurnallarning umumiy hajmi: 28 000, ulardan impakt-faktorga egalari 15000 ga yaqin, 3100 tasi ochiq foydalanishda. Resurslarni xolis ob'ektiv tahlil qilinib, nafaqat institutlar, mualliflar, balki mamlakatlar reytingi ham aniqlanadi. Web of Science fanga qo'shilgan hissani ob'ektiv aniqlaydi. Nobel mukofotlari laureatlarini aniqlashda ekspertlar ko'p hollarda WOS ma'lumotlar bazasi tahliliy ko'rsatkichlariga tayanadilar.

Ma'lumot bazalari bilan ishlashda kuchli tahliliy vositalar qo'llaniladi. Bular quyidagilar :

- Journal Citation Reports axborot tizimi - iqtiboslik haqidagi ma'lumotlari asosida yetakchi jahon ilmiy jurnallarini tizimli, ob'ektiv va tanqidiy baholaydi. Journal Citation Reports fan tarmoqlarining minglab ilmiy va ixtisoslashtirilgan jurnallarining klassifikatsiyalaydigan vositadir. Tizim, shuningdek, jurnalning impakt-faktor va obro'-e'tiborini aniqlab, u yoki bu ilmiy jurnalga obuna bo'lishda qaror chiqarishda yordam beradi.

- Essential Science Indicators tizimi ilmiy tadqiqotlarni va ularni rivojlanish tendensiyalarini baholashda, alohida olimlar va ularning

asarlarini baholashda jurnallardagi maqolalar, ularni iqtibosligini hisoblaydi. Nufuzli olimlar, ilmiy tashkilotlar, ilmiy ishlar, jurnallar bo'yicha, sohalar, tadqiqot mavzusi aspektlari bo'yicha nufuzli olimlarni topishga imkon beradi. Bu yosh olimlar va ilmiy rahbarlarga tadqiqotlar uchun jahon darajasidagi dolzarb mavzularni topishga, rivojlanish uchun noyob axborotni olishga yordam beradi.

Tizimda manbalar haqida to'liq ma'lumotlar berilgan bo'lib, tizimning funksional imkoniyatlariga to'xtalib o'tmaymiz. E'tiborni ko'proq Scopus va WOS ro'yxatiga kirishda oliy ta'lim muassasalari ilmiy nashriyotlarining e'tibor qaratishi lozim bo'lgan talablarga qaratishimiz lozim.

Ilmiy maqolalar, xorijiy jurnallarda maqolalar chop etish masalalari

Ilmiy maqola tadqiqotchining ilmiy yutuqlarini asosiy indikatorlaridan biri hisoblanadi. Iqtiboslik esa mazkur ilmiy ishlarning indikatoridir. Shuning uchun maqolani chop etishda, qaerda chop etish bo'yicha aniq qarorga kelish juda muhimdir. Bu o'z navbatida chop etish uchun to'lanadigan badal, chop etish muddatlari, taqrizlash kabi ko'rsatkichlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Respublikamizda bugungi kunda xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish faoliyatining sustligini quyidagi asosiy muammolarini qayd etish mumkin:

1. Yosh olimlar, doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlarning o'z ilmiy ishlarini chop etish manbalarini, ro'yxat va manzillarni, ilmiy ishlarni qaerga yuborish, murojaat qilishni bilmasligi;

2. Ilmiy maqolalar tayyorlash bo'yicha bilimlarining past darajada ekanligi, maqolani chop etish bo'yicha talablar, aniq standartlar borasida ko'nikmalarga ega emasligi;

3. Maqolalarni tayyorlash madaniyati va etikasiga ega emaslik, matnlarni yozishda mualliflik xuquqi kabi tushunchalarni bilmaslik kabilardir.

So'nggi yillarda xorijiy ilmiy jurnallar va ma'lumot bazalariga ommaviy obuna bo'lish yo'lga qo'yildi, biroq mazkur xorijiy ilmiy adabiyotlarni o'qish, ulardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalar shakllanmaganligi ayon bo'ldi. EBSCO Information Services ma'lumot bazalari va Web of Science analitik tizimi kabi qimmatli ma'lumot bazalariga obuna bo'linsada, ko'pgina oliy ta'lim muassasalarining doktorantlari, magistrantlari, o'qituvchilari, tadqiqotchilari mazkur resurslardan qanday foydalanish malakasiga emaslar.

Ma'lumki, ilmiy adabiyotlarni o'qish orqali jurnallar uchun ilmiy

maqolalar yozish, chop etish borasida bilimlarga ega bo‘linadi. Shu jihatdan, ilg‘or ilmiy jurnallarni o‘qish darajasini ko‘tarish orqali xalqaro jurnallarda maqolalar chop etish darajasini ko‘tarishimiz muqarrardir.

Ishni nimadan boshlash kerak? Mavzu bo‘yicha ilmiy moqola chop etish uchun eng maqbul jurnallarni qanday topish mumkin? Maqolalarni rasmiylashtirish talablarini qaerdan olish mumkin? Tadqiq etilayotgan mavzu bo‘yicha xamkorlarni qanday topish mumkin?

Bu kabi savollarga tahliliy axborot tizimlari javob berishi mumkin. Tahliliy ma‘lumot bazalari (yoki tahliliy axborot tizim) oddiy ilmiy axborot resurslarining ma‘lumot bazalaridagi manbalarning (jurnal, maqola, kitoblar va boshq.) iqtibosligi xaqidagi qimmatli tahliliy axborotga egaligi bilan ajralib turadi, shuningdek, muallif va tashkilotlarning fanga qo‘shayotgan hissalarini impakt-faktor, Xirsha indeksi asosida maxsus qidiruv vositalari orqali reytingni aniqlaydi.

Bunday axborot tizimlari muhim tahliliy funksiyalarni bajaradi:

1. Eng ko‘p murojat qilingan, iqtiboslik keltirilgan, tabiiyki, yuqori ilmiy qiymatga manbalarni (jurnallar, kitoblar, hisobotlar va boshq.) aniqlash va ajratish;

2. Ko‘pgina ilmiy nashrlar o‘zlarining ilmiy jurnallarini reytingini oshirish va sifatini ko‘tarishga, kuchli mualliflarni jalb qilish orqali bunday ma‘lumot bazalari ro‘yxatiga tushishga harakat qiladilar;

3. Yosh tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarini amalga oshirishda ilmiy rahbarlarni (supervayzerlar) o‘z sohasida yetakchi bo‘lgan olimlar ro‘yxatidan topishlari mumkin;

4. Tadqiqotchilar ilmiy tadqiqotlarda to‘g‘ri yo‘nalishni tanlashda dunyo miqyosidagi kashfiyotlar, ilmiy ishlarni rivojlanishini kuzatishlari mumkin.

***O‘zbekiston ilmiy jurnallarini Scopus, Web of Science Core Collection xalqaro ma‘lumotlar bazasiga kiritish bo‘yicha tavsiyalar***

Tavsiyalarning maqsadi: O‘zbekistonning ilmiy jurnallarini jahon davriy ilmiy nashrlari standartlari talablari asosida darajasini ko‘tarish, bu orqali, Scopus va Web of Science Core Collection xalqaro ma‘lumotlar bazasida jurnallar sonini ko‘patirish hamda respublikada fanning rivojlanishiga ta‘sir o‘tkazishdan iboratdir.

Scopus va Web of Science Core Collection ma‘lumotlar bazasiga O‘zbekiston jurnallarini kiritish, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Jurnallar, maqolalar hamda ularning impakt faktorini oshirish;
2. Jurnallarni ilmiy darajasini oshirish

3. Ilmiy maqola mualliflari, noshirlarning ijodiy ishlarini faollashtirish

4. Ilm bilan mashg'ul yoshlar o'rtasida xalqaro miqyosda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish istagini kuchaytirish

5. Xalqaro loyihalarni amalga oshirishda yetakchi ilmiy maktablar, universitetlar va ilmiy markazlardan xorijiy xamkorlarni topish

6. Respublikadagi ilmiy tashkilotlarga ilmiy va loyihaviy-konstruktorlik loyihalariga investitsiyalar olish.

Ilmiy jurnallar uchun asosiy tavsiyalar

Quyida keltirilgan tavsiyalar Scopus va Web of Science Core Collection ma'lumotlar bazasida, shuningdek, ilmiy jurnallar chop etish xalqaro amaliyotidagi eng yaxshi xalqaro standartlar siyosatida jurnallarni tanlash mezonlariga asoslanadi.

1. Jurnalning ISSN xalqaro standart seriyali raqamga egaligi. O'zbekistonda raqam O'zbekiston Milliy kutubxonasi ISSN bo'limida beriladi. ISSN saytda va jurnalning bosma shaklida ko'rsatilishi shart;

2. Jurnalni chop etish davriyligi. Chop etilish davriyligiga qat'iy amal qilish. Jurnalni chop etilish, elektron shaklini yuborilish muddatlarini cho'zilishi jurnalni ma'lumotlar bazasidan jurnalni chiqarib tashlanishiga olib keladi;

Xalqaro ilmiy xamjamiyatda qiziqarli bo'lgan mavzu (ixtisoslik). Aniq ifodalangan ilmiy mutaxassisliklarga ega bo'lgan jurnallar afzallikka ega. U jurnalni nomlanishida, uning tavsifida, chop etilgan maqolalarda aks etishi lozim. Xalqaro tahririyat tuzilishi. Tahrir hayati a'zolari xaqidagi ma'lumot jurnal veb-saytida aks etishi lozim. Tahrir hayati a'zolarining ko'pchilik qismi bir ilmiy tashkilot yoki o'quv muassasasidan bo'lmasligi kerak. Bu kriteriy eng muhim va murakkab hisoblanadi. Aksariyat nashriyotlar ilmiy jurnallarga taqrizchi sifatida mashhur olimlarni jalb etmaydilar. Bu asosan ularning mehnatlariga, maqolalarni tahlil qilgani uchun yetakchi taqrizchilarga xaq to'lash xarajatlari bilan bog'liq. OTM larga xorijlik taqrizchilar uchun budjetdan mablag' ajratish masalalarini ko'rib chiqishlari lozim.

3. Tahrir hayati xalqaro etik normalarga amal qilishi lozim. Mualliflar va taqrizchilar bilan o'zaro munosabat jurnalning veb-saytida aks etishi lozim. Jurnalning kitobxonlar, mualliflar, taqrizchilar uchun ochiqligi nashrning nufuzini oshiradi, bu esa o'z navbatida, nufuzli olimlarni jurnalda o'z ilmiy ishlarini chop ettirish ko'lami ortishiga sabab bo'ladi.

4. Barcha chop etiladigan materiallar ilmiy taqrizdan (peer review) o'tkazilishi lozim. Minimum ikkita shu soha bo'yicha mutaxassis, ishlarning mualliflari bilan qiziqishlar to'qnashuvi bo'lmagan, taqrizchilarni jalb etish tavsiya etiladi. Taqrizchilar xulosasi asosida tahririyat taqdim etilgan materiallarni chop etish yoki rad etish qarorini qabul qiladi. Taqrizlash tartibi, muddatlari hamda nashrlarni qayta ishlashga ketadigan muddatlari mualliflar uchun qoidalarda va jurnal vebsaytida qo'rsatilgan bo'lishi lozim.

5. Tahririyat maqolalarnin sifatiga alohida e'tibor qaratib, turli mamlakatlar, muassasalar mutaxassislarini maqolalar chop etishga taklif qilishlari lozim. Mualliflarning geografiyasining kengligi jurnalning muvaffaqiyatli ekanini xarakteristiklashda va baholashda muhim o'rin tutib, uning xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslashga tanlanishida alohida baholanadi.

1. Jurnal vebsaytga ega bo'lishi kerak. Unda jurnalning tematikasi, davriyligi, tahririyat a'zolari, mualliflar uchun qoidalar, mualliflarning chop etilgan yoki chop etilgan materialning qismidan keyingi foydalanish borasidagi huquqiy aspektlar aks etishi lozim. Shuningdek, vebsaytda bog'lanish uchun ma'lumotlar, jurnal chop etiladigan nashriyot yoki tashkilotning yuridik manzillari ko'rsatilishi lozim.

2. Vebsaytda jurnalning sonlari arxivi bo'lishi, o'z vaqtida jurnalning eng so'nggi chop etilgan sonlarini qo'shish lozimdir. Nashr arxivi yillar bo'yicha, tomlari va sonlari bo'yicha joylashtirilishi tavsiya etiladi. PDF yoki HTML formatda maqolalarning to'liq matnini ko'rish imkoniyati bo'lishi lozim. To'liq matndan foydalanish ochiq (open access) hamda yopiq (pullik) bo'lishi mumkin.

3. Har bir maqola uchun ingliz tilida to'liq bibliografik axborot bo'lishi lozim. Jumladan, maqola nomi, mualliflar ro'yxati, ish joyi, to'liq annotatsiya va kalit so'zlar bo'lishi lozim. Shuningdek, maqoladagi adabiyotlar ro'yxatining lotindagi transkripsiyasi agar manba ingliz tilida bo'lmasa, tarjima o'rniga transliteratsiya qo'llaniladi.

Jurnalni rivojlantirish uchun qo'shimcha tavsiyalar

1. Scopus va Web of Science Core Collection ro'yxatidagi jurnallarda maqolalari chop etilib, yuqori xalqaro reytingga ega xorijlik olimlardan iborat tahrir kengashini jalb qilish muhim. Scopus va WOSdagi nashrlar iqtibosligi tahlili sizning jurnalingiz uchun sohaning yetakchi mutaxassislari haqida ma'lumot olishga yordam beradi.

2. Mazkur ixtisoslik bo'yicha Scopus va Web of Science Core Collection ma'lumotlar bazasiga kirgan jurnallar bilan solishtirish, ularni

tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Asosiy e'tibor, Journal Citation Reports ma'lumotlar bazasiga kirgan ilmiy jurnalning sonli ko'rsatkichlariga hamda impakt-faktoriga qaratilishi lozim.

3. Tajriba shuni ko'rsatadiki, xalqaro kollektiv hammualliflikda yozilgan maqolalar, mahalliy xammualiflikda yozilgan maqolalarga nisbatan ko'proq foydalanilib, iqtibosligi yuqori bo'ladi. Shuning uchun maqolalarni yozishda, boshqa mamlakatlarning yetakchi olimlarini jalb etgan xolda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish-muvaffaqiyat garovidir.

4. Jurnalning ingliz tilidagi versiyasini chop etish tavsiya etiladi. Ikkita versiyasini chop etish yoki faqat ingliz tilida chop etish lozim. Bu ayniqsa, o'z jurnallarini xalqaro miqyosga ko'tarmoqchi bo'lgan nashriyotlar uchun taalluqli.

5. Jurnalning barcha maqolalari uchun ob'ektning raqamli identifikatorini (DOI, digital object identifier) qo'llash tavsiya etiladi. Bu xaqida to'liq axborotni <https://www.doi.org/> saytidan olish mumkin. Ob'ektning raqamli identifikatori - GOST R ISO 26324-2015 tarmoqda taqdim etilgan ob'ekt haqidagi axborotni belgilash standarti hisoblanadi.

DOI elektron hujjatdagi mavjud axborot, uning qaerda joylashuvi ko'rsatkichi (masalan, URL), uning nomi (nomlanishi), ob'ektning boshqa identifikatorlari (masalan, ISBN kitobning elektron shakli uchun) va ma'lumotlarni tavsiflash bilan bog'liq (metama'lumotlar) tuzilgan va kengaytirilgan shaklda aks etadi. DOI ilmiy muhitda olimlar o'rtasida ma'lumot almashish uchun qo'llaniladi. Mohiyatiga ko'ra, DOI-bu hujjatdan zarur axborotni olishdagi umumiy axborot-virtual muhitidagi (Internetda) yo'l deb tushunish mumkin.

Scopus va Web of Science Core Collection ga jurnalni kiritish uchun qanday murojat qilish kerak?

1. Yuqorida keltirilgan talablar asosida jurnalning elektron shaklini shakllantirish.

2. Jurnalni Emerging Sources Citation Index (ESCI) ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun murojat yuborish, jurnalning ingliz tilidagi versiyasi hamda elektron shaklini Clarivate Analytics ofisiga yuborish lozim. Scopus va Web of Science Core Collection talablariga nashrning mosligi ko'rib chiqiladi.

3. Jurnalning yuqorida keltirilgan talablarga mosligi aniqlangach, jurnalda havolalar, hamda maqolalarning iqtibosligining o'sib borish sharti bilan jurnal ESCI dan Web of Science Core Collection ma'lumotlar bazasiga qo'shiladi va impakt-faktorga ega bo'ladi.

Ariza topshirish shartlari haqidagi batafsil ma'lumot «jurnallarni

tanlash mezonlari»da <http://wokinfor.com/essays/journal-selection-process/> ingliz versiyasini qo‘yidagi havola orqali ko‘rish mumkin.

Tahliliy ma‘lumot bazalariga kirish O‘zbekiston uchun nima beradi?

1. Tadqiqotchilarga eng ko‘p murojaat etiladigan dunyo ilmiy hamjamiyatida talab qilinadigan sifatli ishlarni tanlab olishga yordam beradi;

2. Davlat ilmiy va ilmiy-texnik dasturlarida tadqiqotlarni rivojlantirish strategiyasini aniqlashda Jahon ilmiy yutuqlariga muvofiq navigatsiya qilish;

3. OAK va ixtisoslik kengashlariga ilmiy darajalar olish uchun chop etilishi lozim bo‘lgan yuqori reytingli ilmiy jurnallar ro‘yxatini shakllantirishga yordam beradi;

4. Ilmiy tadqiqotlarni samaradorligi, milliy va xalqaro natijalar monitoringi bo‘yicha tizimni tuzishga xizmat qiladi;

5. Ilmiy tadqiqot tashkilotlari va universitetlar, ilmiy jurnallar, respublikadagi olimlarning ish samaradorligini ob‘ektiv baholashga imkon beradi.

6. Yuqori reytingli ilmiy jurnallarda ilmiy ishlar chop etilishini rag‘batlantiradi.

7. Tadqiqotchiga «bajarilgan ishlar»ni tahlil qilishga, o‘zining sohasidagi perspektiv fan yo‘nalishlari, ishlanmalari haqida ma‘lumot olishga.

8. O‘z yo‘nalishiga mos tadqiqotlar bo‘yicha eng nufuzli xorijlik xamkorlar, tadqiqotlarga homiy tashkilotlarni topishga yordam beradi.

## **6.2 O‘zbekistonning jahon elektron axborot resurslari**

Quyida O‘zbekistonning axborot-kutubxona, o‘quv va ilmiy muassasalarda yaratilayotgan ayrim eng muhim ilmiy-ma‘rifiy ma‘lumotlar manbalarining xarakteristikalarini keltirilgan. Ular O‘rta Osiyoning tarixiy merosini o‘rganishda zarur bo‘lgan noyob nashrlar hamda o‘quv jarayoni va ilmiy tadqiqotlarda foydalaniladigan zamonaviy manbalarni o‘z ichiga olgan. Mazkur elektron ilmiy-ma‘rifiy resurslar faqat respublikada ishlatilmaydi, ular dunyo miqyosida ham katta ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining fondidagi noyob nashrlar orasida dunyoda yagona bo‘lgan 54 tomдан iborat «Umuman O‘rta Osiyo va xususan Turkiston o‘lkasiga taalluqli asarlar va maqolalar to‘plami» (Туркестанский сборник сочинений и

статей, относящихся к Средней Азии вообще и Туркестанскому краю в особенности) deb ataluvchi bosma materiallar to'plami saqlanadi.

To'plam Turkiston o'lkasi general gubernatori Kaufman buyrug'i bilan Turkiston xalq kutubxonasida 1870 yildan tuzila boshlangan (hozirda Alisher Navoi nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasida). To'plam kitoblar, jurnal va gazetalardan qirqib olingan bo'laklar, xaritalar, rasmlar, diagrammalar, rejalar va chizmalar ko'rinishidagi 10710 nomlanishdan iborat publikatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi paytda to'plam kutubxona kitobxonlari ochiq foydalana olishlari uchun raqamlashtirilgan. Mazkur material muhim xalqaro ahamiyatga ega, chunki u XIX asr oxiri va XX boshlaridagi O'rta Osiyo, Rossiya, Qozog'iston, G'arbiy Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston mamlakatlari taraqqiyoti haqida bebaho ma'lumotlar olish imkonini beradi. Hujjatlar o'sha davr ilm-fani, iqtisodi va ta'limi haqidagi kamyob ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. To'plam etnografiya bo'yicha yaxshi saqlanib qolgan XIX asr fotorasmlari bilan to'ldirilgan hujjatlarning nodir fondiga ega. Fotorasmlarda shu o'lkada yashagan turli millatga mansub kishilarning qiyofalari, kiyimlari, turmush tarzi aks ettirilgan. Me'morchilik obidalari, binolar, inshootlar tasvirlangan fotosuratlar ham bor. Ular o'sha davrning maishiy hayoti, me'morchilik tarixini o'rganish uchun ham muhim ahamiyatga kasb etadi.

To'plam o'lka hayotini batafsil, barcha ikir-chikirlarigacha, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot holati bilan ishlab chiqarish kuchlari, boy resurslaridan tortib, o'lkada istiqomat qiluvchi xalqlarning tarixiy o'tmishi, turmush tarzi, an'analari, urf-odatlar harbiy voqealar, istilolar va haloskorlik urushlarigacha o'rganish hamda mashhur geograflar, etnograflar, tarixchilarning, jumladan N.M. Prjevalskiy, I.V. Mushketov, N.A. Seversov, N.A. Maev, V.F. Oshanin, A.P. Fedchenko va boshqalarning tadqiqotlari va ilmiy ekspeditsiyalarining yozma materiallari bilan tanishish imkonini beradi. To'plamni o'rganish XIX asr oxiri va XX boshlaridagi Sharq taraqqiyotining muhim bosqichlari va tamoyillarini tushunishga yordam beradi. To'plamda keltirilgan ma'lumotlar O'rta Osiyo va unga qo'shni mamlakatlarni o'rganishdagi noma'lum jihatlarni to'ldirishi mumkin.

Hozirgi paytda O'zbekiston Milliy Kutubxonasida respublikada himoya qilingan dissertatsion tadqiqotlar va mustaqillik yillarida nashr etilgan oynoma, gazetalari va h.k.ning turli ma'umotlari bazasi yaratilmoqda. Manba: [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz).



## **Multimedia ensiklopediyalari (Multimedia encyclopedias)**

O‘zbekistonda multimedia-ensiklopediyalar yaratish sohasida yetakchi hisoblagan «Kompyuter-Osiyo» ilm-texnika parki tomonidan nafaqat o‘quv jarayoniga, balki respublika madaniy mulkiga keng kirish imkoniyatini yaratish maqsadida qator qiziqarli loyihalar amalga oshirilgan. Eng qiziqarli ishlanmalardan «Amir Temur: shaxs, davlat, Renessans» deb ataluvchi multimediyaviy ensiklopediya hisoblanadi. U buyuk Amir Temur (Temurlang) va temuriylarning Renessasi, ya’ni Uyg‘onish davriga bag‘ishlangan. Mazkur ensiklopediya nafaqat temuriylar tarixi, buyuk sarkardaning yurishlari, balki XIV asr oxiri va XV asr boshlaridagi ikki daryo oralig‘i (Mavorounnahr)dagi tasviriy san’at, xalq hunarmandchiligi, san’ati, arxitekturasi va qurilishi haqidagi ma’lumotlarga ham ega. U rangli miniatyuralar, muzey eksponatlari, Temuriylar davridagi arxitektura yodgorliklari, 300dan ortiq elektron nusxalarini hamda Temur ajdodlari «SHajarasi daraxti»ni o‘z ichiga olgan. Elektron ensiklopediya qiziqarli texnik yechimga, ya’ni buyuk sarkarda yurshlarining avtomatlashtirilgan qidiruv xaritasiga ega. Xarita bo‘yicha Temur askarlari o‘tgan tarixiy joylardan virtual sayohat tashkil etish va shu bilan ular egallab olgan hududlar bo‘yicha qimmatli xronologik ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

“Al-Farg‘oniy va Al-Buxoriy: tamaddun barpo etilishi” multimedia-ensiklopediyasi Markaziy Osiyoning ming yillik tarixga ega zardushtiylar, yunonlar, buddaviylar va nasroniylar madaniyatlari hamda Buyuk Ipak yo‘li ravnaqi davridagi savdo-sotiq va madaniy munosabatlar bilan boyigan islomgacha bo‘lgan davr madaniyati rivojlanishiga hamda VIII-IX asrlarda paydo bo‘lib, shakllanishga yuz tutgan yangi madaniyat tavsifiga bag‘ishlangan bo‘limlarni o‘z ichiga olgan. “Al-Buxariy” bobi odamlar orasida “Xadis ilmining Sultoni” sifatida tanilgan buyuk muhaddis (olim, mutaffakir)ga bag‘ishlangan. Ensiklopediya tavsifiy maqolalar va rasmlardan tashqari o‘sha davrning me’morchilik va madaniyati haqidagi maqolalar va ko‘p o‘lchovli rasmlarni o‘z ichiga olgan. Mazkur yodgorliklarning ko‘pchiligi virtual tavsiflangan obrazlar yoki saqlanib qolgan fragmentlar sifatida qayta tiklangan. Elektron ensiklopediya, mohiyatiga ko‘ra, Islom tarixi haqidagi maqolalar to‘plamidan iborat va Sharq madaniyatini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

“Sharq miniatyurasi (XIV-XVII asrlar)” nomli multimediyali disk O‘rta Sharq badiiy madaniyatining yorqin yuksalish davri bo‘lgan XIV-

XVII asrga doir 374 kitob miniatyuralari kolleksiyasidan tashkil topgan. O'rta asrlarlarda Sheroz va Tabriz, Isfaxon va Hirot, Samarqand va Buxoro miniatyura tasviriy san'ati maktablari butun dunyoga tanilgan. Yuksak darajadagi badiiy miniatyura maktabi Temuriylar davrida ham Hirotida faoliyat yurgizgan. Bu yerda rassom Kamoliddin Bexzod ham ijod qilgan. Uning betakror miniatyuralari o'sha davrning hayoti, marosimlari, an'analari, hunarmandchiligi haqida juda yorqin hikoya qiladi.

"TERMIZ-2500" multimedia-ensiklopediyasi O'zbekistonning janubiy mintaqalari va unga tutash hududlarining tosh asridan boshlab bizning hozirgi kunlarimizgacha bo'lgan davri haqidagi nodir tarixiy materiallarni o'z ichiga oladi. Mazmuni: 158 informatsion bloklar; 940 noyob fotorasmlar; 12 video (animatsiya); qadimgi sharq cholg'u asboblarida ijro etilgan 28 mumtoz musiqa kompozitsiyalari; interfaol elektron xarita qadimgi Surxandaryoning 23 shahar-ob'ektlari; CD materiallari bo'yicha 100 ortiq savollardan iborat test o'yini.

«XXI asrga intilgan O'zbekiston» multimedia-almanaxi mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y bo'layotgan o'zgarishlar, islohotlarga bag'ishlangan. Ma'lumotlar bazasi o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlangan.

«SHASHMAQOM» ma'lumotlar bazasi O'rta Osiyoning an'anaviy musiqiy madaniyatidagi eng ahamiyali hodisalaridan biri bo'lgan Shashmaqomga bag'ishlanadi. Ingliz tilida berilgan va 18 informatsion bloklar, 101 fotorasmlar va 35 maqomlarning musiqali kompozitsiyalaridan iborat. Mazkur ishlanma o'zbek xalqining musiqali madaniy merosini saqlab qolish uchun hamda talaba, o'qituvchi, olimlar va chet el mutaxassislarini mahalliy madaniy an'analar va musiqali folklor bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Boysun” multimediasiy ma'lumotlar bazasi:

Multimediasiy disk 2001 yilda YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonasi" (Щедевр Устного и Нематериального Наследия Человечества) deb tan olingan Boysun mintaqasi madaniyati etnografiyasi va an'analari taraqqiyotini ochib berishga bag'ishlangan. (Surxandaryo viloyati).

•Mintaqa Kushon davridan boshlangan va so'g'd, turk va sharqiy Eron madaniyatlari bilan boyigan qadimiy madaniyatga ega.

•Boysun mintaqasining saqlanib qolgan o'ziga xos madaniyati, yashash tarzi, an'analari va xalq san'ati, folklor, mintaqa raqslari 24

matnli blok, 138 fotorasm, 14 videosyujet va 20 ta folklor qo‘shiqlari ko‘rinishida berilgan.

«O‘zbekiston» multimedia-ma’lumotnomasi o‘lka tarixi, O‘zbekiston Respublikasining iqtisod, ijtimoiy taraqqiyot, fan, turizm sohasidagi zamonaviy salohiyatini ochib beran. O‘zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlangan.

«Markaziy Osiyoda So‘fizm» multimediyali diski Markaziy Osiyoda So‘fizmning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti haqida hikoya qiladi. Ingliz tilida tayyorlangan.

«SAMARKAND: Tarixiy obidalar» multimedia-diski: Samarqand va uning atrofidagi 60dan ortiq tarixiy yodgorliklar haqida hikoya qiladi. Rus va ingliz tillarida tayyorlangan. Mazmuni: 60 informatsion blok, 572 noyob fotorasmlar, 18 tanburda ijro etilgan musiqa kompozitsiyasi, Samarqand me’morlik yodgorliklarining interfaol elektron xaritasi.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining «Axborot-kutubxona tizimlari» kafedrasida professor-o‘qituvchilari va talabalari tomonidan yetakchi olimlar, yozuvchi va mumtoz shoirlarning elektron kutubxonalarini yaratish hamda foydalanuvchilar uchun dolzarb bo‘lgan mavzular bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yaratish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Bular buyuk yozuvchi va shoirlar: Alisher Navoiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va zamonamiz akademiklari, ko‘pgina soha olimlari asarlarining to‘liq elektron kolleksiyasidir. Talabalarining malakaviy ishlari ham O‘zbekistonning madaniy va ilmiy yutuqlarini aks ettiruvchi elektron kataloglar, ko‘p matnli ma’lumotlar bazasini yaratishga bag‘ishlangan. Hozirgi davrda respublikada noyob fondlarni raqamlashtirish, ma’lumotlarning elektron bazasi va multimediyali ensiklopediyalar yaratish bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari korporativ tarmog‘ining virtual kutubxonasida hozirda respublikada dolzarb bo‘lgan turli fan va texnologiya sohalari bo‘yicha multimedia resurslarini yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda.

### **Nazorat savollari:**

1. Nima uchun O‘zbekistonda elektron ilmiy-ta’lim resurslarini rivojlantirish muhim hisoblanadi?
2. Qanday eng muhim ilmiy-ta’lim (yoki ilmiy-ma’rifiy) resurslarini bilasiz? Nima uchun ular jahon axborot resurslariga kiritilishi mumkin?

3. “Umuman O‘rta Osiyo va ayniqsa Turkiston o‘lkasiga oid insho va maqolalarning Turkiston to‘plami” qaysi davrga xos qanday ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi?

4. “Umuman O‘rta Osiyo va ayniqsa Turkiston o‘lkasiga oid insho va maqolalarning Turkiston to‘plami”dagi axborot jahon fani va ta’limi uchun qanday qimmatga ega?

5. «Kompyuter-Osiyo» ilmiy-texnik parkining qanday qiziqarli resurslarini bilasiz?

6. «Amir Temur: Shaxs, Davlat, Renessans» deb nomlangan multimediyaviy ensiklopediya qanday qimmatli materialga ega?

7. “Al-Farg‘oniy va Al-Buxoriy: tammaddun barpo etilishi” nomli multimediyaviy ensiklopediya kimga va nimaga bag‘ishlangan?

8. O‘zbekistonning qaysi multimedia resurslarida asosan grafik materiallar berilgan?

9. “Boysun” multimediyaviy ma’lumotlar bazasi qanday materiallarni o‘z ichiga olgan?

10. Multimediyaviy ma’lumotlar bazasi qanday afzalliklarga ega?

11. Qaysi multimediyaviy ma’lumotlar bazasidan respublikada turizmni rivojlantirish mumkin?

# **“JAHON AXBOROT RESURSLARI” FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARI BO‘YICHA TAVSIYALAR**

## **1-amaliy ish**

### **MAVZU: ELEKTRON ILMIY TA‘LIMiy RESURSLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI BO‘YICHA KO‘NIKMAGA EGA BO‘LISH. AXBOROT QIDIRISH TEXNOLOGIYALARINI O‘RGANISH**

**Amaliy ishning maqsadi:** Yetakchi mamlakatlardagi elektron ilmiy-ta‘limiy resurslarni ta‘minlovchi mashhur ilmiy va axborot markazlari veb saytlarini tahlil qilish. Qidirish texnologiyalari asosida materialni izlash

**Amaliy ishni tashkil qilish vositalari:** shaxsiy kompyuter, Internet.

#### **Amaliy ishning qisqacha mazmuni**

Ma‘ruza mashg‘ulotlarida o‘zlashtirilgan bilimlar asosida talabalar jahon axborot resurslari veb saytlarini turli me‘zonlar (axborot ko‘lami, interfeys qulayligi) bo‘yicha tahlil qiladilar. Bunday veb saytlar, asosan ilmiy izlanuvchilar, o‘qituvchilar va talabalarga ilmiy-axborot xizmatini ko‘rsatuvchi oliy ta‘lim, ilmiy-tadqiqot markazlari va tijorat tashkilotlariga tegishli. Ularning qidiruv imkoniyatlari, axborotni taqdim etish va uzatishda xalqaro standartlarga amal qilinganligi ham tadqiq qilinadi. Shu bilan birga, bunday saytlardan axborot-kutubxona va o‘quv muassasalarida foydalanish bo‘yicha talabalar o‘zlarining xulosalarini beradilar.

#### **Ishni bajarish uchun zarur ko‘nikmalar**

Ushbu ishni bajarish uchun talabalar Internetdan foydalanish, zamonaviy qidiruv mexanizmlarini tushunish va axborot resurslarini tahlil qilishni bilishlari lozim.

#### **Amaliy ishining bosqichlari va tuzilmasi**

##### **1. KIRISH**

1.1. Axborot manbasining to‘liq va shartli qisqartirilgan nomlari (sayt, ma‘lumotlar bazasi nomi), saytni taqdim etuvchi tashkilot (kompaniya) haqida qisqacha ma‘lumot.

1.2. Axborot manbasining maqsadi va vazifalari haqida qisqacha ma‘lumot

##### **2. AXBOROT MANBASINING ASOSIY MAZMUNI**

2.1. Interfeys tavsifi

2.2. Qo‘llanilgan klassifikatsiya va kodlash usuli

2.3. Axborot tuzilmasi, manbalar

2.4. Axborotdan foydalanish shartlari

### 3. FOYDALANUVCHI YO‘RIQNOMASI VA FOYDALANISHGA OID TAVSIYALAR

3.1. Ma’lumot qidirish bosqichlari

3.2. Qidirish bo‘yicha misol

3.3. Foydalanishga oid tavsiyalar

#### Amaliy ishni bajarish uchun adabiyotlar ro‘yxati

1. AGRICOLA-Agricultural On-Line Access  
<http://agricola.nal.usda.gov/>
2. AGRIS - International Information System for the Agricultural Sciences and Technology <http://www.fao.org/agris>
3. Alexander Street Press <http://www.alexanderstreet.com/>
4. American Chemical Society ACS Publications  
<http://pubs.acs.org/>
5. Annual Reviews Annual Reviews Science Collection  
<http://www.arjournals.annualreviews.org/action/showJournals>
6. Association for Computing Machinery (ACM)  
<http://portal.acm.org/> <http://portal.acm.org/dl.cfm>
7. CAB International CAB Abstracts  
<http://www.cabi.org/datapage.asp?iDocID=165>
8. ScienceDirect <http://www.sciencedirect.com/>
9. Encyclopaedia Britannica
10. Engineering Village <http://www.engineeringvillage2.org>
11. Euromonitor International Inc.
12. Passport GMID (Global Market Information Database)  
<http://www.euromonitor.com/PassportGmid>
13. Lexis-Nexis <http://www.lexisnexis.com>
14. Methods in Enzymology ScienceDirect:  
<http://www.sciencedirect.com/science/bookseries/00766879>
15. Project MUSE <http://muse.jhu.edu/>
16. ScienceDirect [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com) Scitation  
<http://scitation.aip.org/>
17. Scopus <http://www.scopus.com>
18. SPIE Digital Library <http://spiedl.org/>
19. Springer <http://ebooks.springerlink.com/> Dostup k elektronnyim knigam - po adresu <http://www.springerlink.com/books>
20. Dostup k International Tables of Cristallography- po adresu:  
<http://it.iucr.org/>

21. Dostup ko vsem spravochnikam Landolt-Boernstein (LB) - po adresu: <http://www.landolt-boernstein.com/>

22. Dostup k bazam dannyx ZentralBlatt Matematik (ZM) - po adresu: <http://www.zentralblatt-math.org/zmath/en>

23. Dostup k bazam Medical Image Database: Image MD - po adresu: <http://www.images.md>

24. The American Association for the Advancement of Science (AAAS) <http://www.sciencemag.org/>

25. OECD Organizatsiya ekonomicheskogo sotrudnichestva i razvitiya [http://oecdmoscoworg.83.com1.ru/oecd\\_i.html](http://oecdmoscoworg.83.com1.ru/oecd_i.html)

26. The Premium Collection: Oxford Reference Online [http://www.oxfordreference.com/pages/Subjects\\_and\\_Titles\\_2F](http://www.oxfordreference.com/pages/Subjects_and_Titles_2F)

## **2-amaliy ish**

### **MAVZU: JAHON ELEKTRON AXBOROT RESURSLARIGA KIRISH SHAROITLARI VA XUQUQIY SHARTLARINI O‘RGANISH.**

**Amaliy ishning maqsadi.** Elektron axborot resurslari uchun litsenzion kelishuv tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Amaliy ishni tashkil qilish vositalari:** Shaxsiy kompyuter, MS Office, Internet

#### **Amaliy ishnining qisqacha mazmuni**

Talabalar “Elektron ilmiy-ta’limiy resurslarning huquqiy himoyasi. “Mualliflik huquqlari va turdoshlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni” nomli ma’ruza mashg‘ulotida o‘zlashtirilgan bilimlar asosida axborot-kutubxona muassasasi va asar mualliflari o‘rtasida litsenzion shartnoma tuzadilar. Ishda kelishuvlarning standart shakllaridan foydalaniladi.

#### **Ishni bajarish uchun zarur ko‘nikmalar**

Talabalar elektron resurslar uchun mualliflik huquqlari to‘g‘risida milliy va xorijiy qonunlarni hamda xalqaro talablarni bilishlari talab etiladi.

#### **Amaliy ishnining ishining bosqichlari va tuzilmasi**

##### **1. KIRISH**

1.1. Axborot manbasining to‘liq va shartli qisqartirilgan nomlari.

1.2. Axborot manbasi egasining maqsadi va vazifalari haqida qisqacha ma’lumot

## **2. AXBOROT MANBASINING ASOSIY MAZMUNI VA LITSENZION KELISHUV**

2.1. Hujjat tavsifi (muallif, asar shakli, tuzilmasi, dolzarbligi va boshq.)

2.2. Hujjatdan foydalanish shartlari

### **Amaliy ishni bajarish uchun adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: № O‘RQ - 42. 2006 y. 20 iyul // Xalq so‘zi.- 2006.- 21 iyul.

2. Электронные документы: создание и использование в публичных библиотеках: справ. Научн. Ред. Профессор Р.С. Гиляровский, проф. Г.Ф. Гордукалова. – СПб.: Профессия, 2007. – 664 с. – Серия «Библиотеки»).

3. Интеллектуальная собственность в киберпространстве. Сборник аналитических материалов проекта «Право и общество в цифровую эпоху». Составител: Евгений Алтовский. МОО ВПП ЮНЕСКО «Информация для всех» [www.ifap.ru](http://www.ifap.ru). 2006.

4. Авторские права на электронные издания: Сборник справочно-методических материалов.- Под редакцией М.А. Рахматуллаева.- Ташкент. Ташкентский государственный юридический институт. 2013.- 250 с.

### **3- Amaliy ish**

**MAVZU: EBSCO Information Services, ProQuest bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.**

**Amaliy ishning maqsadi.** Yetakchi davlatlardagi axborot-kutubxona muassasalarining elektron resurslari va xizmatlarini tahlil qilish. Horijiy ma’lumotlar bazasi bilan ishlash texnologiyasi

**Amaliy ishni tashkil qilish vositalari.** Shaxsiy kompyuter, Internet.

#### **Amaliy ishning qisqacha mazmuni**

Ma’ruza mashg‘ulotlarida o‘zlashtirilgan bilimlar asosida talabalar yetakchi davlatlardagi axborot-kutubxon muassasalarining elektron resurslari va xizmatlarini turli me’zonlar (axborot ko‘lami, mazmuni, qidiruv imkoniyatlari, axborotni taqdim etish va uzatishda xalqaro standartlarga amal qilinganligi) bo‘yicha baholaydilar va tahlil qiladilar. Shu bilan birga, bunday resurslar axborot-kutubxona va o‘quv



muassasalarida foydalanish bo'yicha talabalar o'zlarining xulosalarini beradilar.

### **Ishni bajarish uchun zarur ko'nikmalar**

Ushbu ishni bajarish uchun talabalar Internetdan foydalanish, zamonaviy qidiruv mexanizmlarini tushunish va axborot resurslarini tahlil qilishni bilishlari lozim.

### **Amaliy ishning bosqichlari va tuzilmasi**

#### **1. KIRISH**

1.1. Axborot manbasining to'liq va shartli qisqartirilgan nomlari (sayt, ma'lumotlar bazasi nomi), saytni taqdim etuvchi muassasa haqida qisqacha ma'lumot. EBSCO Information Services, ProQuest

1.2. Axborot manbasining maqsadi va vazifalari haqida qisqacha ma'lumot

#### **2. AXBOROT MANBASINING ASOSIY MAZMUNI**

2.1. Interfeys tavsifi

2.2. Qo'llanilgan klassifikatsiya va kodlash usuli

2.3. Axborot tuzilmasi, manbalar

2.4. Axborotdan foydalanish shartlari

#### **3. FOYDALANUVCHI YO'RIQNOMASI VA FOYDALANISHGA OID TAVSIYALAR**

3.1. Ma'lumot qidirish bosqichlari

3.2. Qidirish bo'yicha misol

3.3. Foydalanishga oid tavsiyalar

#### **Amaliy ishlarni bajarish uchun adabiyotlar ro'yxati**

1. ProQuest <http://www.proquest.co.uk/en-UK/>

2. ProQuest Digital Dissertations and Theses

[www.proquest.com/products\\_umi/dissertations](http://www.proquest.com/products_umi/dissertations)

3. <http://www.loc.gov>

4. <http://www.nlr.ru:8101/>

5. <http://www.konbib.nl> -

6. <http://utlib.ee/>

7. <http://uwh.lib.msu.su>

8. <http://www.harvard.edu/home/>

9. [library.html](#),

10. <http://www.rls.ox.ac.uk>,

11. <http://www.dsn-asu.ru/arw/library/>

12. <http://www.libfl.ras.ru/>

13. <http://gpntb.ippi.ras.ru/>

14. <http://www.kb.nl/kb/manuscripts/>

## 4-Amaliy ish

### **MAVZU: SPRINGER NATURE BAZALARI BILAN ISHLASH KO'NIKMALARIGA EGA BO'LISH.**

**Amaliy ishning maqsadi:** Ilmiy-ta'limiy resurslarni ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi mashhur xorijiy nashriyotlar vazifalari va ularning ma'lumotlar bazalarini tahlil qilish.

**Amaliy ishni tashkil qilish vositalari:** shaxsiy kompyuter, Internet, MS Office.

#### **Amaliy ishning qisqacha mazmuni**

Ma'ruza mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilimlar asosida talabalar jahon axborot resurslari (SPRINGER SCIENCE AND BUSINESS MEDIA, CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS, NATURE PUBLISHING GROUP, OXFORD UNIVERSITY PRESS, va boshq.) faoliyati, maqsadi va yo'nalishlarini turli me'zonlar (axborot ko'lami, interfeys qulayligi) bo'yicha tahlil qiladilar. Ularning qidiruv imkoniyatlari, axborotni taqdim etish va uzatishda xalqaro standartlarga amal qilinganligi ham tadqiq qilinadi. Shu bilan birga, bunday saytlardan axborot-kutubxona va o'quv muassasalarida foydalanish bo'yicha talabalar o'zlarining xulosalarini beradilar. Talabalar individual topshiriqlar asosida taqdimot tayyorlaydilar va himoya qiladilar.

#### **Ishni bajarish uchun zarur ko'nikmalar**

Ushbu ishni bajarish uchun talabalar Internetdan foydalanish, zamonaviy qidiruv mexanizmlarini tushunish va axborot resurslarini tahlil qilishni bilishlari lozim.

#### **Amaliy ishning bosqichlari va tuzilmasi**

##### **1. KIRISH**

1.1. Kompaniyaning to'liq nomi, tarixi va faoliyati haqida qisqa ma'lumot.

1.2. Kompaniyaning maqsadi va vazifalari

##### **2. AXBOROT MANBASINING ASOSIY MAZMUNI**

2.1. Interfeys tavsifi

2.2. Axborot tuzilmasi, manbalar

##### **3. MA'LUMOTLAR BAZASIDA FOYDALANISH SHARTLARI VA XIZMATLARI**

3.1. Xizmatlar va shartlar

3.2. Ma'lumot qidirish bosqichlari

3.3. Qidirish bo'yicha misol

3.4. Foydalanishga oid tavsiyalar

## **Amaliy ishlarni bajarish uchun adabiyotlar ro‘yxati**

1. Springer <http://ebooks.springerlink.com/> Dostup k elektronim knigam - po adresu <http://www.springerlink.com/books>
2. <http://www.springerlink.com/>
3. *Oxford Islamic Studies Online* [www.oxfordislamicstudies.com](http://www.oxfordislamicstudies.com)
4. Oxford Scholarship Online  
<http://www.oxfordscholarship.com//oso/public/index.html>
5. The Premium Collection: Oxford Reference Online  
[http://www.oxfordreference.com/pages/Subjects and Titles 2F](http://www.oxfordreference.com/pages/Subjects_and_Titles_2F)
6. <http://www.springerlink.com/>
7. Ovid [www.ovid.com](http://www.ovid.com)
8. Oxford Online Reference <http://www.oxfordreference.com>
9. *Oxford Islamic Studies Online*  
[www.oxfordislamicstudies.com](http://www.oxfordislamicstudies.com)
10. Oxford Scholarship Online  
<http://www.oxfordscholarship.com//oso/public/index.html>
11. Oxford University Press Oxford Journals  
<http://oxfordjournals.org/>
12. Project MUSE <http://muse.jhu.edu/>
13. JSTOR <http://www.jstor.org>
14. EMERALD [www.emeraldinsight.com](http://www.emeraldinsight.com)
15. Cambridge Scientific Abstracts [www.csa.com](http://www.csa.com)
16. Alexander Street Press <http://www.alexanderstreet.com/>
17. <http://agricola.nal.usda.gov/>
18. American Physical Society <http://www.aps.org/>
19. American Psychological Association <http://www.apa.org/>
27. [www.ebscohost.com](http://www.ebscohost.com)
28. *BioOne* [www.bioone.org](http://www.bioone.org)
29. Taylor & Francis Group <http://www.informaworld.com/>
30. Sage <http://www.sagepub.com/>
31. Cambridge University Press <http://www.cambridge.org/>
20. JSTOR <http://www.jstor.org>.
21. Nature Publishing Group <http://www.nature.com/npg/>

## 5 -Amaliy ish

### MAVZU: ANALITIK TIZIMLARI. CLARIVATE ANALYTICS (WEB OF SCIENCE), YELSEVIER (SCOPUS)

**Amaliy ishning maqsadi:** Ilmiy-ta'limiy resurslarni ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi mashhur xorijiy nashriyotlar vazifalari va ularning ma'lumotlar bazalarini tahlil qilish.

**Amaliy ishni tashkil qilish vositalari:** shaxsiy kompyuter, Internet, MS Office.

#### **Amaliy ishning qisqacha mazmuni**

Ma'ruza mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilimlar asosida talabalar jahon axborot resurslari (CLARIVATE ANALYTICS (WEB OF SCIENCE), YELSEVIER (SCOPUS) faoliyati, maqsadi va yo'nalishlarini turli me'zonlar (axborot ko'lami, interfeys qulayligi) bo'yicha tahlil qiladilar. Ularning qidiruv imkoniyatlari, axborotni taqdim etish va uzatishda xalqaro standartlarga amal qilinganligi ham tadqiq qilinadi. Shu bilan birga, bunday saytlardan axborot-kutubxona va o'quv muassasalarida foydalanish bo'yicha talabalar o'zlarining xulosalarini beradilar. Talabalar individual topshiriqlar asosida taqdimot tayyorlaydilar va himoya qiladilar.

#### **Ishni bajarish uchun zarur ko'nikmalar**

Ushbu ishni bajarish uchun talabalar Internetdan foydalanish, zamonaviy qidiruv mexanizmlarini tushunish va axborot resurslarini tahlil qilishni bilishlari lozim.

#### **Amaliy ishning bosqichlari va tuzilmasi**

##### **1. KIRISH**

1.1. Kompaniyaning to'liq nomi, tarixi va faoliyati haqida qisqa ma'lumot.

1.2. Kompaniyaning maqsadi va vazifalari

##### **2. AXBOROT MANBASINING ASOSIY MAZMUNI**

2.1. Interfeys tavsifi

2.2. Axborot tuzilmasi, manbalar

##### **3. MA'LUMOTLAR BAZASIDA FOYDALANISH SHARTLARI VA XIZMATLARI**

3.1. Xizmatlar va shartlar

3.2. Ma'lumot qidirish bosqichlari

3.3. Qidirish bo'yicha misol

3.4. Foydalanishga oid tavsiyalar

## **Amaliy ishni bajarish uchun adabiyotlar ro'yxati**

1. Raxmatullayev M. Ganiyeva B. Jahon axborot resurslari.- Toshkent: 2019.-186 b.
2. Raxmatullayev M. Ganiyeva B. Salayeva Y. Immetriya asoslari.- Monografiya.-T.: Yosh kuch, 2021.-82 b
3. Рахматуллаев М.А. Мировые информационные ресурсы: Методическое пособие.-Тошкент: Фан ва технология, 2017.-196 стр.-ISBN978-9943-11-402-9
4. Scopus <http://www.Scopus.com>
5. Science Direct <http://www.sciencedirect.com>
6. Scitation <http://scitation.aip.org/>

## **6 -Amaliy ish**

### **MAVZU: ROSSIYA ELEKTRON NASHRLARI. IVIS, E-LIBRARY VA BOSHQALAR BILAN ISHLASH KO'NIKMALARIGA EGA BO'LISH.**

**Amaliy ishning maqsadi:** Ilmiy-ta'limiy resurslarni ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi mashhur xorijiy nashriyotlar vazifalari va ularning ma'lumotlar bazalarini tahlil qilish.

**Amaliy ishni tashkil qilish vositalari:** shaxsiy kompyuter, Internet, MS Office.

#### **Amaliy ishning qisqacha mazmuni**

Ma'ruza mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilimlar asosida talabalar jahon axborot resurslari (ROSSIYA ELEKTRON NASHRLARI. IVIS, E-LIBRARY VA BOSHQALAR BILAN ISHLASH) faoliyati, maqsadi va yo'nalishlarini turli me'zonlar (axborot ko'lami, interfeys qulayligi) bo'yicha tahlil qiladilar. Ularning qidiruv imkoniyatlari, axborotni taqdim etish va uzatishda xalqaro standartlarga amal qilinganligi ham tadqiq qilinadi. Shu bilan birga, bunday saytlardan axborot-kutubxona va o'quv muassasalarida foydalanish bo'yicha talabalar o'zlarining xulosalarini beradilar. Talabalar individual topshiriqlar asosida taqdimot tayyorlaydilar va himoya qiladilar.

#### **Ishni bajarish uchun zarur ko'nikmalar**

Ushbu ishni bajarish uchun talabalar Internetdan foydalanish, zamonaviy qidiruv mexanizmlarini tushunish va axborot resurslarini tahlil qilishni bilishlari lozim.

## **Amaliy ishning bosqichlari va tuzilmasi**

### **4. KIRISH**

4.1. Kompaniyaning to'liq nomi, tarixi va faoliyati haqida qisqa ma'lumot.

4.2. Kompaniyaning maqsadi va vazifalari

### **5. AXBOROT MANBASINING ASOSIY MAZMUNI**

5.1. Interfeys tavsifi

5.2. Axborot tuzilmasi, manbalar

### **6. MA'LUMOTLAR BAZASIDA FOYDALANISH SHARTLARI VA XIZMATLARI**

6.1. Xizmatlar va shartlar

6.2. Ma'lumot qidirish bosqichlari

6.3. Qidirish bo'yicha misol

6.4. Foydalanishga oid tavsiyalar

#### **Amaliy ishlarni bajarish uchun adabiyotlar ro'yxati**

1. Рахматуллаев М.А. Зарубежные электронные научно-образовательные ресурсы в Узбекистане //Технологии создания и использования научно-технической и научно-образовательной информации в сети электронных библиотек.- Ташкент: Сборник. Изд. Национальной Библиотеки Узбекистана, 2010.- с.50-67.

2. Научно-образовательная информация в сети электронных библиотек «Вестник БАЕ» Научно-практический журнал. М.: Российская государственная библиотека. №2 , 2011. 25-26с.

3. <http://www.eifl.net>

4. [www.library.yale.edu/consortia](http://www.library.yale.edu/consortia)

5. <http://www.physik.fu-berlin.de/library/ICOLC-00.html>

6. <http://www.lib.helsinki.fi/finelib/eicolc.html>

7. <http://www.deflink.dk/e-icolc/>

8. National Network of Libraries of Medicine (NN/LM)

<http://nnlm.gov>

9. <https://arbicon.ru>

10. <http://www.lib.helsinki.fi/finelib/english>

11. [www.metro.org](http://www.metro.org)

12. <http://blc.org>

13. [www.lmba.lt](http://www.lmba.lt)

14. [http://liswiki.org/wiki/Alphabetical\\_List\\_of\\_Library\\_Consortia](http://liswiki.org/wiki/Alphabetical_List_of_Library_Consortia)

## 7-Amaliy ish

### MAVZU: OCHIQ AXBOROT RESURSLARI BILAN ISHLASH KO'NIKMALARIGA EGA BO'LISH

**Amaliy ishning maqsadi:** Ochiq axborot resurslari va qidiruv vositalarini tahlil qilish.

**Amaliy ishni tashkil qilish vositalari:** shaxsiy kompyuter, Internet, MS Office.

#### **Amaliy ishning qisqacha mazmuni**

Ma'ruza mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilimlar asosida talabalar Open Access (OA) harakati tarixi bilan tanishadilar, ochiq axborot resurslari manbalarini, ularda axborot taqdim etish shakllarini, ochiq jurnallarda maqola chop etish imkoniyatlarini tahlil qiladilar. Shu bilan birga, talabalar individual topshiriq asosida ochiq resurslar manbasini o'rganib, ularni yurtimiz kutubxonalarida qo'llash bo'yicha o'zlarining taklif va xulosalarini beradilar.

#### **Ishni bajarish uchun zarur ko'nikmalar**

Ushbu ishni bajarish uchun talabalar OA manbalardan foydalanish, Internet va zamonaviy qidiruv mexanizmlarini tushunish va axborot resurslarini tahlil qilishni bilishlari lozim.

#### **Amaliy ishning bosqichlari va tuzilmasi**

##### **1. KIRISH**

1.1. OA manbasining to'liq nomi, tarixi va faoliyati haqida qisqa ma'lumot.

1.2. OA manbasining maqsadi va vazifalari

##### **2. AXBOROT MANBASINING ASOSIY MAZMUNI**

2.1. OA interfeysi tavsifi

2.2. Axborot tuzilmasi, manbalar

##### **3. MA'LUMOTLAR BAZASIDA FOYDALANISH SHARTLARI VA XIZMATLARI**

3.1. Xizmatlar va shartlar

3.2. Ma'lumot qidirish bosqichlari

3.3. Qidirish bo'yicha misol

3.4. Foydalanishga oid tavsiyalar

## **Amaliy ishni bajarish uchun adabiyotlar ro'yxati**

1. <https://openaccess.mpg.de/Berlin-Declaration>
2. <http://www.ssrn.com>
3. <http://www.sherpa.ac.uk/romeo/>
4. <http://www.opendoar.org/>
5. <http://www.base-search.net/>
6. [www.oaj.cas.cn](http://www.oaj.cas.cn)
7. <http://www.doaj.org>
8. <http://cnx.org/>
9. <http://ocw.mit.edu/index.htm>
10. <https://www.khanacademy.org/>
11. <https://p2pu.org/en/>
12. <http://www.jorum.ac.uk/>
13. <http://www.merlot.org/merlot/index.htm>
14. <http://www.ndlr.ie/>
15. <http://www.ocwconsortium.org/>
16. <http://www.oercommons.org/>
17. <http://www.open.edu/openlearn/>
18. <http://videlectures.net/>
19. <http://www.open-access.net.cn/>
20. <http://www.who.int/hinari>
21. <http://www.aginternetnetwork.org>
22. <http://arxiv.org/>
23. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni: № O'RQ - 280. 2011y. 13 apr. // Xalq so'zi.- 2011.- 14 apr.
2. Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni: № O'RQ - 42. 2006 y. 20 iyul // Xalq so'zi.- 2006.- 21 iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son Qarori "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida" // Lex uz: <http://www.lex.uz/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida Qarori.-2017 yil 13 sentyabr.- (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 38-son, 1029-modda)
5. Bar-Ilan J. Informetrics at the beginning of the 21st century – A review // Journal of Informetrics. – 2008. – Vol. 2. – Iss. 1. – P. 1–52.
6. Borgman C. L., Furner J. Scholarly Communication and Bibliometrics // Annual Review of Information Science and Technology. – 2002. – Vol. 36. – P. 3–72.
7. Davis M., Wilson C. S., Horn A. Informing Decision-Making in Libraries: Informetric Research as Input to LIS Education and Practice // Australian Academic & Research Libraries. – 2005. – Vol. 46. – № 4. – P. 197–213.
8. Delasalle J. Research evaluation: bibliometrics and the librarian [Electronic resource] // SCONUL Focus. – 2011. – № 53. – P. 15–19. – URL: <http://www.sconul.ac.uk/publications/newsletter/53/5.pdf>
9. Eugene Garfield, The Agony and the Ecstasy—The History and Meaning of the Journal Impact Factor// Springer, page 5.
10. Методические рекомендации по подготовке и оформлению научных статей в журналах, индексируемых в международных наукометрических базах данных / Ассоциация научных редакторов и издателей; под общ. ред. О.В. Кирилловой. М, 2017. 144 с. (Прил.).

11. Rahmatullayev M. Ganiyeva B. Jahon axborot resurslari.-Toshkent: Aloqachi, 2019.-186 b.
12. Rahmatullayev M. Ganiyeva B. Salayeva Y. Immetriya asoslari.- Monografiya.-T.: Yosh kuch, 2021.-82 b.
13. Рахматуллаев М.А. Мировые информационные ресурсы: Методическое пособие.-Тошкент: Фан ва технология, 2017.-196 с.- ISBN978-9943-11-402-9
14. Рахматуллаев М.А. Информационные технологии в библиотеках. Методическое пособие по разработке проектов с использованием новых информационных технологий.-Ташкент: Национальная библиотека Узбекистана, 2003.- 272 с.
15. Каримов У., Рахматуллаев М.А. Электрон кутубхона: яратиш технологияси ва ресурсларидан фойдаланиш. (Монография).-Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2010.-136 б.
16. Новицкий А. В., Резниченко В. А., Проскудина Г. Ю. Создание научных архивов с помощью системы ЕПринтс // Российский научный электронный журнал «Электронные библиотеки». [Электронный ресурс]. URL: <http://www.elbib.ru/index.phtml?page=elbib/rus/journal> (дата обращения: 22.01.2010).
17. Технологии создания и использования научно-образовательной информации в сети электронных библиотек: Ежегодный сборник. /По редакцией М.А. Рахматуллаева . – Т.: E-LINE, 2013. – 130 с.
18. The Mathematical Foundation of Bibliometrics. Chapter Four. Nicolas DeBellis. Bibliometrics and Citation Analysis. From the Science Citation Index to Cybermetrics. 2009. Pp 75-141
19. Рахматуллаев М.А. Информационное обеспечение университетов в корпоративной библиотечной сети “SOCIETY, INTEGRATION, EDUCATION”. ROCEEDING of the International Scientific Conference. Volume II. May 23-24, 2014. Rezekne. Latvia. ISSN 1691-5887. 333-342 p.
20. Рахматуллаев М.А. Проблемы и решения по организации открытого доступа к информационным ресурсам: Сборник. //Технологии создания и использования научно-образовательной информации в сети электронных библиотек.-Ташкент: Изд. Национальной Библиотеки Узбекистана, 2011.- с.7-14.

21. Рахматуллаев М.А. Научно-образовательная информация в сети электронных библиотек //Вестник БАЕ Научно-практический журнал. М.: Российская государственная библиотека. №2 , 2011. 25-26с.
22. Рахматуллаев М.А. Эволюция информационных технологий в библиотеках Узбекистана//KUTUBXONA.UZ.- № 3(19) .- с. 15-21
23. Рахматуллаев М.А Еронина Е. Научно-образовательные ресурсы для информационно-библиотечных учреждений в онлайн-доступе// Электрон кутубхона тармоқларида илмий-таълимий ахборотлар яратиш ва улардан фойдаланиш технологиялари=Technologies of scientific and educational information development and use in the network of electronic libraries= Технологии создания и использования научно-образовательной информации в сети электронных библиотек: Тўплам /Масъул муҳаррир М.А. Раҳматуллаев. – Т.: ООО «E-LINE PRESS», 2013. – 130 б. 7-25 с.
24. Руководство по наукометрии: индикаторы развития науки и технологии: [монография] М.А. Акоев, В.А. Маркусова, О.В. Москалева, В.В. Писляков. [под редакцией М.А. Акоева]. – Екатеринбург: изд-во Урал. ун-та, 2014. – 250 с.
25. Гибридные журналы открытого доступа / В. М. Московкин // Научно-техническая информация. Сер. 1. Организация и методика информационной работы. – 2008. – № 11. – С. 22-25. [Moskovkin\\_nti0811.pdf](#) (329 Кб)
26. Институциональные политики открытого доступа к результатам научных исследований / В.М. Московкин // Научно-техническая информация. Сер. 1. Организация и методика информационной работы. – 2008. – № 12. – С. 7-11. [Moskovkin\\_nti0812.pdf](#) (522 Кб)
27. From Michael Kurtz, American Scientist Open Access Forum, 28 September 2005 <http://users.ecs.soton.ac.uk/harnad/Hypermail/Amsci/4807.html>
28. Берлинская Декларация об открытом доступе к научному и гуманитарному знанию / Berlin Declaration on Open Access to Knowledge in the Sciences and Humanities. [Электронный ресурс]. URL: [http://www.mpg.de/pdf/openaccess/BerlinDeclaration\\_en.pdf](http://www.mpg.de/pdf/openaccess/BerlinDeclaration_en.pdf) (дата обращения: 16.12.2009).
29. Московкин В.М. Механизмы и инструменты открытого доступа к научному и гуманитарному знанию. [http://www.slidefinder.net/m/механизмы\\_инструменты\\_открытого\\_доступа\\_научному/3373291](http://www.slidefinder.net/m/механизмы_инструменты_открытого_доступа_научному/3373291)

30. <https://www.doi.org/>.
31. <http://shareill.org/managing-your-ill-operation/library-networks-and-consortia/> vse vedúšie bibliotéchnye konsorsiumy mira
32. AGRICOLA-Agricultural On-Line Access <http://agricola.nal.usda.gov/>
33. AGRIS - International Information System for the Agricultural Sciences and Technology <http://www.fao.org/agris>
34. Alexander Street Press <http://www.alexanderstreet.com/>
35. American Chemical Society ACS Publications <http://pubs.acs.org/>
36. Annual Reviews Annual Reviews Science Collection <http://www.arjournals.annualreviews.org/action/showJournals>
37. Association for Computing Machinery (ACM) <http://portal.acm.org/> <http://portal.acm.org/dl.cfm>
38. CAB International CAB Abstracts <http://www.cabi.org/datapage.asp?iDocID=165>
39. ScienceDirect <http://www.sciencedirect.com/>
40. Encyclopaedia Britannica. <https://www.britannica.com/>
41. Engineering Village <http://www.engineeringvillage2.org>
42. Methods in Enzymology ScienceDirect: <http://www.sciencedirect.com/science/bookseries/00766879>
43. Project MUSE <http://muse.jhu.edu/>
44. ScienceDirect [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com) Scitation <http://scitation.aip.org/>
45. Scopus <http://www.scopus.com>
46. SPIE Digital Library <http://spiedl.org/>
47. Springer <http://ebooks.springerlink.com/> Dostup k elektronnym knigam - po adresu <http://www.springerlink.com/books>
48. Dostup k International Tables of Crystallography- po adresu: <http://it.iucr.org/>
49. Dostup ko vsem spravochnikom Landolt-Boernstein (LB) - po adresu: <http://www.landolt-boernstein.com/>
50. Dostup k bazam dannykh Zentralblatt Matematik (ZM) - po adresu: <http://www.zentralblatt-math.org/zmath/en>
51. Dostup k bazam Medical Image Database: Image MD - po adresu: <http://www.images.md>
52. The American Association for the Advancement of Science (AAAS) <http://www.sciencemag.org/>
53. OECD Organizatsiya ekonomicheskogo sotrudnichestva i razvitiya [http://oecdmoscoworg.83.com1.ru/oecd\\_i.html](http://oecdmoscoworg.83.com1.ru/oecd_i.html)

54. The Premium Collection: Oxford Reference Online  
[http://www.oxfordreference.com/pages/Subjects and Titles 2F](http://www.oxfordreference.com/pages/Subjects_and_Titles_2F)
55. <http://www.loc.gov>
56. <http://www.harvard.edu/home/>
57. <http://www.dsn-asu.ru/arw/library/>
58. <http://www.libfl.ras.ru/>
59. <http://gpntb.ippi.ras.ru/>
60. <http://www.scsmi.rssi.ru/>
61. <http://www.sci-nnov.ru/library/>
62. <http://www.kb.nl/kb/manuscripts/>
63. [www.ifap.ru](http://www.ifap.ru).
64. ProQuest Digital Dissertations and Theses  
[www.proquest.com/products\\_umi/dissertations](http://www.proquest.com/products_umi/dissertations)
65. *Oxford Islamic Studies Online* [www.oxfordislamicstudies.com](http://www.oxfordislamicstudies.com)
66. <http://www.oxfordscholarship.com//oso/public/index.html>
67. The Premium Collection: Oxford Reference Online  
[http://www.oxfordreference.com/pages/Subjects and Titles 2F](http://www.oxfordreference.com/pages/Subjects_and_Titles_2F)
68. <http://www.springerlink.com/>
69. Oxford Online Reference <http://www.oxfordreference.com>
70. <http://www.oxfordscholarship.com//oso/public/index.html>
71. Oxford University Press Oxford Journals <http://oxfordjournals.org/>
72. JSTOR <http://www.jstor.org>
73. EMERALD [www.emeraldinsight.com](http://www.emeraldinsight.com)
74. Cambridge Scientific Abstracts [www.csa.com](http://www.csa.com)
75. Alexander Street Press <http://www.alexanderstreet.com/>
76. American Physical Society <http://www.aps.org/>
77. [www.ebscohost.com](http://www.ebscohost.com)
78. *BioOne* [www.bioone.org](http://www.bioone.org)
79. Taylor & Francis Group <http://www.informaworld.com/>
80. Sage <http://www.sagepub.com/>
81. Cambridge University Press <http://www.cambridge.org/>
82. JSTOR <http://www.jstor.org>.
83. Nature Publishing Group <http://www.nature.com/npg/>
84. <https://openaccess.mpg.de/Berlin-Declaration>

## GLOSSARIY

**AVTOMATLASHTIRISH** (automation) – jarayonlarni amalga oshirish uchun avtomatlashtirish vositalarini tadbqiq etish, inson mehnati unumdorligini oshirish maqsadida bu mehnatning bir qismini EHM orqali bajariladigan tadbqirlar tizimi. Bu ishlar zamonaviy hisoblash texnikasi va ilmiy usullardan foydalangan holda bajariladi.

**MUALLIFLIK HUQUQI** – Ijodiy asar muallifining mazkur asarni boshqalar tomonidan foydalanishini tartibga soluvchi huquqlari majmui. Xalqaro muvofiqlashtirishga erishilgan bo‘lsada, bu xuquqlar turli mamlakatlarda turlicha. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin: iqtisodiy va ahloqiy xuquqlar.

**eiFL** - jahonda kutubxona resurslariga murojaatni himoyalaydigan notijorat tashkilot.

**IFLA** - Kutubxona assotsiatsiyalari va tashkilotlari Xalqaro federatsiyasi - International Federation of Library Associations and Institutions.

IFLA veb-saytida ta’kidlangan: «Kutubxona assotsiatsiyalari va tashkilotlari kutubxona va axborot markazlari, hamda foydalanuvchilar manfaatlarini yo‘lidagi yetakchi xalqaro tashkilot».

**MA’LUMOTLAR BAZASINING ADMINISTRATORI (database administrator)** – ma’lumotlar bazasi haqida to‘liq axborotga ega bo‘lgan va uni yuritish, foydalanish, rivojlantirishga javobgar lavozimli shaxs (yoki shaxslar guruxi).

**SERVER ADMINISTRATORI** – Web serverni beto‘xtov ishlashini ta’minlovchi, xatolarni to‘g‘rilovchi, server va ma’lumotlarni himoya qiluvchi mutaxassis. Talab qilinadigan malaka: Serverni sozlash va o‘rnatilgan operatsion tizimni bilish.

**LOYIHA ADMINISTRATORI** – Internet loyahasini, Web sahifa barcha faol elementlarni, Web saytni to‘ldirib borish va nazorat qilish, boshqarish va mualliflik huquqini himoya qilish vazifalarini bajaruvchi mutaxassis.

**KUTUBXONA ASSOTSIATSIYASI** – Ma’lum bir maqsadga erishish uchun yig‘ilgan va kutubxona ishi bilan bog‘langan mutaxassislar (tashkilotlar) yig‘ini.

**BIBLIOGRAFIK MA’LUMOTLAR BAZASI**-kutubxonada saqlanayotgan kitoblar, jurnallar va boshqa hujjatlar yozuvlaridan iborat bo‘lgan ma’lumotlar bazasi.

**MA’LUMOTLAR BAZASI (data base)** - ma’lum bir qoidalar asosida tashkil qilingan, umumiy tavsif, saqlash va o‘zgartirish tamoyillari

nazarda tutilgan ma'lumotlar majmui. Ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi orqali murojaat qilinadi.

**MA'LUMOTLAR BANKI (data bank)** – ma'lumotlarni markazlashgan holda saqlash va jamoa bo'lib foydalanishda ishlatiladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimi. Bank tarkibiga, bir yoki bir nechta ma'lumotlar bazasi, ma'lumotlar bazasi ma'lumotnomasi, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi, so'rovlar kutubxonasi va amaliy dasturlar kiradi.

**BRAUZER (brouzer)** - grafik va matnli axborotlarni ko'rish va qidirishga mo'ljallangan dasturiy vosita.

**MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGI (data cesurity)** - ma'lumot va dasturlarni buzish, o'zgartirish yoki o'chirib tashlash maqsadida ruxsatsiz kirishdan himoya qilish. Ma'lumotlar xavfsizligi apparat, dasturiy, kriptografik usullar, himoya vositalari va kompleks tashkiliy tadbirlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

**VIRTUAL REALLIK**-multimediya vositasi yordamida (tovush, rang, tomosha effekti) reallik illyuziyasini hosil qilish.

**VOIS** – butun jahon intellektual mulk tashkiloti.

**DOMEN** – Internetdagi tarmoq yoki kompyuter nomi, @ belgisidan o'ngda turuvchi belgilar yig'indisi. Nomlarning domenli tizimi kompyuterning harflardan iborat nomini raqamli adresga aylantirish imkonini beradi.

**KIRISH (access)** – magnitli tashuvchilarda uzoq muddatli saqlanayotgan ma'lumotlarni qidirib topish, olish va bu ma'lumotlarni elektron xotiraga joylashtirish. Kompyuterlar elektron xotiraga joylashgan ma'lumotlar ustida operatsiyalar bajara oladi.

**KO'CHIRIB O'TKAZISH** - maxsus ma'lumotlarni o'qib olish jarayoni. Kutubxona tizimlaridagi turli manbalardan mashina o'qiy oladigan katalog yozuvlarini katalogga ko'chirib o'tkazish va uni doimo yangilash.

**AXBOROT-KUTUBXONA INFRASTRUKTURASI (AKI)** foydalanuvchilarni talablarini bajarishda respublika axborot-kutubxona muassasalarini (AKM) yagona standartlar asosida ma'lumotlarni almashish, tavsiflash, axborotni saqlash, uzatish maqsadida yagona tarmoqqa birlashuvi.

**IDENTIFIKATOR (identifier)**- leksik birlik, til elementi nomi sifatida foydalaniladi; ma'lumotga beriladigan nom; lotin harflari va raqamlaridan iborat bo'lib, harfdan boshlanadi.

**NASHRIYOT** — tashkilot (davlat, jamoat, kooperativ yoki xususiy) — adabiyot, san’at, muzika yoki fan sohasida faoliyat yurituvchi va mahsulotlari ko‘paytiruvchi, tarqatishi mumkin bo‘lgan media-kompaniya. Nashr (mahsulot) bosma hamda elektron (raqamli) ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Nashriyot mahsulotini tarqatish savdo kanallari, Internet orqali hamda bevosita noshir tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Tarqatish nashriyotning maqsadlari va biznes modeli asosida pullik va bepul bo‘lishi mumkin.

**INTRANET (intranet)** - Internet tarmog‘i mahsulotlari va texnologiyalaridan foydalanuvchi va korporativ axborot resurslariga o‘z foydalanuvchilarini kirishini ta’minlovchi taqsimlangan (vedomstveniy) hisoblash tarmog‘i.

**AXBOROT RESURSI** - axborot materialini matn, ovozli, yoki tasvir xolidagi ko‘rinishlarining yig‘indisi.

**AXBOROT-KUTUBXONA RESURSI** — moddiy ob’ektda matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta’minlash uchun rekvizitlarga ega bo‘lgan axborot. Bu yerda «identifikatsiyalash uchun rekvizitlar» tushunchasi muhim o‘rin tutadi, chunki, mazkur ko‘rsatkichlar asosida hujjatni (identifikatsiyalash) topish mumkin. Rekvizitlar qat’iy qoidalar va kutubxonachilik standartlari asosida qo‘yiladi. Bu an’anaviy hamda elektron, virtual kutubxonalaridagi ma’lumotlar qidiruv jarayonini formallashtirishda muhim jihatdir.

**ILMIY-TA’LIMiy AXBOROT RESURSLARI** — litsenziyalangan hamda taqrizdan o‘tgan ilmiy-ta’limiy axborotlar (jurnallar, maqola, kitoblar, multimedia va boshqalar) axborot resurslardir. Ilmiy-ta’limiy axborot resurslari muhim qiymatga ega bo‘lgan intellektual manbadir. Odatda har bir hujjat ma’lumotlar bazasi, jurnal, tegishli to‘plamlarga kiritilishidan avval yetakchi olimlar, mutaxassislar tomonidan saralashdan o‘tadi. Bu hujjatlar tizimlashtiriladi, kataloglashtiriladi va ilmiy-ta’limiy axborotlarning ma’lumot bazalariga joylashtiriladi. Asosiy foydalanuvchilari ilmiy xodimlar, o‘qituvchilar, magistr va talabalardir.

**KATALOG** - kutubxona fondidagi barcha hujjatlar ro‘yxati. Avtomatlashtirilgan tizimda bibliografik ma’lumotlar bazasini tashkil qiladi.

**KONSORSIUM** — bu muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun tashkilotlarni birlashishidir.



**KUTUBXONALAR KONSORSIUMI** – bu kutubxona assotsiatsiyalari va axborot markazlarini axborot resurslarini, jumladan, elektron resurslarni birgalikda xarid qilish va ulardan foydalanish, Internet navigatsiyalar, ma'lumotlar bazasidan foydalanishni o'rgatish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni amalga oshirish uchun birlashuvidir.

**KATALOGLASHTIRISH (catalogization)** – ma'lumotlarni katalogga kiritish; hisoblash texnikasida fayl haqidagi yoki kutubxona haqidagi axborotni kiritish. Kutubxona katalogini yaratish jarayoni. Odatda integral kutubxona tizimi moduli hisoblanadi.

**KONVERTATSIYA (translation)** – bir xil tipdagi ma'lumotlarni boshqa tipga o'tkazish. Bunda quyidagi operatsiyalar nazarda tutiladi: (ma'lumotlarni tahrir qilish, belgilarni o'chirish, punktuatsiya, belgilar va qatorlar inversiyasiga ishlov berish), ma'lumotlarni shakl o'zgartirish (formatlarning adres ko'rsatkichlarini, parametrlarini, metkalarni perekodirovka qilish va o'zgartirish), ma'lumotlarni qayta tashkil qilish (dekompozitsiya, kompanovka, yangi elementlar hosil qilish), fayllarni qayta tashkil qilish.

**KOMPYUTERLASHTIRISH (computerization)** – kompyuter mahsulotlari va xizmatlari industriyasining rivojlanish jarayoni va ulardan jamiyatda keng foydalanish. Korxonalar, muassasalar va o'quv yurtlarini hisoblash texnikasi bilan ta'minlash va aholi umumta'lim darajasini kompyuterlarni qo'llash orqali yuksaltirish.

**KOMMUNIKATIV FORMAT, ALMASHUV FORMATI (exchange format)** – turli tashkilotlarning avtomatlashtirilgan tizimlari o'rtasida ma'lumot almashishni ta'minlaydigan mashina o'qiy oladigan format (MARC formatlar, UNIMARC, USMARC).

**KOMMUNIKATSION ALOQA (Communication link)** – ikki qurilmaning elektrik va mantiqiy ulanishi. LVS da kommunikatsion aloqa bu jo'natuvchidan qabul qiluvchigacha bosib o'tgan yo'li.

**KORPORATIV KUTUBXONA-AXBOROT TARMOG'I (YOKI TIZIMI)** – bu ma'muriy va xo'jalik yuritish jihatdan mustaqil bo'lgan bir qator ARMLarning (kutubxonalar, axborot markazlari) ixtiyoriylik asosida tashkil topgan birlashmasi bo'lib, ular funksional masalalarni, xususan, foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishni takomillashtirish va shunga o'xshash bir qator masalalarni hal qiladilar. Bunda birinchi navbatda, kutubxona-axborot resurslarini yaratish va ulardan birgalikda foydalanish, jumladan, bosma nashrlarni hamda kichik tirajdagi adabiyotlarni korporativ kataloglashtirish

masalalari yechiladi. Bunday tipdagi kooperatsiyada korporatsiya a'zolari orasida hech qanday moliyaviy munosabatlar bo'lmaydi.

**KONTENT-MENEDJER (KONTENT-OPERATOR)** – kiruvchi axborotni tahrirlashni tashkil etadigan, xamda axborotni to'ldirilishini kuzatuvchi mutaxassis bo'lib, savollarga javob beradi, foydalanuvchilarga maslahatlar beradi. Malaka – dasturlash tillarini bilishi, ma'lumotlar bazasi tuzilishini bilish talab etildi.

**KORREKTOR** – butun matnli materiallarni tekshiruvchi mutaxassis, bunga grafik ob'ektlar izohi, tugmalar, baner ham kiradi. Talab etilayotgan malaka: bozor xususiyatini bilish, Internetdagi axborot-qidiruv tilini bilish, Internetda reklama tashuvchilar qoidasini bilish talab etiladi.

**QAYTA YOZILMAYDIGAN KOMPAKT DISK (CD-ROM COMPACT DISK READ ONLI MEMORY)** – matnli, grafik, tovushli va turli axborotlarni saqlashga mo'ljallangan optik disk. U taqsimlanayotgan dasturiy ta'minot, ma'lumotnoma materiallari, bibliografik ma'lumotlar bazasini saqlash vositasi hisoblanadi.

**LOKAL HISOBLASH TARMOG'I (LOCAL AREANETWORK)** – Uzatish kanallari (optik tolali kabel va boshqalar) orqali o'zaro bog'langan kompyuterlar majmui, kompyuter orqali boshqariladigan qurilmalar, bir yoki bir necha ob'ekt (binolar) doirasidagi axborot resurslaridan birgalikda foydalanish maqsadida birlashtiriladi.

**LITSENZIYA** – shartnoma huquqi bilan boshqariladigan ma'lum bir faoliyat olib borishga formal huquq beradigan ruxsatnomadir. Litsenziya – elektron mahsulotlar: kompyuter dasturlari, kompyuter o'yinlari, onlayn filmlar, musiqiy asarlar, ma'lumot bazalaridan foydalanish huquqini berishni boshqarishda qo'llaniladi. Bu shuni anglatadiki, kutubxonaga kelgan ko'pgina elektron materiallar litsenziya shartnomalari bilan boshqariladi.

**MENYU (MENU)** – bir yoki bir necha tugmachasi bosish orqali, variantlardan birini tanlash imkonini beruvchi ro'yxat tasviri.

**MASHINA O'QIY OLADIGAN KATALOG (MARC)** – bibliografik ma'lumotlarni almashtirishning xalqaro formati, bibliografik ma'lumotlarni markirovka qilish sxemasi. Uning bir qator milliy variantlari bor. Masalan, USMARC (AQSh kongress kutubxonasida ishlatiladi), UKMARC (Buyuk Britaniya kutubxonasida ishlatiladi) va boshqalar. UNIMARC boshqa MARC formatlar bilan mos holda ishlay oladigan universal format hisoblanadi. Multimedia-

tizimning matnlar, grafiklar, tasvir va tovushli ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati.

**MULTIMEDIA (multimedia)** – tizimni matnli, grafik, tasviriy, ovozli ma'lumotlar bilan ishlash hajmi. Matn, ovozli, grafik, video kabi turli xil axborotni shakllantirish, saqlash va ijro etish imkoniyatiga ega kompyuter texnologiyalari.

**JAHON AXBOROT RESURSLARI** – dunyoning yetakchi nashriyotlarining axborot resurslaridir. Bu axborot qidiruv tizimiga ega jamiyat tomonidan tan olingan tizimlashtirilgan va tuzilmalashgan ilmiy-ta'limiy resurslarning ma'lumot bazalaridir. Jahon axborot resurslari ro'yxatiga yuqori impakt faktorli jurnallar, iqtibos keltirilgan ilmiy monografiyalar, darsliklar, maqolalar kiritilgan.

**ERKIN FOYDALANISH (Open Access)** – kitobxonlarga internet orqali bepul foydalanish, o'qish, yuklab olish, nus'ha ko'chirish, tarqatish va chop etish, qidirish, indekslash, ma'lumot sifatida uzatish, yoki qonun doirasida boshqa maqsadlarda moliyaviy va texnik to'siqlarsiz muallifga iqtibos keltirgan xolda foydalanish. «Erkin foydalanish»dagi jurnallar doimo bepul bo'lmasligi mumkin. Ular muallif gonorarlari to'lash uchun, jurnalni o'z vazifalarini bajarish uchun qo'llash maqsadida narh ham o'rnatishlari mumkin, lekin erkin foydalanishda bo'lib, kitobxonlar, foydalanuvchilar uchun ochiqdir. Foydalanish uchun hech qanday to'lov talab etilmaydigan jurnallarni ba'zan «gibrid kirish» jurnallari deb ham ataydilar.

**QIDIRISH SHAKLI** – hujjat mazmuni ta'rifi, axborot-qidiruv tili qoidasiga bo'yicha qilingan, qidiruvni amalga oshirish uchun uning mazmuni va ko'rinishining muhim belgilari aks etadigan hujjat.

**PORTAL** – 1) Internetdagi boshqa resurslarga murojatning boshlang'ich nuqtasini o'zida aks ettirgan ko'p xizmatli sayt [43 (439 b.)].2) ko'plab turli kichik o'lchamdagi tematik bo'limlarni o'z ichiga olgan yoki ko'p bo'lmagan miqdordagi mustaqil loyihalarni o'z ichiga olgan yetarli katta virtual massiv axborotlari.

**AMALIY DASTURIY TA'MINOT (Application software)** – kompyuter foydalanuvchisi uchun aniq vazifani bajaradigan dastur yoki tanlov dasturi. Matnlarga ishlov beruvchi va elektron jadvallar bilan ishlovchi dastur – amaliy dasturiy ta'minot misollari.

**PLAGIAT (Plagiarism)** – o'zga muallif asarini atayin havolalarsiz, muallifga iqtiboslikni ko'rsatmasdan shaxsiy asar sifatida ko'rsatishga urinish. Plagiat – bu nus'ha ko'chirishning bir turi bo'lib, mualliflik xuquqini albatta buzilishi hisoblanadi. O'z faoliyatida (ilmiy maqola,

kitob, hisobot, ma'ruzalarni yozishda) axborot resurslaridan foydalanish jarayonida mualliflik xuquqlariga qat'iy rioya qilish lozim. Hujjatni yaratishda foydalanilgan manbalarga albatta havolalar keltirish lozim. Plagiarizmni tushunish yangi axborot resurslarini, ayniqsa ilmiy-axborot resurslarini yaratishda muhim hisoblanadi. Mualliflik xuquqlari har bir mamlakatda mualliflik va turdosh xuquqlari to'risidagi tegishli qonunlar bilan muhofaza qilinadi.

**AXBOROT ALMASHINUVI (Data communications)** – axborotni alfavit-raqamli simvollardan iborat bo'lgan elektrik impulslar ko'rinishida yetkazib berish, aks ettiradi. Ma'lumotlarni uzatish audio va video signallarini uzatishdan farq qiladi.

**PROVAYDER (provider)** – tarmoq, axborot, internet, elektron pochta xizmatlari ta'minotchisi.

**PROTOKOL TSR/IP** – internet tarmog'ida kompyuter tomonidan foydalaniladigan protokol. TCP (Transmission Control Protocol) – uzatishlarni nazorat qilish protokoli – protsessorlar orasidagi aloqani ta'minlashga javobgar. IP (Internet Protocol) – Internet protokoli – kompyuterlari orasidagi aloqalarni ta'minlashga javobgar.

**PROTOKOL Z39.50** – ma'lumotlarni uzatishda yuqori darajada ishlaydigan 7 pog'onalik model va turli xil dasturlar ishlash, foydalanuvchilarga ma'lumotlar bazasidan to'liq qidirish imkonini beradigan protokol.

**INTERNET PROMOUTERI** – Internet loyiha marketingi bilan shug'ullanadigan mutaxassis, reklama tadbirlari tashkiloti, axborot mahsulotlari bozorini o'rganish, katalog resurslari va qidiruv tizimlari loyihalarida saytni ro'yxatdan o'tkazish, baner almashish tarmog'ida qatnashish va h.k.

**XIZMATCHI FAYL PROTSESSORI (FILE SERVER)** – tarmoqdagi boshqa kompyuterlarga xizmat ko'rsatuvchi, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash qobiliyatiga ega kompyuter.

**TEZAURUS** – axborot qidiruvini samarali olib borish uchun turli darajadagi tushunchalar orasida aloqa bog'lovchi tizimlashtirilgan lug'at.

**SHARTNOMA** – ikki taraflama bajarilish va amal qilish muddatlari borasidagi kelishuvi asosidagi xususiy, yuridik majburiy bitimdir.

**SHLYUZ (GATEWAY)** – Turli ikki tarmoqni birlashtiruvchi qurilma. Shlyuz o'z protsessoriga va xotirasiga ega va u kanallar sig'imini, protokolni o'zgartira oladi.

**SHTRIXLI KODLASHTIRISH (BARCODE)** – alfavit-raqamli va raqamli ma'lumotlarni turli qalinlikdagi vertikal chiziqlar vositasida kodlashtirish. Maxsus qurilma yordamida o'qiladi va aniqlanadi va kompyuter yordamida ishlov beriladi. Shtrixli kodlash kutubxonalarda berilayotgan adabiyotlarni hisobga olishda ishlatiladi.

**FTP (FILE TRANSFER PROTOCOL)** – (fayllarni uzatuvchi protokol) ixtiyoriy faylni uzeldagi mashinaga ko'chirib o'tkazuvchi ish quroli. Modem orqali fayldan nusxa olib o'z kompyuteringizga yozib qo'yishingiz mumkin.

**ISBN (INTERNATIONAL STANDARD BOOK NUMBER)** – Kitob nashrlarining xalqaro standarti.

**ISSN (INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER)** – Davriy nashrlar xalqaro standart nomeri

**OPAC (ONLINE PUBLIC ACCESS CATALOG)** – jamoatchilik tomonidan foydalaniladigan tezkor katalog. Elektron kutubxona katalogidagi qidiruv tizimi.

**ON-LINE** – real vaqt rejimida kirish (hozir va shu yerda).

**UMUMIY LITSENZIYA** – individual muhokamalarsiz oldindan kelishilgan shartlar asosida ko'p sondagi asarlardan foydalanishga ruxsat beradi.

Mualliflik huquqi ma'nosida bunday litsenziya bir guruhga kiruvchi asarlar uchun beriladi. Shu yo'l bilan bir qancha asarlardan foydalanish ruxsatini olish soddalashadi, chunki bir guruhga kiruvchi barcha asarlar uchun bitta kelishuv imzolanadi.

Odatda minglab, xattoki millionlab himoyalangan asarlardan foydalanishni jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan bunday litsenziya beriladi.

**URL (Uniform Resource locator)** – bu WWW dagi adres, resursni ko'rsatuvchi birlik ko'rsatkich Internet orqali kirish mumkin bo'lgan fayl yoki resurs nomi. O'z ichiga, protokol nomi, uzel nomi va faylgacha bo'lgan yo'lni oladi. Http, ftp, gopher, wais – tipik protokollar hisoblanadi.

**HTML (HYPER TEXT MARKUP LANGUAGE)** – tarmoqni skanerlash dasturi (browser) orqali kirib, gipertekst yozish tili; axborotlarni tarmoqda gipertekstli sahifa ko'rinishida joylashtirishda foydalaniladi,

**HTML-koder (HTML - verstalshik)** – stil va grafik bezash xususiyatlarini HTML-kod ko'rinishida hisobga olgan holda loyiha umumiy konsepsiyasini amalga oshiruvchi mutaxassis. Talab

qilinayotgan malaka; HTML, DHTML va CSS tilini mukammal bilish, WEB saytni testdan o'tkaza olish, monitordagi ranglarni tanlay olish, barcha aktiv elementlar (gipersilki, knopkalar, banerlar va boshqalar) faoliyatini nazorat qila olish.

**www (Word Wide Web)** – butun jahon tarmog'i, Internet qism bo'limi, gipermatnli aloqaga asoslangan, Internet bilan aloqa bo'lganda qidiruvga osonlik bilan kirishuvchi tarmoq.

**Web-programmist** – Web sayt uchun qo'yilgan masalaga mos, maxsus dastur tuzuvchi mutaxassis. Talab qilinadigan malaka: Java, C/S Q Q, MuSQH, Rerl, RNR, ASP, SST, HTML va boshqa tillarni bilish. Web-site-Web tarmog'i axborot uzeli, ma'lum bir mavzu bo'yicha axborot beradi, biror bir shaxs yoki tashkilot tomonidan qo'llab quvvatlanadi

**Web site** – (boshqa variantlari: **vab-sayt, veb sayt, website, web site** yoki shunchaki **sayt**; ingl. *web* — “to'r” va *site* — „joy“) deb kompyuter tarmog'idagi bir elektron manzilda joylashgan elektron hujjatlar majmuiga aytiladi. Elektron manzil domen yoki IP shaklida bo'ladi. Veb saytni veb sahifadanfarqlash lozim: veb sahifa veb saytdagi sahifalardan biri.

## LITSENZION KELISHUV

\_\_\_\_\_ sh. «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_  
20\_\_y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar, F.I.Sh. *Axborot-kutubxona muassasasi rahbari (keyingi o‘rinlarda LITSENZIATOR)* \_\_\_\_\_ va muallif yoki asarga xuquq egasining F.I.Sh (keyingi o‘rinlarda MUALLIF) \_\_\_\_\_ «MUALLIFLIK VA TURDOSH HUQUQLARI» to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (21.07.2006 y. O‘ZRQ-42) ga amal qilgan holda

### 1. SHARTNOMA MAZMUNI

**LITSENZIATOR**ga MUALLIFning \_\_\_\_\_ asardan (keyingi o‘rinlarda ASAR) elektron formatda foydalanish uchun beriladigan mualliflik xuquqi quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi.

### 2. MAZKUR LITSENZIYA TOMONIDAN BERILADIGAN HUQUQLAR

MUALLIF asardan elektron shaklda foydalanishga quyidagi shartlar bajarilgach foydalanishga taqdim etadi (*tanlansin*):

1. LITSENZIATOR tomonidan asardan cheklovlarsiz foydalanish
2. Asarni raqamlashtirish
3. LITSENZIATORning lokal tarmog‘i orqali asarning elektron shaklidan bepul foydalanishga imkon yaratish.
4. LITSENZIATOR lokal tarmog‘i orqali asarning elektron shaklidan pullik foydalanishni yo‘lga qo‘yish
5. LITSENZIATOR saytiga asarni Internet orqali ochiq foydalanishga qo‘yish
6. LITSENZIATOR saytiga asarni Internet orqali pullik foydalanishga qo‘yish
7. Asarning elektron shaklidan LITSENZIATORning quyidagi \_\_\_\_\_ (bo‘lim nomlari) bo‘limlarida foydalanish
8. Asardan nus‘ha ko‘chirish huquqsiz foydalanish
9. Asardan boshqa muassasalarga tarqatish huquqsiz foydalanish
10. MUALLIFga asardan foydalanish statistikasini taqdim etish
11. Asardan foydalanishda foydalanuvchini ro‘yxatdan o‘tkazish shartiga amal qilish
12. Boshqa shartlar (ko‘rsatilsin) \_\_\_\_\_

Moddalarga tushuntirishlar ilovada keltirilgan

### 3.FOYDALANISH BO‘YICHA CHEKLOVLAR

LITSENZIATOR quyidagi huquqqa ega emas (*tanlansin*):

- modifikatsiyalash, adaptatsiya qilish, tarjima qilish, dekompiyatsiya himoyasini yechish, ASARdan nusxa ko‘chirish (mazkur Shartnomaning p.2 holatlarida ko‘rsatilgan holatlardan tashqari).

- Boshqalar (ko‘rsatilsin)

---

1. ASARni qayta sotish, ijaraga berish, uchinchi shaxslarga vaqtincha foydalanishga taqdim etish ruxsat etilmaydi.

#### **4. LITSENZION TO‘LOV**

LITSENZIATOR MUALLIF xaqi to‘lovini quyidagi miqdorda (tanlansin):

1. Bepul (to‘lovsiz);

2. Bir marotaba \_\_\_\_\_miqdorda

3. Resursdan foydalanish asosida tushgan mablag‘ning \_\_\_% (har oy, har kvartal, har yil va boshq.)

4. Boshqa \_\_\_\_\_

#### **5. LITSENZIATOR MAJBURIYATLARI**

LITSENZIATOR mazkur kelishuv shartlarini bajarishda quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

1. Mazkur litsenziya taqdim etadigan huquqlarga qat‘iy amal qilish (shartnoma doirasidan chiqmaslik);

2. Doimiy ravishda (muddatlarini ko‘rsatish, davriylik) MUALLIFga asardan foydalanish haqida ma‘lumot berib turish;

3. MUALLIFga o‘z vaqtida litsenzion to‘lovni (agar bu ko‘rsatilgan bo‘lsa) amalga oshirish;

4. MUALLIFni, tegishli yangi texnik va tashkiliy shartlar mavjud bo‘lganda, ayniqsa MUALLIF qiziqishlariga monand bo‘lsa ogohlantirib turish.

#### **6. MUALLIF MAJBURIYATLARI**

MUALLIF shartnoma shartlarini bajarishda quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

1. Asarga bo‘lgan mualliflik xuquqini tasdiqlash yuzasidan talab etiladigan hujjatlarni LITSENZIATORga taqdim etish;

2. Agar punktlarda Asardan foydalanish borasida LITSENZIATORga eksklyuziv xuquq berilgan bo‘lsa, boshqa tashkilot yoki shaxslarga foydalanish xuquqini bermasligi.

3. Boshqalar ko‘rsatilsin)\_\_\_\_\_

#### **7. KAFOLAT, MAJBURIYATLAR, ZARARLARNI QOPLASH**

1. MUALLIF LITSENZIATORGA Asardan foydalanish huquqini unga tegishli ekani haqida to‘liq kafolat berishi lozim;

2. LITSENZIATOR kelishuv shartlarini to‘liq bajarishga, moddalarda ko‘rsatilgan huquqlardan chetga chiqmasligi borasida kafolat beradi.



3. Kelishuv shartlari buzilgan holatlarda LITSENZIATOR MUALLIFga quyidagi summada \_\_\_\_\_ kompensatsiya to'lab berish majburiyatini oladi;

### **8. FORS-MAJOR**

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini favqulodda holatlar, tabiiy ofatlar, jumladan, yong'in, toshqin, zilzila va boshq. tufayli o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajara olmasalar majburiy javobgarlikdan ozod qilinadilar.

2. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan tomon darhol boshqa tomonni favqulodda vaziyat sharoitlari natijasida yuzaga kelgan holat borasida habardor qilishi lozim.

### **9. NIZOLARNI TARTIBGA SOLISH**

1. Ushbu bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki ma'lum darajada bajarilmagan holatlarda LITSENZIATOR va MUALLIF "Mualliflik va turdosh huquqlari to'g'risida" gi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatining huquqiy asoslari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

### **10. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATLARI**

1. Shartnoma ikki tomonning vakolatli vakillari tomonidan imzolangach kuchga kiradi.
2. Shartnoma \_\_\_\_\_ y. muddatgacha amal qiladi.
3. Zarurat tug'ilganda tomonlar ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishlari mumkin. Qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma shaklda rasmiylashtirilishi va tomonlar tomonidan imzolanishi shart.

### **11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI**

#### **LITSENZIATOR**

Adres:

Tel.:

X/s:

Bank:

MFO:

INN:

Direktor \_\_\_\_\_

M.O'.

#### **MUALLIF**

(F.I.O)

Adres: \_\_\_\_\_

Tel.: \_\_\_\_\_

Pasport \_\_\_\_\_

RS: \_\_\_\_\_

INN: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ (imzo)

**Shartnomaning 2 moddasiga tushuntirishlar**

<b>№</b>	<b>Foydalanish shartlari</b>	<b>Sharhlar</b>
1.	Asardan cheklanmagan ravishda foydalanish	Asarni qayta nashr etish, raqamlashtirish, nus'ha ko'chirish, tarqatish, boshqa tashkilotlarga, shu jumladan, axborot kutubxona muassasalariga taqdim etish
2.	Asarni raqamlashtirish	Muallif Asarni raqamli formatga o'tkazishga ruxsat beradi
3.	LITSENZIATORning lokal tarmog'i orqali kitobxonlarga Asarning elektron shaklidan bepul foydalanishga imkon yaratish	Asarning elektron shakli faqatgina LITSENZIATORning lokal tarmog'i doirasida shaxsiy kompyuterlarda bepul foydalanishga imkon yaratadi
4.	LITSENZIATORning lokal tarmog'i orqali kitobxonlarga Asardan pullik foydalanishga imkon yaratish	Asarning elektron shakli faqatgina LITSENZIATORning lokal tarmog'i doirasida shaxsiy kompyuterlarda pullik foydalanishga imkon yaratadi
5.	Asarni LITSENZIATORning saytiga erkin foydalanish uchun joylashtirish	Asar LITSENZIATOR saytiga joylashtirilib Internet orqali erkin foydalanish mumkin
6.	Asarni LITSENZIATORning saytiga Internet orqali pullik foydalanish uchun joylashtirish	Asar LITSENZIATORning saytiga Internet orqali pullik foydalanish uchun joylashtirish
7.	Asarning elektron shaklidan LITSENZIATORning quyidagi bo'lim(lar) da _____ (bo'lim nomlari)	Asarning elektron shakli faqat ma'lum bir bo'limda (xizmatchilari, kitobxonlari) foydalanish uchun tadim etiladi. Masalan, noyob nashrlar bo'limi yoki axborot-bibliografiya bo'limi va boshq.
8.	Asardan nus'ha olish xuquqisiz foydalanish	Muallif nus'ha ko'chirish xuquqini bermaydi (chop etish, axborot tashuvchilarga yozish (fleshka, SD, DVD va boshq.).
9.	Asardan foydalanishda nusxalarini boshqa tashkilotlarga tarqatish xuquqisiz	Muallif Asar nus'hasini boshqa tashkilotlarga tarqatish xuquqiga ega emas
10.	Asarga murojaatlar statistikasi haqidagi hisobotni taqdim etish	Muallifga Asardan foydalanish bo'yicha barcha statistik axborot beriladi, qanday kategoriya kitobxonlar murojaat qildi, asardan sotilish miqdori)

11.	Asarning barcha foydalanuvchilarini ro'yxatdan o'tkazish sharti asosida	LITSENZIATOR Asarning barcha kitobxonlarini ro'yxatdan o'tkazadi va Muallif talabi asosida Muallifga ro'yxat taqdim etadi
12.	Boshqa shartlar (ko'rsatilsin)	Muallifning Asardan foydalanish borasidagi LITSENZIATOR bilan qo'shimcha talablari

Ilova 1.2

**LITSENZION KELISHUV № \_\_\_\_\_**  
**elektron resursdan foydalanish bo'yicha** (resurs nomi)

g. \_\_\_\_\_ «\_\_\_»  
\_\_\_\_\_ 20\_\_g.

Mazkur litsenzion kelishuv (dalee "Soglashenie") yuridik hujjat hisoblanadi. U LITSENZIATOR (qabul qilayotgan tashkilot) hamda (elektron resursga mualliflik xuquqi egasi bo'lgan tashkilot), keyingi o'rinlarda MUALLIFLIK HUQUQI EGASI o'rtasida yuqorida ko'rsatilgan elektron resurs (keyingi o'rinlarda RESURS) bo'yicha, RESURSnı joylashtirish natijasida siz mazkur Kelishuv shartlarini qabul qilasiz. Agar siz mazkur Kelishuv shartlarini qabul qilmasangiz, mazkur RESURSDan foydalanish huquqiga ega emassiz. RESURS «MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLAR» to'g'risidagi 21.07.2006 y. 42-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni va intellektual mulkni himoya qilish borasidagi me'riy hujjatlar bilan himoyalanađı.

**1. Litsenzion huquqlar**

1.1 Mazkur Kelishuv RESURSGa egalik qilish: material yig'ish, chop etish, fragmentlardan nus'ha olish, materiallar bo'yicha to'plamlar chop etish huquqini beradi,.

1.2 Agar xato ro'y bersa va o'qilmasa, ta'mir talab etilgan holatlarda CD(DVD) disklarnı almashtirishga yo'l qo'yiladi.

**2. Mulk huquqlari**

2.1 RESURSDan sizning muassasada foydalanish uchun mulk egasiga aylanasiz.

2.2 RESURS ga bo'lgan intellektual huquq egaligi va uni sotishga bo'lgan huquq faqat MH egasiga beriladi.

**3. Foydalanish bo'yicha cheklolvar**

3.1 RESURS manbainı o'zgartirish, moslashtirish, tarjima qilish, dekompiyatsiya qilish, nus'ha ko'chirish (ushbu bitimning 1.2 p. da ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno) huquqiga ega emassiz.

3.2 RESURSnı uchinchi shaxslarga sotish, ijaraga berish, vaqtincha foydalanishga berishga yo'l qo'yilmaydi.

## TOMONLARNING Yuridik MANZILLARI VA REKVIZITLARI

### LITSENZIATOR

(Qabul qilayotgan tashkilot)

Adres:

Tel.:

X/s:

Bank:

MFO:

INN:

Direktor \_\_\_\_\_

### MUALLIF

(F.I.O)(RESURS egasi)

Adres: \_\_\_\_\_

Tel.: \_\_\_\_\_

X/s:

Bank:

MFO:

INN:

Direktor \_\_\_\_\_

Ilova 1.3

### LITSENZION KELISHUV № \_\_\_\_\_

#### asardan foydalanish yuzasidan

\_\_\_\_\_ sh. \_\_\_\_\_ 20\_\_\_\_ y.

Biz, \_\_\_\_\_ quyida \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ chekuvchilar,

\_\_\_\_\_ (Tashkilot vakili) direktor (direktor  
o‘rinbosari) \_\_\_\_\_ va asar muallifi

\_\_\_\_\_ (keyingi o‘rinlarda Muallif), MUALLIFLIK  
HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLAR» to‘g‘risidagi 21.07.2006 y. 42-  
sonli O‘RQ O‘zbekiston Respublikasi Qonuni doirasidagi talablarni inobatga  
olgan holda mazkur kelishuvni imzoladik. Muallif Tashkilotga o‘zining  
asarini quyidagi shartlar asosida taqdim etadi:

№	Foydalanish shartlari	Muallif imzosi
1.	Asardan cheklovlarsiz foydalanish	
2.	Asarni raqamlashtirish	
3.	Tashkilotning lokal tarmog‘i orqali kitobxonlarga asarning elektron shaklidan bepul foydalanish imkonini berish	
4.	Tashkilotning lokal tarmog‘i orqali kitobxonlarga asarning elektron versiyasidan pullik foydalanish imkonini berish	
5.	Asarni Tashkilot saytida Internet orqali erkin foydalanishga qo‘yish	
6.	Asarni Tashkilot saytida Internet orqali pullik foydalanishga qo‘yish	
7.	Asarning elektron shaklidan tashkilotning faqat _____ (bo‘lim nomi) bo‘limlarida foydalanishga ruxsat etiladi	

8.	Asardan nus'ha olish huquqisiz foydalanish	
9.	Asardan boshqa tashkilotlarga tarqatish huquqisiz foydalanishga ruxsat etish	
10.	Asarga bo'lgan murojaatlarni statistikasini yuritish va muallifga taqdim etish	
11.	Asarni barcha foydalanuvchilarini ro'yxatdan o'tkazish sharti asosida foydalanish	
12.	Boshqa shartlar (ko'rsatilsin) _____	

**TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA  
REKVIZITLARI**

**TASHKILOT**

Manzil: \_\_\_\_\_  
 Tel.: \_\_\_\_\_  
 H/R: \_\_\_\_\_  
 Bank: \_\_\_\_\_  
 MFO: \_\_\_\_\_  
 INN: \_\_\_\_\_  
 Direktor \_\_\_\_\_  
 p.o'.

**MUALLIF  
(F.I.Sh.)**

Manzil: \_\_\_\_\_  
 Tel.: \_\_\_\_\_  
 Pasport \_\_\_\_\_  
 H/R: \_\_\_\_\_  
 INN: \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_ (imzo)

**Kelishuvning 2-p. tushuntirishlar**

№	Foydalanish shartlari	Sharhlar
1.	ASARdan cheklovlarsiz foydalanish	Asarni qayta nashr etish, raqamlashtirish, nus'ha olish, tarqatish, boshqa Tashkilotlarga taqdim etish, jumladan, axborot-kutubxona muassasalariga
2.	ASARni raqamlashtirish	Muallif ASARni raqamli formatga o'tkazishga ruxsat beradi
3.	TASHKILOTning lokal tarmog'i orqali kitobxonlarga ASARning elektron shaklidan bepul foydalanishga imkon yaratish	ASARning elektron shakli faqatgina TASHKILOTning lokal tarmog'i doirasida shaxsiy kompyuterlarda bepul foydalanishga imkon yaratadi
4.	TASHKILOTning lokal tarmog'i orqali kitobxonlarga Asardan pullik foydalanishga imkon yaratish	Asarning elektron shakli faqatgina TASHKILOTning lokal tarmog'i doirasida shaxsiy kompyuterlarda pullik foydalanishga imkon yaratadi

5.	Asarni TASHKILOTning saytiga erkin foydalanish uchun joylashtirish	Asar TASHKILOT saytiga joylashtirilib, Internet orqali erkin foydalanish mumkin
6.	Asarni TASHKILOTning saytiga pullik foydalanish uchun joylashtirish	Asar TASHKILOT saytiga joylashtirilib, Internet orqali pullik foydalanish mumkin
7.	Asarning elektron shaklidan TASHKILOTning quyidagi bo‘lim(lar)da _____ __(bo‘lim nomlari)	Asarning elektron shakli faqat ma’lum bir bo‘limda (xizmatchilari, kitobxonlari) foydalanish uchun tadim etiladi. Masalan, noyob nashrlar bo‘limi yoki axborot-bibliografiya bo‘limi va boshq.
8.	ASARdan nus’ha olish huquqisiz foydalanish	Muallif nus’ha ko‘chirish huquqini bermaydi (chop etish, axborot tashuvchilarga yozish (fleshka, SD, DVD va boshq.).
9.	ASARdan foydalanishda nus’halarini boshqa tashkilotlarga tarqatish huquqisiz	Muallif Asar nus’hasini boshqa tashkilotlarga tarqatish huquqiga ega emas
10.	ASARga murojaatlar statistikasi haqidagi hisobotni taqdim etish	MUALLIFga ASARdan foydalanish bo‘yicha barcha statistik axborot beriladi, qanday kategoriya kitobxonlar murojaat qildi, asardan sotilish miqdori)
11.	ASARning barcha foydalanuvchilarini registratsiya qilish sharti asosida	TASHKILOT ASARning barcha kitobxonlarni registratsiya qiladi va MUALLIF talabi bo‘yicha taqdim etadi
12.	boshqa (ko‘rsatilsin)	MUALLIFning ASARdan foydalanish bo‘yicha TASHKILOT bilan kelishilgan qo‘shimcha talablari

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
<b>1. AXBOROT RESURSLARINING ASOSIY TUSHUNCHALARI</b>	
1.1. Axborot resurslari va axborot kutubxona resurslarining tushunchalari .....	<b>5</b>
1.2. Axborot resurslarining rivojlanish tendensiyalari. Elektron axborot resurslari .....	<b>11</b>
<b>2. JAHON AXBOROT RESURSLARI. YARATISH VA QIDIRISHNING TEXNOLOGIK JIHATI</b>	
2.1. Elektron ilmiy ta'limiy-resurslarni shakllantirish texnologiyasi .....	<b>20</b>
2.2. Korporativ tarmoqlarda axborot resurslarga murojaat .....	<b>25</b>
2.3. Axborot qidirish texnologiyalari.....	<b>27</b>
<b>3. AXBOROT RESURSLARINI ISHLATISHNING HUQUQIY JIHATLARI</b>	
3.1. Elektron ilmiy-ta'limiy resurslarning huquqiy himoyasi .....	<b>36</b>
3.2. Jahon elektron axborot resurslariga kirish sharoitlari va huquqiy shartlari .....	<b>39</b>
3.3. O'zbekistondagi axborot kutubxona muassasalarida elektron nashrlardan foydalanishning huquqiy jihatlari.....	<b>43</b>
<b>4. AXBOROT RESURSLARI VA KUTUBXONALAR KONSORSIUMLARI</b>	
4.1. Kutubxona konsorsiumlari. Elektron axborot resurslarini kutubxona konsorsiumida ishlatish .....	<b>54</b>
4.2. EIFL.NET xalqaro kutubxona konsorsiumi.....	<b>67</b>
4.3. "Ochiq axborot resurslari" dasturi. Xalqaro kutubxonalar uyushmalari.....	<b>70</b>
<b>5. ELEKTRON AXBOROT RESURSLARINI YETAKCHI ISHLAB CHIQARUVCHILARI VA ANALITIK TIZIMLARI</b>	
5.1. Muhim ilmiy-ta'limiy axborot manbalarining qisqacha tahlili. EBSCO Information Services.....	<b>81</b>
5.2. ProQuest kompaniyasi nashrlari .....	<b>86</b>
5.3. Springer Nature kompaniyasi nashrlari.....	<b>92</b>
5.4. Rossiya elektron nashrlari. «IVIS» (ИВИС) mahsulotlari. e-Library ва бошқалар. Literature Online (LION) .....	<b>102</b>
5.5. Fan va ta'limga oid analitik ma'lumot bazalari. Web of Science.....	<b>118</b>
5.6. SCOPUS analitik tizimida ishlash texnologiyasi .....	<b>127</b>

5.7. Scopus va WOS analitik tizimlarida mualliflik profillarini yaratish usullari.....	<b>131</b>
<b>6. JAHON AXBOROT RESURSLARINI ISHLATISH JIHATLARISCPUS</b>	
6.1. Elektron axborot resurslarini yaratish va ishlatish iqtisodiy jihatlari .	<b>152</b>
6.2. O‘zbekistonning jahon elektron axborot resurslari. ....	<b>158</b>
<b>“JAHON AXBOROT RESURSLARI” FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARI BO‘YICHA TAVSIYALAR .....</b>	<b>164</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>176</b>
<b>GLOSSARIY .....</b>	<b>181</b>
<b>ILOVALAR .....</b>	<b>190</b>



**B.I. GANIYEVA**

# **JAHON AXBOROT RESURSLARI**

(Darslik)

**Toshkent – «NIHOL PRINT» OK – 2021**

Muharrir: A.Tog‘ayev  
Tex. muharrir: F.Tog‘ayeva  
Musavvir: B.Esanov  
Musahhiha: O.Muxammadiyeva  
Kompyuterda  
sahifalovchi: G.Tog‘ayeva

9323



№ 7439-765f-47f1-7ea1-a683-4648-1314.  
Bosishga ruxsat etildi: 24.05.2021. Bichimi 60x841 /16.  
Shartli bosma tabog‘i 12,75. Nashr bosma tabog‘i 12,5.  
Adadi 60. Buyurtma № 55.

«Nihol print» Ok da chop etildi.  
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.